XVII asr boshlarida yana ashtarxoniy hukmdorlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayadi. Bunga Boqi Muhammaddan so'ng taxtga o'tirgan Vali Muhamamddan mahaliy amir va beklarning norozi bo'lishi, ichki kurashlar avj olib ketishi sabab bo'ldi. Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida bu vaziyat to'liqroq muhokama qilinadi. Unga ko'ra, 1611-yilda amrlardan Nodirbek, Bek o'g'li, Muhammad Boqi qalmoq hamda Hoja Hoshimlar qatorida Yalangto'sh Bahodir ham o'z harbiy qo'shini bilan Imomqulixon tomonga o'tadi [8. 3-b]. Katta harbiy kuchga ega bo'lgan amrlarning Imomqulixon tomonga o'tishi, uning bu kurashda g'alabasini ta'minlagan asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Natijada, mag'lubiyatga uchragan Vali Muhamamd Eron shohi Abbos I huzuriga qochib ketadi va undan hokimiyatni qaytarib olish uchun yordam so'raydi. Ko'plab hollarda Buxoroning taxtdan qulagan hukmdorlari Eron shohlaridan yordam olgan, bu esa muxolif tomonlarning safaviylar bilan yashirincha yaxshi aloqada bo'lganligidan dalolat berishi mumkin. Shunda yuqorida aytib o'tilgan Eron uchun qulay vaziyat vujudga keladi. Bundan unumli foydalangan Abbos I o'zining harbiylaridan 80 ming askarini Imomqulixonga qarshi yuboradi [6; c 81-81]. Bundan xabar topgan topgan Imomqulixon mag'lubiyatga uchrashini sezib, Balxga qochish uchun Qarshi shahriga borib o'rtnashadi. Shunda, vaziyatni yaxshi tushungan Yalangto'shbiy nazoratni qo'lga oladi va xalqni birlashtirish choralarini ko'ra boshlaydi. Shukurbiy saroy bilan birgalikda Yalangto'shbiy barcha ulamo va amirlarni Imomqulixonni qo'llab-quvvallashga va Eron safaviylariga qarshi birgalikda kurashga da'vat etadi. Ular birgalikda harbiy harakatlarni amalga oshirish uchun Qarshida turgan Imomqulixonni Samarqandga olib kelishadi [2; c107]. Bundan ko'rinadiki, ular birgalikda harakat qilish uchun hukmdorning asosiy safda bo'lishini nazarda tutishgan lekin shunday bo'lsa ham, bunda asosiy harakatlantiruvchi kuch Yalangto'sh Bahodir bo'lib qolaveradi.

Imomqulixonni Qarshida ekanligi Bahodir Yalangto'shni tezda qaror chiqarishga va qo'l ostidagi harbiylari, safdosh amirlar bilan birga dushmanga qarshi birlashish zaruratini yaxshi anglab yetganlar. Shu vaziyatda, Yalangto'shbiy nafaqat harbiy

qismni, balki din va raiyat ahlini ham birdamlikka chaqirgan yo'lboshchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa uning kelajakdagi faoliyatida muhim pog'ona vazifasini o'tagan bo'lishi mumkin.

Voqealar davomida, Eron qo'shinlari hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi Zarman mavzesiga to'xtaganda, Imomqulixon va Bahodir Yalangto'sh shaharni mudofaa qilish ishlarini boshlaydilar. Kurash natijasida ikki tomon o'rtasidagi kuchlar noteng ekanligi ma'lum bo'ladi. Aftidan, Buxoro qo'shini Eron harbiylariga nisbatan kam sonli bo'lgan. Shu sabali ham, Imomqulixon va Bahodir Yalangto'sh qozoq xonlari bo'lmish Abulay Sulton va Eshim sultonlardan yordam olishga majbur bo'lishadi. Vaholanki, ulardan Buxoroga qarshi kurashda Vali Muahmmad ham yordam so'ragan edi. Qulay vaziyatdan foydalangan qozoqlar ham, ikki maqsadda ya'ni: 1) oz sonli qo'shinni Samarqand mudofasiga yordamga yuborish; 2) askarlarning asosiy qismi bilan Movarounnahr shahar va qishloqlarini talash maqsadida kelishadi[8;4-b].

Mavjud vaziyatda, Buxoro tomondagilar ikki dushmanga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ladilar. Bu esa, ularning holatini yanada qiyinlashtirgan bo'lishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan, Yalangto'shbiy va Imomqulixon har ikki dushman ustidan ham g'alaba qozanadi. Bu g'alabani ta'minlagan omil sifatida Bahodir Yalangto'shni hamma kuchni bir joyga jamlab, tartib bilan harakat qilganligi bo'lgan bo'lishi mumkin. Natijada, Abulay Sulton Samarqand atrofini talab, Turkiston tomonga qaytib ketadi. Ishim Sulton esa hali ham Miyonqol hududida edi. Bu masalani bartaraf etish uchun Imomqulixon Bahodir Yalangto'sh va Shukurbiy inoq bilan maslahatlashadi. Imomqulixon Ishim sultonga Toshkent va Turkiston atrofidagi ba'zi yerlarni berish orqali qozoqlar xavfini bartaraf etadi. Shunday masalalarda Imomqulixon Yalangto'sh Bahodir bilan maslahatlashib turgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hukmdor Yalangto'shbiyning uzoqni ko'zlab chiqaradigan qarorlarini inobatga olgan va unda munosib tajriba borligiga ishongan bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Eron safaviylari mag'lubiyatga uchrashadi va qozoqlar masalasi ham hal qilinadi. Bu bilan Eron Buxoro xonligiga qarashli bo'lgan hududlarga nisbatan intilishidan vos kechmaydi. Keyinchalik ular Vali Muhammadning o'gli Rustam sultondan foydalanib, yana harbiy yurishni amalga oshirishni rejalashtirishadi.

Yalangto'shbiyning mamalakt tinchligi, chegaralar dahlsizligini ta'minlashdagi munosib xizmatlarini inobatga olgan Imomqulixon, uni 1612-yilda Samarqand hokimi vazifasiga tayinlaydi. Bu esa hozirgi Samarqand shahrining nafuzini belgilaydigan tarixda sodir bo'lgan eng muhim voqealardan biri bo'lgan desa, xato bo'lmaydi. Keyinroq Yalangto'shbiy otaliq vazifasiga tayinlanadi. Shu davrlarda ham u Imomqulixon bilan birga bir nechta janglarga qatnashadi. Eron tomondan yana bir dushman paydo bo'ladi. Bu Vali Muhammadning o'g'li Rustam sulton edi. Bu masala bevosita Bahodir Yalangto'shbiy ishtirokisiz hal etilmaydi. Chunki unda bunday muammolarni yechish va vujudga kelgan xavfni bartaraf etish borasida yetarlicha tajriba shakllangan edi. Tarixchi Bo'riboy Ahmedov Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilar ekan, unda aytilishicha, Vali Muahmmad Eron tomonga qochayotganda o'g'lini Marvda qoldirib ketgan edi[2;202-205]. Eronning qo'llashi natijasida Rustam Sulton Ubeyh va Shafelon viloyatlariga joylashib oladi va 1612-1622, 1631-yillar oralig'ida Balx, Seyston, Farah, Shibirg'on, Andxuy va Chehektu viloyatlariga tez-tez hujumlar uyushtirib turganligini ko'rishimiz mumkin [8;4-b]. Natijada bu holat mamalakt tinchligiga xavf solib turar edi. Imomqulixon vujudga kelgan vaziyatni bartaraf etish maqsadida bir necha marotaba elchi yuborishiga qaramasdan, ahvol o'zgarishsiz qolaveradi. Shunda vaziyat harbiy qo'shin yuborishni taqazo etar edi. Imomqulixon

Yalangto'shbiy boshchiligidagi qo'shinni Rustam sultonga qarshi yuboradi. Jangda mag'lubiyatga uchragan Rustam sulton Eronga qochib ketishga majbur bo'ladi va bu masala 1631-yilgacha hal etiladi.

1631-yilda Rustam sulton yana Balx atroflarida paydo bo'lib, uning janubi-g'arbiy chegaralariga hujumlar uyushtiradi. Bahodir Yalangto'sh yana harbiy yurishlar amalga oshirib "Meruchak" qal'asida uni qamal qiladi. Ikki tomon o'rtadagi jang Yalangto'sh Bahodir boshchiligidagi sulh tuzish bilan yakunlanadi va Rustam sulton Balxga xiroj to'lash sharti bilan qamal bekor qilinadi. Buxoroning Eron bilan bo'lgan munosabatlarda Bahodir Yalangto'sh asosiy o'rinni egallab, uning ishtirokida hal etilgan. Bunda olib borgan mohirona pozitsiyasi va qo'l ostidagi harbiy qo'shindan foydalanganligi Buxoro xonligining g'alabasini ta'minlagan.

Imomqulixonidan keyin taxtni egallagan Nodir Muhamamd (1642-1645) hukmronligi uzoqqa cho'zilmaydi. Uning yuritgan siyosatidan ko'pchilik amrlar, ulamolar, xususan, Yalangto'sh Bahodir ham norozi bo'ladi. Unga qarshi isyon ko'tarilib, taxtga uning ukasi Abdulazizxon o'tkaziladi. Nodir Muhamamd shunda Eronga qochib ketadi. Bu borada yana bir muhim ma'lumotni keltirib o'tish joizki, Rossiyaning qadimgi aktlar markaziy davlat arxivida keltirilgan hujjatda yozilishicha, Balx, Buxoro, Xivaga jo'natilgan rus elchisi Anisim Gribovning hisobotiga ko'ra, Hindiston shohi Shohjaxon bilan Buxoro xoni Abdulazizxon o'rtasida Balx hududi talash bo'lganligi va bu masala Bahodir Yalangto'sh amalga oshirgan tadbirlar orqali hal etilganligi yoziladi. A. Gribov 1646-yilning noyabrida Isfahonga kelganida u yerda Mashhaddan Eron shohi huzuriga kelgan Alloquli ismli chopar bilan ko'rishadi va bir qancha ma'lumotlarni yozib oladi. Unda aytilishicha, Shohjaxon Nodir Muahmmaddan Balxni tortib olganligidan xabar topgan Abdulazizxon va uning "yaqin kishisi" (hujjatda aynan shunday deyilgan va uning ismi "Ялантеш князь" deb berilgan) Yalangto'sh Bahodir Balxga keladi va uni qamal qiladi. Yalangto'shbiy Shohjaxon balxga yuborgan 30 ming ho'kizga ortilgan oziq-ovqat va mablag'ni Balxga o'tkazmasdan odamlarni qatl qiladi. Shunda Balxda qamalda qolgan hind qo'shini Mashhadda kutib turgan Nodir Muhamamdga elchi yuborib, Balxga kelsa shaharni unga topshirishini aytadi. Nodir Muhamamd Eron qo'shinidan yordam olgan edi va bu hindlarni qamaldan qutulib qolishi uchun chora bo'lishi ham mumkin edi.. Vaziyatni to'g'ri tushungan Yalangto'sh Bahodir Nodir Muhammadga Balxga kelmasligini buyuradi [8;7-b]. Xuddi shunday mazmundagi taklif Yalangto'shbiyga ham bildiriladi va unga 30 ming ho'kizga ortilgan mol-mulk vada qilinadi. Lekin ta'biy holki, Bahodir uni rad etadi. U qachon Balx egallansa, undagi mol-mulklar ham egallanishi va barcha hindlar qatl etilishini ogohlantirib quyadi.

Balx qamali davom etayotgan bir vaqtda Toshkent tomondan qozoqlardan Yangir sulton Buxoro tomonni harakatlanayotganligi haqidagi xabar yetib keladi. Natijada qo'shin qo'shin ikkiga bo'linib, Bahodir Yalangto'sh boshchiligidagi qo'shin Balxda qolib qamalni davom ettiradi, Abdulazizxon boshchiligidagi qism esa Buxoroga qozoqlarga qarshi turish uchun jo'nab ketadi. Bahodir Yalangto'sh dushmanga qarshi kurashda kuchlar notengligini hisobga olib, u ham Eron, ham qozoqlarni birgalikda hindlarga qarshi safarbar qilishni reja qiladi. Shu sababli ham Abdulazizxonga chopar jo'natib, qozoqlarni hindlarga qarshi ittifoq tuzishga ko'ndirishni buyuradi. Bunga rozi bo'lgan qozoqlar ham Balxga yetib keladi va Balxni qamal qilishda Yalangto'shbiyga yordam beradi [8;8-b].

Bunday vaziyatda Balx mudofasi hindlar tomonidan uzoqqa bormaydi va ular Balxdan haydab yuboriladi, Shunday qilib, mohir diplomatiyadan foydalangan Bahodir Yalangto'sh hindlarga qarshi, qozoq ulusi va Eronning birlashgan harbiy

ittifoqidan unumli foydalanadi. Bu yo'l tarixda kam uchraydigan diplomatik manevr bo'lib, faqatgina yaxshi tajribaga ega bo'lgan siyosat arboblarning qo'lidan kelishi mumkin. Mashhad yaqinida turgan Nodir Muhammadga Balx viloyati topshiriladi. Ko'rinib turibdiki, tashqi siyosiy aloqalarda Bahodir Yalangto'sh o'z o'rnida hukmdorga ham topshiriq bergan va kerakli harakatlarni amalga oshirgan.

Bahodir Yalangto'sh mamalakat daxlsizligini ta'minlash maqsadida shimoldagi dashtiqipchoqlik kuchlar- Yesimxon, Tursun sulton va Abulay sultonlarga qarshi ham harbiy yurishlarda ham hal qiluvchi kuch vazifasini bajargan va ko'p janglarda ular ustidan g'alaba qozongan. 1621-yilda Yalangto'shbiy Tursun sulton boshchiligidagi qozoq qo'shinlarini hujumini qaytargan ashtarxoniylar qo'shiniga boshchilik qiladi. Xattoki, 1643-yilda Bahodir Yalangto'sh va Abdurahmon devonbegi boshchiligidagi qo'shin Hozirgi Qozog'istonning janubi-sharqida joylashgan Urbuloqdagi hal qiluvchi jangda qalmoqlarning 50 minglik lashkarini yengan [3.5-s]. Amir Yalangto'sh uchta ashtarxoni hukmdor (Imomqulixon, Nodir Muhammad, Abdulazizxon) davrida amalda hukmdorlarga deyarli bo'ysunmagan. Uning o'zi mustaqil ravishda Eronning Xuroson, Afg'oniston, Toshkent va Turkiston yerlariga harbiy safarlar uyushtirib, u yerdagi mahaliy qabilalar isyonlarini bostirgan[4;2-b]. 1648-yilning kuzida Abdulazizxonning 200 ming kishilik qo'shiniga boshchilik qilgan Bahodir Yalangto'sh Balxni Boburiylardan qaytarib olish jangida g'alaba qozonadi[5;3-b]. Yalangto'shning bu muvaffaqiyatlari uning mohir harbiy yo'lchi bo'lganligidan, puxta o'ylangan harbiy rejalarini tuzganligidan dalolat beradi. Buxoro xonlari ham aftidan, harbiy yurishlarning aksariyat qismida Bahodir otaliq boshchiligidagi harbiy qismni jo'natgan.

Xulosa va takliflar. Deyarli qirq yil davomida ashtarxoni hukmdorlarga xizmat qilgan Yalangto'shbiyning davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim maslahatchi bo'lganligi, uning, ayniqsa, tashqi aloqalarda hukmdor bilan yonmayon harakat qilishi natijasida ustunlik Buxoro xonligi tomonida bo'lishni ta'minlagan. Hokimiyatda vujudga kelgan kurashlar, ichki boshboshdoqlik vaqtida yurish boshlagan Eron va Hindistonga qarshi turishda u jasorat ko'rsatib, barcha harbiy kuchlar va ulamolarni birlashtirdi va shu bilan birgalikda, xalqni hukmdorni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. U Eron safaviylariga, Hindistondagi Boburiylarga va Turkiston hududidagi qozoq uluslariga qarshi mamlakat tinchligi uchun mardonavor kurash olib bordi. Yalangto'shbiy Buxoro xonligining lashkarboshisi sifatida mashhur bo'lganligi bois ham, unga ko'plab hududlardan sovg'a-salomlar keltirilganligi manbaalarda qayd etilgan. Zarur vaqtlarda Yalangto'shbiy hukmdor nomidan ham qarorlar chiqarganligini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin. Yuqoridagi misollardan tushunish mumkinki, Buxoro xonligining XVII asrning birinchi yarmidagi ichki va tashqi siyosati Bahodir Yalangto'sh faoliyati bilan tilga olinadi. Shu sababli ham, bu tarixiy shaxs faoliyatini personografik jixatdan to'liq yoritib, mazkur davrdagi Buxoro tarixi bilan birgalikda tadqiq qilinishi bugungi kun tarixchilari uchun zarur bo'lgan xulosalarni berishi mumkin. Bunday tarixiy shaxslar siymosini batafsil o'rganib, bugungi kun yoshlariga o'rnatilgan sifatida ko'rsatish, ularga o'zgacha o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usini berishi mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент: "Ўқитувчи", 1994.
2. Ахмедов Б. История Балха. (XVI- первая половина XVIII в).-Ташкент: "Фан", 1982.
3. Азамат Зиё. Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил, 3-март.44-сон.



4. Каттаев К. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
5. Мукимов З. Баҳодир Ялангтўшнинг давлат фаолиятининг ўрганилишига доир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
6. Мухаммед Юсуф Муншию Муким-ханская история.Перевод с таджикского ,предисловие,примечание и указатели профессора А.А.СЕМЕНОВА.-Ташкент:Академии наук Узбексктй ССР,1956.
7. Сангирова Д. Ялангтўш Баҳодирнинг Марказий Осиё ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
8. Таниева Г.Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни.Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
9. Туманович Н.Н. Герат в XVI-XVIII веках .-М:Наука,1989.
10. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi.-Toshkent:”BAYOZ”, 2021.
11. Chabryar Adle and Irfan Habib.History of civilizations of central Asia/ Volume V.-UNESCO Publishing,2003.
12. Bahodir Yalangto`sh. Buxoroisharif.uz (22.09.2022).

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI QONUN HIMOYASIDA

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globollashuv sharoitida milliy davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida O'zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, inson, uning hayoti, erkinligi, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish, mustaqillik yillarida ommaviy axborot sohasini tartibga soluvchi va istiqbolini belgilab beruvchi bir qator zarur qonun hujjatlarining ahamiyati, uning demokratik yangilanishlarning ko'zgusi, fuqarolarning, keng ommaning yangicha fikrlashga undovchi eng muhim vosita ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy jamiyat, taraqqiyot, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СМИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ЗАЩИЩЕНА ЗАКОНОМ

Аннотация: В данной статье приоритеты конституционного развития Узбекистана на новом этапе совершенствования национальной государственности в условиях глобализации, права и свободы человека, национальные и общечеловеческие ценности, человек, его жизнь, свобода, установление открытого и справедливого общества, поле средств массовой информации в годы независимости. Говорится о важности ряда необходимых нормативно-правовых и перспективноопределяющих правовых документов, являющихся зеркалом демократических реформ, важнейшим инструментом поощрения граждан и общего общественность думать по-новому.

Ключевые слова: социальное общество, развитие, средства массовой информации, гражданское, правовое, демократическое, светское общество, политические, экономические, социальные и культурные процессы.

THE ACTIVITY OF THE MEDIA IN THE NEW UZBEKISTAN IS PROTECTED BY THE LAW

Abstract: In this article, the priorities of the constitutional development of Uzbekistan at the new stage of improvement of national statehood in the conditions of globalization, human rights and freedoms, national and universal values, man, his life, freedom, establishment of an open and fair society, the field of mass media in the years of independence. It is said that the importance of a number of necessary regulatory and perspective-determining legal documents is a mirror of democratic reforms, and the most important tool for encouraging citizens and the general public to think in a new way.

Keywords: social society, development, mass media, civil, legal, democratic, secular society, political, economic, social and cultural processes.

Inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb tan olgan ko'p millatli O'zbekiston xalqining irodasini ro'yobga chiqarish, davlat

va jamiyat taraqqiyoti mafkurasi, O'zbekiston xalqining konstitutsiyaviy-huquqiy ijodkorligining o'ziga xosligini aks ettiruvchi konstitutsiyaviy qadriyatlarni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bizgama'lumki, globollashuv sharoitida milliy davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida O'zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Jumladan:

- inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlik;

- demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatni namoyon qilish;

- inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilganlik;

- O'zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilishi;

- fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligi va gullab-yashnashini ta'minlash kabi ustivor vazifalar jahon hamjamiyati tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

Konstitutsiyaviy islohot davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillarini tubdan o'zgartirishga, Yangi O'zbekistonda o'zaro munosabatlarning asosi sifatida "davlat-jamiyat-inson" tamoyili o'rniga "inson-jamiyat-davlat" g'oyasini asos qilib qo'yishga qaratilgan.

Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yuz berayotgan jarayonlar shunchalik tez va keng qamrovni tashkil etdiki, bugunga kelib bu qonunlarni yana ko'p yillarga xizmat qilishi uchun ayrimlarini qayta ishlash, bazilariga esa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib kelinmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deb belgilab qo'yilgan. Bu esa ommaviy axborot vositalarining mutlaqo qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy qismini insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlash egallagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilanmoqda. Ushbu norma jurnalistlarning erkin, turli ma'muriy bosimlardan qo'rqqanidan faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda mamlakatimizda axborot erkinligini yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pirovardida, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga, kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga va so'z erkinligini ta'minlashga erishiladi. Shuningdek, Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari kafolatlangan. Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilishi va ular faoliyati kafolatlarining belgilanishi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Jamiyatda yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlar, insonda hayotida paydo

bo'ladigan qiyinchiliklar, murakkab masalalar, ommaviy axborot vositalariga taqdim etiladigan murojaatlarning o'z yechimini topishi bejiz emas, chunki O'zbekistonda bosqichma-bosqich modernizatsiyalash va liberallashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ommaviy axborot vositalarining roli oshirilib, aholini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati haqida ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga keng jalb etish va qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilyapti.

Ma'lumki, mamlakatimizda OAV fuqarolik jamiyati institutlari tizimida alohida nufuzga ega bo'lib, davlat va jamiyat qurilishi sohasida olib borilayotgan demokratik yangilanishlar va islohotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda o'ziga xos o'ringa ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda 1400 dan ortiq ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning qariyb 60%i nodavlat OAVni tashkil etadi. Internet tarmog'ida OAV sifatida ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan veb-saytlar so'nggi besh yilda 2 barobar oshib, o'tgan yil yakunida 324 tani tashkil etdi. Bundan tashqari aholining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot manbalari bo'lgan axborot xizmatlari va rasmiy veb-saytlaridan keng foydalanishi imkoniyati yaratilgan. Bu o'z navbatida davlat idoralari faoliyatidan to'liq va xolis xabardor bo'lish bilan birga, davlat boshqaruvi samarasining darajasini belgilashga imkon bermoqda.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada yaxshilash va sifatli tashkil etish, ya'ni:

- maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish;
- davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish;
- aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish;
- ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2019-yil 1-oktabrdan quyidagilarga alohida e'tibor qaratish belgilab qo'yildi. Jumladan,
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturalar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor

ravishda axborot taqdim etib borish;

- davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

- axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

- muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

- axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

- davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari bilan ta'minlash;

- davlat organlari va tashkilotlarining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihaları hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirish; davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish kabi vazifalar ijrosining ta'minlanishi qonuniy jihatdan belgilab berildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish kerakki, ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllinishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi kun yoshlariga ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rni, ommaviy axborot vositalarining halq orasida nechog'lik muhimligi, qolaversa ijtimoiy-kasbiy ma'suliyat va madaniyat to'g'risida tushunchalar berishda har bir mutaxassis soha bo'yicha yetarli kompetentlikka ega bo'lishi shart. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ommaviy axborot sohasini tartibga soluvchi va istiqbolini belgilab beruvchi bir qator yuqorida keltirilgan zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, ular xayotimizda keng tatbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari zamon talablariga javob

beradigan demokratik yangilanishlarning ko'zgusiga, fuqarolarning, keng ommaning yangicha fikrlashga undovchi eng muhim vositalardan biriga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularning huquq va burchlarini tushuntirish hamda kundalik turmushda yuzaga kelayotgan muammo, kamchiliklarni hal etishda amaldagi qonunlardan foydalangan holda ish yuritish har bir fuqaroning vatan oldidagi burchi, milliy qadriyatni e'zozlash, yoshlar va ularning porloq kelajagi uchun yurtimizdagi bor imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 2021y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. // Demkoratlashtirish va inson huquqlari, 2000 y, № 3-4.
4. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. – T.: O'zbekiston Milliy matbuot markazi. 2003 y.

https://www.norma.uz/uz/parlament_habarlari/ommaviy_ahborot_vositalari_katta_kuch_va_salohiyatga_ega

“ТАРИХИ АЗИЗИЙ” АСАРИДА ЖАНУБИЙ ҚОЗОҒИСТОН ШАҲАРЛАРИ ТАРИХИНИ ЁРИТИЛИШИ

Қўлдашев Шерали Темирралиевич

*Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Абу Райхон Беруний
номидаги шарқшунослик институти катта илмий ходими, тарих фанлари
номзоди, доцент*

Аннотация. Ушбу мақолада Мулла Азиз бин Муҳаммадризо Марғилоний (1850-1913)нинг “Тарихи Азизий” (иккинчи номи “Таснифи Ғариб”) асаридаги Сарём (Сайрам), Туркистон, Чимкент, Авлиё Ота (Тараз) каби шаҳарлар тарихига оид маълумотлар ҳақида ёритилган. Айниқса, Сайрам шаҳри ичида ва ташиқарисидидаги азиз авлиёлар қабрлари хусусида кўпгина маълумотларни ўрганилиши таҳлил қилинган. Ушбу масалани ўрганиши Буюк Ипак Йўли шаҳарлари тарихини ёритишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Таянч сўз ва иборалар: Тарихи Азизий, манба, Жанубий Қозоғистон шаҳарлари, Сарём (Сайрам), Тараз, Чимкент.

ОПИСАНИЕ ГОРОДОВ ЮЖНЕГО КАЗАХСТАНА В СОЧИНЕНИИ «ТАРИХ-И АЗИЗИ» МУХАММЕДА АЗИЗА МАРГИЛАНИ

Қўлдашев Шерали Темирралиевич

*старший научный сотрудник института востоковедения имени
Абу Рейхана Беруни, академии наук Республики Узбекистан, кандидат
исторических наук, доцент*

Аннотация. В данной статье освещены сведения, касающиеся истории таких городов как Сарём (Сайрам), приведённого в произведении Мулла Азиза бин Муҳаммадризо Марғилани (1850–1913) “Тарих-и Азизи” (второе название “Таснифи Ғариб”), а также Туркестана, Шымкента, Аулиа Ата (Тараза). В особенности, проведён анализ сведений о многих захоронениях, почитаемых святых, расположенных внутри и во внешней части города Сайрама. Изучение данного вопроса имеет важное значение в освещении истории городов Великого Шёлкового Пути.

Ключевые слова: Тарих-и Азизи, источник, города Южного Казахстан, Сарём (Сайрам), Тараз, Шымкент.

DESCRIPTION OF THE CITIES OF SOUTHERN KAZAKHSTAN IN THE WORK “TARIX-I AZIZI” BY MUHAMMED AZIZ MARGILANI

Sherali T. Kuldashv

*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of
the Republic of Uzbekistan*

Summary. The data concerning history of such towns as Saryom (Sauram), Aziz bin Mukhammadrizo Margilani (1850-1913) brought in the work the Mullah «Tarix-i Azizi» (the second name «Tasnifi Garib») and also Turkestan, Shymkent, Aulie-Ata (Taraz) are covered in this article. In particular, the analysis of data on many burials, the esteemed Saints located inside and in an external part of the city of Sayrama is carried out. Studying of the matter is important according to history of the cities of the Great Silk Way.

Key words: Tarix-i Azizi, source, sites of South Kazakhstan, Saryom (Sayram),

Taraz, Shymkent.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида 11108 инвентар рақами остида Мулла Азиз бин Муҳаммадризо Марғилоний (1850-1913)нинг “Тарихи Азизий” (иккинчи номи “Таснифи Ғариб”) асари сақланади. Ушбу асарни таниқли олимлар Аҳмад Закий Аҳмадшохович-Тўғон[1.18с], Ч.А. Стори[16.1193с], Т. Бейсимбиев[3.131с], Р. Набиев[12.15-16с], Ш. Воҳидов[5. 207б], Б. Бобожонов[2. 56с], Д. Сангирова[14] лар ўрганганлар ва ундаги маълумотлардан ўз тадқиқотларида фойдаланганлар. Дастлаб “Тарихи Азизий”нинг 5 бобини Ш. Воҳидов ва Д.Сангировалар томонидан ўзбек тилига таъдир қилган ҳолда нашр қилинган[11]. Ушбу ягона нусха бўлиб, муаллиф томонидан туркий, баъзи қисмлари форсий тилда 1912 йилда ёзиб тугатилган. Асар 166 фасл ва 5 бобдан иборат: 1-боб мўғиллар истилоҳига, 2-боб Амир Темур тарихи, 3-боб турли касблар ва шаҳарлар тарихи, 4 ва 5 боблар Қўқон хонлиги ва Россия империяси даврида Фарғона тарихига бағишланган. Шунингдек, асарда Жанубий Қозоғистоннинг қадимий ва ҳозирги шаҳарлари тарихига оид маълумотлар ҳам берилган. Жумладан, Туркистон(14а, 16б, 68а, 69а, 95а, 105а, 161а, 162а, 175а, 182а), Исфажоб (70а), Ўтпор(45б, 46а, 53б, 54б, 67а, 91а), Авлиё ота(90б, 91б), Чимкент(67б), Сарём (Сайрам)(6б, 65б-68б, 69а, 70а, 71а-б, 72б-74а, 75а, 182а), Сигноқ(94а-б), Тароз(90б, 91а) ва бошқа шаҳарлар тарихига оид маълумотлар учрайди.

Асосий қисм. Қадимги Сайрам шаҳри тарихи бўйича кўпгина тадқиқот ишлари олиб борилган. Жумладан, П.П. Иванов. М.Е[6]. Массон. Б.А[7.]. Байтанаев[4] ва бошқаларни мисол тариқасида келтиришимиз мумкин. Шу билан бирга, “Тарихи Азизий” нинг 2-бобида Жанубий Қозоғистондаги қадимий шаҳар Сайрам шаҳри тарихи хусусида кўпгина қизиқарли маълумотлар ёритилган. Жумладан, 64 фасл “Сарём шаҳри хусусида”, 65-фасл “Сарём ҳукмдорлари ва авлиёлари”, 66-фасл “Сарём ичинда ва ташинда ётган авлиёлар баёни”, 67-фасл “Сарём ташинда ётган авлиёлар баёни” деб номланган. Ушбу маълумотлар Сайрам шаҳрининг қадимдан то XIV асрга қадар бўлган даври тарихи ёритилган. Ундаги маълумотлар асосан Сайрам шаҳри тарихига оид рисолалар, жумладан “Қасиетти Мадинат ал Байда жене Испиджаб турали шежере” рисоласидан ҳам фойдаланган[18]. Асарнинг 64 ва 65 фаслларидаги маълумотлар Мираҳмад Мирхолдоронинг “Сайрам тарихи” китоби[8. 22-66б] да берилган. Ушбу маълумотлар Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Шарқшунослик институтида №640, рақам остида сақланадиган “Сайрам шаҳри хусусида рисола” номли рисоладаги маълумотлар билан бир ҳилдир. Рисоланинг “Муқаддима” қисмида “Сарём бурунги замонда кўп катта шаҳар экан. Кўп замонлар ўтиб бурунги вақтдаги ободлиги қайтиб, ушбу вақтларда Чимкент шаҳрининг кунчиқар тарафида ўн икки чақиримлик ердадир. Сайрамда алҳол катта бозорлар кўп бўлиб, кўп ғаллалар ва ҳайвонот моллар совдаси бўладир. Ул бозор Туркистон вилояти Россия давлатига тобе бўлмасидан уч ва тўрт йил илгари бўлгандир”[13]. Рисола чимкентлик Ҳолиқназар Болтабой ва Тожимуҳаммад Шамсиддин ўғли томонидан Тошкентга юборилган. Тожимуҳаммад Шамсиддин ўғлининг маълумотига кўра, рисола сайрамлик Муллабек Муҳаммад қозикалон марҳум томонидан таҳрир қилинган[13]. Ушбу инсон Россия империясининг Чимкентни босиб олиш жараёнидаги жангда ҳалок бўлган экан. Ушбу жанг ҳақида чимкентлик Хусайн шайх Милқоб Каминаий исмли шоир томонидан манзума ёзган. Ушбу манзума Чимкент шаҳрининг қозиси Абдусатторхон

Абдулғофурхон ўғли томонидан Тошкентга юборилган. Ушбу манзума ҳам Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланади[19]. 66-фаслдаги маълумотлар эса тарих фанлари доктори профессор Жулдос Тулебаеванинг мақолаларида берилган[17;18]. Ушбу олиманинг мақоласидаги маълумотлар Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институтидаги қўлёзмалар фондида № 1990 рақам остида сақланаётган “Тазкирайи машоихи Сайром” номли форс-тожик тилидаги қўлёзмасидан олинган. Муҳаммад Азиз Марғилоний бу қўлёзмани 1910 йилда эски ўзбек тилига таржима қилиб “Тарихи Азизий” таркибига киритган. Аммо 67-фаслдаги маълумотларни ҳали ўрганилиши лозим бўлган қимматли маълумотлар ҳисобланади. Ушбу фаслдаги маълумотлар Сайрам шаҳридан таҳминан ярим фарсах узоқда жойлашган азиз авлиёларнинг қабрлари ҳақидадир. Шундай авлиёлардан Исҳоқбоб ва унинг биродари Юнусбоб, ҳазрат Абдулазиз каби азиз авлиёлар қабрлари ҳақида маълумотлар келтирилган. Аҳмад Яссавийнинг ўн биринчи аждоди бўлиб, уни Тошкентда ўз даврида Хўжа Аламдор деб аташган. У киши ҳақида асарда шундай ёзилган: “Нақл қилибдурларки, эшоннинг марқадлари маҳал ижобат дуодир. Ҳар гоҳики вилояти Сарёмга андак офат етса мардум вилояти жамъи бўлиб, бир неча садақа қилиб эшонни қабрларига дуойи фотиҳа қилиб, рух шарифларига мустожа бўлсалар. Ҳар турлик бирла келса дафъа бўлур ва бисёр мардумларининг ҳожати раво эрди. Умид шулки, ман баъд ҳар ким ул кишидин истифор айтилса ноумид қилмас ва эшоннинг турбат шарифлари мажмуи офтоб ва ўтаддурлар. Эшон кофирлар билан ғазот қилганда даражаи шаҳодат топиб эрдилар ва яна нақл қилибдурларки эшондин фарзанди йўқдур. Баъзилар айтубдирларки, бир қиз фарзандлари бор эди” [10. 90b]. Шунингдек, Авлиё Отанинг ўғиллари Нур Сайид Хўжахон Ота қабри ҳақида “Тарихий Азизий”да маълумотлар мавжуд. Эшон қабри устига амир Наврўз Барокхон мақбара қурдирганлиги ёзилган[10.]. Ушбу мақбаранинг шарқ тарафида эса Исмоил Ота қабри бор. У Муҳаммад Дарвешнинг фарзандидур. Шу билан бирга, Исмоил Ота мазори Ўзбекистон Республикаси Наманган вилояти Поп туманидаги Чодак қишлоғида ҳам мавжуддир. Ушбу қабр устига мақбара ўрнатилган. Мақбара Чодаксой бўйида жойлашган. И.Ю. Юсупов ва Э.Ю. Мирзалиевларнинг “Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари” номли рисоласида бу мақбара ҳақида қуйидагилар берилган: “Исмоил Ота Ҳожа Аҳмад Яссавийнинг ота бир, она бўлак укаларидир. Туркистоннинг Сайрамида 1110-1112 йилларида таваллуд топиб, 1167 йилда Чодакда вафот этган. Асли Ҳазрат Али авлодларидан бўлган. боболарининг исми шайх Маҳмуд, оталариники - Иброҳим шайхдир. Ўзи эса мумтоз шоир Атойининг падари бузрукворидир”[20. 68-69б.].

Шунингдек, асарда Хожи хўжа Ота, Баҳовуддин Исфажобий, Абдулазиз бобнинг ғарб тарафларида Хўжа Иброҳимнинг қабрлари ҳақида ҳам маълумотлар берилган. “Тарихи Азизий” асарида берилган сайрамлик азиз авлиёларнинг умумий сони 80 нафардан ортиқ ҳисобланади. Аммо, тадқиқотчилар ушбу алломаларнинг ҳаёти ва фаолияти хусусида араб, форс ва туркий тиллардаги манбалардаги маълумотлар асосида илмий шарҳлар ёки изохлар асосида ўрганилмоғи лозимдир.

“Тарихи Азизий”нинг 84 фасли эса “Авлиё Ота шаҳри тарихи” деб номланган. Ҳозирги Тароз шаҳрининг 1936 йилгача бўлган қадимий номи Авлиё Ота шаҳри тарихига оид қўшлаб маълумотлар берилган. Констанцинадан келган элчининг маълумотлари, 751 йилда Тан империяси билан араблар ўртасидаги

Талас жанги, Исмоил Сомонийнинг Тароз шаҳрини фатҳ қилгани то Авлиё ота деб номланиши ҳақидаги маълумотлар берилган. Асарда “Тароз ўзи яхши ва ободлик қўрғон-шаҳар экан. Шаҳарда кўплаб боғлар ва ҳовлилар бор экан. Шаҳарнинг тўртта дарвозаси бор. Дарвоза олдида катта дарё оқиб, шаҳарнинг баъзи мавзелари шул дарёнинг нариги тарафида экан. Жума масжиди бозорнинг ўртасида экан. Ва Қорахон авлиёлари авлодлари мазкур шаҳарни ўз тасарруфига тутиб турур эканлар. Чингизхоннинг бу тарафларга келмасдан илгари қорахитой сарбозларини Муҳаммад Хоразмшоҳ мағлуб этибдур. Чингизхон аскарлари бу жойларни олиб ёз фаслида мазкур мавзелардаги яйловларда турубдур. Ҳижрий 447 йилда Чингизхон тамоми авлодларини бул жойга йиғиб қурултой деган мажлис қилибдур”[10. 90b-91a]. 85-фасл эса “Ҳазрат Хожа Аҳмад Яссавийнинг муборак мазорлари шарифларига Амир Темурни вақф тайин қилғони баёни” деб номланган [10. 90b-91a]. Бу фасл форсийда ёзилгандир. “Ушбу вақтда ҳам қадим замонда ер юзида қандай катта шаҳарлар бор” деб номланган 108 фаслда Туркистондаги “ҳазрат Султон ал Орифин Хожа Аҳмад Яссавийнинг қабрлари устида бино қилинган гумбазнинг ердан баландлиги қирқ саккиз газдур”, деб маълумот беради[10. 105a]. Машҳур тарихчи Шарафиддин Али Яздийнинг «Зафарнома»сида ҳам бу улуг воқеа ҳақида қуйидагилар ёзилган: «Унинг гумбазини шундай бунёд этсинларки, айланаси юз ўттиз газ ва ўз чизиғи қарийб қирқ газ келсин. Қурилиш тамом бўлгач, баландлиги ҳам ўзига муносиб тарзда қўтарилсин, девору куббаси кошнлар ила безатилсин, эшиги етти хил маъдан қотишмасидан тайёрлансин, ўртасида бир ҳовуз барпо этиб, унинг юзини ҳам етти маъдан қотишмасидан қопласинлар. Қабр устига қўйиш учун табризий мармар келтирсинлар, уни нозиклик билан тарашласинлар ва ажойиб нақшларла безасинлар».

Хуллас, Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг “Тарихи Азизий” асаридаги маълумотлар Марказий Осиёдаги кўпгина шаҳарлар тарихига оид муҳим манбалардан биридир. Айниқса, Жанубий Қозоғистондаги бир неча шаҳарларнинг қадимдан то XIX асрга қадар бўлган тарихи ҳақида кўпгина маълумотлар берилган. Ушбу маълумотларни бошқа манбалар билан биргаликда таққослаган ҳолда кўпгина тарихий масалаларга жавоб топса бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдурахмонов М. Зоҳидий А. Валидий-Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари (1913-14 йиллар). Тошкент., 1997. 18
2. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент, 2010.
3. Бейсембиев Т. Кокандская историография (исследование по источниковедению Средней Азии XVIII – XIX веков). Алматы. 2009. 131.
4. Байтанова Б.А. Древний Испиджаб. Средневековые города Южного Казахстана на Великом Шелковом пути. Шымкент-Алматы, 2003.
5. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). Тошкент., 2011.
6. Иванов П.П. Сайрам: историко-археологический очерк // Сборник Туркестанского Восточного Института в честь проф. А.Э. Шмидта. Ташкент, 1923. С.46-56.
7. Массон М.Е. Старый Сайрам // Известия Средазкомстарис, выпуск 3. Ташкент, 1923. С. 23-42.
8. Мирахмад Мирхолдор ўғли. Сайрам тарихи. Чимкент., 1991.



9. Мулла Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Факсимиле нашр. Кириш ва кўрсаткичлар тузувчи Ирода Қаюмова. Тошкент., 2016.
10. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий // қўлёзма, Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Шарқшунослик институти фонди. №11108-432 в.
11. Муҳаммад Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида). Нашрга тайёрловчилар, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов ва Д. Сангирова. – Тошкент: Маънавият, 1999. 112б.
12. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). Ташкент., 1973. 15-16
13. Сайрам шаҳри хусусида рисолача // Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Шарқшунослик институти фонди. №640-59 в.
14. Сангирова Д. Муҳаммад Азиз Марғилоний ва унинг “Тарихи азизий” асари (Россия империяси мустамлакачилиги даврига оид муҳим манба). – Тошкент: “Адабиёт учкунлари” нашриёти, 2016.
15. Сарём шахрининг сағана ва мазорлари // қўлёзма. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Шарқшунослик институти фонди. №3472-59 в.
16. Стори Ч.А. Персидская литература био-библиографический обзор. Часть III. Москва., 1972. 1193
17. Тулебаева Ж. Тазкираи машойихи Сарём // Имом ал Бухорий сабоқлари, 2/2002. – Б. 126-129.
18. Толебаева Ж. Сайрам тарихи тым теренде // АҚИҚАТ журнали. №1. 2003. Б. 62-69.
19. Чимкентга Русиянинг келиши ҳақида манзума // Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Шарқшунослик институти фонди. №12023-63 в.
20. Юсупов И.Ю., Мирзалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. Наманган., 2008.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAVDO VA MADANIY ALOQALARIDA JIZZAX VOHASINING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA

*Saidov Javohir Olimjon o'g'li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy tarix kafedrasi stajyor-
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Buyuk Ipak yo'li ustidagi chorrahada, qulay geografik hududda joylashgan Jizzax shahrining ham yoshi ming-ming yillar bilan o'lchanadi. Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davri savdo va madaniy aloqalarida Jizzax vohasining tutgan o'rni haqidagi tadqiqotchining fikr-mulohazalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, voha, bronza davri, Ustrushona, Buyuk Ipak yo'li, Dizak, Zomin, "Boburnoma", "Ma'sir-i Buxoro", Tayzaq, Samarqand, Amir Temur, Ilono'tti, Mirzarabot, Uchtepa, sardoba.

AMIR TEMUR AND THE PERIOD OF THE TIMURIDS IN TRADE AND CULTURAL RELATIONS ABOUT THE PLACE OF JIZZAKH OASIS

*Saidov Javohir Olimjon,
Jizzakh State Pedagogical University Trainee-teacher of the Department of
General History*

Annotation: The age of the city of Jizzakh, located at the crossroads of the Great Silk Road, in a convenient geographical area, is measured by thousands of years. This article describes the opinion of the researcher about the role of Jizzakh oasis in trade and cultural relations of Amir Temur and the Timurid period.

Key words: Movarounnahr, oasis, Bronze Age, Ustrushona, Great Silk Road, Dizak, Zomin, «Boburnoma», «Ma'sir-i Bukhara», Tayzaq, Samarkand, Amir Temur, Ilono'tti, Mirzarabot, Uchtepa, cistern.

АМИР ТЕМУР И ПЕРИОД ТИМУРИДОВ В ТОРГОВО-КУЛЬТУРНЫХ ОТНОШЕНИЯХ О МЕСТЕ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА

*Саидов Джавахир Олимжон,
Джизакский Государственный Педагогический Университет
Стажёр-преподаватель кафедры всеобщей истории*

Аннотация: Возраст города Джизак, расположенного на перекрестке Великого шелкового пути, в удобном географическом районе, измеряется тысячами лет. В данной статье изложено мнение исследователя о роли Джизакского оазиса в торговых и культурных связях Амира Темура и тимуридского периода.

Ключевые слова: Мовароуннахр, оазис, эпоха бронзы, Уструшона, Великий шелковый путь, Дизак, Зомин, «Бобурнома», «Масир-и Бухара», Тайзак, Самарканд, Амир Темура, Илонотти, Мирзаработ, Учтепа, цистерна.

Kirish. Keyingi yillarda O'rta Osiyo hududidagi ilk insoniyat manzilgohlari mintaqada yashovchi barcha xalqlarning ajdodlariga tegishli ekanligi, ularni birgalikda o'rganish lozimligi kun tartibiga chiqa boshladi. Ular qatori bugungi kunda O'rta Osiyoning uchta respublikasi O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston hududida joylashgan Ustrushona tarixini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega[3].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Jizzax-O'zbekistonning eng qadimiy

shaharlaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi bir minginchi yillarda yuzaga kelgani ko'plab tarixiy manbalarda tilga olinadi. Boy tarixga ega bo'lgan shahar urbanistik jarayonining yuzaga kelishi bronza davriga borib taqaladi. Tarixchi-arxeolog olimlar tomonidan shaharning yoshini aniqlash, uning tarixiy obidalarini qoldiqlarini o'rganish borasidagi tadqiqot ishlari hamon davom etib kelmoqda[11].

Mavjud tarixiy manbalar Sharqni Fapb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ustidagi chorrahada, qulay geografik hududda joylashgan Jizzax shahrining yoshi ming-ming yillar bilan o'lchanishidan dalolat beradi. Voha asrlar davomida turli mamlakatlar, hukmdorlar, bek-amaldorlar, olimu shoirlar, din rahnamolari, oddiy kishilar, xullas, barcha-barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Tarix guvohlik beradiki, qadimgi fors podshohlari ahamoniylar, yunon-makedonlar, arablar, mo'g'ullar va nihoyat Rossiya imperiyasi hukmdorlari bilan ota-bobolarimiz o'rtasida Jizzax shahri uchun bir necha bor qirg'in-barot janglar bo'lib o'tgan va shahar batamom yakson qilib tashlangan[11]. Shaharning bunday janglarda bir necha marta vayron qilinganini aytish va uning adog'iga yetish qiyin. Ammo tarixda Dizak, Gazo, Tayzaq, Tuzixaq, Faknon va boshqa nomlar bilan shuhrat qozongan bu shahar har gal yonib vayron bo'lsa-da, o'z o'rnida yangidan tiklanavergan, gullab-yashnayvergan.

Darhaqiqat, Jizzax vohasi bosh shahrining ko'hna tarixidan guvohlik beruvchi Qaliya qal'asi va O'rda qal'asida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida hozirgi kungacha topilgan va topilayotgan toshdan, temirdan yasalgan mehnat qurollari, kulolchilik, zargarlik, temirchilik buyumlari, qadimgi qurol-yarog'lar, tangalar va boshqa ashyoviy dalillar, kiyim-kechak qoldiqlari ana shundan dalolat beradi.

Jizzax vohasi tarixi va ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham bayon qilingan. Bobur Mirzo o'zining ushbu asarida Jizzax, Zomin, Pishag'or, Ravot, Xo'jandda bo'lganligini yozib qoldirgan. Bobur 1501 yili Shayboniyxondan zarbaga uchrab, Andijonga qaytishida Jizzaxda bo'lganligini quyidagicha tavsiflaydi: "Kech nomoz digar Ilono'ttida tushub, ot o'lturib etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindirib otlanduk. Tongdin burunroq Xaliliya (hozirgi Qaliya qo'rg'oni hududi) kentiga kelib tushtuk. Xaliliyadan Dizak kelildi, ul fursatta Dizakta Xofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon... Andoq usrattin mundoq va arzonliq va baliyattin mundoq amonliqqa kelduk", [2] - degan bitiklari Jizzaxning chorva, bog'dorchilik va poliz mahsulotlariga boy va arzonligi, xalqining mehmondo'stligiga berilgan baho hisoblanadi.

1992 yili chop etilgan, XV asr arab tarixnavisi Shahobuddin Axmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim ibn Arabshoh qalamiga mansub "Ajoyib ul-maqdur fi-tarixi Taymur" ("Temur haqidagi xabarlarida taqdir ajoyibotlari") - "Amir Temur tarixi" nomli ikki jildli kitobning 2-jildida Ashpora amiri Ollohdodga Farg'ona amiri Xudoydod chopar orqali yuborgan maktubida Samarqand hukmdori Xalil Sulton huzuriga tez yetib borishini xabar qiladi. "Ollohdod kechayu kunduz (to'xtamasdan) yo'l yurib, nihoyat Xudoydodga yetib keladi. Xudoydod (uni) ko'rganidan shodlanib, uning siymosidan o'z maqsudi tomon yaqin kelgandek bo'ldi. Keyin ikkalalari Xo'jand daryosidan kechib o'tib, Samarqand atroflariga tomon yurdilar va hech bir kutilmagan g'afat paytida Tayzaq deb ataladigan bir joyga yetib keldilar"[3].

"Tayzaq" degani qayer bo'lishi mumkin? Shu o'y bilan kitobning oxirgi betlarida berilgan ma'lumotlar o'rganilganda, "Tayzaq" so'zining ustiga qo'yilgan 1130 raqamidagi izohda Tayzaq "hozirgi Jizzax nazarda tutilayotir" deb yozib qo'yilgani ma'lum bo'ladi[11].

Аннотация. Мазкур мақолада Бухоро амирлиги тарихи, жузрофияси, иқтисодий-ижтимоий ҳаётига бағишланган Муҳаммад Содиқхўжа Гулшанийнинг “Тарихи хумоюн” асари тадқиқ этилган. Гулшаний ҳақидаги маълумотлар, у яшаган ижтимоий муҳит ва “Тарихи хумоюн” асарининг яратилиши тарихи, унинг кейинги тақдири муаллифнинг ўзи ва унинг замондошлари томондан ёзилган хотиралари асосида ёритиб беришга ҳаракат қилинган. Тадқиқотда ушбу тарихий асарнинг тузилиши муаммовий ёндашув асосида бир неча қисмларга бўлиниб, ундаги маълумотлар ҳудудий кесимда таснифлаб таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Муҳаммад Содиқхўжа Гулшаний, амир Абдулаҳадхон, Бухоро амирлиги, жузрофия, ер-сув муносабатлари, иқтисод, савдо, аҳолишунослик.

«ТАРИХИ ХУМОЮН» - ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

*Зарипов Одил Олимжонович,
доктор философии по историческим наукам, старший научный сотрудник
Института истории Академии наук Узбекистана*

Аннотация. В данной статье исследуется труд Мухаммада Садикходжи Гульшани «Тарихи хумоюн», посвященный истории, географии, экономической и социальной жизни Бухарского эмирата. А также в статье приведена информация об авторе данного исторического труда, социальной среде, в которой он жил, истории создания «Тарихи Хумаюна» и его последующей судьбе на основе воспоминаний, написанных самим автором и его современниками. В ходе исследования структура этого исторического труда была разделена на несколько частей на основе проблемного подхода, а содержащаяся в нем информация была классифицирована и проанализирована с региональной точки зрения.

Ключевые слова: Мухаммад Садикходжа Гульшани, Амир Абдулаҳадхан, Бухарский эмират, география, земельно-водные отношения, экономика, торговля, демография.

«HISTORY OF HUMOYUN» IS AN IMPORTANT SOURCE IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE EMIRATE OF BUKHARA

*Zaripov Odil Olimzhonovich,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences, Senior Researcher at the Institute
of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

Annotation. This article examines the work of Muhammad Sadiq khwaja Gulshani «Tarihi Khumayun», dedicated to the history, geography, economic and social life of the Emirate of Bukhara. The article also provides information about the author of this historical work, the social environment in which he lived, the history of the creation of «Tarihi Humayun» and his subsequent fate based on the memoirs written by the

author himself and his contemporaries. In the course of the study, the structure of this historical work was divided into several parts on the basis of a problematic approach, and the information contained in it was classified and analyzed from a regional point of view.

Key words: Muhammad Sadiq khwaja Gulshani, Amir Abdulahad Khan, Bukhara Emirate, geography, land-water relations, economy, trade, demography.

Кириш. Бухоро амирлиги тарихи қолаверса бутун Туркистон тарихини ўрганишда қўлёзма манбалар алоҳида аҳамиятга эга. Айнан улар ўз даврининг гувоҳи ўлароқ, мазкур давр сиёсий, иқтисодий-иҷтимоий ҳолатини тасаввур қилиш, унинг тарихий портретини тиклаш имконини беради. Амирлик тарихи ҳақида гап кетганда, шубҳасиз Мирзо Абдулазим Сомийнинг “Тарихи салотини манғитийа”, Аҳмад Донишнинг “Рисола ёо мухтасаре аз торихи салтанати хонадони манғитийа”, Муҳаммад Али Балжувонийнинг “Тарихи Нофеий”, Мирзо Салимбекнинг “Кашкўли Салимий. Таворихи мутақаддимийн ва мутаахирийн”, Мирзо Салимбек ибн Муҳаммад Раҳимнинг “Тарихи Салимий”, Садри Зиёнинг “Наводири зиёийа” ва бошқа кўплаб тарихчиларнинг қўлёзма асарларини санаб ўтиш мумкин. Шундай асарлар қаторига Мулло Муҳаммад Содиқхўжа Гулшанийнинг “Тарихи ҳумоюн” асарини киритиш мумкин. Юқорида исмлари зикр этилган асарлардан фарқли равишда ушбу асар кенг илмий муомалага жалб қилинмаган. Шу сабабдан ўлка тарихи, жуғрофиясини тадқиқ қилишда мазкур асардан фойдаланиш ўта унумли ҳисобланади.

Муаллиф ҳақида. Асар муаллифи тарихчи ва шоир Мулло Муҳаммад Содиқхўжа (دى عىسى رى دمحم نب هجاوخ قداص دمحم الم) бўлиб, у тахминан 1861 йили Бухоро шаҳрида туғилган [3: 17]. Ҳам муддарис, ҳам муфтий бўлган отаси Муҳаммад Мирсаид хонадонидан тарбия топганлиги, қолаверса хўжалар наслдан эканлиги сабабли Муҳаммад Содиқхўжа ўз даврининг саводли ва билимли кишиларидан бўлган. Замондошларининг хотираларида хусусан муаллифнинг дўстларидан бири бўлган Садри Зиёнинг асарида келтирилишича Муҳаммад Содиқхўжа – Гулшаний таҳаллуси остида ижод қилган [9: 188]. Садриддин Айний маълумотига кўра, Мулло Муҳаммад Содиқхўжа Гулшанийни машхур олим Аҳмад Дониш билан бир маҳаллада истиқомат қилган ва у билан доимий алоқада бўлган [2: 18]. Бу ҳам ўз навбатида Мулло Муҳаммад Содиқхўжа Гулшаний яшаган илмий ижодий муҳит қай даражада юқори бўлганлигидан далолат беради.

Гулшанийнинг ақл заковати, унинг Бухоро илмий муҳитидаги алоҳида ўрни сабаб Сайид Амир Абдулаҳадхон (1885-1910) уни саройга қоровулбеги сифатида ишга олади [9: 189]. Давлат ишига ўтгач, Гулшаний кўп вақтлар давлат юмушлари билан вилоят ва туманларга сафарда юриб, машаққат чекишга мажбур бўлган. Сафарларининг бирида тарихчи Конибодомда Тобакўтал тоғидан тушаётган вақтида боши харсанг тошга тегиб қаттиқ лат еганини ёзади [6: 140]. Балким шу сабабдан, тарихчи қисқа умр кўриб, 1910 йилда 49 ёшида дунёдан кўз юмгандир. Бироқ, айнан шу сафарлар унинг “Тарихи ҳумоюн” (نویامه خیرات) асарини қизиқарли маълумотлар билан бойитишга хизмат қилди.

Мулло Муҳаммад Содиқхўжа Гулшаний шоир сифатида кўплаб шеърлар битган бўлсада, ундан фақатгина “Тарихи ҳумоюн” асари бизгача етиб келган.

Асар тарихи. Ушбу асар Содиқхўжа Гулшанийнинг ўз қўли билан ёзилган қоралама нусхаси ҳисобланади. Асар 1909-1910 йиллар орасида тожик тилида ёзилган бўлиб, муаллиф вафотидан кейин Сайид Амир Олимхоннинг қўшбегиси Мирзо Насруллоҳ қўлига ўтган. 1918 йилги Колесов воқеаларидан сўнг асар

йўқолиб, 41 йилдан кейин 1959 йили топилиб Тожикистон Фанлар академияси шарқшунослик ва ёзма мерослар институтига топширилади.

Тузилиши. “Тарихи ҳумоюн” мундарижаси муқаддима ва тўққиз бобдан иборат бўлиб, ҳажми икки юз олти миш бетни ташкил қилади. Муқаддима қисми ўрта аср манбаларига хос бўлган ҳамду сано билан бошланиб, давомидида муаллиф асарнинг ёзишдан мақсадини келтириб ўтган. “Саккиз мақолада Бухорои шариф вилоятларининг сонини келтириб ўтдим” [6: 45] – дейди Муҳаммад Содикхўжа. Бироқ асар тўққизта мақоладан иборат бўлиб, қуйидагича тузилишга эга:

- 1) Биринчи мақола – Бухоро “иёлати” вилояти;
- 2) Миёнқол вилояти;
- 3) Маъмурий жиҳатдан Бухоро шахрига бўйсунувчи Лабиоб вилояти;
- 4) Қарши ва Ғузор вилояти;
- 5) Кеш (Шаҳрисабз) вилояти;
- 6) Ҳисори шодмон вилояти;
- 7) Хатлон вилояти;
- 8) Қоратегин вилояти;
- 9) Ғарм тобелигидаги Қалаи Хум (Дарвоз) вилояти;

Асарда мақолаларнинг бундай ном берилиши унинг муаллифнинг яқунланмаган қораламаси эканлиги билан изоҳлаш мумкин. Муаллиф кўлёманинг бир неча жойида ўзини “داوس مقار” – ушбу қораламани битувчи сифатида кўрсатиб ўтади. Асарнинг номланишига тўхталадиган бўлсак, амир Абдулаҳадхон саройида қоровулбеги сифатида фаолият юритган Гулшаний китобини амирнинг тахтда туришига йигирма беш йил тўлганлиги муносабати билан ёдгорлик ўлароқ ёзганини қайд қилган [6: 45]. Яъни, “ҳумоюн” номи остида Абдулаҳадхон назарда тутилган. Китоб бошланишида муаллиф амирга атаб 19 байтдан иборат қасида ёзган.

Амирга бағишланган қасидадан олдин, муаллиф Бухорони мадҳ этувчи араб тилидаги қуйидаги байтни ёзади:

اراختفاو ازع عرملال ىفك
ار اخب داوثم ناك دق ناب

Яъни, кишининг ватани Бухоро эканлиги, унинг иззат ва ифтихори учун кифоядир.

Асар ёзилишининг яна бир сабаби сифатида тўхталар экан Гулшаний ўз замонасида Бухоро амирлигининг жуғрофиясига оид китобнинг йўқлигини таъкидлайди. У Шамсиддин Сомийнинг “Қомус ал аълаам” китобини муталаа қилганини ҳамда 86 йилдан буён бумавзудаги асар ёзилмаганлигини таъкидлайди. Амирлик жуғрофиясига оид охириги асар рус сайёҳи Мейендўрфнинг 1820 йилда ёзган сайёҳатномаси эканлигини тилга олади. Таъкидлаш жоизки, Содикхўжа Гулшаний рус тилини жуда яхши билган. Гулшаний бу тилни руслар томонидан Самарқанд эгаллангач, амир Музаффар тақибидан Самарқандга қочган тоғасининг уйига кўп қатнаган вақтида ўрганган. Албатта, бу Гулшанийнинг рус илмий адабиётидан ҳам хабардор эканлигини англатади. Шунингдек, муаллиф асарда Истанбулда ёзилган бир неча усмонли туркийсидаги асарларни ҳам ўқиганлигини таъкидлаб ўтган. Бундан келиб чиқадики, муаллиф ўзбек, форс-тожик, араб, усмонли ва рус тилларини яхши билган.

Ҳар бир боб беклик ва туманларнинг географик жойлашуви тавсифи билан бошланади ва ҳудуд табиий ресурс манбалари, хўжалиги, маҳалла, мадраса, масжид, бозор ва ҳаммомлар ҳақида муҳим маълумотлар беради. Асарда бошқа манбаларда учрамайдиган амирликнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига

оид масалалар ёритилган. “Тарихи ҳумоюн” келтирилган маълумотларни кўйидагича гуруҳларга ажратиш мумкин:

Иқтисодий ҳаётга оид. Бунга Бухоро шаҳри атрофида бўлган туманларнинг иқтисодий аҳволи, қишлоқ хўжалигининг ҳолати ҳақида маълумотларни мисол қилиш мумкин. Мисол учун, Қорақўл туманида суғориш суви етишмовчилиги мавжуд бўлиб, экин ерлари йилда бир марта суғорилган. Шунга қарамасдан ушбу ҳудуд аҳолисининг асосий машғулоти деҳқончилик ва чорвачилик бўлган. Қорақўлда машхур кўйтерилари етиштириб бериш ривожланганлиги сабабли ушбу туман тижоратчилари Бухоро тижоратчиларидан бойроқ эканлиги келтириб ўтилган [6: 49]. Муаллиф сув етишмовчилиги ва қум кўчиш натижасида Хутфар, Ромитан ва Жондор туманларининг экин экилмайдиган ерлари кўп бўлган, шундай бўлсада аҳолиси фақатгина деҳқончилик қилиб кун кўриш ортида иқтисодий аҳволи жуда оғирлигини, ҳатто ушбу туманларда бой кишини топиш мушкуллигини таъкидлайди.

Тарихчининг ёзишича мазкур даврда Ҳарконруд (Ғиждувон) вилоятининг бозори жуда ривожланган бўлиб, унинг атрофида ўн бешта карвонсарой фаолият юритган. Нуротанинг аксарият аҳолиси пойтахт Бухорога эмас Ғиждувон бозорига қатнаганлар. Ушбу ҳудуд аҳолиси савдодан ташқари ишлаб чиқаришда ҳам илғор бўлишган. Асар гувоҳлигича, Ғиждувонда 500 нафар ҳинд судхўрлик билан шуғулланган. Яъни ҳиндлар нафақат пойтахтда балки иқтисодий ҳолати фаровон бўлган бошқа туманларда ҳам кўп бўлишган. Бозорлар ичида Ғиждувон бозори амирликдаги энг катта бозорлардан саналсада, пойтахт бозоридан кейин иккинчи ўринда турувчи энг йириги бу Хатирчи бозори ҳисобланган. Умуман, савдо-сотик масаласида ғиждувонликлар ва хатирчиликлар амирликнинг энг уста савдогарлари бўлганлар.

Амирликдаги энг катта мол бозори Ғузурда бўлиб, бу бозорга Бухоро, Самарқанд, Қарши ва Шаҳрисабзнинг йирик мол даллолари келиб савдо қилишган. Бозорнинг бир ҳафталик пул айланмаси беш миллион танга бўлган [6: 99].

Карвон ва темирйўл савдо йўлларида ташқари тарихчи савдо моллари сув йўллари орқали ташилгани тўғрисида ҳам хабар беради. Мисол учун, Каркига ғалла ва турли дон маҳсулотлари Ҳисордан дарё орқали келтирилган [6: 74].

Халқаро савдода эса Карки ярмарка бозори машхур бўлиб, бу ерда амирликнинг ҳар еридан савдогар вакил ишлаган. Бу бозорга ҳар йили кавказликлар келиб эллик минг гиламни Русия ва Эрзурумга (Туркия) олиб кетишади. Ҳар йили бозорда бир миллион қорақўл териси олди-сотди қилинган.

Амирликдаги ер-сув муносабати масалаларини ҳам муаллиф ҳар бир ҳудуд кесимида ёритган. Мисол учун, Қарноб тумани сув ҳуқуқида амирликнинг бошқа ҳудудида учрамайдиган ҳолатларни тавсифланади. “Қарнобнинг марказида жуда тоза ва тотли булоқ борки, у ердаги аҳолининг ичимлик ва суғорма суви шу булоқдандир. Аҳоли ўртасида сув олди-сотдиси йўлга қўйилган бўлиб, “ҳаққоба” яъни сув ҳаққи жуда қиммат туради. Ерни бир соатлик суғориш нархи бир кўза сув ўлчовида минг дирҳам этиб белгиланган. Агар киши ўз ерини бир кеча кундуз суғормокчи бўлса бу унга йигирма минг дирҳамга тушади. Қарнобнинг тўртдан бир қисми чўлдан иборат бўлиб, унинг атрофи бўйлаб ҳар бир ёки ярим фарсах кенгликда Қирбулоқ, Найманбулоқ каби булоқлар жойлашган. Ҳудуд аҳолиси ўзига тўқ ва бой бўлиб, фақатгина лалмикор ерлар ҳисобидан тўланадиган биров миқдордаги солиқни ҳисобга олмаганда, боғларидан тушадиган ҳосилдан умуман хароҷ солиғи тўлашмайди” [6: 62].

Миёнқол вилояти туманлари Бухоро туманларидан фарқли равишда кўпроқ чорвачиликка мослашган. Мисол учун, Зиёвуддин, Нарпай ва Қалаи Дабус ўзбекларида йилкичилик ривожланган бўлиб, жуда чиройли ва тез чопарлиги учун пойтахтга отлар асосан шу ҳудудлардан етказиб берилган [6: 64]. Шунингдек, бу ерда етиштириладиган буғдойнинг довруғи бутун Туркистонга етган. Ушбу ҳудудда чорвачилик ва деҳқончилик булоқларнинг кўплиги ва сувнинг сероблиги туфайли ривожланган. Мисол учун, муаллиф Нуротадаги бир булоқга “бир булоғи бир дарё қилган ишни қилади” яъни бир дарё суғоришга қодир ерларни суғоради деб таърифлайди. Булоқлардан ташқари Нурота суғориш тизимида коризлардан фойдаланиш кенг йўлга қўйилганди. Қадимдан бу ҳудудда уч юз олтмиш кориз мавжуд бўлиб, асар ёзилган даврда унинг юзтаси ишчи ҳолатда бўлган [6: 71].

Муҳаммад Содиқхўжа Насаф (Қарши) вилояти ва унга тобе ҳудудларни амирликнинг энг серҳосил ерлари эканлигини таъкидлайди. Насафда қайси йили деҳқончилик яхши бўлса шу йили бутун Бухорода ғалла нархи арзон бўлган [6: 90]. Муаллиф Насафни Бухоронинг захирадони, хазина халтаси деб таърифлайди.

Элшуносликка оид. Юқорида келтириб ўтилгандик асарда турли элат ва миллатларнинг тавсифи ҳам келтирилган. Бунда Бухоро шаҳрида истиқомат қилувчи яҳудийлар ва эронийлар сони; Вобкентда истиқомат қиладиган эллик минг хонадон уч минг нафари араб, қолгани манғит, сарой, найман уруғи ўзбеклари ва тожиклар; Гиждувонда ўзбек ва тожиклардан ташқари уч минг нафар араб ва юқорида келтириб ўтилган ҳиндлар; Шофиркон ва Вағонзеда яшовчи кўчманчи қозоқлар, араблар, ҳиндлар, яҳудийларнинг сони ва машғулоти тўғрисида қизиқарли маълумотлар берилган. Масалан, Карки туркманларида эркаклар экин-тикинчилик, аёллар эса гилам тўқиш билан машғул бўлганлар. Муаллиф Косон туманининг Пўлоти қишлоғи арабларининг аксарият VIII асрда келган бўлишса ҳам ўтовда истиқомат қилишларини ёзади [6: 91]. Ғузур қўнғиротларида экин уруғларини яхши сақлаш одати бор бўлиб, улар бунинг учун бир ўра қазиб уруғларни унга кўмганлар. Қўнғиротлар “ширдон” деб атайдиган ушбу ўраларда уруғлар жуда яхши сақланган. Шу сабабдан бу аҳолида ҳар йили экин ва сотиш учун 100-200 коп турли хилдаги экин уруғлари захираси бўлган [6: 101].

Баланд тоғларда яшовчи Қоратегин аҳолиси қишда лой йўлда ҳаракатланиш учун ёғоч ковушда юришган. Бу ковушлар фақатгина шу ҳудудда тайёрланиб, ўрганмаган киши бу ковушнинг кия олмаган. Қоратегин ва Давозликларнинг яна бир қизиқ одати қишлоқ қариялари ўз уйларида эмас масжидда тунни ўтказганлар. Одатга кўра, фақат “бачамард” – йигит ва ўрта ёшли эркакларга ўз уйида тунаш мумкин бўлган.

Аҳолишунослик (демографияга) оид. Муаллифнинг ўзи ҳақида берган маълумотлар, шунингдек ҳар бир туман аҳолиси сони ҳамда унинг молиявий аҳволи тўғрисидаги қайдлардан Муҳаммад Содиқхўжа амирликнинг солиқ амлоқдорлик тизимида хос ишда фаолият юритганини тахмин қилиш мумкин. Асар охирида Бухоро амирлигининг маъмурий бирликларининг номи ва аҳолиси сони ҳақидаги маълумотлар келтирилган. Гулшаний маълумотида кўра, XX асрнинг бошида Бухоро амирлигида 2836800 хонадон, 7421000 аҳоли истиқомат қилган. Маълум бир ҳудуд аҳолисининг кўплиги ёки озлигини уларнинг табиий иқлими, яшаш шароити билан боғлаб, Ҳисор тоғларида истиқомат қилувчи аҳоли ичида юз ёшдан ошганлар кўплиги қайд қилинган.

Муаллиф ижтимоий соҳада ишга лаёқатсиз бўлган аҳолининг муҳтож қатлами учун Бухорода иккита “ғурабохона” мавжудлигини уларнинг биринчиси шаҳар ичида жойлашган бўлиб бевосита давлат маблағидан, иккинчиси эса Баҳоуддин Нақшбанд мазори атрофида жойлашгани ҳамда мазор вақфида молиялаштирилганини келтириб ўтади.

Жўғрофия ва метрологияга оид маълумотлар. Муҳаммад Содикхўжа ҳар бир маъмурий бирлик орасидаги масофаларни қайд қилиб ўтган. Асарда фарсах, лак (юз минг), ман, тош каби ўлчов бирликлари ишлатилган. Мисол учун, амирликнинг марказдан энг чекка ҳудуди бўлмиш Бадахшон пойтахтдан 140 фарсах узоқликда жойлашган. Яна муаллиф ўз тажрибасидан келиб чиқиб вилоятлар ўртасидаги масофани босиб ўтиш вақтларини ва қулай йўллари ҳам кўрсатиб ўтган. Ҳисордан отлик киши Самарқанга етиши учун икки кечаю кундуз вақти кетади [6: 125] деб, - тарихчи қайси йўллардан юриш бўйича тавсиялар ҳам берган. Ундан ташқари ҳар шаҳар ва тумanning майдони ҳақида маълумотларни беради. Мисол учун, Кармана вилоятининг узунлиги ва ер майдони етти фарсах [6: 60], Нурота вилоятининг майдони ўн беш фарсах бўлган [6: 70]. Жўғрофий маълумотдан ташқари бу рақамлар бизга амирликдаги маъмурий бошқарув бўлиниши ҳақидаги ахборотга эга бўлиш имконини беради. Масалан юқоридаги маълумотга кўра, Нурота вилояти Карманадан икки баравар катта лекин иккаласи ҳам бир хил бошқарув тизимида. Бунинг сабаби Кармана вилояти майдони жиҳатдан Нуротадан кичик бўлсада ундаги қишлоқлар ва аҳоли сони Нуротага нисбатан икки карра кўп бўлган, тоғли ҳудуд саналган Нуротада эса аҳоли ҳар жойда сийрак жойлашган.

Муҳаммад Содикхўжа Амударё ҳақида маълумот берар экан, унинг Бухоро ва Хиванинг асосий сув манбаи эканлиги, дарёнинг Помир тоғларидан бошланиб Оролга қуйилиши ҳақида батафсил тўхталиб ўтган. Амударё Оролгача жами етти юз милни босиб ўтиб, унинг беш юз мили Бухоро ҳудудига, қолган икки юз мили Хива ҳудудига қарашли бўлган [6: 72].

Амирликнинг бошқа давлатлар билан чегаралари тўғрисидаги ахборотлар ҳам ушбу асардан ўрин олган. Масалан, Карки билан Афғонистоннинг Андхўй вилояти чегара бўлиб, чегара ўртасида ярми Бухорога қолган ярми Афғонистонга қарашли бўлган чоршанба бозори фаолият юритган. Чоржўй вилояти кўрғонида етти арава тўп замбарак асбоблари билан сақланган. Бунинг сабаби XIX аср бошида ушбу чегара ҳудудга така туркманлар ва Хива хонлиги томонидан ҳужум уюштириб турилган. Амир Шохмурод томонидан Марв эггаланишида ишлатилган тўплар Бухорога қайтишда Чоржўй кўрғонини кўриклаш учун қолдириб кетилган [6: 83].

Шунингдек, асарда амирликда мавжуд қазилма бойликлар ва тоғ конларнинг жойлашувига оид маълумотлар ҳам ўрин олган. Ғузорга қарашли тоғларда туз, мўмий, кўрғошин, олтингугурт конларига бой бўлган [6: 100]. Келифнинг конларидан сифатли туз чиққани учун Миёнқол, Шаҳрисабз, Самарқанд ва бошқа ҳудудларнинг барчасини туз билан таъминлаган.

Асарда Афросиёб, Арслонхон, Бурҳониддин Абдулазиз садр, Абдуллахон II каби тарихий шахслар ва кўплаб тарихий ёдгорликларга оид маълумотлар тилга олинган. Мисол учун, Карки билан Қарши орасида Абдуллахон II томонидан учта сардоба қурдирилганлиги, Пойканд, Ромитан, Косон, Шеробод, Термиз каби ҳудудларда аҳоли ҳалигача кўплаб қадимий буюмлар, тангалар топиши ҳақида келтириб ўтилган.

Жой номлари (топонимика) уларнинг келиб чиқиши, маъноси, турли

даврларда номларнинг ўзгариши ҳақида ҳам муаллиф яхшигина ахборотлар берган. У Қаршининг қадимда Нахшаб номи остида бўлганлиги, амирлик даври қозилик васиқаларида эса Насаф деб юритилиши тўғрисида ёзади [6: 87].

Ўрганилиши. Тожикистон Фанлар академияси Рўдакий номидаги тил, адабиёт, шарқшунослик ва ёзма мерос институтида сақланаётган мазкур қўлёзма ушбу давлат олимлари томонидан атрофлича ўрганилган [3: 17]. Асарнинг тожик тилидаги тўлиқ табдил матни 2006 йили Тожикистон фанлар академиясида Ж. Нарзиев раҳбарлигида нашрдан чиққан [6:102]. Бундан ташқари, амирликнинг шарқий қисми бўлмиш Қоратегин [7: 98-106], Хатлон [11: 62-66] вилоятларига оид, шунингдек, ушбу ҳудудларнинг жуғрофияси, антропонимлари [5: 82-88], гидронимларига. [8: 14-18] тегишли маълумотлар илмий муомалага киритилган. Асар Ўзбекистон тарихчилари томонидан ҳам тадқиқотларда қўлланилган бўлиб, хусусан Қарши [4: 66-70] ва Ғузор [10: 87-94] бекликлари мисолида ўрганилганини кўришимиз мумкин. Бироқ, “Тарихи ҳумоюн” асари манба сифатида тўлалигича ўзбек тарихшунослигига жалб қилиниши ва ундаги мавжуд қимматли маълумотлар илмий тадқиқотларда қўлланиши лозим. Шунингдек, ушбу асарнинг унга замондош бўлган маҳаллий манбалар билан қиёсий танқидий солиштириш ҳам манбашунослар олдида турган муҳим бир вазифалардан ҳисобланади.

Хулоса. Хулоса қилиш шуни таъкидлаш мумкинки, асар нафақат Бухоро амирлиги ва унга бўйсунувчи ҳудудларнинг хонадонлари ва аҳоли сони тўғрисида жуда кам учрайдиган демографик маълумотлар келтирилган. Умуман олганда, “Тарихи ҳумоюн” Туркистон халқларининг XIX аср охири XX аср бошлари орасидаги тарихи, жуғрофияси, элшунослиги, аҳолишунослиги ва ҳўжалигини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллоева З. М. История хумаюна Гулшани и ее историко-географическое значение // Историк (Муаррих). – 2021. – №. 1 (25). – С. 90-97.
2. Айнӣ С. Ёддоштҳо. қисми III. – Сталинобод. 1951.
3. Алимардонов А. Нусхаи қаламии «Таърихи ҳумоюн»-и Гулшанӣ// Мероси ниёгон,-1995, № 2. С. 17.
4. Бахрамов Т. Қашқадарё воҳаси амлоқликларининг ижтимоий-маданий ва этномаданий ҳолати (Қарши беклиги мисолида) // Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 25. – С. 66-70.
5. Бобокалонова Р. Употребление антропонимии в “Таърихи ҳумоюн” Гулшани // Вестник Педагогического университета. – 2019. – №. 1 (78). – С. 82-88.
6. Муҳаммад Содикхочаи Гулшанӣ. Тарихи ҳумоюн. – Душанбе. 2006.
7. Саидов С. Д., Мудабиров З. Б. Описание долины Каратегина в “Истории хумаюна” Муҳаммада Содикходжи Гульшани //Историк (Муаррих). – 2022. – №. 1 (29). – С. 98-106.
8. Хомидов Д. Употребление гидронимов Таджикистана в “Тарихи ҳумоюн” Гулшани // Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук. – 2014. – №. 4-4. – С. 14-18.
9. Шарифҷон Махдум Садри Зиё. Тазкори ашъор. – Техрон. 2001.
10. Эргашев У. Қ. XIX аср охирлари – XX аср бошларида Бухоро амирлиги Ғузор беклигидаги аҳоли масканлари // E Global Congress. – 2022. – №. 1. – С. 87-94.
11. Alisher A. Чуғрофияи таърихии Хатлон дар тасвири “Таърихи ҳумоюн” // Вестник Таджикского национального университета. – 2019. – №. 1. – С. 62-66.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ

Лайло Шарипова,

БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф.ф.д.

Аннотация: XX асрнинг 70-80 йилларида ўзбек шеъриятига бир гуруҳ шоирлар кириб келдилар ва шеъриятимизда жиддий ўзгаришни юзага келтирдилар. Шундай шоирлардан бири Тилак Жўрадир. Унинг шеърияти ўзига хослиги билан фарқланиб туради. Мақолада шу ҳақда фикр боради.

Калит сўзлар: Тилак Жўра, шеърият, лирик қаҳрамон, мавзу, сарлавҳа, қарғиш, публицистика, маънодошлик, бадиият.

THE PECULIARITIES OF TILAK JURA'S POETRY

Laylo Sharipova,

Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of BSU, DSc.

Abstract: In the 70s and 80s of the 20th century, a group of poets appeared in Uzbek poetry and brought about a serious change in our poetry. One of the greatest poets is Tilak Jura. His poetry is distinguished by its originality. The article discusses the uniqueness of his poetry.

Key words: Tilak Jura, poetry, lyrical hero, theme, title, anathema, journalism, synonymity, poetics.

ОСОБЕННОСТИ ПОЭЗИИ ТИЛАКА ЖУРЫ

Лайло Шарипова,

профессор кафедры Узбекского языка и литературы БухГУ, DSc.

Аннотация: В 70-х и 80-х годах 20 века группа поэтов вошла в узбекскую поэзию и произвела серьезные изменения в нашей поэзии. Одним из таких поэтов является Тилак Жура. Его поэзия отличается оригинальностью. В статье рассматривается уникальность его поэзии.

Ключевые слова: Тилак Жура, поэзия, лирический герой, тема, название, анафема, публицистика, синонимия, поэтика.

Кириш. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърияти бетакрор шеърият сифатида эътирофга лойиқ. Бу давр шоирлари ўзбек публицистикаси вазифасини ҳам бажаришга чоғландилар. Ватан мустабид тузум қийноғидан чарчаган, шоирларига умидвор боқётган эди. Шу умидворликдан ғамга ботган, айни дамда, куч-қувват олган шоирлар шеърлари ёрдамида истиқлолни чорладилар. Аммо етук шоирлар шеъриятнинг асл вазифасини унутмадилар. Назмни кўнгилнинг кўзгусига айлантира олдилар. Уларнинг сафида Бухоронинг Қорақўлида туғилган, камтар, аммо ғурури осмон, ўжардан ўжар шоири Тилак Жўра бор эди. Ҳам шоир, ҳам олим бўла билган Тилак Жўра ота-онасининг дуосини кўп бор олган, Худо деган эканки, тақдир Ғайбулла Ас Салом каби фозил устозга шогирд, Садриддин Салим Бухорий, Самад Азимов сингари покдомон шоиру олимларга сафдош, Муҳаммад Юсуф сингари беғубор, эл севган шоирлар билан ҳамсухбат, дарддош айлади. Унинг ўзига хос шеърияти бор эди...

Муҳокама. Адабиётшунос олим Д.Қуронов мавзунинг икки жиҳати бор деб

билиб, бири ҳаёт материали, бири ижтимоий, маънавий-ахлоқий, фалсафий ва шу каби муаммолар мажмуи [3, 248] деб билади. Шу маънода Тилак Жўра шеървати мавзусини назардан ўтказсак, барча мавзулар муҳаббат мавзуси атрофида бирлашганини кўриш мумкин. Умид улуг туйғу, шу сабаб у ҳақида шеърлар кўп. Аммо Тилак Жўра умид ҳақида шундай ёзадики, тафаккури чуқур бўлмаса, шеърхон дабдурустдан англамайди:

Кўриб мендаги гўзаллигини
Кўзлари қамашиб,
Қон бўлиб чопади томирларимда –
Дилбар бир умид... [1,3]

Лирик қаҳрамондаги бу умид шундай гўзалки, ўзининг гўзаллигига боқиб умиднинг кўзи қамашади. Кўзи қамашган умид лирик қаҳрамон томирларидаги қонга, яъни ҳаётга айланади. Энди у шунчаки умид эмас, “Дилбар бир умид”. Шоирнинг фикрни ифодалаш истаги ҳос. “Шеърват” шеърда лирик қаҳрамоннинг кимга ёки нимага мурожаат қилаётгани бир қараганда дарров англашилмайди. Чунки шеърда “шеърват” сўзи қўлланмаган. Фақат сарлавҳа шунга англади. Аммо шеърват ҳақидаги гўзал, бетакрор шеърларга сафдош бу қисқа ҳажмли шеърда ҳеч кимда учрамайдиган ўзбекона ифода бор:

Тутдек тўкилди юрагим
Умидларнинг силкишидан.
Сени соғиниб кутаман
Оғтибнинг ҳар чиқишидан [1,4].

Демак, шоирнинг юрагини умидлар шундай силкийдик, юраги тутдай тўкилади. Шоир сўз кўмагида манзара ҳосил қилади. Шу маънода, у – руҳият мусаввири. Тутнинг таналарига сал тегинсангиз, тутлар дувиллаб тўкилади. Аммо пишмаган тут асло тўкилмайди. Ҳаётда шу манзарани кўриб улғайган шеърхон учун юракнинг тутдек тўкилишини англаш осон. Аммо биттагина бўлган юракнинг тутдек тўкилиши учун у минг бўлакка бўлинган, тилка-пора бўлган бўлиши керак. Кейинги сатрларда шоир дабдурустдан оғтибни нега соғиниши аёнлашади. Юракнинг тутдек тўкилиши учун оғтиб зарур. Бу манзаралар шеърнинг дунёга келишини кўз ўнгимизда гавдалантирган.

Шоирнинг фикрича, шеърват “кўзларнинг ачишидан”, шоир “қонининг ҳар томчисидан” дунёга келади. Бунинг учун “армоннинг хўп санчишидан”, “аламнинг ҳар қамчисидан” юрак тутдек тўкилиши, юрак қонлари томчи-томчи бўлиб тўкилиб кетиши керак. Шоир шеърватни таърифламайди. Шоирдаги ҳолат шеърватнинг қай таҳлит яралишини шеърхонга намоён этади.

“Руҳият” шеъри эса Тилак Жўра оламини намоён қилувчи ўзига ҳос шеър сифатида таассурот қолдиради:

Бир яланглик бўлса,
Тўйиб-тўйиб бақирсанг,
Сўниб қолган руҳингни
Қалқиб-қалқиб чақирсанг!..
Титраса товушингдан
Димикқан бағринг, тананг,
Сочилиб дил ғубори
Қоядаги майсадай
Силкиниб турса шонанг [1,5].

Шоир “руҳим сўниб қолди”, “бағрим димикди” демайди. Иккинчи шахсга мурожаатдай туюладиган, лирик қаҳрамонга қарата айтилган бу фикрлар

шоирнинг даврдаги биқикликка исёни, руҳининг ҳайқириғи ҳамдир. Зотан, бу шеър киритилган китоб истиклолдан олдин нашр қилинган:

Оҳ урсанг, оҳлар десанг,
Бу қандай замон, охир!
Тўйиб-тўйиб бақирмоқ,
Ёниб-ёниб чақирмоқ
Енди бир армон десанг.
Бир яланглик бўлса,
Айтиб-айтиб шуларни,
Учириб
Гала-гала қушларни
Тўйиб-тўйиб бақирсанг,
Куйиб-куйиб чақирсанг?!

Бу айнан Тилак Жўранинг руҳияти тасвири, тавсифи эканини англаш учун шоирнинг шахсиятини билиш зарурати кам. Негаки, зукко шеърхон учун шоир шеърлари ойналик вазифасини ўтайди:

Замонларнинг зулми-зўридан,
Ёғийларнинг қонли тўридан,
Тўрдай тугун халқнинг шўридан,
Нолалар қилдинг, нолали қушчам,
Ўз ҳолига ўзи волали қушчам,
Туркий титроғингга бунчалар ситам! [1,6]

Шоир “булбул” сўзининг маънодошларини қўллайди. Нега?! Маънони кучайтириш учунми? Ҳа. Аммо фақат бугина эмас. Бу “булбул” сўзининг маънодошлари қўлланган даврларни англатади. “Девону луғотит турк” дан ҳазрат Навоийгача бўлган туркий шеърятда “сандувоч”, Навоий шеърятидан XIX асргача “андалиб”, XX асрдан ҳозиргача “булбул” сўзи кўпроқ, кенгроқ қўлланилиб келинади. Шеърда “Туркий титроғингга бунчалар ситам” сатри такрор-такрор келтирилар экан, шеър композитсиясини бутунлаштириб турган сатр сифатида кўзга ташланади. Бу шеър шеърят, шоир, бадий сўз ҳақидаги шеър. Унда сюжет бор. “Тутқунликда толиққан қушчам, Зорланиб-зорланиб зорикқан қушчам” – товуш такрори безаган бу сатр шеърнинг тугунини ҳосил қилган. Шоир воқеани ривожлантириб, булбулнинг толиқишига сабабларни кўрсата бошлайди. Зиддиятлар чўққиси сифатида келтирилган сатрларда нафақат ўз элининг, балки бутун туркийларнинг дард-у оғриқлари мужассамлашган:

Сайраб қучмоққа осмонинг йўқдир,
Яйраб қучмоққа ошёнинг йўқдир,
Ташлаб кетмоққа маконинг йўқдир,
Осмони оғули,
Макони доғули
Қушчам,
Туркий титроғингга бунчалар ситам!

Шоир булбул – жажжи қушча нега толганини изоҳлашда, аниқлашда давом этади. Шеър сюжетидаги ечим юзага кела бошлайди. Эркисиз ватаннинг, нажотсиз элнинг шоири – булбулининг аҳволдан элни огоҳ этади. Бу шеърда сатрлар шу қадар тадрижий тарзда жойлаштирилганки, чуқур, тизимли таҳлил қилинса, йирик мақола юзага келади ва шоир шахсияти, унинг Ватанга муҳаббати, эркака ташналиги, маслағи аниқроқ ойдинлашади. Шеърнинг якуни элимизнинг феълига хос муҳим жиҳатларни таъкидлайди:

Ўзинимас ўзгани суйган –

Сандувочим – сарлочиним,
Туркий титроғим,
Туркий нафасим.
Руҳи осмонларда,
Ўзи
Бағримда ботин сасим –
Туркий титроғингга бунчалар ситам!

Биз бир лаҳза ҳам ором олмайдиган, тиним билмайдиган, куйманиб яшайдиган элмиз. Бу куйманиш оқибатида куйиб юрамиз. Энг оғири, шарафлиси – асрлар давомида элимизда ўзгармаган хусусият: ўзини эмас ўзгани ўйлайдиган элмиз. Булбулни тутсангиз ва авайламай, кўпол тарзда сиқиб ушласангиз, ундаги титрокни ҳис қиласиз. Бу титрок, шоир айтганидек, “Туркий титроғим”, “Туркий нафасим”, унга беҳисоб ситамлар қилинган. Бу ситамларни шеърга солиш, шўро даврида айтиш, чоп эттириш учун Тилак Жўра бўлиш керак эди.

Тилак Жўра шоир, шеърят ҳақида ёзар экан, улуг шоирларга эҳтиром кўрсатади. “Устоз Миртемирни эслаб”, “Чўлпон”, “Нозим Ҳикмат”, “Рауф Парфига” шеърларида шоирнинг улуг олам – шеърятга муносабати акс этган.

Халқимизда қарғанинг номи унинг лаънат олгани билан боғлиқлиги ҳақида яратилган афсона бор. М.Қошғарийнинг “Девони луғотит турк” асарида қарғиш сўзига ўзакдош “қирғағ” сўзининг “ғазаб”, “қаҳр” маъносида қўлланилгани изоҳланган. Шоир Тилак Жўра шу икки фикрдан фойдаланиб, қор ёғиши манзараси билан қаламнинг оқ варақни қора қилиши ҳолатини ўзаро ўхшатади. Бунинг биринчисидан қора нарсанинг оқ бўлиши, иккинчисидан, аксинча, оқ нарсанинг қора бўлиши англашилади. Қарғалар қора тусда бўлганлиги учун оппоқ қор узра юрса, тез билиниб, кўзга ташланиб қолади. Шоир шу ўхшаш ҳолатларни ёдга олиш орқали ўз руҳиятидаги қарама-қаршиликларни очиб беришга интилади.

Қаҳрим қағиллаган қарғадир,
Ўзимдан, кўзимдан йўрғадир.
Йўғрилиб-йўғрилиб лабимни тишлар,
Қор қоплаган қарғишлар [1,13].

Натижа. Тилак Жўра ўзбек шеърятига ўз қадамлари билан кириб келди. Фақат кўнгли тилаган сўзни айтди, ақли буюрган ишларни амалга оширди, асло иймонига зид сўзни оҳангга солмади, асло илми билан амалидаги бирликка путур етказмади. Бор-йўғи шаънига зид ишга рўпара келса, мавқеидан, орзусидан, манфаатидан кечса-кечди, аммо мунофиқлик остонасига яқин бормади. Шариф Бухоромизнинг Сайёд отлиғ маскани Тилак Жўра ҳаёти ва ижоди сабаб яна бир қарра машҳур бўлди, адабиёт муҳиблари хотирига муҳрланди. Аммо шоирнинг ўзи олимлик, шоирлик мақомидан бирор манфаат учун фойдаланмади. Ўжарликдай кўринган жиҳатлари аслида иймонда собитлик эканини исботлаб яшаб ўтди. Унинг шеърятини XX аср синовидан ўтиб, XXI асрга завоқ кўрмай кўчди. Бу шоир тирик эканини, ижоди орқали барҳаётлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тилак Жўра. Руҳият. Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – 80 б.
2. Sharipova L.F. The use of water attributes in oral written poetry characters // AKADEMIC JOURNAL. 2021/2/11 №1. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970. – P. 608-618.
3. Қурунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.148.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING IJTIMOYIY INTELLEKT XUSUSIYATLARI

Ataxo 'jayeva Shaxlo Anvarovna
"Turan International University" o'qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0002-6523-3951>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi kasbiy va shaxsiy sohadagi ijtimoiy-psixologik muammoli vaziyatlarni samarali hal qilish ko'nikmalarini ortishida ijtimoiy intellekt xususiyatlarining o'rni haqida yoritilgan. Ijtimoiy intellekt tushunchasi psixologiya fanidagi o'rganilgan jarayoniga to'xtalib o'tilgan. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining ijtimoiy intellekt dinamikasini aniqlanishi 4ta subtest olish orqali aniqlangan tahlillar natijalari keltirilgan. Xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning ijtimoiy intellektini o'rganishning dolzarbligi, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish sharti sifatida ilmiy bilimlarni rivojlantirish tendentsiyalari, shuningdek, ijtimoiy amaliyotning mavjud ehtiyojlari bilan belgilanishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, kommunikativ kompetensiya, samarali yechim, turli usullar, potentsial intellekt, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari.

SOCIAL INTELLIGENCE CHARACTERISTICS OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Atakhujaeva Shakhlo Anvarovna
Teacher of «Turan International University»

Abstract: This article describes the role of social intelligence in increasing the communicative competence of future English language teachers and their ability to effectively solve socio-psychological problem situations in the professional and personal spheres. The concept of social intelligence is discussed in the process studied in the science of psychology. The results of the analyzes determined by taking 4 subtests to determine the dynamics of social intelligence of future English language teachers are presented. In particular, the importance of studying the social intelligence of future English language teachers, the trends in the development of scientific knowledge as a condition for the development of their communicative competence, and the current needs of social practice are highlighted.

Keywords: social intelligence, communicative competence, effective solution, different methods, potential intelligence, future English teachers.

ХАРАКТЕРИСТИКИ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Атаходжаева Шахло Анваровна
Преподаватель «Turan International University»

Аннотация: В данной статье описывается роль социального интеллекта в повышении коммуникативной компетентности будущих учителей английского языка и их способности эффективно решать социально-психологические проблемные ситуации в профессиональной и личной сферах. Понятие социального интеллекта обсуждается в процессе, изучаемом наукой психологией. Представлены результаты анализов, определяемых прохождением 4-х субтестов для определения динамики социального интеллекта будущих учителей английского языка. В частности, выделены важность изучения

социального интеллекта будущих учителей английского языка, тенденции развития научных знаний как условия развития их коммуникативной компетентности, актуальные потребности социальной практики.

Ключевые слова: социальный интеллект, коммуникативная компетентность, эффективное решение, различные методы, потенциальный интеллект, будущие учителя английского языка.

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi va kasbiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy intellekt muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilik kasbi uchun ijtimoiy intellekt muammosi katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy intellekt o'qituvchining o'zini, xatti-harakatlarini, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini va samarali o'zaro munosabatlarini tushunish, shuningdek, maqsadga erishish uchun bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu sohada izlanishlar olib borayotgan olimlarning umumiy soni juda katta. Boshqa ko'plab ilmiy tushunchalarda bo'lgani kabi, olimlar ijtimoiy intellekt nima ekanligi bilan ham bir to'xtamga kela olmaydilar. Biroq, muammoning dolzarbligi, asosan, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarning ijtimoiy intellektining o'ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada o'rganmaganligi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, O'zbekistonda bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish darajalari hali maxsus o'rganilmagan. Ijtimoiy intellektning empirik tadqiqotlari esa turli bosqichlarda amalga oshirilgan. Xorijiy manbalarda mavjud bo'lgan, aql darajasini aniqlashga qaratilgan turli xil usullarga qaramay, ularning barchasi o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Psixologiya fanida ijtimoiy intellektning ko'plab ta'riflari, yondashuvlari, modellari mavjud. Va biz ushbu maqolada ijtimoiy tushunchalarning barchasini tasavvur qila olmaymiz. Shu munosabat bilan biz faqat bizning ishimizni tushunish uchun zarur bo'lgan va tadqiqotning maqsad va vazifalari, uning gipotezasi va qo'llaniladigan usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ilmiy pozitsiyalarni ushbu maqolada ochib beramiz.

Ijtimoiy intellekt umumiy intellektning bir qismi sifatida ta'lim jarayoni uchun katta ahamiyat kasb etadi. X.J.Ayzenk [8] fikricha, ijtimoiy intellekt - bu shunday ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida umumiy intellektning rivojlanishi natijasiki, u shaxsning jamiyat talablariga moslasha olish qobiliyatidir. Ijtimoiy intellektning rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar orasida X.J. Ayzenk ijtimoiy-iqtisodiy holat, uning motivatsiyasi, madaniy omillar, ta'lim darajasi, til o'rganish qobiliyati va boshqalarni ajratib ko'rsatdi.

Ijtimoiy intellekt fikrlashning asosi bo'lib, boshqa intellektlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. G.V. Allport [10] ijtimoiy aql-idrokni insonning odamlarni to'g'ri hukm qilish, ularning xatti-harakatlarini bashorat qilish va shaxslararo munosabatlarda adekvat moslashishni ta'minlashning o'ziga xos qobiliyati deb hisoblaydi. D. Veksler [11] asarlarida ijtimoiy intellekt shaxsning inson hayotiga moslashishi sifatida tanilgan, ya'ni hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyati deya ta'riflangan. D.G. Myers [12] ijtimoiy intellektni ijtimoiy fikrlash, o'zini o'zi va boshqalarni ijtimoiy ko'rsatmalar asosida baholash qobiliyati sifatida belgilaydi. J. Piaget [13] aqlning mohiyatini jismoniy va ijtimoiy voqelikka moslashuvchan va barqaror moslashishda ko'rib chiqadi. Ijtimoiy intellektning murakkab tuzilma modeli J.P.Gilford tomonidan taqdim etilgan [14]. Uning kontseptsiyasiga ko'ra, ijtimoiy intellekt ijtimoiy obyektlarni aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonlarini birlashtiradi va tartibga soladi. M.E.Ford va M.S.Tisak [15] ijtimoiy intellektni muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun ijtimoiy ma'lumotlarni qayta

ishlash uchun aqliy qobiliyatlar guruhi sifatida aniqladilar. Ular ijtimoiy intellekt umumiy intellektga o'xshamasligini va u ijtimoiy muhitda rivojlanishini isbotladilar. R.J. Sternbergning intellekt nazariyasi [16] uchta jihatni o'z ichiga oladi:

1) ichki o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi tarkibiy qism nazariyasi, shaxs dunyosi, fikrlash mexanizmlari, axborotni qayta ishlash bilan bog'liq (intellektidagi komponent);

2) tajribaning kichik nazariyasi, yangi vaziyatni egallash samaradorligini belgilovchi, oldingi tajribadan foydalanish (empirik aql);

3) intellektning ijtimoiy vaziyatda namoyon bo'lishini tushuntiruvchi kontekstning kichik nazariyasi (vaziyatli intellekt).

Asta-sekin, ijtimoiy intellektni o'rganishda ijtimoiy intellektni baholashning xulq-atvorli noverbal usullariga asoslangan tadqiqotlar ko'proq o'rin egallaydi. Kosmitski va O.P.Jon [17] ijtimoiy intellektni ko'rib chiqish va diagnostika qilishda ushbu ikki yondashuvni ya'ni ijtimoiy komponent va ijtimoiy intellektni birlashtirishga birinchilardan bo'lib qo'l urishdi. Va olimlar ushbu komponentlarni ikkita alohida guruhlariga: kognitiv va xulq-atvor guruhlariga birlashtirishdi.

Tegishli adabiyotlarni nazariy tahlil qilish tadqiqot gipotezasini shakllantirishga imkon beradi: bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarning ijtimoiy intellektning rivojlanish darajasi ularning o'quv faoliyatidagi kommunikativ vakolatlarini belgilaydi. Shunday qilib, tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchining kasbiy muloqotida muhim bo'lgan omillarni hisobga olgan holda o'rta maktab o'quvchilarining ijtimoiy intellektning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir.

Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilar – Namangan Davlat Universiteti ingliz tili yo'nalishining talabalari sinovdan o'tkazildi. Sinovdan o'tgan talabalarining o'rtacha yoshi 18,6–64 nafar o'g'il bolalar va 276 nafari qiz bolalardir. Shuni ta'kidlash kerakki, biz aqliy jihatdan ijtimoiy gender o'ziga xosliklarini ajratmaymiz.

Ishda quyidagi vositalar qo'llaniladi: ijtimoiy intellektni tekshirish usullari J.P.Guil Ford, M.O. Sullivan [18] va 16-PF Kattell usuli (shakl C) [19-20]. Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun S.Spirman diapazonning korrelyatsiya usulidan foydalangan.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ijtimoiy intellektning tarkibiy qismlari diagnostikasi (xulq-atvor natijalarini bilish, xatti-harakatlar sinflarini bilish, xatti-harakatlarning o'zgarishini bilish, xatti-harakatlar tizimini bilish) J.P.Gilford va M.O. Sullivan usuli. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarda ijtimoiy intellektni baholashning o'rtacha darajasi (67%) ustunlik qiladi. Ijtimoiy intellekt o'rtachadan yuqori (qobiliyatlarining o'rta va yuqori standart ma'nolari) qabul qiluvchilarning atigi 17 foiziga ega. Ijtimoiy intellekt darajasi me'yordan past bo'lgan talabalarining 16 foizi (qobiliyatlarining past va o'rtacha zaif standart ma'nolari) odamlarning xulq-atvorini tushunish va prognoz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tajriba natijalari bo'yicha «xulq-atvor oqibatlarini bilish» omili eng katta darajada ifodalangan (1-kichik test).

Demak, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilar (97%) odamlarning his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish asosida ularning keyingi ishlarini oldindan ko'ra oladilar. Ushbu subtest natijalari bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining kommunikativ kompetentsiyasining dinamiklik kabi tarkibiy qismlarining yuqori ma'nosi bilan chambarchas bog'liq (N+ omil); ustunlik darajasi (E+ omil); mustaqillik (Q2+ omil); qisqalik (H+ faktori); shubhalilik (faktor L) ($p < 0,01$). Ekspressivlik darajasiga qarab ijtimoiy intellektning idrok kabi komponenti guruhda og'zaki ifoda ta'kidlangan. Bu insoniy munosabatlar xarakteriga yuqori sezgirlikka ega bo'lgan talabalar guruhini (88%) tavsiflaydi. Ta'kidlanishicha, ushbu subtestning ma'nolari kommunikativ

kompetensiyaning quyidagi komponentlari bilan ijobiy bog'liq ($p < 0,01$) hissiylik (I+ omil), vijdonlilik (G+ omil), intellektuallik (B+ omil), rivojlanish darajasi tasavvurning (M+ omili), diplomatiyaning (omil N+).

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy intellekt omillarining rivojlanish darajalari

№	Qobiliyatlarning standart ma'nolaridagi testlar	1- Test	2- Test	3- Test	4- Test
1.	Past	-	3	-	9
2.	O'rtacha zaif	3	17	12	21
3.	O'rtacha	80	63	71	54
4.	O'rtacha kuchli	10	15	14	16
5.	Yuqori	7	2	3	-

“Ekspressiv xulq-atvor guruhlarini bilish” omili (2-subtest) bo'yicha past baho (20%) bo'lgan talabalarda harakat, qarash va hazil tillarida yomon. Ulardagi intellekt, asosan, axborotning og'zaki mazmuniga yo'naltirilgan. Ular ko'pincha suhbatdoshning so'z ma'nosini tushinishda xato qilishlari mumkin, chunki ular og'zaki bo'lmagan reaksiyalarini hisobga olmaydilar. Shu bilan birga, 2-subtest bo'yicha eksperimental ma'lumotlar o'z-o'zini nazorat qilishning yuqori darajasi (Q4+ omil) va reklyuziyaning yuqori ma'nosi (A-omil) (mos ravishda, $r_s = 0,57$; $r_s = 0,83$, p) bilan ijobiy bog'liq. $p < 0,01$). 4-subtestda bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilar eng past bilimni (30%) ko'rsatdi. Bu shuni ko'rsatadiki, talabalar to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida kommunikativ faoliyatning muvaffaqiyatli qurilishini bashorat qilish va shaxsning og'zaki bo'lmagan reaksiyalariga, shuningdek, jamiyatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi norma va qoidalarga yo'naltirish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan; Muloqot ishtirokchilarining maqsadlarini, niyatlarini, ehtiyojlarini mos ravishda aks ettirish va ularning xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham aynan shunga bog'liqdir. 4- subtest natijalari intellektual omillar rivojlanishining past darajasi bilan ijobiy korrelyatsiya ifodalangan ($p < 0,01$). Bunday holda, tasavvur rivojlanishining past darajasi (M omili), yangilikni qabul qilish qobiliyati (Q1 omil), umumiy intellektual rivojlanish (B omil) va struktura va dinamikani bilish qobiliyatining shaxslararo o'zaro ta'sirlar holati rivojlanishi haqida gapirish mumkin (4-subtest). Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aql-idrokning ijtimoiy omillari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari orasida kommunikativ faoliyatda kompetentsiyali moslashuvchilarning ulushi yuqoridir.

Shunday qilib, tadqiqotlar tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini oliy ta'lim sharoitida rivojlantirish ijtimoiy intellekt bilan sezilarli darajada bog'liq. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining kommunikativ kompetentsiyasi aqlning ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq va unga asoslanadi. Shunday qilib, aksariyat tadqiqotlar ijtimoiy intellektni umumiy qobiliyat, amaliy fikrlash yoki ijtimoiy moslashuvning maxsus shakli shaklida taqdim etilgan umumiy aqlning birikmasi sifatida belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy tafakkuri, ularning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish holati kabi tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Shu munosabat bilan ijtimoiy-madaniy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining ijtimoiy tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari haligacha o'rganilmagan.

Biz ijtimoiy intellektni shaxsning maxsus kognitiv salohiyati yoki aqliy resursi

deb hisoblaymiz. Ijtimoiy intellekt jamiyatning madaniy omillarini hisobga olgan holda ijtimoiy-psixologik muammolarni samarali hal qilishni ta'minlaydi. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchining kasbiy mahoratining shakllanishi ijtimoiy aqliy qobiliyatga bog'liq. Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda, ijtimoiy intellektni o'qituvchining kasbiy faoliyati muvaffaqiyatining zaruriy muddati deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy intellekt bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari uchun pedagog sifatida xizmat qiladigan, samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'plab pedagogik kompetentsiyalar, shu jumladan kommunikativ kompetentsiya uchun asosdir. Shunday qilib, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarning ijtimoiy intellekt muammosini hisobga olgan holda, ularning kommunikativ kompetensiyasi haqida gapirish kerak. Bu kasbiy ta'lim jarayonida o'qituvchining ijtimoiy intellektini va kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish darajasini o'rganishni ilgari suradi.

Ijtimoiy intellektni baholashning o'rtacha darajasi, umuman olganda, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining shaxslararo munosabatlarda yetarlicha samarali ekanligi va jamiyatga normal moslashganligini anglatadi.

Ijtimoiy darajasi o'rtacha darajadan yuqori bo'lgan bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari odamlarning xatti-harakatlari haqida ma'lumot olishlari mumkin, ular og'zaki bo'lmagan muloqot tilini juda yaxshi tushunadilar, odamlar haqida o'z fikrlarini bildiradilar va ma'lum sharoitlarda ularning reaksiyasini muvaffaqiyatli oldindan ko'ra oladilar.

Ijtimoiy darajasi standartlardan past bo'lgan bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilari esa murakkab munosabatlarga ega bo'lib, ijtimoiy moslashish imkoniyati pasayadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining aksariyati odamlarning keyingi ishlarini oldindan ko'ra oladilar. Ammo ularning prognozlarini noto'g'ri bo'lishi mumkin, agar ular o'zini noodatiy tarzda tutadigan odamlar bilan muomala qilsalar. Talabalar tomonidan 1 subtestni muvaffaqiyatli bajarish ularning ishtirokchilarning og'zaki bo'lmagan reaksiyalarida yo'naltirish qobiliyatini va odamlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi norma modellari va qoidalarini bilishini ko'rsatadi. Bu natija talabalarining pedagogik yo'nalishi va o'zbek muloqotining etnik xususiyatlari, me'yorlari, standartlari va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Muloqot madaniyatida xulq-atvor va xatti-harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati o'zbeklarning muloqot madaniyatida katta ahamiyatga ega va bu qobiliyatlarga asoslangan muloqot strategiyasi va taktikasi qimmatlidir.

Shuningdek, o'zbek talabalarining pedagogik diqqat markazida va etnik o'ziga xosliklari aniq vaziyatda odamlar bir-biriga nima deyishlarini tushunishga yordam beradi. Bu 3-subtest bo'yicha vazifalarni bajarishga yordam beradi.

«Ifodali guruhlarni bilish» (2-subtest) va «shaxslararo o'zaro ta'sir holatining tuzilishi va dinamikasini bilish» omillarining past ko'rsatkichlari (4-subtest) ba'zi bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarning ma'lum shaxslararo muloqotda qiyinchiliklarni his qilishlarini ko'rsatadi.. Shunday qilib, ular odamlarning o'zaro munosabatlaridagi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va muayyan xatti-harakatlarning sabablarini aniqlash uchun etarli qobiliyatga ega emaslar; ularning kommunikativ mantiqni tushunish faoliyat yomonroq rivojlangan.

Bunday bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilar ko'pincha so'zlarni noto'g'ri ishlatishadi va suhbatdoshning so'z talqinida xato qilishadi. Bu kasbiy ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish yagona maqsadli ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchi shaxsning

kommunikativ munosabatlarining yaxlit kontekstini anglashi, uning munosabatlari tarixini tahlil qilishi va tahlil natijalarini boshqa shaxsga aniqlab bera olishi kerak. Tasavvurning rivojlanish darajasining o'zaro bog'liqligi bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarida (M omili), yangilikni qabul qilish va radikal (Q1 omil), umumiy intellektual rivojlanish (B omili) va shaxslararo munosabatlar vaziyatlari tuzilishi va dinamikasini bilish qobiliyati (4-subtest) ijtimoiy intellekt intellektning kommunikativ kompetentsiyaning kognitiv resursi ekanligini isbotlaydi.

Yetarli korrelyatsiyalarning eng katta soni ijtimoiy intellekt testi Kettell tomonidan A+, F+, H+, E+, L+, Q2+, G+, N+ 16-PF baholari bilan o'rnatiladi. Barcha subtestlar va, ayniqsa, kompozit baholash topilganligi statistik jihatdan isbotlangan introversiya ko'rsatkichi bilan salbiy korrelyatsiyada ko'rsatiladi ($p < 0,01$) (A-, F-, H- baholari bilan).

Shuning uchun eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy intellektning etnik o'ziga xos xususiyatlari bor, ularni tahlil qilish keyingi tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Shunday qilib aytishimiz mumkinki, bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarida ijtimoiy intellekt intellektning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun zarur atamadir. Va bu sohada qilinadigan barcha ishlar bo'lajak o'qituvchilarning ishtimoiylashuvi hamda ijtimoiy intellektning yuqorilashida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Cantor N., Kihlstrom J.F. Social intelligence and cognitive assessments of personality. //Wyer R. S. & Srull T.K. Advances in Social Cognition. Hillsdale, N.J.: Erlbaum, 1989. – Vol.2.–P. 1–59.
2. Raven J.C. Guide to the Progressive Matrices. London: Lewis. 1960.
3. Rogers C., ed. "Carl Rogers: Student-Centered Learning." Project Innovation, a Monograph to "Education". 1996.
4. "Psychology of Communication." General edition of A.A. Bodalev – "Cogito -Centre ", 2011.6. Yermientaeva A.R. "Foundations of Students' Psychological Training." – Ust-Kamenogorsk, 2007-p.404.
7. Thordnik E.L. "Intelligence and its Uses//Harper's Magazine. 1920. P. 227–235.
8. Eysenck H.J., Barrett P. "Psychophysiology and the Measurement of Intelligence."//Reynolds C.R., Willson V. (eds.) "Methodological and Statistical Advances in the study of individual differences."N.Y.: Plenum Press, 1985.

ПЕРСОНАЖЛИ ЛИРИКАДА ЛИРИК КЕЧИНМА ИФОДАСИ

Орипова Гулнозахон Муродиловна,

Фаргона давлат университети адабиётшунослик кафедраси
катта ўқитувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мақолада персонажли лирикада ўзга шахс шеър субъектларидан бирига айланиши ва шеър диалогиклик ёки полифониклик хусусиятига эга бўлиши, лирик кечинма ўзга шахс тилидан ифода этилиб, мустақил гоёвий-бадий аҳамият касб этиши тадқиқ этилган. Персонажли лириканинг субъектив шаклланишига кўра ижровий лирика ва тавсифий лирикадан фарқланиши мустақиллик даври маҳсули бўлган шеърлар таҳлили орқали ёритилган. Персонажли лириканинг ўзига хос ифода йўсинлари таҳлили орқали ижодкорларнинг бадий маҳорати очиқ берилган.

Калит сўзлар: лирик кечинма субъекти, персонажли лирика, поэтик ифода йўсини, диалогиклик, полифониклик, лирик кечинма.

LYRICAL EXPRESSION IN CHARACTER LYRICS

Oripova Gulnozakhon Murodilovna,

Department of Literature of Fergana State University
senior teacher, doctor of philosophy in philology (PhD)

Abstract. In the article, it is researched that in character lyrics, the other person becomes one of the subjects of the poem, and the poem has dialogic or polyphonic features, the lyrical experience is expressed in the language of another person, and acquires an independent ideological and artistic significance. The differentiation of character lyrics from performance lyrics and descriptive lyrics according to subjective formation is explained through the analysis of poems that are the product of the period of independence. The artistic skill of the creators is revealed through the analysis of the unique expression lines of the character lyrics.

Key words: subject of lyrical experience, character lyric, way of poetic expression, dialogicity, polyphonicity, lyrical experience.

ЛИРИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ПЕРСОНАЖНОМ ЛИРИКЕ

Орипова Гулнозахон Муродиловна,

Кафедра литературы Ферганского государственного университета
старший преподаватель, доктор философии по филологическим наукам
(PhD)

Аннотация. В статье исследуется, что в характерной лирике другой человек становится одним из субъектов стихотворения, а стихотворение имеет диалогические или полифонические черты, лирический опыт выражается на языке другого человека, приобретает самостоятельную идейную и художественное значение. Дифференциация характерной лирики от лирики исполнительской и лирики описательной по субъективному формированию объясняется на основе анализа стихотворений, являющихся продуктом периода независимости. Художественное мастерство создателей раскрывается через анализ уникальных экспрессивных линий лирики персонажей.

Ключевые слова: субъект лирического переживания, характер лирического, способ поэтического выражения, диалогичность, полифоничность, лирический

Кириш. Мустақиллик даври лирикаси “асрлар давомида амал қилиб келинган поэтик канонларни инкор қилиб, ўзгарган мазмун-моҳиятга мос янги шакл бобидаги изланишлар даврига кирди. Бу изланишларнинг энг муҳим ва шеърятимизда туб янгиланишларга олиб келган йўналишлари сифатида шеърнинг ритмик-интонацион сатҳида, поэтик ифода йўсини ва субъектив ташкилланишдаги ўзгаришларни кўрсатиш мумкин” [1:274]. Ҳозирги шеърятимизда лирик кечинма субъекти ва объекти нуктаи назаридан ижровий лирика, персонажли лирика, медиатив лирика ва тавсифий лирика таснифланади. Бу эса лириканинг специфик хусусиятларини белгилашга хизмат қилади.

Эпик ва драматик асарларда бўлгани каби лирик шеърларда ҳам персонажлар иштирок этади. Бундай шеърый асарлар персонажли лирика деб аталади. Персонажли лириканинг илдизлари ўзбек фольклори намуналарига бориб турушади. Айтишув усулидаги халқ кўшиқларида диалогиклик хусусиятлари мавжуд бўлиб, бу кўшиқлар персонажли лириканинг илк куртаклари ҳисобланади. Масалан, лапарлар ва ўланлар, одатда, диалог шаклида ижро этилган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Персонажли лирика субъектив шаклланишига кўра тавсифий лирикадан фарқланади. Рус олими Г.Н.Поспелов “Лирика” номли асарида лириканинг специфик хусусиятларини кўрсатар экан, тавсифий лирика билан умумий хусусиятларга эга бўлган персонажли лирикани ажратади [2:103]. Профессор У.Ҳамдамов XX аср ўзбек шеърятини лириканинг субъектив эврилишлари борасида фикр юритар экан, персонажли лирикани театр санъатининг шаклланиши ва ривожланиши билан боғлиқ адабий ҳодиса сифатида талқин этади [1:270]. Персонажли лирикада “ўзга шахс шеър субъектларидан бирига айланиши, унинг тилидан ифода этилган лирик кечинма (ўй-фикр, ҳис-туйғу) мустақил ғоявий-бадий қиммат касб этиши, бошқача айтсак, шеър диалогиклик (полифониклик) хусусиятига эга бўлиши тақозо этилади” [3:224]. Шундай экан, В.В.Дубровская талқини билан айтганда персонаж бадий матнда тилга олинган шахсдир.

Тадқиқот методологияси. XX аср бошларида ўзбек шеърятини бадий идрокнинг ва ифода имкониятларининг кенгайганлиги персонажли лириканинг гўзал намуналари яралишига сабаб бўлди. Мустақиллик даври ўзбек лирикасида ҳам персонажли лириканинг ўзига хос ифода йўсинларини мазкур давр шоирлари ижодида учратамиз. Абдулла Ориповнинг “Алишер ва талаба” шеъри персонажли лирикага мансуб бўлиб, шеърда лирик персонаж – вазири аркон Мир Алишер Навоий Ҳирот шаҳарларини айланиб, улуснинг дарди, бевабечораларнинг аҳволдан хабардор бўлишни истайди. Жами фуқаро Ҳазратга таъзимга чиқади. Пешвоз чиққан юзлаб талабалар орасидан бир талабага ногоҳ боқади ва отдан тушиб, бориб талабани кучади. Бу ҳолат барчани ҳайратга солган эди.

... Охир бир мулозим сабри тугаб лол,
Алишерга шундоқ ташлади савол.

- Кимга шу аснода бахт кулди экан,
Айтинг, ул талаба ким бўлди экан?

Ўйчан бир табассум қилдию жаноб,
Мулозимга секин айлади жавоб:

- Эсимда, ёш чоғим, кўп йиллар нари,
Менга сабоқ берган унинг падари...[4:24].

Шеърдаги персонажнинг хатти-ҳаракати ва нутқи (мулозимга айтган жавоби) орқали ўқувчи Ҳазрат Алишер Навоий шахсига хос бўлган инсонийлик фазилатларини кўришга муяссар бўлади. Шоир маҳорати шундаки, улуғ Ҳазрат Мир Алишер Навоий сиймосини яратишда персонажли лирика имкониятларидан кенг фойдаланган. Шеър маснавий тарзида ёзилган бўлиб, драмага хос хусусиятлар ҳам кузатилади. Шеър ўқувчи кўз ўнгидида саҳнада ижро этилаётгандек таассурот уйғотади.

Абдулла Ориповнинг персонажли лирикага хос бўлган “Паҳлавон” шеъри ҳадислар таъсирида яратилган. Шеърда лирик персонажлар учта: Ҳазрати пайғамбар, Саҳобалар ва Расулуллоҳ бўлиб, шеър полифониклик хусусиятига эгадир. Шеър куйидаги мисралар билан бошланади: “Бир суҳбат чоғида Ҳазрат Пайғамбар Ўртага ташлади савол ногаҳон. Айтдилар: – Зарурат туғилса магар Кимни атардингиз асл паҳлавон?” Кейинги бандда Саҳобалар нутқи орқали асл паҳлавон кураш майдонида голиб бўлганда билиниши айтилса, шеърнинг учинчи хулосавий бандида ҳиссий-фалсафий фикр ҳукмрон бўлиб, Расулуллоҳ тилидан айтилган фикр шоир поэтик ғоясини, фалсафий қарашларини ифодалайди:

Расулуллоҳ деди: – Кўхнадир жаҳон,
Турфа хил куч-қудрат бордир одамда.
Лекин ўз жаҳлини енголган инсон
Ҳақиқий паҳлавон эрур оламда ...[5:213].

Абдулла Ориповнинг ҳадислар таъсирида ёзилган “Эзгулик” шеъри ҳам персонажли лирика намунасидир. Шеър уч банддан иборат бўлиб, лирик субъект сифатида лирик персонаж ҳам бўй кўрсатади ва унинг нутқи орқали шеърнинг ҳиссий-фалсафий пафоси намоён бўлади: “Ахир Расулуллоҳ демишқу ул дам: – Ҳамиша саховат йўлидан юргил. Майиздай қоп-қора бошли ҳабаш ҳам Яхши иш қилганда ёнида тургил!”

Шунингдек, шоирнинг “Ранглар ва оҳанглар” туркумига кирувчи “Миллат”, “Эътиқод” каби шеърларида ҳам лирик персонажлар нутқи мустақил ғоявий-бадий қимматга эга. Масалан, “Миллат” шеърида башарият тупроқ ва обихаётдан яралганлиги боис Ернинг зурёди ва шу замин барчага Она эканлиги ифодаланар экан, ўзга юртда сафарда юрган чоғида корейлик нуроний онахон билан учрашиб қолган лирик қаҳрамон учрашуви куйидагича тасвирланган:

Бир зум қисик кўзларини тикканча кампир,
Жилмайдию шама қилди афтимга қараб:
– Ўз тилингни унутибсан яхшимас, болам...[6:30]

Шеърда корейлик онахон лирик қаҳрамон билан бирга лирик персонаж сифатида бўй кўрсатади. Шоир инсониятни “Инсоният – илдизи бир яхлит чинордир” қиёси орқали тасвирлайди. “Эллар ва миллатлар яшнаб турган барглар”, дея таъкидлайди. Шоир поэтик ғояси корейлик кампир нутқи билан бир нуктада кесишиб, лирик персонажнинг шеърдаги аҳамиятини оширишга хизмат қилган.

Эркин Воҳидовнинг 1991 йилда ёзилган “Шум бола” шеъри Ғафур Ғуломнинг шу номли асаридан таъсирланиб ёзилган бўлиб, шеър диалогиклик хусусиятига эга. Шеър янги замон Шум боласи янги замон Бой отаси олдига

иш сўраб бориши баёни орқали бошланиб, шу аснодаги суҳбатлари асосига қурилган.

Шундоқ деди, қуллуқ қилиб,
Гапни қўйиб жойига
Янги замон шум боласи
Янги замон Бойига:

“Қошингизга яна келдим,
Қулоқ солинг, Бой ота.
Сидқи дилдан хизмат қилай,
Ишга олинг, Бой ота” ...[7:88].

Шеър давомида Янги замон Шум боласи ўз айбини – гоҳида рост сўзлаб қўйишини айтади. Бой отанинг эса рост сўзга тоқати йўқ. Чунки ёлғонлар ҳукмрон бўлган муҳитда ҳақиқатга ўрин бўлиши мумкин эмас. Шу тариқа янги замон Бой отаси янги замон Шум боласини ишга олмай қувиб солади.

Бой отанинг жаҳли чиқди,
Деди, кўнглим зормиди?
Ёлғонингга чидаб эдим,
Рост гапинг ҳам бормиди?

Йўқол, сени ишга олсам
Хонавайрон бўламан.
Ёлғонингдан омон қолдим,
Рост гапингдан ўламан!

Шеърда Бой отанинг характериға хос бўлган жиҳатлар “Иннайкейин демай тулинг, Қулоқ солинг Бой ота” мисраси орқали ифодаланса, Шум боланинг баъзан ёлғон сўзлаб қўйиш айблари “Фазилатим кўпдир, яна Айбимни ҳам айтганман” тарзидаги ифодада ўз аксини топади. Лекин энди Янги замон Шум боласи ўз фазилатлари ҳақида ҳам айтади “Мен ёлғондан қайтганман”. Шоир XX аср 80-йиллар охири 90-йиллар боши воқелигини ана шу тариқа енгил юмор воситасида ифодалайди. Даврнинг долзарб масалаларини ифодаловчи мазкур персонажли лирикаға мансуб шеър ҳозирги лирикамининг маъно ва шакл жиҳатдан янгиланишида ўзига хос таъсир манбаи вазифасини бажарди.

Усмон Азимнинг “Чавандоз улоқдан қайди пиёда” деб бошланувчи шеърда чавандознинг отидан айрилган ҳолати лирик кечинма тасвирида ифодаланган:

Чавандоз улоқдан қайди пиёда,
– Рангларингиз бир ол, айтинг, не бўлди?
– Онаси, дардимни қилма зиёда,
Онаси отгинам...отгинам ўлди ...[8:35].

Шеърда шамолдай учиб бораётган оти қоқилиб, ундан ажралган чавандоз руҳий ҳолатлари тасвирланади. Сўнгги бандда туни билан хўрсиниб чиққан чавандозға хотинининг шивирлаб айтган гапи шеърнинг ғоявий-бадий қимматини ярқ этиб кўрсатади: “Чавандоз хўрсинар...Тонг отар эди, Энг сўнгги юлдузлар Борарди ботиб, Хотини шивирлар: “Ҳеч хафа бўлманг, Сизга от оламин уй-жойни сотиб...”.

Усмон Азимнинг “Хамсага татаббу” туркумидаги “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”, “Сабъаи сайёр” шеърлари персонажли лирикаға мансуб бўлиб, булар орасида “Сабъаи сайёр” полифониклик хусусиятига эгадир. Чунки шеърда етгита сайёҳ тилидан дунё ҳақида айтилган фикр келтирилган. Шеър

куйидагича бошланади: “Бир сайёҳ айтдиким, Дунёни кўрдим, Ноласи йўқ эрур Қўшиқдан ўзга”. Шеърнинг кейинги мисраларида иккинчи сайёҳ дунё асл жамолини кўздан яширганлигини, учинчи сайёҳ дунё қадами жон фароғати эканлигини, тўртинчи сайёҳ дунёнинг мағзи дўстнинг дўстга рақобатдан иборатлигини, бешинчи сайёҳ кафтида кум бўлб оққанлигини, олтинчи сайёҳ малак суратлилигини, еттинчи сайёҳ эса ичида одамзот бўлган чала иморатлигини айтади. Шеърнинг сўнгги бандида ғойибдан келган нидо орқали дунёни англаш фалсафаси ҳиссий тарзда ифодаланади ва бу хулосавий ечим тарзида акс этади: “Ғойиб нидо айтади: – Яхшилаб қаранг... Ҳаёту мамотдан Дунё иборат”.

Агар юқоридаги персонажли лирикага хос шеърларга эътибор қаратсак, уларда, асосан, диалогиклик хусусиятини кузатамиз. “Сабъаи сайёр” шеърида эса етти сайёҳнинг фикрини келтириш орқали полифониклик хусусияти персонажли лирикада ифода имкониятларини кенгайтиришга замин бўлган.

Таҳлил ва натижалар. Улуғбек Ҳамдамнинг “Қор ёғаркан...” шеъри айтишув шаклида яратилган бўлиб, ўзбек халқ оғзаки ижодининг лапарларини ёдга солади. Мазкур шеърда лирик персонажлар йигит ва қиз диалоги орқали лирик кечинма драматик ҳолат билан уйғунлашиб, гўё сахнада ижро этилаётгандек таассурот уйғотади.

Йигит: Айланиб тушар қор йўлимга,
Қўлингни қўйгил ёр қўлимга...

Қиз: Қор эмас, осмондан қор эмас,
Афсона ёғмоқда кўнглимга.

Шеърнинг кейинги бандларида ошиқ-маъшуқалар “Биз бирга борурмиз ўлимга!” дея қасам ичадилар ва сўнгги бандда шоир “сахна”га чиқиб, уларнинг тақдири ҳақида изоҳ беради:

Шоир: (Қўлларни қўйдилар қўлларга,
Жон чекиб тушдилар йўлларга...) [9:169].

Банддаги изоҳнинг шоир томонидан қавс ичида берилиши ремарка (французча изоҳ)ни эслатади. Тўғри, “ремарка драматик асарларда муаллиф томонидан сахна воқеасининг бошланиши олдидан берилувчи ёки унинг кечиши давомида қавс ичида бериб борилувчи изоҳлар” [3:248] дир. Лекин “ҳозирда эпик асарлардаги диалоглар давомида муаллиф томонидан бериб борилувчи (овоз тони, оҳанг, темп, паузалар; мимика, имо-ишоралар, персонажнинг ҳаракати ва ш.к.ларга оид) изоҳлар ҳам кўпинча ремарка деб юритилмоқда” [3:249]. Шу нуктаи назардан қаралганда, юқоридаги шеърда шоирнинг қавс ичида берган изоҳи (персонажларнинг ҳаракати) ремарка сифатида қабул қилиниши мумкин. Демак, персонажли лирикада синкретизм ҳодисаси кузатилиши бу ҳозирги ўзбек лирикасининг субъектив ташкилланишида ифода имкониятларининг кенгайиши билан боғлиқ жараёндир.

Матназар Абдулҳакимнинг “Қўрқоқнинг қўшиғи” шеърида лирик қаҳрамон – ўғил ва лирик персонаж – ота иштирок этган. Яъни персонажли лирикада лирик қаҳрамон билан бирга лирик персонаж (ўзга бир шахс) ҳам иштирок этади. Шеърда воқелик бор, албатта, лекин воқелик асосида шеър субъектларидан бирига айланган лирик персонаж (ота)нинг тилидан ифода этилган лирик кечинма мустақил ғоявий-бадий киммат касб этган. Бу эса персонажли лирикага хос хусусиятлардан биридир. Шеър ота ва ўғилнинг тўйдан қишлоққа қайтиши чоғида шўх бир қўшиқ куйлаётган кимса овози эшитилиши тасвири

билан бошланади. Лекин қўшиқ куйлаётган одамнинг овози кўркувдан қалтирар эди: “Сўлим оқшом ичра поёнсиз адир Ойдинда сут янглиғ ялтирар эди. Лекин... қўшиқчининг саси негадир Аллақандай мудҳиш қалтирар эди”. Бу ҳолатдан руҳиятида маҳзунлик сезган ўғилга донишманд ота йўлни бошқа томонга буриш кераклигини ва бу қўшиқни куйлаётган кимса тун ваҳимасидан кўрққанлиги учун куйлаётганлигини айтади:

Гамгин тортиб қолдим. Рухдан кетди нур.

Отам кўп донишманд одам эдилар.

“Болам, бу қўшиқда хосият йўқ, юр,

Бошқа йўлдан кетамиз, - дедилар.

Тун ваҳмидан кўрқиб куйлаяпти у

Шундай одамлар ҳам бўлади.

Ҳозир салом берсак чиқиб рўбарў,

Юраги ёрилиб ўлади” [10:214].

Шеърнинг сўнгги мисраларида лирик қаҳрамон (ўғил) ва лирик персонаж (ота)нинг объектга (воқеликка) мушоҳадавий қарашларида бирлик намоён бўлади: “Кўрққанингдан қўшиқ айтсанг, бу – даҳшат Кўрққанингдан қўшиқ айтсанг, бу – жирканч”.

Хулоса. Персонажли лирикада ўзга шахс шеър субъектларидан бирига айланади ва шеър диалогиклик ёки полифониклик хусусиятига эга бўлади. Лирик кечинма ўзга шахс тилидан ифода этилиб, мустақил ғоявий-бадний аҳамиятга моликдир.

Адабиётлар

1. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: ADIB, 2012. – Б.274., 270.
2. Поспелов Г.Н. Лирика. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1976. – С.103.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013 - Б. 224., 248.
4. Абдулла Орипов. Савоб. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б.24.
5. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - Б.213.
6. Абдулла Орипов. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2012. – Б.30.
7. Эркин Воҳидов. Тўла асарлар тўплами. 3-жилд. – Тошкент: SHARQ, 2016. – Б. 88.
8. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.35.
9. Улуғбек Ҳамдам. Сени кутдим. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.169.
10. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. – Б.214.

EPITETNING LINGVISTIK TABIATI

Mamadjanova Maftunahon Uktamovna,
Farg'ona davlat universiteti 1-kurs doktoranti
maftuna.mamadjanova85@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada epitet tasviriy vositasining lingvostilistik tadqiqi haqida so'z yuritilgan. Maqolada epitetni kontekstdagi individual qo'llanishinagina o'rganilib qolmay, balki uning stilistik qatlamdagi barcha uslubiy vositalardan ajralgan holga tilshunoslikdagi ekspressiv ma'no bo'yoy vositasi ekanligi dalillanadi.

Kalit so'zlar: epitet, metafora, morfologiya, stilistika, ontologik xususiyat, iyerarxiya, aniqlovchi, sifat, ravish, sifatdash, lingvistika.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ЭПИТЕТА

Аннотация: В данной статье речь идет о лингвистическом исследовании образных средств эпитета. В статье не только рассматривается индивидуальное употребление эпитета в контексте, но и доказывается, что он является выразительным средством окраски значения в языкознании, обособленным от всех стилистических средств.

Ключевые слова: эпитет, метафора, морфология, стилистика, онтологический признак, иерархия, определение, прилагательное, наречие, лингвистика.

LINGUISTIC NATURE OF EPITHET

Abstract: This article deals with linguo-stylistic research of the epithet and analyzes not only its specific usage in a context but also expressive meaning in linguistics separated from all other stylistic devices in the stylistic layer.

Key words: epithet, metafor, morphology, stylistics, ontological feature, hierarchy, determiner, adjective, adverb, participle, linguistics.

Kirish. Bugungi kun zamonaviy lingvostilistikasining muhim vazifalaridan biri bu til uslubiy vositalarining lingvistik tabiati hamda ularning adabiy tilning turli funksional uslublaridagi stilistik vazifalarini aniqlashdan iboratdir. Bu borada olib borilgan har qanday tadqiqot til tizimining adekvat stilistik tavsifini yaratish uchun qo'yilgan muhim qadamdir. Ushbu maqolada eng qadimgi va adabiy tilimizda eng ko'p uchraydigan uslubiy vositalardan biri epitet lingvistik tabiatining tadqiqi borasida so'z yuritiladi. Epitet uslubiy vositasini bu yo'sinda o'rganishda eng avvalo uni til tizimida mavjud boshqa uslubiy vositalardan ajratib ko'rsatish va uning tilning boshqa uslubiy va ekspressiv vositalari orasidagi o'rnini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun epitetning o'zigagina xos xususiyatlarini tavsiflash zarurdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Epitet qadimgi davrlardan buyon tilshunos olimlar bilan bir qatorda adabiyotshunos olimlarning ham e'tiborini tortib keladi. Bu atama dastlab Aristotel va Kvintilian kabi faylasuf olimlar asarlarida ishlatilgan bo'lib, ular epitetga metafora kabi ta'rif berganlar. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar ko'plab olimlar epitetni faqat nutqni bezash vositasi, uni yanada ifodali qilish usuli sifatida ko'rib chiqdilar. A.N.Veselovskiy o'zining "Epitet tarixidan" (1989-y) asarida shunday yozadi: "Epitet tarixi bu qisqartirilgan nashrdagi she'riy uslubning tarixi, so'z va iboralarning ekspressiv bo'yoyqordoligi bilan she'riyatda qo'llanilishidir".

Buyuk rus tilshunos olimi A.A.Potebnyaning asarlari esa epitetni yangi usulda ya'ni nazariy jihatdan o'rganishga yo'l ochadi. A.N.Veselovskiy rus olimlaridan birinchi bo'lib, epitetni ontologik xususiyatlarini o'rganadi, biroq u ham ko'proq adabiy jihatdan yondoshadi. XX asrning yana bir rus tilshunos olimlaridan biri I.R.Galperin o'zining "Ingliz tili stilistikasi"(1962-y) asarida epitetga lingvistik nuqtai nazardan yondoshib, shunday deydi: "Epitet so'z, ibora va hatto jumladagi mantiqiy va hissiy ma'noni umumlashtiruvchi uslubiy vosita bo'lib, o'quvchiga obyektning individual xususiyatlari haqida ma'lumot beradi." Ushbu maqolada I.R.Galperin uslubidan borib, epitetni lingvistik tabiatini tadqiq etamiz.

Natijalar. Epitet uslubiy vositasining ko'p asrlik tarixiga qaramay, uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlariga olimlarning qarashlarida hali ham birlik yo'qdir. Aksariyat tadqiqotchilar epitening asosiy xususiyatini uning semantik belgilarida deb bilishadi va aynan uning mazmunini epitet ta'rifining markaziga qo'yadilar. Ushbu o'rinda epitetni mazmuni ko'pincha aniqlanayotgan ob'yektning xususiyatlarini juda aniq yoritmaydi va "ob'yektni ta'riflashda tasviriy-ekspressiv ma'nosini oshirish hamda boyitish uchun ishlatiladigan iboraning ikkinchi darajali so'ziga aylanadi." [2,7] Boshqa bir guruh olimlar esa epitetni semantik xususiyatiga uning yana bir muhim belgisi bo'lgan sintaktik vazifasini qo'shish zarur deb biladilar. Ko'rinib turibdiki, bunday holatda ular epitet va mantiqiy aniqlovchi orasiga aniq chegara qo'yadilar. Odatda epitet oddiy mantiqiy aniqlovchidan badiiy bo'yoqdorligi bilan farq qiladigan uslubiy vositadir. [6,20] Yana bir guruh tilshunoslar mantiqiy aniqlovchi va epitet o'rtasidagi farqni stilistik vazifa sabab faqat kontekst ta'siridagina yuzaga keladigan hodisa, deb ta'riflaydilar. Epitetni tavsiflashda semantik va sintaktik mezonlarni birlashtirgan holda ko'pchilik tilshunoslar epitet ta'riflanayotgan ob'yektning mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, uni bir xil hajmda saqlaydi, deb hisoblaydilar. Biroq rus tilshunos olimlaridan A.N.Veselovskiy va B.V.Tomashevskiylar ta'kidlaganidek, bunday holatda ushbu muhokamani aniqlashtirish zarur: ya'ni epitet yoki tavnologik ravishda aniqlovchining o'zida avvaldan mavjud xususiyatni takrorlaydi, yoki qo'shimcha mazmun berib, uni qayta tartibga soladi. [3,200] Epitet va mantiqiy aniqlovchi orasiga chegara qo'ygan holda ba'zi bir tilshunoslar metaforik ta'riflar bilan epitet doirasini cheklaydilar. Epitetning lingvistik xususiyatlarini aniqlashning yana bir yondashuvi uning morfologik va sintaktik jihatdan ifodalanishini o'zicha oladi. Ushbu masala yuzasidan tilshunos olimlar orasida fikrlar nomuvofiqligi mavjud bo'lib, unga ko'ra ba'zi olimlar epitetni faqat sifat so'z turkumi orqali ifodalash mumkin desa, [5,200] yana boshqa bir guruh olimlar esa uni nafaqat sifat balki ravish, ravishdosh, sifatdosh va hattoki ot so'z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydilar.[7,109] Epitet ta'rifiga yondoshishdagi yuqoridagi tamoyillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning hech biri alohida olingan holda ushbu stilistik vositaning to'liq va izchil tavsifini berishga imkon bermaydi.

Muhokama. Ko'rinib turibdiki, aynan uch jihatni ya'ni, semantik xususiyatlar, sintaktik vazifa va morfologik-sintaktik ifodalash usullarini birlashtirganimizdagina epitet uslubiy vositasiga to'liq va izchil ta'rif berishimiz mumkin. Shundagina epitetni boshqa uslubiy vositalardan ajratish va tilning ifoda vositalarining umumiy tizimidagi o'rnini aniqlash uchun aynan shu uch xususiyat zarur va yetarli bo'ladi. Epitetning ushbu ontologik xususiyatlaridan biron birini tushirib qoldirish uni tizimidagi ekspressiv vositalar orasida tasniflashda jiddiy chalkashliklarga va ushbu uslubiy vositadan foydalanish doirasining haddan tashqari torayishiga olib kelishi mumkin. Epitetning morfologik jihatini e'tiborsiz qoldirish ushbu uslubiy vositani ifodalash

uchun xizmat qiladigan soʻz turkumlarida chalkashliklarga olib kelsa, uning sintaktik tomonini muhim xususiyatlaridan chiqarib tashlash esa “epitet” atamasi ostida oʻzining lisoniy tabiatiga koʻra mutlaqo boshqa hodisalarni epitets deb atalishiga olib keladi. Uslubiy vositalarning sintaktik funksiyalarini hisobga olmasdan ularni faqat semantik tamoyillarga asoslanib tasniflash epitetsning turlari va semantik modellarini boshqa uslubiy vositalarning turli guruhlariga birlashtirilishiga olib keladi. Uslubiy vositalarni tasniflashda bunday yondashuvning muvaffaqiyatsizlikka uchraganligining sababi, bizningcha, bu yerda semantik xususiyatlar iyerarxiyasiga eʼtibor berilmaganidir. Ushbu ketma-ketlikning eng yuqori pogʻonasini semantik jihat egallagan boʻlib, u sintaktik tamoyillar bilan uzviy bogʻliq boʻladi, shu sababli ularni bir-biridan ajratib tasniflash notoʻgʻri. Sintaktik xususiyatni hisobga olmaslik semantik xususiyatning ifodalanishida chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Epitetsning sintaktik vazifasi bilan uning semantik xususiyati oʻrtasidagi bogʻliqlik ikki tomonlama yoʻnalishga ega: semantik xususiyat nafaqat sintaktik vazifa bilan bogʻliq holda vujudga keladi, balki epitets va taʼriflanayotgan obʼyekt mazmuniga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Epitetsning muhim lingvistik xususiyatlari haqida yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda shuni aytish kerakki, epitetsni uslubiy vosita sifatida belgilash va tavsiflashda uchta xususiyatning barchasi zarur boʻlsa-da, ular orasida semantik xususiyat ustun mavqeni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

1. A. Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qoʻngʻurov, H.Rustamov. Oʻzbek tili stilistikasi.- Toshkent.1983.-bet 248.
2. А.Зеленецкий.Эпитеты литературной русской речи.-Москва.1913.-стр. 214.
3. А.Н.Веселовский. Историческая поэтика.-Москва.1989.- стр.404.
4. A.Reum. A Dictionary of English Style. -Leipzig. 1931.-P.125.
5. Б.В.Томашевский. Стилистика и стихосложение.- Ленинград.1959.- стр. 538.
6. В.А.Малаховский. Эпитет Тютчева.-Чита.1922.- стр.280.
7. Л.И.Тимофеев. Краткий словарь литературоведческих терминов.- Москва.1963.- стр.192.
8. E.Partridge. A Dictionary of Cliches.-London.1950.-P.98.
9. I.R.Galperin. Stylistics.- Moscow.1974.-P.154.
10. Ю.М.Скребнев. Основы стилистики английского языка.- Москва.2003.- стр.116.

Elektron va internet manbalari:

1. philology.khsu.ru.
2. <http://www.referat.ru> .
3. http://www_englishbiz.co.uk.htm
4. <https://literarydevices.com/epithet/>
5. <https://www.masterclass.com/articles/what-is-epithet>
6. <https://examples.yourdictionary.com/examples-of-epithets.html>
7. <https://literaryterms.net/epithet>
8. <https://7esl.com/epithet>
9. <https://www.britannica.com/art/epithet>
10. <https://study.com/academy/lesson/epithet-in-literature-definition-examples.html>

ERKIN VOHIDOV IJODIDA FOLKLORNING ERTAK JANRIGA MUNOSABAT

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna,
Urganch davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodida folklorning ertak janri asosida yaratilgan asarlari qiyosiy tahlil qilindi. Ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari to'g'risida fikr yuritildi. Shoir she'rlarida ijtimoiy muammolarni ramziy obrazlar orqali tasvirlangani ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: folklor, ertak, alla, she'r, davr, janr, yolg'on, obraz, motiv, voqea.

ОТНОШЕНИЕ К СКАЗОЧНОМУ ЖАНРУ ФОЛЬКЛОРА В ТВОРЧЕСТВЕ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Хажиева Дилфуза Адамбаевна,
преподаватель кафедры «Методика начального образования» Ургенчского
государственного университета

Аннотация. В данной статье проанализированы произведения Эркина Вахидова, основанные на сказочном жанре фольклора. Обсуждаются их сходства и различия. Отмечено, что в стихах поэта социальные проблемы изображаются через символические образы.

Ключевые слова: фольклор, сказка, алла, поэма, период, жанр, ложь, образ, мотив, событие.

ATTITUDE TOWARDS THE FOLKLORE FAIRY TALE GENRE IN THE WORKS OF ERKIN VAHIDOV

Khajieva Dिल्фуза Adambaevna,
Lecturer at the Department of Methods of Primary Education, Urgench State
University

Annotation. This article is focused on the works of Erkin Vakhidov, based on the fabulous genre of folklore. Their similarities and differences are discussed. It is noted that in the poet's poems social problems are depicted through symbolic images.

Key words: folklore, fairy tale, alla, poem, period, genre, lie, image, motif, event.

KIRISH. Erkin Vohidov folklorning deyarli barcha janrlarini qo'llagan, o'z asarlariga uyg'unlashtirgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, uning ijodida nafaqat askiya, latifa, maqol, mif janriga mansub she'rlar, balki lof janrini qo'llab yozgan she'rlar ham talaygina. Shoir xalq og'zaki ijodidagi ertak janri asosida ham bir qator she'rlar yaratgan.

Ma'lumki, ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida epik shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea

va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbek folklorshunosligida ertak janri genezisi, tasnifi va badiiyatining folkloristik tadqiqi bo'yicha B.Karimov, M.Afzalov, G'.Jahongirov, G'.Jalolov, K.Imomov, X.Egamov, M.Jo'rayev, J.Yusupov, Q.Beknazarov, S.Jumayeva, Z.Usmoniva, N.Do'stxo'jayeva, M.Sodiqova, N.Qodirov, Z.rasulova kabi olimlar tomonidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

NATIJALAR. Erkin Vohidov ijodida folklorning ertak janri asosida yaratilgan ayrim she'rlari muhokamaga tortildi va quyidagi jihatlariga e'tibor qaratildi:

- Shoirning xalq og'zaki ijodining ertak janriga monand yaratgan she'rlari qiyosiy tahlil etilib, o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor berildi;

- "Bir yolg'ondan qirq yolg'on" she'ri va unda folklor janrlarining sintezlashgan holda qo'llanishi yuzasidan mulohaza yuritildi;

- "Sharq ertagi" she'rida alla qo'shig'i zahirida Sharqdagi mashhur ertaklarga murojaat etilgani atroficha o'rganildi;

- "Bo'ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa" sarlavhali she'rida ijtimoiy-siyosiy hayot voqealarining mahorat bilan tasvirlangani e'tirof qilindi.

MUHOKAMA

Erkin Vohidovning "Bir yolg'ondan qirq yolg'on" she'ri folklorning ertak janridan ilhomlanib yaratilgan bo'lib, she'rda shoir lof janrini she'riyatdagi mubolag'a san'ati bilan uyg'un holda qo'llaydiki, uning zahirida, hatto, xalq og'zaki ijodining latifa janriga xos jihatlar ham ko'zga tashlanadi:

Yoshimni so'rasangiz,
Yuz oylik chaqaloqman.
Qotmadan kelgan daroz,
Pakana baqaloqman.
Xush ko'rganim muzqaymoq,
Hammomga tushib yeyman,
Ustiga murch sepib,
Sho'r bodring qo'shib yeyman [1].

"Sholg'omni xom, uzumni dimlab" yeydigan qahramonni faqat shu she'rdagina ko'rish mumkin. Zero, teskari holat ishlatiladi. Aslida sholg'omni dimlab, uzumni xom yeyish ma'qul. Charxi kajraftorning bu xilqati esa ularni aksincha holda tanovul etadi. She'rda voqealar shu qadar rivojlanadiki, shoir lof janrining o'zida yangi fikr yaratgandek tuyuladi. Asosiy qahramon Falonchiyev Falonchi amakisi bilan ovga chiqib, kech qolsa, "laylakning uyasi"da uxlaydi. Uning tug'ilgan kuni o'zi antiqa, ya'ni "O'ttiz birinchi fevral, Soat ikki kechqurun". Fevral oyida o'ttiz birinchi sana bo'lmaganining o'zi kitobxonni hayratga soladi va Falonchiyev Falonchi(she'rning keyingi misralarida Jumavoy deb beriladi)ni aqldan ozgan deb o'ylaydi. O'zini tanishtirish jarayoni ham benihoya samimiy va kulgili. Go'yoki falsafada qo'llanadigan inkorni inkor qonuniga o'xshaydi. "Qotmadan kelgan daroz" deya ta'riflagan tashqi ko'rinishini keyingi misrada inkor etadi, ya'ni "pakana baqaloqman" deb tugatadi. O'z-o'zidan ma'lumki, daroz uzun bo'yga nisbatan ishlatilsa, pakana odatdagidan bo'yi past sifatida tushuniladi. Shoirning qahramoni o'zi xush ko'rgan muzqaymoqni hammomga tushib yeyishini tasavvur qilish g'oyat qiyin. Darhaqiqat, antiqa qahramon, "beshikda so'rg'ichini so'rib yotsa", uyiga "qora barzangi o'g'ri" kiradi. Eng e'tiborli jihati beshikda yotgan bola "qo'lbog'"dan qo'lini bo'shatib:

Sandiqni titib bo'lib

Kelgach beshik qoshiga.
Sumak bilan tushirdim
O'g'rining qoq boshiga.
Barzangi gurs yiqildi,
So'ng turib qochib qoldi.
Shoshganidan eshik ham,
Sandiq ham ochiq qoldi.
— Ey, nomard, — deb
qichqirdim, —
Qochsang urib shataloq,
Eshikni yopib ket-da,
Shamollaydi chaqaloq...[1].

Erkin Vohidovning bu she'rida folklor janrlarini sintezlashgan holda qo'llaganiga guvoh bo'lamiz. Shoirning "Bir yolg'ondan qirq yolg'on" she'rini o'qiganimizda, xalq og'zaki ijodidagi "Uch yolg'ondan qirq yolg'on" ertagi xayolimizda gavdalanadi. She'rdagi lirik qahramon ham go'yoki ertakdagi malikaning shartlarini bajarayotgan talabgorga o'xshaydi, ya'ni yolg'onni shunday do'ndirib tashlaydiki, o'qiyotgan odam uni ba'zan haqiqat bilan aralashtirib yuborishi tabiiy. Hatto tug'ilishining o'zi bir qiziqarli tarzda tasvirlanganki, bu kitobxonni fikrlashga undaydi. Chaqaloqni tug'dirish uchun doya izlayotgan onasi hammaga yalinib chiqqan, lekin otasi uni "chorshanba bozori"dan sotib olgan. Yuqorida xalq og'zaki ijodidagi ertakni bejizga eslamadik. Ertakdagi malika tomonidan qo'yilgan quyidagi shartga e'tibor beraylik: "Shartim shuki, har kim uchta yolg'on topsin, har qaysisida qirqta yolg'on bo'lsin, mana shuni kim do'ndirib aytsa, meni o'shanga bering".

Bu shart shoirning qahramoniga juda mos keladi. U ham bir yolg'on topadi undan qirq yolg'onni bemalol anglash mumkin.

Yozma adabiyotda folklordan ilhomlanib, yangi bir asar yaratgan shoir ijodida adabiy ertak janrida yozilgan she'rlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Jumladan, "Sharq ertagi" she'rini misol qilib keltirsak bo'ladi. Biroq "Sharq ertagi" she'ri "Bir yolg'ondan qirq yolg'on" she'ridan tubdan farq qiladi. Basharti har ikkala she'r ham xalq og'zaki ijodidagi ertak janriga monand etib yozilgan bo'lsa-da, ulardagi voqealar tasviri turli usulda amalga oshirilgan. Ya'ni "Bir yolg'ondan qirq yolg'on" she'rida voqealar bosh qahramonning o'z tilidan bayon etilgan bo'lsa, "Sharq ertagi" she'rida ona va bola muloqoti tasvirlanadi. Bu she'rda onaning farzandiga xayrli tun tilash epizodi alla janriga mos holda yoritilganki, unda nafaqat bolani uxlashga undash, balki onaning butun mehrini his etish mumkin:

— Uxla, jonim erkam,
Uxla, ko'zim nuri.

Qo'zichog'im, ko'zlaringni yum...[1] kabi misralar fikrimizga dalil bo'la oladi. O'z navbatida ona "Ertak, dostonlarga Qancha boy bu olam. Qanchalar ko'p Sharqda afsona!" deb qaysi ertakni xayoldan o'tkazish asnosida shoir xalq og'zaki ijodidagi "Bahrom", "Chor darvesh", "Ozodbaxtning qissasi", "Aloviddin", "Xusrav Parvez", "Jamila" kabi bir qator ertaklarni eslab o'tadi. E'tiborli jihati shundaki, ona farzandiga Sharq ertaklaridan birini so'ylab berishni ma'qul ko'radi. Shoirning iqtidori shu qadar yuksakki, ertakni Sharqning ertangi qiyofasi bilan bog'laydi. Ertakdagi tog'ni bosh egdirishga ahd qilgan bulutlarning vajohati shu qadar dahshatliki, duch kelgan narsani "chaqmoq bilan urib o'tadi". Shunday kuchli bulutning etagi kelajakdagi Sharqning go'zalligi oldida "Pora-pora bo'lib Qoyalarda chuvalib qoldi". Shoir onaning ertagi orqali farzandiga orom tilaydi, ham Vatanga muhabbat uyg'otadi:

Mana, quyosh chiqdi,
Olam nurga to‘lib
Bulut uzoqlarga yo‘qoldi.
Etaklari uning
Pora-pora bo‘lib
Qoyalarda chuvalib qoldi»...
Uxla, jonim erkam,
Uxla, ko‘zim nuri,
Qo‘zichog‘im, ko‘zlaringni yum,
Borliq jimjit. Go‘dak —
Shirin tushlar ko‘rib
Uyqusida qilar tabassum[1].

Onaning o‘z farzandiga mehri shu qadar mayin, nozik va samimiyki, uni his qilgan farzand “shirin tushlar ko‘rib, uyqusida tabassum qiladi”, boshqacha aytganda, baxtni his etadi.

Erkin Vohidovning barmoq vaznidagi she‘rlari orasida folklordan ijtimoiy muammolarga uyg‘un holda foydalanib yozilgan asarlar ko‘plab uchraydi. Tahlillar jarayonida kuzatganimizdek, ertak janriga monand she‘rlari garchi janr nuqtai nazaridan o‘xshash bo‘lsa-da, mavzu jihatidan keskin farq etadi. Hikoya usuli ham o‘zgacha tarzda yaratilgan. Shoirning adabiy ertak janrida yozilgan barmoq vaznidagi she‘rlaridan yana biri “Bo‘ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa”dir. Basharti shoirning o‘zi bu she‘rni latifa deb atagan bo‘lsa-da, unda ertak janrining elementlarini ham uchramiz. Aniqroq qilib aytganda, ushbu she‘rda shoir folklorni sinkretik holda qo‘llaydi. Ya‘ni ertak va latifa janrini uyg‘unlashtirib, mukammal asar yaratadi. “Bo‘ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa” she‘ri hayvonlar to‘g‘risida bo‘lib, unda shoir jonlantirish san‘atidan foydalanib, insonga xos bo‘lgan muloqot jarayonini hayvonlarga ko‘chiradi.

O‘zbek xalq ertaklari orasida hayvonlar haqida yaratilgan ertaklar anchagina o‘rinni tashkil etadi, bularda ham hayvonlar, qushlar, o‘simliklar inson kabi gaplashadi, tortishadi, do‘stlashadi, do‘stni dushmanidan, yaxshini yomondan ajratadi[2].

Azaldan xalq og‘zaki ijodining ertak janridagi an‘anaviy obraz – o‘rmonning hukmdori bo‘rining majlis chaqirib, hayvonlarga demokratiya – so‘z erkinligi berganligi she‘rda mahorat bilan tasvirlab beriladi:

Bo‘rining qorni to‘ydi,
Go‘sht hamtegdi joniga.
Echki, quyon, ot, qo‘yni
Chaqirdi u yoniga.
Dedi: hozir to‘q paytim,
Foydalanib qolinglar.
Menga dashnomlar aytib,
Tanqid qilib olinglar[1].

She‘rda shoir kosa tagida nimkosa usulidan foydalanadi. Unda keltirilgan hayvonlar ramziy ma‘no ifodalanadi. Undagi quyon obrazi xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham qo‘rqoqlik timsolini anglatadi. O‘z jonini asrash uchun qulluq qilib yashashga majburdir. Bo‘ri quyonga so‘z berganda, “o‘rtaga o‘z jonini avaylab” chiqadi va bo‘rini ulug‘laydi:

Quyon dedi: “Ming rahmat,
Menda hech shikoyat yo‘q.
Sizdek oliy marhamat

Sohibi inoyat yo'q.

Men qulingiz na derdim,

Sizga fidodir jonim..."

She'r 1989 yilda yozilgan bo'lib, unda bo'rining chaqirgan majlisini tasvirlashdan maqsad davrning ijtimoiy muammosi haqida fikr yuritishdan iborat. Tarixdan bizga ma'lumki, 1989 yilda siyosiy jarayon keskin o'zgarib, qayta qurish, demokratiya g'oyasi ilgari surilgan bir davr bo'lib, bu g'oya insoniyat hayotini tub burilish davriga yetakladi. She'rda bo'ri rahbarlar timsolini bildirsa, u erkinlik berib, har kimning fikrini bilishga intiladi. Afsuski, odamlar orasida quyonga o'xshagan qo'rqq, keyin so'zga chiqqan qo'yga o'xshagan indamasdan podaga ergashib ketaveradigan yoki faqat topshiriqni bajaruvchilar borligi hech birimizga sir emas:

So'ng qo'yga navbat tegib

Minbarga chiqdi asta.

Dedi: Hech vaqt hech bo'ri

Bizdan hol so'rgan emas.

Minbar berib, joy to'rin

Munosib ko'rgan emas.

Bu obro', bu hurmatdan

Men terimga sig'madim.

Bunday zo'r marhamatdan

Ta'sirlanib yig'ladim.

Qo'y so'z erkinligi berilgani uchun hayratda qolganligini anglashimiz mumkin. Afsuski, qo'ydan keyin so'zga chiqqan echki ham bo'riga qarshi chiqolmadi. Yaxshiyamki jamiyatda otga o'xshagan nohaqlikka qarshi chiqadiganlar bor. Ot ham xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obraz bo'lib, u insonning do'sti sifatida tasvirlanadi.

Dunyo san'atida ot obrazi alohida o'rin tutadi. Ot insonning sodiq do'sti bo'lgani sabab ardoqlab kelingan va bu san'atda, jumladan, adabiyotda ham o'z aksi-ifodasini topgan. Folklorshunos H.Zarifov ta'kidicha: "Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo'ldoshi, ishonchli qo'ldoshi va yaqin do'stidir"[2].

Ot xalq og'zaki ijodida erkka tashna obrazdir. Shu bois u doim olg'a harakat etadi.

Erkin Vohidovning "Bo'ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa" she'rida tasvirlangan ot ham zulm va zo'ravonlikka qarshi chiqadi. Majlis chaqirgan bo'rini "jag'iga" tepadi:

Nihoyat oxirgi gap

Navbati otga yetdi,

U bo'rini mo'ljallab

Jag'iga chunon tepdi.

Olov sachrab ko'zidin

Bo'rida jon qolmadi.

Ketganicha o'zidan

Qaytib turaolmadi.

Ot obrazi bu harakati uchun e'tibordan chetda qoladi, ya'ni bo'rining tili bilan aytganda:

Bema'ni majlisga men

Ikki dunyo qaytmayman.

Ot — beodob, ot o'lsin,

Ziyofatga aytmayman.

Zero, ot siyosiy jarayonga qarshi chiqqan, erkinlikka intilgan obraz sifatida



gavdalanadi. Jamiyatda ham otga o'xshab, erkinlik uchun, haqiqat uchun kurashuvchilar she'r yozilgan davrda barcha imtiyozlardan mahrum etilgan, iqtidori bo'g'ilgan.

XULOSA. Erkin Vohidov xalq mehridan ilhomlanib, xalq dardini, orzu-istaklarini she'rlariga ko'chirgan shoirdir. Uning folklordagi ertak janridan ilhomlanib yozgan yuqorida tahlil etilgan she'rlarida aynan xalqimiz o'tmishi, inson qadrining toptalishi, yolg'onlar zamiriga yashiringan haqiqatlar va "demokratiya"ning amal qilish tamoyillari dadil va teran ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Saylanma. 3-jild. Umrin daryosi. T: "Sharq". 2001. – 227-b.
2. XX asr o'zbek folklorshunosligi. Antologiya. T: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti 2017. – 85-b.
3. Sharipova L. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 2019. – B. 16.
4. Xajiyeva D. Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasida xalq maqollarining qo'llanishi va xalqchilik. "Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning innovatsion yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2022-yil, 11-may, B. 352-354.
5. Xajiyeva D. Erkin Vohidov she'riyatida xalq maqollarining qo'llanilishi xususida ba'zi mulohazalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022. №1, B. 258-261.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA TO'G'RI TALAFFUZ
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA MASHQLARNING O'RNI**

*Hamdamova Zilola Shaxobiddin qizi,
Navoiy shahar Profi universiteti o'qituvchisi*

Annotasiya: maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni adabiy talaffuzga o'rgatish usullari, mashq va topshiriq turlari, ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha hududiy muammolar o'rganilgan hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: to'g'ri talaffuz, tovush, harf, bo'g'in, urg'u, talaffuzi qiyin unli va undosh tovushlar, sheva, adabiy til hamda ularning o'zaro farqi, tafovutlar, ohang, to'xtam, o'quv topshiriqlari, mashq, topshiriq

**РОЛЬ УПРАЖНЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ
ПРАВИЛЬНОГО ПРОИЗНОШЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

*Хамдамова Зилола Шахабиддиновна,
преподаватель Университета Профи города Навои*

Аннотация: в статье рассматриваются методы обучения учащихся литературному произношению в начальных классах, виды упражнений и заданий, инструкция по их использованию. Также были изучены территориальные проблемы правильного произношения звуков и дана реакция на проведенные исследования по их устранению.

Ключевые слова: правильное произношение, звук, буква, слог, ударение, трудно произносимые гласные и согласные, диалект, литературный язык и их различия, Различия, тон, остановка, учебные задания, упражнение, задание

**THE ROLE OF EXERCISES IN THE FORMATION OF CORRECT
PRONUNCIATION SKILLS IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN**

*Hamdamova Zilola Shahabidinovna,
lecturer at the Profi University of Navoi*

Abstract: the article discusses methods of teaching students literary pronunciation in primary school, types of exercises and tasks, instructions for their use. The territorial problems of the correct pronunciation of sounds were also studied and a reaction was given to the studies conducted to eliminate them.

Keywords: correct pronunciation, sound, letter, syllable, stress, hard-to-pronounce vowels and consonants, dialect, literary language and their differences, differences, tone, stop, training tasks, exercise, task

Kirish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar uchun barcha fanlarning asoslari o'rgatiladi. Ona tilidan ham dastlab, tovushlarning talaffuzi boshlang'ich sinfda o'qitiladi. To'g'ri talaffuz 1-sinfdan etarli o'rgatilmagani uchun 11-sinfga qadar o'quvchilar adabiy talaffuzni o'rgana olmaydi. «Ona tili» darsliklarida to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlarini ko'nikma sifatida shakllantirish borasida ko'plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o'quvchiga o'rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Boshlang'ich sinfda adabiy talaffuz va uning me'yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atrofficha o'rganilganligini kuzatamiz [ingliz, frantsuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo'lish jarayoni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda tovushlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizma (rasm)lar yo'q. O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlarning to'g'ri talaffuzini oddiy, an'anaviy mashqlar bilan etarli darajada o'rgatib bo'lmashligini bugungi o'quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o'qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

Asosiy muammo o'rta umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz – madaniyatilik belgisi. O'rta umumta'lim tizimida 2-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari orfoepiya bo'limi tarkibida qisman o'qitila boshlaydi. 5-sinfda «fonetika» bo'limi ta'limi taqozosiga ko'ra shu erda o'quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo'yiladi.

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, o'zbek adabiy tili turli lahjalaridan o'sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog'liq jiddiy muammolar bor. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, fonetikaga doir o'quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta'sirini inobatga olishlari kerak. Shu ma'noda dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtai nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e'tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so'zlar talaffuzida [q] undoshi o'rnida [k] nutq tovushini qo'llash ko'nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o'quvchiga adabiy talaffuz me'yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq etarli bo'lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o'quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o'quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o'qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Darhaqiqat, Toshkent viloyati, xususan, shahar hududida [h] bo'g'iz undoshi o'rnida ko'pincha [x] chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (Xalim, xashar, vaxima va b.), shuningdek, Buxoro, Samardand, qarshi, Buxoro (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [o'] unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Ko'rinadiki, 1-4-sinf «ona tili» darsligida yuqorida keltirilgan nutq tovushlarini o'zlashtirishga mo'ljallangan nazariy ma'lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar etarli emas. Mazkur nutq tovushlarini sanab o'tilgan hududlarning o'quvchilari nutqida adabiy me'yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo'llanmalarda deyarli e'tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar tizimi ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi.

Shuningdek, [h] bo'g'iz undoshi ishtirok etgan so'zlarni ko'pchilik ham yozma, ham og'zaki nutqda noto'g'ri qo'llaydi, uni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi.

H.Ne'matov muallifligida yaratilgan 5-sinf «Ona tili» darsligida [h] va [x] undoshlarini imloda ham talaffuzda farqlash uchun berilgan o'quv materiali boshqalariga nisbatan o'quvchiga ancha foydali.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarga [o'] unlisi so'zning turli o'rinlarida bir-biridan

Bugungi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan savol-javoblar ko'pincha xotirani mashq qildirishga xizmat qilmoqda. Adabiyot o'qitish metodikasida professor Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika fanlari doktori Qunduz Husanboevlarning tadqiqotlarida milliy tajribalar, o'quvchini mustaqil fikrlashga, so'zni, odam va olam mohiyatini anglatishga urinishlar borligini mamnuniyat bilan ta'kidlaymiz.

Shu o'rinda, filologiya fanlari doktori, professor Ibodulla Mirzayevning milliy

tajribalarni o'rgangan holda mumtoz ta'lim shakli bo'lgan «tahliliy o'qish», «matn tahlili» o'quv loyihalari yuksak saviyali shaxslar, malakali mutaxassislar tayyorlash, iqtidorli olimlar etishtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ona tili ta'limi orqali ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash kontsepsiyasi muallifi filologiya fanlari doktori professor Namid Ne'matov va uning izdoshi, munosib shogirdi, bugun O'zbekistonda amaliy tilshunoslik va pragmatik ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan iste'dodli olim – Baxtiyor Menglievning bu borada amalga oshirayotgan manfaatli ishlarni ham ta'kidlash o'rinlidir.

Shunday bo'lsa-da ona va adabiyot ta'limi o'zining yangi metodikasini to'la yaratib olgan, u bugun samarali qo'llanmoqda, deb aytolmaymiz. Chunki jahon tajribasini har qancha o'rganmaylik, milliy mentalitet, irsiyat tushunchalari ham mavjudki, biz uzoq o'tmishda jahoniy shon-shuratni qo'lga kiritgan ajdodlarimizning boy tajribasini, albatta, o'rganishimiz kerak. Uning elementlarini bugungi ta'lim jarayoniga singdirishimiz lozim. Bu borada bizga tarixchilar, etnograflar, Kinochilar, sharqshunoslar, yozuvchilar yordam berishi kerak.

Intellektual salohiyat, daholik haqida gap borsa, bizning diqqat markazimizga Alisher Navoiy keladi. Bu bejiz emas. Chunki Navoiy ijodi, uning tafakkur mahsuli to'la o'rganilmagan, qazib olinmagan xazinadir. Bizni qiziqtiradigan jihati shuki, bunday daho, mutafakkir qanday etishib chiqdi, uning omillari, sabablari, shart-sharoitlari qanday bo'lgan, Navoiy qanday ta'lim olgan?

Yaqinda nafaqat o'zbeklar, balki jahon miqyosida ham o'quvchilari soni kun sayin oshib borayotgan, millat tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiluvchi «genetik», «boqiy darbadar» kabi asarlar muallifi, iste'dodli yozuvchi Isajon Sultonning «Alisher Navoiy» romani chop etildi. Buning badiiy qimmati, ijtimoiy ahamiyat to'g'risida munaqqidlarimiz, millat ziyolilari o'z munosabatlarini bildirdilar.

Davlatimiz tomonidan ham ushbu teran tafakkur mahsuli munosib baholandi. Yozuvchiga shaxsan mamlakat rahbari «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvonini topshirdi. Bu asarga berilgan eng yuksak baho edi. Alisher Navoiy asarlarining o'ziga xosligi ham shundaki, uni o'qigan har bir kishi o'ziga kerakli ma'no topa oladi. Masalan, bir g'azalni ikki yoki uch xil talqin etish mumkinligi ko'p marta isbot bo'lgan.

Isajon Sultonning «Alisher Navoiy» romani yuksak badiiy asar bo'lishi bilan birga faktik materiallarga boy bo'lgani bois tarixchilar, qadimshunoslar, siyosatchilar, nutqshunoslar uchun ham zarur manba bo'la oldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu roman ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi, milliy pedagogika uchun ham qimmatli manba vazifasini o'taydi.

Mamlakatda uchinchi Renessans ro'y berishi uchun «taraqqiyot strategiyasi» ni amalga oshirishda barcha sohada, jumladan, ta'lim tizimida, zamonaviy kadrlar tayyorlashda tub burilishlar, samarali islohotlar olib borish, millatni intellektual jihatdan yuksaltirish, jamiyatda ustozning nufuzini oshirish bosh masalalardan biri bo'lib turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda rivojlangan mamlakatlarda ustozning nihoyatda qadrlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar havas bilan qayta-qayta muhokama qilinmoqda. Ustozning soyasini bosib olmaslik uchun etti qadam orqada yurish kabi yapon va boshqa intellektual jihatdan taraqqiy etgan davlatlar madaniyati targ'ib qilinmoqda. Bu yaxshi. Ammo bizdagi mumtoz ustoz-shogirdlik an'anasi ham bundan qolishmagan. Buni tarixiy faktlar, sodir bo'lgan birinchi va ikkinchi renessanalar isbotlaydi. Biz bir muddat bu an'analardan uzoqlashgan edik, mana «Alisher Navoiy» kabi romanlar yana shu muhitga qaytarsa, ajab emas.

Asarda Buyuk shoirning qanday etishib chiqishi, bunga sabab bo'lgan shaxslar, omillar va vositalar aniq ifodalangan. Bu milliy metodikamiz, qolaversa, pedagogikamiz uchun juda muhim edi.

Bugun til va adabiyot o'qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqishda mumtoz ta'lim erishgan yutuqlaridan foydalanish lozim. E'tiborli jihati shundaki, Isajon Sultonning «Alisher Navoiy» romanida shunday o'ziga xos yondashuvlar borki, uni bugungi til va adabiyot o'qitishga tatbiq etish, ayniqsa, adabiyot darslarida shunday suhbatlardan foydalanish katta samara beradi.

Jumladan, asarning dastlabki boblaridan birida shoirning bolaligi, uning ta'lim olish jarayoni, ustozning shogirdlarga munosabati, o'quvchilarga qanday savollar berishi mahorat bilan tasvirlangan. E'tiborni tortadigan jihati shundaki, bugun o'qituvchi o'quvchiga berayotgan bilimi qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib o'tirmaydi, Navoiy davrida esa, bunga alohida diqqat qilingan. O'tilganlarni takrorlash shaklidagi dars mashg'ulotlari odatda quyidagi mazmunda savollar, (aqliy hujum)dan boshlanadi:

«Mudarris alik olib, darsni savol bilan boshladi:

- Ayting-chi, Qur'onni ne uchun o'qiydurmiz?
- Alloh taoloning hukmlari bo'lgani bois.
- Balli. Handasani-chi?
- Hisobda xatolar bo'lmasligi uchun.
- Xo'sh, unda abiyot-u nazmni-chi?
- Go'zal qo'shiqlar kuylamoq uchun.

– Xayr, deb javob qildi mudarris. Shul sababdinkim, el-ulusning, rayiatning ulug'lari so'zini go'zal aytmoq uchun...»Ko'rinib turibdiki, mudarris o'quvchlarni fikrlashga undayapti, xato javob bersa, hafsala bilan uni tuzatib turibdi.

Mudarris yana shunday davom etadi: «sizlarga olamning eng kuchli quroli haqida aytib beraman, – deydi mudarris. Toping-chi, nima ekan?». Bu o'quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga undash, mashg'ulotga qiziqtirishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Qariyb olti yuz yil avval amalda qo'llangan. Mudarris savol bergach o'quvchilar har xil o'zlari tasavvur qilgan narsalarni aytishadi:

- Manjinaq.
- Ho'kiztumshuq.
- Fil. Shunda mudarris yoyilib jilmayadi va yo'q, men aytmoqchi bo'lgan narsa ulardan ham kuchli. U so'z deydi.

Mudarris bolalar biladigan jonivorlardan misol keltirib, itlar uch xil tovush chiqaradi: vovullaydi, angillaydi, huradi. Shu uch tovush uning umr kechimog'i uchun etarli, deydi. Umuman, bu o'rinda mudarris so'zning inson hayotidagi ahamiyatini olam va odam misolida tushuntirib beradi va yo'l-yo'lakay o'quvchilarga ham salmoqli savollar berib, ularning javoblarini yo olqishlab, yoki to'ldirib boraveradi. Ayniqsa, Arabcha tuya so'zi sharhidan keyin turkiy tilning go'zal va boy ekanligini ot so'zi orqali yosh Alisherga ustoz Abu Abdulloh kulohiy aniq misollar bilan (qulun, toy, ayg'ir, biya, to'riq, saman, Tarlon, tulpor) tushuntirib beradi. So'z va uning ma'nolari ustida mashg'ulot olib boriladi. Demak, bugungidek, quruq gramatik qoidalarni yodlatish bilan shug'illanilmagan.

Asarda diqqatni tortadigan o'rinlar juda ko'p. Masalan, «gul sayli» bobida ikki oddiy fuqaroning o'z ona tilini himoya qilib janjallashayotgani tasvirlangan sahnalar ham bor. Voqealar rivojida shunday dialoglar borki, beixtiyor Navoiy ham siz-u biz kabi oddiy kishi ekan-ku, deb u kishining ruhiyatiga yaqinlashaverasiz. Buyuk shoirning Samarqandga borgan kuni pulini yo'qotib qo'yib, hech kimni tanimagani

uchun qiynalgani va choponini sotib arzonroq chopon olmoqchi bo'lganlari o'quvchini hayotdagi tasodifiy muammolardan chiqish yo'llarini topishga o'rgatsa ajab emas.

Milliy pedagogikada bola, ayniqsa, o'g'il bola tarbiyasida tog'alarning o'rni muhim ekanligi o'rganilmaydi. Masalan, farzand tarbiyasida ota-ona, oilaning ta'siri masalasi keng o'rganib kelinadi. Hayotda yuksak natijalarni qo'lga kiritgan insonlarning ko'pchiligida tog'alarning ta'siri katta bo'lgan. Masalan, bugun biz yaxshi bilgan Erkin Vohidov, Tohir Malik kabi bir qator ijodkorlarning ulkan muvaffaqiyatlariga tog'alari sabab bo'lganni o'zlari ta'kidlaydilar. Navoiyning ham she'riyat mulkining sultoni, buyuk tafakkur sohibi bo'lishida tog'alari Qobuliy va Ali G'aribiylarning ta'siri katta bo'lgan. Ular Alisherni ko'plab she'riyat kechlariga olib borar, yozgan she'riy mashqlari uchun olqishlar aytar, bo'lajak shoirga bundan-da zo'r asarlar yozishda rag'bat uyg'otardi.

Isajon Sulton o'z asarida manashu jihatga alohida e'tiborni qaratgan. Alisherning Navoiy bo'lish jarayonini ipidan-ignasigacha tasvirlab beradi. Bunga xizmat qilgan omillar va vositalarni izma-iz ifodalab boradi. Bir so'z bilan aytganda yozuvchi tarixiy faktlarga tayanib, ishonchli badiiy to'qimalar keltirib, ijodiy tafakkur sohiblarini etishtirishning milliy modelini o'zi bilmagan holada yaratib bergan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugunga qadar Buyuk Navoiy haqida yaratilgan asarlarni kamsitmagan holda aytish mumkinki, «Alisher Navoiy» romanini o'qigan kishi borki ham shoir Navoiyni, ham Nizomiddin Alisherni, ham Amir Alisher Navoiyni ko'rgandek bo'ladi. O'zbek adabiyoti, adabiyot o'qitish metodikasi uchun kamyob hodisa o'laroq mazkur roman, shu jumladan, Isajon Sultonning boshqa asarlari uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodga ijodiy tafakkur va keng dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Romanni o'qigan kishi Alisher Navoiyni qayta kashf qiladi, beixtiyor shoir ijodiga sho'ng'ib ketadi. Asar bevosita Navoiyni tushunishga yordam beradi. Buning uchun yozuvching badiiy mahorati, tafakkur sarhadlari naqadar kengligiga tasannolar aytish mumkin zero, asar shoirni ta'ran anglashda, she'riyat bo'stoniga o'tishda ko'prik vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Хамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. – Тошкент, “Донишманд зиёси” нашриёти 2021. 160 б.
3. Исажон Султон Алишер Навоий Роман. –Тошкент: “Адабиёт” нашриёти, 2021. –512 б.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZISHGA O'RGATISH

*Norova Iroda Mirzog'olib qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

Annotasiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga harf shakllarini, harflarni, so'zlarni to'g'ri va chiroyli yozish qoidalarini o'rgatish, harf yozishgacha bo'lgan jarayonlar, qalam tutish, gavda va qo'l harakati bilan bog'liq holatlar bayon qilingan. Boshlang'ich sinflarda harf o'rgatishga shunchaki savod chiqarish vositasi sifatida qaramaslik, balki unga aqliy hamda ruhiy takomillashish omili o'laroq yondashish fikri ilgari surilmoqda.

Kalit so'zlar: alifbo, harf, harf shakllari, bo'g'in, so'z, yozishga tayyorgarlik ko'rish, ko'nikma, malaka, bilim, sanitariya-gigiena

ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ КРАСИВОМУ ПИСЬМУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Норова Ирада Мирзоғолибона,
научный сотрудник Навоийского государственного педагогического
института*

Аннотация: в статье описываются условия, связанные с обучением учащихся начальных классов буквенным формам, правилам правильного и красивого написания слов, процессам вплоть до написания букв, удержанию ручки, позе и движениям рук. В начальных классах выдвигается идея не только рассматривать обучение письму как инструмент для плетения корзинок, но и подходить к нему как к фактору умственного совершенствования.

Ключевые слова: алфавит, буква, буквенные формы, слог, слово, подготовка к письму, навыки, квалификация, каллиграфия, знания, санитарно-гигиенический

TEACHING STUDENTS BEAUTIFUL WRITING IN ELEMENTARY GRADES

*Norova Iroda Mirzogolib kizi,
Researcher at the Navoi State Pedagogical Institute*

Abstract: the article describes the conditions associated with teaching elementary school students letter forms, HARS, the rules of correct and beautiful spelling of words, processes up to writing letters, pen holding, posture and hand movements. In primary school, the idea is put forward not only to consider learning to write as a tool for weaving baskets, but also to approach it as a factor of mental improvement.

Keywords: alphabet, letter, letter forms, syllable, word, preparation for writing, skills, qualifications, knowledge, sanitary and hygienic

Kirish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchiga harf yozishni o'rgatish eng murakkab jarayonlardan biridir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari ham bog'cha bolalarga harf shakllarini yozishni o'rgatmoqda, ammo bu borada ham muammolar mavjud, chunki maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi tarbiya bo'lgani sababli u erda bolaga ko'p hollarda shunchaki harflarni yozish va o'qish o'rgatiladi. Aslida harf shakllarini mahorat bilan yozish, chiroyli yozishga boshdan jiddiy e'tibor berish lozim. Aks holda o'quvchi xunuk va tushunarsiz yozishga odatlanib qoladi.

Birinchi bosqichda o'quvchining asosiy vazifasi to'g'ri o'tirishni, qalam va

daftarni to'g'ri ushlab turishni o'rganishdir. So'ng harfning eng muhim elementlarini yozish, aniqrog'i yozish algoritmini o'rganish. Keyingi bosqich esa harf yozishdir. To'rtinchi bosqichda butun so'zlarni yozishga o'tiladi.

Yozuv mahoratini egallash uchun o'quvchi faoliyatining sanitariya-gigiena jihati juda muhimdir.

Bolalar maktabda yozayotganda amalda tez-tez uchraydigan kamchiliklar:

- ular stolda cho'kkalab o'tirishadi, oyoqlari yuqoriga ko'tarilib, ko'kraklari bilan stolga suyanishadi;

- ular so'zma-so'z yozadilar;

- chap elka oldinga suriladi va burchak ostida chiqib turadi, chap qo'l o'ng qo'lning ostiga tiqiladi yoki boshni qo'llab-quvvatlaydi;

- o'ng qo'lning tirsagi keskin osilib turadi yoki stol chetidan o'ngga yuqoriga juda uzoqqa boradi yoki tanaga mahkam bosiladi;

- yozish paytida bosh chap yoki o'ng elkaga kuchli qiyaliklarga ega;

- bolaning butun qiyofasi keskinlik va harakatni ifodalaydi.

Bunday joylashish natijasida o'quvchilar haddan tashqari charchoqni boshdan kechirishadi, bu vosita tashvishi, tana holatining tez-tez o'zgarishi, hayajonda ifodalanadi. Sanitariya-gigiena qoidalarini muntazam ravishda buzish o'quvchi tanasining sog'lig'i va me'yoriy rivojlanishiga jiddiy zarar etkazadi.

Birinchi sinf o'quvchisida grafik mahoratni shakllantirish ongli jarayondir. Bunda harakat natijasida va uning alohida bosqichlarida olinishi kerak bo'lgan harakatning maqsad va vazifalarini anglash muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi tomonidan vazifalarni aniq taqsimlash, ularni o'quvchi tomonidan aniq anglash grafik mahoratni shakllantirish muvaffaqiyatiga jiddiy ta'sir qiladi.

Muntazam ravishda diqqatga sazovor joylarni topish, ularning ma'nosini aniqlash va ularni amalda qo'llash, bu bolalarga grafik harakatni erta va muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradi.

Mashg'ulotning dastlabki bosqichlarida harakatlar sekin ritmda amalga oshiriladi: bir operatsiyadan ikkinchisiga o'tishda keyingi harakatni amalga oshirish uchun kechikish zarur.

Boshqariladigan o'rganish bajarilgan harakatning oqilona va ongli bo'lishini ta'minlaydi, bu esa to'liq grafik mahoratni shakllantirishga olib keladi. Darsni boshqarishda o'quvchilarga harakatni to'g'ri bajarish uchun to'liq ko'rsatmalar berish kerak.

Buning uchun quyidagilar zarur:

- namunaga e'tibor berish, ya'ni harfning barcha elementlarini, ularning daftar o'lchagichlarida joylashishini, harakatlarning yo'nalishi va ketma-ketligini, chiziqlar chizishda harakatlarning taqsimlanishini ajratib ko'rsatish;

- harakat materiallari va vositalarini tahlil qilish: daftar tegishli tartibga ega bo'lishi kerak;

- harakatni bajarish usulini va uni bajarish shartlarini tahlil qilish: stolda o'tirish, tananing holati, oyoqlarning holati, ko'zdan daftargacha bo'lgan masofa, stol ustidagi qo'llarning tanaga nisbatan holati, qo'lning holati stol, chap qo'lning holati, daftarning stol ustidagi holati, elklarining holati, boshning tanaga nisbatan holati, qo'llarning kuchlanishining yo'qligi va bosimning to'g'ri taqsimlanishi;

- qalam va daftardagi qalamga kuch, qalamning qo'ldagi holati va uning yuqori uchining elkaga yo'nalishi, daftardagi harflarning magistralga nisbatan joylashishi.

Ushbu qoidalarining har biri nafaqat grafik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, balki o'quvchining sog'lig'iga ham ta'sir qiladi.

Ijro etuvchi operasialarni tahlil qilish, ya'ni harakatni bajarish usulini ochib berish, u uchrashishi kerak bo'lgan belgilarni ta'kidlash, shu bilan birga, shakllangan mahoratda bir butun sifatida harakat qiladigan daqiqalarni ajratish juda muhimdir: harf yozish jarayoni va uning yakuniy natijasi muhim ahamiyatga ega:

- topshiriqni bajarish rejasini tuzish, dastlab topshiriqni, materialni, vositalarni, bajarish usulini tahlil qilish, so'ngra ijro jarayonlari ro'yxatini tuzish;

- bir vaqtning o'zida tahlil qilish va tuzatish bilan o'quvchilarning topshiriqni bajarishi ustidan o'zini o'zi nazorat qilishini ta'minlash.

Maktab o'quvchilari uchun aniq standartlar tizimi – harf yozish algoritmlari mavjud. Ushbu algoritmlar o'quvchilar tomonidan yaxshi tushunilishi kerak, ya'ni yozish paytida harakatlar haqida haqiqiy bilim keyinchalik ko'nikma va malakaga aylanadi.

To'g'ri grafik mahoratni shakllantirishda harakatni bajarish tanlangan belgilarga ketma-ket uchta shaklda yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi: moddiy, nutqiy va aqliy.

Moddiy shakl harakat algoritmini tushunishni ta'minlaydigan topshiriq rejasini tuzishni o'z ichiga oladi (harfning grafik rasmini o'rganish, o'qituvchi bilan birgalikda elementlarni ajratib ko'rsatish, allaqachon o'rganilgan harflardan o'xshash elementlarni topish, harakatlar ketma-ketligini aniqlash va hokazo.).

Nutq shakli – mustaqil talaffuzdir. Topshiriqdan keyingi jarayon harflarni oldindan ovoz chiqarib talaffuz qilish bilan amalga oshiriladi, ya'ni harfning yozilishi barcha kichik elementlarning berilgan ketma-ketlikda og'zaki talaffuz qilinish sharti bilan hosil bo'ladi. Harakatning nutqiy ifodasi aniq bo'lishi kerak, ya'ni o'quvchi o'rganilgan harfni yozish algoritmini tavsiflay olishi kerak.

Bosqichma-bosqich nutq yo'riqnomasi yana-da qisqartiriladi. O'qituvchi yoki bola yozishning asosiy bosqichlarini eslatadi, u butun harakatni «ongida» tasavvur qilib, harf yozishga o'tishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'rganilgan harflar soni ortishi bilan bosqichma-bosqich rivojlanish zarurati yo'qoladi va barcha shakllar birlashadi. Harf yozish mashg'ulotlari tugagandan keyin o'quvchilardan nazorat ishi olinganda quyidagi xatoliklar kuzatiladi:

- so'zlardagi harflar orasidagi intervallar kuzatilmaydi, so'zlar chiziqqa notekis joylashtirilgan;

- harflar juda keng yoki juda tor yozilgan;

- o'ngga yoki chapga ko'p yo'nalishtirilgan egilish yoki ortiqcha egilish mavjud;

- harflarning chiziqlariga nisbatan joylashishi kuzatilmaydi, ya'ni yozuvda chiziqlilik yo'q.

- harflarning kerakli balandligi saqlanmagan;

- harfning buzilgan shakli ko'p kuzatilgan;

- hatning burchakliligi, panjarasi mavjud;

- yozishda harflarning uyg'unligi kuzatilmaydi;

- to'liq noqonuniylik bor, harf shakllari aralashib ketgan.

Yuqoridagi xatolar to'g'ri va chiroyli yozish mahoratining etarli darajada shakllanmaganligi sababli paydo bo'ladi. Etarli darajada qunt bilan mashq qilinmagan.

Husnixat xatolarining tasnifi o'qituvchiga o'quvchilarning yozuvlarini tahlil qilishga, kamchiliklarni aniqlashga va qo'l yozuvini tuzatish taktikasini ishlab chiqishga yordam beradi. Maktab o'quvchilarining umumiy rivojlanishi mashg'ulotlarni zerikarli va murakkab tashkil etilgani bilan ham bog'liq, albatta.

Ona tili o'qitishdagi dolzarb muammolaridan biri bu – boshlang'ich sinf o'quvchilariga imloni o'rgatishning samarali usullarini izlashdir. Maktabda bolaning

keyingi ta'limi, uning imlo va nutq savodxonligi, ona tilini yozma ravishda o'rganish qobiliyati boshlang'ich sinflarda harf, husnixat va imlo ko'nikmalari qanchalik to'liq egallaganiga bog'liq.

Har bir sinf uchun o'zbek tilida dastlabki o'qitish dasturi ortogrammalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Lekin qanday qilib to'g'ri va chiroyli yozishni o'rgatish mumkinligi bugungi metodika uchun ham o'z echimini kutayotgan muammolardan biridir. Bu savol ko'plab o'qituvchilarni tashvishga solishi tabiiy. Boshlang'ich sinflar uchun «Alifbe», «Ona tili» darsliklari ko'pincha harflar etishmayotgan matnlarda imloni o'rgatadi. Shunday qilib, imlo vazifasi o'quvchi tomonidan emas, balki darslik muallifi tomonidan belgilanadi. O'quvchi faqat o'ziga Yuklangan vazifani hal qila oladi va u buni muvaffaqiyatli uddalaydi. Grafika mashg'ulotlaridada egallagan bilim va ko'nikmalar kichik diktant yozish orqali tekshirib ko'riladi. Keyinchalik o'quvchilar so'zda qoida qo'llanilishi kerak bo'lgan joyni topa olmasliklari sababli xato qilishadi. Demak, diktant, ijodiy ishlar va ekspozitsiyalarda o'quvchilar juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Yozish o'qishdan farqli o'laroq, ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Yozish aniq, qat'iy izchil amalga oshirishni o'z ichiga oladi. so'zning fonemik tahlili va tanlangan tovushlarning o'zaro bog'liqligi tegishli fonemalar, ya'ni fonemikani amalga oshirish va umumlashtirishdir. Keyin fonemalar qat'iy belgilangan holda berilishi kerak.

Husnixat aqliy harakatlarining eng qiyin va zavqli turlaridan biridir. Barmoqlar, elkalar, orqa, bo'yin ishtirok etadi. Bola qalamni ushlaydi, bilaklarini qo'llab-quvvatlaydi, uni to'g'ri harakatlantirasa – barchasi nervlarni odatlantiradi, miyani rag'batlantiradi, yozuv mahoratini rivojlantiradi. Aslida kalligrafiya – to'g'ri va chiroyli yozuv –bu kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradigan meditasiyaning bir turidir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kaligrafiya mashg'ulotlarini tashkil qilish ularning aqliy rivojlanishiga katta yordam beradi. O'zbek tilida kaligrafiya masalasi ham alohida tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Глаголева, Е.А. К вопросу о трудностях усвоения школьных навыков / Е.А. Глаголева // Материалы научно-практической конференции «Проблемы психологии 21 века глазами молодых учёных». – М.: ЦПУ, 2002. – С. 28-30.
2. Нефедов Г.В. Город-крепость Семиреченск. –М.: Издательство «Наука», 1979. – С. 742.
3. Божович Е.Д. Учителю о языковой компетенции школьника / Е.Д. Божович. –М.; Воронеж: МПСИ, МПО «МОДЭК», 2002. –С.14.
4. Вереникина И.М. Психологические условия перестройки отношения детей к учебной деятельности на рубеже подросткового возраста: автореф. дисс. ... канд. психол. наук / Вереникина Ирина Марковна. –М., 1988. - 24 с.
5. Дубровина И.В. Возрастные особенности психического развития детей: сб. научн. тр. / И.В. Дубровина. –М.: АПН СССР, 1982. - 164 с.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN O'QUV LUG'ATLARI USTIDA ISHLASH

*Omonboeva Nursaule Erkin qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish uchun izohli o'quv lug'atlaridan foydalanish, o'quv lug'atchiligi, mavjud muammolar, shuningdek, lug'atlar bilan ishlashda qardosh va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi yondashuvlar o'rtasidagi tafovut ham bog'liqliklar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetentsiya, lug'atchilik, o'quv lug'atlari, izohli lug'at, ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar, o'zga tilli guruhlar, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar

РАБОТА НАД УЧЕБНЫМИ СЛОВАРЯМИ С УЧАЩИМИСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

*Омонбаева Нурсауле Эркин кызы,
преподаватель Навоийского государственного педагогического
института*

АННОТАЦИЯ: в статье также обсуждается использование толковых учебных словарей для развития речевой компетенции в школах, где обучение осуществляется на других языках, учебная лексикография, существующие проблемы, а также несоответствие подходов между родственными и неродственными языками при работе со словарями.

Ключевые слова: речевая компетенция, лексикография, учебные словари, толковый словарь, школы, где обучение ведется на казахском языке, группы иностранных языков, родственные и неродственные языки

WORKING ON EDUCATIONAL DICTIONARIES WITH PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*Omonbaeva Nursaule Erkin kyzy,
teacher of the Navoi State Pedagogical Institute*

ABSTRACT: the article also discusses the use of explanatory educational dictionaries for the development of speech competence in schools where teaching is carried out in other languages, educational lexicography, existing problems, as well as the discrepancy between approaches between related and unrelated languages when working with dictionaries.

Keywords: speech competence, lexicography, educational dictionaries, explanatory dictionary, schools where education is conducted in the Kazakh language, groups of foreign languages, related and unrelated languages

Kirish. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pirovard natijada o'quvchini hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Ta'limning asosi, poydevori, albatta, boshlang'ich ta'limga bog'liq. Mamlakatimizda etti tilda ta'lim beriladi, biroq barcha ta'lim muassasalarida davlat tilini o'qitishga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar son jihatda ko'pchilikni tashkil qiladi. Qardosh tillarni o'qitish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar sonini oshirish, ayniqsa, tillarni qiyoslab o'qitish masalasi, turkiy so'zlarning izohini o'rgatish bugungi globallashuv sharoitida

dolzarb bo'lib turibdi.

Bugungi kunda ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'qitish masalasi kengroq o'rganilgan. Bu borada professor X.Muhiddinovaning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan muassasalarda o'zbek tili o'qitishga doir dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tiborini qaratiladi[2]. H.Mirzohidova o'zbek maktablarida fonetika o'qitishni qirg'iz tiliga qiyoslab, qardosh tillarga taqqoslab tushuntirishning qulayliklari haqida fikr yuritadi[3]. Biroq leksika sohasini o'qitish, xususan, o'quv lug'atlari masalasi e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

Til lug'atlarda aks etadi. O'zbek leksikografiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda, biroq o'quv lug'atlari sohasida tadqiqotlar etarli emas. Til ta'limining yadrosini tashkil qiladigan mazkur vosita maxsus ilmiy va metodik izlanishlarga katta ehtiyoj sezadi. O'quv lug'atlari hozirgi sharoitda qachon zaruratga aylanadi, qachonki, ta'lim mazmuni ehtiyoj sezsa, o'quv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzular lug'atlar bilan bog'lab borilsa. Til lug'atlar asosida o'rgatilishi kerak. O'quv lug'atlari yaratishda ona tili ta'limi oldiga bugungi davr qo'yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim. Maktab o'qituvchilari uchun ona tili darslarida o'quv lug'atlarda foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Amaldagi «ona tili» darsliklari asosan, izohli lug'atlardan foydalanishga diqqat qaratgan, aslida imlo, talaffuz, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rgatishga xizmat qiladigan lug'atlar bilan baravar ishlash ham o'tish kerak[1].

Darsliklarda ajratib olingan, o'quvchiga taqdim qilingan lug'at so'zlaridan ham tashqariga chiqish kerak. Qolaversa, frazeologik, paremineologik lug'atlardan ham uzluksiz foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. O'quv topshiriqlari shunday takomillashtirilishi kerakki, natijada o'quvchi turli lug'atlar orqali so'zni to'g'ri yozishni, talaffuz qilishni, ma'nosini anglashni, o'rniga boshqa so'zni qo'llashni o'rganishi kerak.

Lug'at – har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug'at faqat tilni o'rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma'lumot berish uchun xizmat qiladi.

Manbalarda lug'atning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi asosiy vazifasi ajratiladi:

- ona tilini va boshqa tilni o'rgatish;
- ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish;
- tillar va madaniyatlararo munosabatni ta'minlash;
- til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish[4].

Tilshunoslik tizimida leksikografiyaning o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'lgandan buyon, mutaxassislarni o'quv lug'ati qanday lug'at, uni yaratishda qanday mezon ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug'atdan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug'atdan ustunligi nimada degan savol qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida XX asr boshidayoq bu savollarga davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan javob berildi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatda o'quv leksikografiyasi o'z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antroposentrik o'quv lug'atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanmoqda[1].

Ma'lumki, har qanday lug'atda nimanidir o'rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug'atgina o'quv lug'ati toifasiga kiritiladi va u maxsus mezonlar asosida tuziladi.

Shu bilan birga tilshunoslikda o'quv lug'atchiligi leksikografiyaning alohida tarmog'i ekani bilan bog'liq munozarali fikr ham uchraydi. Ayrim tadqiqotchilar

o'quv lug'atiga leksikografiyaning alohida janri emas, shunchaki o'quv jarayoniga chuqurroq kirib borgan ko'rinishi deb qaraydi.

E.Yu.Balalaeva ham o'quv lug'atini ajratish masalasida tadqiqotchilar orasida qat'iy to'xtam yo'qligi, jumladan, B.Bim-badning o'quv lug'atining ta'limiy, ma'lumot berish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa barcha lug'atga xos bo'lgan axborot berish va me'yorlashtirish vazifasini bajarishi, M.Laptevaning terminologik o'quv izohli lug'atning axborot berish, tizimlashtirish va mustaqil bilim berish kabi etakchi vazifani bajarishiga doir fikrini keltirib o'tadi. Olima mazkur tadqiqotchilarning fikrini inkor etar ekan, M.Kovyazina, T.Petrashov, V.Tabanakova kabi bu borada P.N.Denisov fikriga qo'shilishini va o'quv lug'atining to'rtta – ta'limiy, tizimlashtirish, ma'lumot berish, me'yorlashtirish vazifalarini bajaruvchi minimal leksik tizim ekanligini ta'kidlaydi.

O'quv lug'atini pedagogik aspektida o'rgangan T.V.Jerebilo[6] o'quv lug'atini bir qator o'ziga xos xususiyatiga qaramay, darslik, qo'llanma va turli didaktik materialdagi ma'lumotni shunchaki leksikografik shaklga keltirish, jamlash va saqlash vazifasini bajaradigan vosita deb hisoblaydi. Uningcha, har qanday lug'at ta'lim berish va inson shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida o'quv, ta'limiy, tarbiyaviy, intellektual rivojlantirish bilan bog'liq asosiy vazifani bajaradi. O'quv lug'ati ushbu universal funktsiya bilan bir qatorda ma'lumot berish, axborot uzatish, tizimlashtirish, me'yorlashtirish, motivlash kabi maxsus funktsiyalarni ham bajaradi xolos[6].

Umuman olganda, T.V.Jerebilo o'quv lug'atini didaktik tizimning shunchaki bir qismi sifatida qaraydi va uning vazifasida ta'lim jarayoniga xoslanish biroz chuqurlashgan deb hisoblaydi. Ayrim tadqiqotchilar T.V.Jerebiloning qarashiga qarshi chiqadi va bu fikr har doim ham to'g'ri kelavermasligi, masalan, o'quv terminologik lug'at tarbiyaviy vazifa bajarmasligiga e'tiborni qaratadi.

V.V.Dubichinskiy o'quv lug'atining eng muhim xususiyati metodik talabga asosan til o'rganishga qaratilgan vosita ekanligi, aslida, o'quv lug'ati nafaqat leksikografik, balki didaktik nashrligini, ona tili ta'limi ham, xorijiy tilni o'qitish metodikasi ham unga ehtiyoj sezishini ta'kidlaydi. U mutaxassislarning o'quv lug'atchiligi sohasini ajratish yoki ajratmaslikka doir ikkilanishiga quyidagi fikri bilan nuqta qo'yadi: o'quv lug'atiga bunday yondashuv, o'z o'zidan, uning antroposentrik lug'at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko'rsatadi.

V.V.Morkovkin «lingvosentrik lug'at – bu til uchun va til haqida bo'lgan lug'at. Uning asosiy vazifasi – mavjud til faktini yozish, tavsiflash va baholash. Antroposentrik lug'at – inson uchun yaratilgan lug'atdir. Uning asosiy vazifasi – insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o'rgatish»[7] degan edi.

O'quv lug'atlarining quyidagi vazifalari mavjud:

1. Ta'lim berish. O'quv lug'ati ta'lim oluvchining DTS, malaka talabi, fan dasturi va darslikka oid bilimni mustaqil o'zlashtirishida yordamchi o'quv vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2. Ma'lumot berish. O'quv lug'ati boshqa lug'atdan farqlanib, o'quvchiga muayyan tushuncha haqida umumiy ma'lumot berish bilan birga muayyan fan mazmuniga aloqador maxsus tushuncha, axborot berish uchun ham xizmat qiladi.

3. Me'yorlashtirish. Lug'atning aksariyati adabiy til me'yorini belgilash vazifasini bajaradi. O'quv lug'ati Foydalanuvchining uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida ta'lim olayotganidan kelib chiqib, tilning imlo, talaffuz bilan bog'liq me'yorini soddadan murakkabga qarab darajali tarzda qamrab oladi. Masalan, boshlang'ich sinf uchun yaratilgan lug'at bolaning nutq jarayonida tilning orfoepik, orfografik,

leksik, morfologik, sintaktik me'yoriga amal qilish kompetentsiyalarini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Shuni ham alohida qayd etib o'tish kerakki, me'yoriy lug'at adabiy til me'yorini belgilashga intilar ekan, me'yorni abadiylashtirmaydi. Lug'atning yuzaga kelishi, adabiy til me'yorini qat'iy, barqaror holga keltirish bilan birga, unda uzil-kesil hal etilmagan masalani aniqlash va bartaraf qila borish uchun ham yordam beradi.

Tadqiqotimizga aloqador bo'lgani bois o'quv lug'atlarining ta'lim berish vazifasiga to'xtalamiz. Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'qitish rus sinflariga o'zbek tili o'qitishda farq qiladi. Chunki qardosh tillarga qaraganda roman-german turkumiga kiruvchi boshqa oilaga mansub tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi begona bo'lib har bir mavzu alohida yondashuvni talab etadi.

Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili o'qitish biroz osonroq kechadi. So'zlar, lug'at tarkibi bir-biridan fonetik, ba'zan leksik, morfologik jihatdan farq qiladi. Bu o'rinda izohli lug'atlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Muammo shundaki, maktablarda o'zbek tilining izohli lug'atlari etarli darajada mavjud emas.

Umuman, boshlang'ich ta'limda izohli lug'atlarning zamonaviy shakllarini yaratish davr talabidir. O'quv izohli lug'atlarning qardosh va qrdosh bo'lmagan tillar bilan qiyoslangan shakllari, rasmlari, illyustratsiyali o'quv izohli lug'atlar bugungi o'zbek tili ta'limi uchun juda muhim. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bo'lgani sababli multimediyali, o'yin topshiriqli izohli lug'utlar, elektron o'quv lug'atlar, mobil ilova shaklidagi o'quv lug'atlar yaratish hamda ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish shu yo'nalishdagi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 53.
2. Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -270 б.
3. Мирзоҳидова Ҳ. Ўзбек мактабларида фонетикани қирғиз тилига қиёслаб ўрганиш: пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 1998. -143 б.
4. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 391 б. Б.125.
5. Жеребило Т.В. Информационные модели в учебной лексикографии: теория, система, технология. Грозный: Изд-во ЧГПИ, 1997. - 37 с.
6. Жеребило Т.В. Учебный словарь по стилистике русского языка и культуре речи: Проблемы описания понятийно-терминологического аппарата и общеупотребительной лексики в учебных целях. Грозный: Изд-во ЧИГПИ, 1993. - 326 с.
7. Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и её отражение в нормативном словаре. – М., 1988а. С. 132–133.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

*Umarova Nigora Zaynitdinovna,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri*

Annotasiya: maqolada oliy ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar tahlili, o'quv topshiriqlardan foydalanishning mavjud holati, DTS talablari bo'yicha belgilangan ko'nikma va malakalar hamda ularni shakllantirishga doir taklif-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, o'quv topshiriqlari tavsiflangan, tasnif etilgan hamda kelajak avlod darslik va qo'llanmalarida o'quv topshiriqlari qanday bo'lishi haqida takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, o'zbek tili, malaka, kompetentsiya, DTS, o'quv topshiriqlari, mashqlar, topshiriq va savollar, metodika, takomillashtirish, darslik, qo'llanma, zamonaviy o'quv topshiriqlari

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Умарова Нигора Зайнитдиновна,
заведующая кафедрой Ташкентского государственного технического
университета имени Ислама Каримова*

Аннотация: в статье описан анализ исследований по совершенствованию методики преподавания узбекского языка в системе высшего образования, текущее состояние использования учебных заданий, навыков и квалификаций, установленных требованиями DTS, а также предложения и соображения по их формированию. Учебные задания также описаны, классифицированы, а в учебниках и руководствах будущего поколения содержатся предложения о том, какими будут учебные задания.

Ключевые слова: высшее образование, речевые навыки, узбекский язык, квалификация, компетентность, DTS, учебные задания, упражнения, задания и вопросы, методология, совершенствование, учебник, пособие, современные учебные задания

THE USE OF EDUCATIONAL TASKS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

*Umarova Nigora Zainitdinovna,
Head of the Department of Tashkent State Technical University named after
Islam Karimov*

Abstract: the article describes the analysis of research on improving the methodology of teaching the Uzbek language in the higher education system, the current state of the use of educational tasks, skills and qualifications established by the requirements of DTS, as well as suggestions and considerations for their formation. The training tasks are also described, classified, and the textbooks and manuals of the next generation contain suggestions about what the training tasks will be.

Keywords: higher education, speech skills, Uzbek language, qualification, competence, DTS, training tasks, exercises, tasks and questions, methodology, improvement, textbook, manual, modern training tasks

Kirish. Zamonaviy o'qitish metodikasi o'quvchilarda, talabalarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o'quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O'zbek tilining ona tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o'qitilishida o'quv topshiriqlari namunaga qarab

ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol, har bir topshiriq puxta o'ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Mavjud o'quv topshiriqlarining eng noqulay jihati bu – zamonaviy baholash tizimiga mos kelmasligidir. Har bir mashg'ulot muayyan ko'nikma yoki malakani hosil qilish uchun taqdim qilinadi. Savollardan foydalanish masalasida ham natijalar ijobiy emas, zero, savollar qanday vazifalarni bajara olishi haqida mulohaza qilib ko'rish kerak bo'ladi. Mashg'ulot jarayonida savoldan, avvalo, o'zlashtirilgan bilimning ko'lami, sifati, yoki ma'lumotga munosabati, tafakkur tarzini bilishda foydalanilish samarali bo'ladi. Zamonaviy ta'limda o'quv vositalarini birgina vazifani bajarishga mo'ljallash vaqtni isrof qilish bilan teng. Bugun o'quv topshirig'i, xususan, savol va topshiriqlar bir paytning o'zida bir nechta ko'nikma yoki malakani rivojlantira olishi kerak[3].

Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, umumkasbiy, mutaxassislik, tanlov fanlari o'quv bloklariga ajratiladi. Professor H.Muhiddinovaning bu boradagi yondashuvlari to'g'ri, deb o'ylaymiz: «O'zbek tili fanining OTMlar filologik va nofilologik yo'nalishlarida bir xil hajmda va yagona namunaviy dastur asosida o'qitilishi maqsadga muvofiq emas. Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda OTM rus guruhlar uchun o'zbek tilidan yaratilgan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarda nazariy ma'lumotlarning ham o'zbek tilida, ham rus tilida berilishi, adabiy o'qish uchun yozuvchilar, shoirlar tarjimai hollarining berilishi an'anasidan voz kechilgani e'tiborga molik. Biroq tahlillar ularda quyi ta'lim bosqichida o'tilgan materiallarning takroran berilish holatlari ko'pligini ko'rsatdi»[1].

Jumladan, A.Rafiyev va boshqalar tomonidan OTMlarining rus guruhlar uchun namunaviy dastur asosida yozilgan o'quv qo'llanmada (10-dars) hatto boshlang'ich sinflarda o'tilgan ma'lumotlarning qaytarilgani kuzatiladi. Shuningdek, «shaxs, predmet (narsa), buyum va hodisalarni nomlash» mavzusi (9-dars) bo'yicha «bu talaba, bu auditoriya, bu kitob, bu o'qituvchi» kabi; 16-darsda esa men, sen, u, biz, siz, ular kabi boshlang'ich sinflarda o'tilgan so'zlarning nutqiy qurilma sifatida keltirilishi yoki quyidagi kabi dialoglarning berilishi oliy ta'lim talabalari saviyasi uchun mutlaqo muvofiq emas deb hisoblaymiz: – Kechirasiz, mumkinmi? – Ha, kiring. – Nega kechikdingiz? – Kechiring, ishim chiqib qoldi.

X.Muhitdinova «bunday holatlar oliy ta'lim rus guruhlar uchun yaratilgan barcha o'quv-uslubiy adabiyotlar ta'limning rivojlantiruvchi va uzluksizligi tamoyillariga to'liq javob bera olmasligini, ayrim tadqiqotlarda qayd qilingan quyidagi kabi fikrlar asossiz emasligini ta'kidlaydi: «Oliy ta'limdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish, avvalo, o'zbek tilidan namunaviy o'quv dasturini bilimlarning mazmuniy uzviyligi va ta'lim bosqichlararo uzluksizligi asosida takomillashtirishni taqozo etadi», deb ta'kidlagan[1].

Oliy ta'lim bosqichida o'zbek tili ta'limi rusiyzabon talabalarni quyi ta'lim bosqichlarida o'rgangan gap qoliplari va sintaktik-sinonimik konstruktsiyalarni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llay olish, o'z mutaxassisligi sohasida erkin mulohaza bildira olish, sohaviy atamalarni to'g'ri ishlata bilish va ilmiy, publisistik maqolalar yoza olish, mutaxassisligi bo'yicha rasmiy ish qog'ozlarini davlat tilida yurita olishni o'rgatishga yo'naltirilishi zarur deb o'ylaymiz. OTMning rus guruhlar uchun o'zbek tili darsliklarini takomillashtirishda ularda ta'limning yuqori bosqichida talaba egallashi kerak bo'lgan nazariy bilimlarni chuqurroq berish, mashqlarda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltiradigan topshiriqlardan, dolzarb, global mavzular va mutaxassislik sohasiga oid matnlardan keng foydalanishga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Oliy ta'lim klassifikatorida qayd qilingan ixtisoslik sohalari bo'yicha filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari filolog, jurnalist, tarjimon, o'qituvchi, psixolog kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Ushbu soha mutaxassislari davlat tilini yaxshi bilishlari, nafaqat og'zaki, balki yozma jihatdan ham savodxon bo'lishlari zarur. Bu esa mazkur yo'nalishlarda o'zbek tili chuqurroq o'rgatilishini taqozo qiladi. Ko'rinadiki, filologik

yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili texnik yo'nalishdagi OTMlardagi kabi qisqa hajmda o'qitilishi maqsadga muvofiq emas.

Filologik yo'nalishdagi OTM rus guruhleri uchun o'zbek tilidan o'quv dasturi lingvistik va kommunikativ tamoyillarni uyg'unlashtirilgan holda tuzilishi zarur, chunki bu yo'nalishda «davlat tilini o'qitishdan maqsad faqat nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish emas, balki o'zbek tili birliklari qonun-qoidalari haqidagi bilimlarni egallash, ...o'zbek va rus tillarini taqqoslay olish»dan ham iborat. Bizningcha, ushbu yo'nalishda ta'lim uzluksizligiga erishish uchun bosh mavzular sifatida quyi bosqichlarning tadrijiy davomi sifatida muayyan fikrni ifodalash mavzularni tanlash, biroq fikrni ifodalash vositalarini lingvistik tamoyildan kelib chiqib an'anaviy tizimli ravishda bayon etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nutqiy muloqot uchun ijtimoiy mavzulardan, adabiy o'qish darslarida badiiy adabiyotdan keng foydalanish rus guruhleri talabalarining filologik bilimlarini chuqurlashtirishga, o'zbek tilini ona tili va boshqa tillarga qiyoslab o'rganishlariga katta yordam beradi. Nofilologik yo'nalishdagi OTMning rus guruhlarida o'zbek tilini o'rgatishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad esa talabalarda davlat tilidagi kasbiy nutqiy malakalarini shakllantirishdan iborat. Nofilologik OTMni tibbiy, iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, texnik yo'nalishlar bo'yicha guruhlash va darsliklarni yo'nalishlarga mos holda yaratish rusiyazabon talabalarni o'z ixtisosliklari bo'yicha matnlar ustida ishlashlarini tashkil etish, bunday matnlarda qo'llanadigan nutqiy qoliplar, ularning sinonimik variantlari bilan tanishtirish orqali talabalarga mutaxassislik tilini amaliy o'rgatish, mutaxassislik yo'nalishida davlat tilida ilmiy ma'ruza qila olish, ilmiy maqolalarga sharh yozish, ilmiy matnlarni rus tiliga yoki rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qila olish malakalarini shakllantirish zarur. Bu ham o'quv topshiriqlari bilan bog'liq.

Afsuski, oliy ta'lim muassasalarining rus guruhleri uchun o'zbek tili fanidan tavsiya etilgan o'quv dasturi bir yo'la ham ijtimoiy, ham texnik oliy ta'lim muassasalariga tavsiya etilgani uchun ular asosida yaratilgan o'quv qo'llanmalarida OTMlarning mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ilmiy matnlar ustida ishlash, mutaxassislikka oid atamalarni sharhlatish, talabalarni mutaxassislik tiliga, o'zbek tilida kasbiy sohaviy muloqot yuritishga o'rgatishga qaratilgan ma'lumotlar berilishi ko'zda tutilmagan. Bu borada ham o'quv topshiriqlaridan tizimli va maqsadli foydalanilmaydi.

Tadqiqot jarayonida har ikki yo'nalish uchun ham o'zbek tilidan funktsional-semantik tamoyilga asoslangan o'quv dasturlari tuzilib, filologik va nofilologik OTMlarda amaliy tatbiq etib ko'rildi. Mazkur o'quv dasturlarida fikr ifodalash mavzulari va grammatik ma'lumotlar vertikal va gorizontal yo'nalishdagi o'zaro mazmuniy bog'liqlik asosida joylashtirilgan bo'lib, har bir darsning grammatik ma'lumot – leksik-imloviy mashqlar – nutqiy muloqot mavzusi – tarbiyaviy mavzu gorizontal chiziqli bog'lanishida tashkil etilishi, vertikal yo'nalishda esa mavzularning muayyan izchillik, ketma-ketlikda berilishi orqali uzluksizlikni ta'minlashi ko'zda tutilgan. Bu nutqiy va grammatik mavzularning gorizontal yo'nalishdagi mazmuniy uzviyligi hamda vertikal yo'nalishdagi bosqichlararo ketma-ketligini ta'minlaydi, ayni paytda mavzularning biri ikkinchisini to'ldirib, mustahkamlab borishiga yordam beradi.

Muayyan fikrni ifodalashga qaratilgan bosh mavzudan kelib chiqib, har bir darsda grammatik ma'lumot, nutqiy mavzu, adabiy o'qish materiallarining o'zaro uzviylashtirilib berilishi fanlararo uzviylikni ham yuzaga keltiradi. O'zbek tili fanidan mashg'ulotlarni shu tarzda tashkil etish mavzular o'rtasida uzilishlar, takror va qaytariqlarni bartaraf qiladi hamda ta'lim bosqichlari tarkibiy qismlarining har tomonlama uzviylik va uzluksizligini ta'minlash uchun to'liq shart-sharoit yaratadi. Pirovard maqsadda talabada quyi ta'lim bosqichlarida egallagan bilimlarini qachon, qay o'rinda va qanday qo'llash malakasi hosil bo'lishiga erishiladi[1].

H.Muhiddinovaning yuqoridagi tahlillari, taklif va mulohazalari mazkur

dissertatsiyada ma'lum ma'noda nazariy asos vazifasini bajaradi. Yangi yondashuvlarimizning, xulosalarimizning hosil bo'lishiga yordam beradi.

U.Lapasov tomonidan tuzilgan o'zbek tili darsligida o'quv topshiriqlaridan, asosan, mashqlar o'rin olgan. Ta'kidlash lozimki, muallif mazkur darslikda mashq va topshiriqni farqlamagan.

K.Turdiyeva va D.Axmedovalarning «O'zbek tili» darsligida quyidagi mashq namunalari ham fikrimizga dalil bo'lishi mumkin: Mashq. Gaplardagi otlar qaysi shaxs va sonda berilganini ko'rsating.

1. Sog'lig'im yomonlashgani sababli shifokorga murojaat qildim. 2. Guruhingizda Afg'onistondan kelib o'qiyotganlar ham bormi? 3. Gapirmagan gaping - sening quling, gapirsang - uning quliga aylanasan. 4. Qizaloqning sochlari sharsharaday yoyilgan, yuzlarida kulgichi bor edi. 5. Osmonning rangi o'zgarib, birpasda osmonni qora bulut qopladi. 6. Insonning insonligi odob-axloqi bilan. 7. Yuzingdan kulgu, lablaringdan tabassum arimasin. 8. Yoshliging besamar o'tishini xohlamasang har bir daqiqadan unumli foydalan.

Mashq. Quyidagi otlarga III shaxs birlik qo'shimchalarini qo'shib yozing. Bahor, kuz, nutq, burun, qayiq, ko'ngil.

KURSDOSHIM NING PORTRETI

Mening Sevara ismli kursdoshim bor. Kursdoshimning bo'yi baland, qomati tik. Sochlari qora, qalin. Buning puchuk, peshonasi keng. Yuzlari dumaloq. Istarasi juda issiq. Doim kulib luradi. Ikki yuzida kulgichlari ham bor. Dugonam juda samimiy.

O'zidan kechib bolsa ham menga yordam bergisi keladi. Agar o'zi yaxshi baho olsayu, mening bahom yomon bolsa, xafa bo'lib ketadi. Olgan a'lo bahosi ham unga tatim aydi. U juda mehnatkash. Biron qilgan ishi yoqmasa o'sha ishni o'zining arta qayta o'zgartirishdan erinmaydi. Ammo juda tez xafa bo'ladi. U sportning basketbol, voleybol va suzish turlarini yaxshi ko'radi. O'zi esa suzishga qamashadi.

Balki shuning uchun ham uncha-bunchaga kasal bo'lavermaydi. Oyoqlari ham uzun-uzun. U oilasidagilarga juda mehribon. Doim ulami o'ylab yuradi. Juda to'g'ri so'z, yolg'on gapirishni bilmaydi va xohlamaydi ham. Balki shuning uchun ham uni hamma hurmat qilsa kerak[2].

An'anaviy o'quv topshiriqlari

Mashq. Quyidagi otlarga III shaxs birlik qo'shimchalarini qo'shib yozing.

Mashq. Gaplardagi otlar qaysi shaxs va sonda berilganini ko'rsating.

Aslida quyidagi topshiriq mashq xarakteridadir: So'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling.

G'. Hamroev pedagogik tadqiqotlarni chuqur tahlil qilgan holda o'quv topshiriqlarni quyidagicha farqlagan va tavsiflagan: topshiriq – bu mashg'ulotni boshqarish, tashkil etish, boshqa o'quv topshiriqlarni o'z ichida qamrab, talabni mashq qildirib, ko'nikmasini oshirish, savol orqali fikrlashga, mustaqil ishlashga yo'naltirish va oxirida egallangan bilim va ko'nikmalarni baholash vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Kredit, muhit, modul, maqsad, talaba, ixtiro, pedagog, yaratish, mustaqil, asar, xulosa, mahorat, bilim, ko'nikma, malaka, mutaxassis.

**THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF STUDENTS IN THE
CREDIT-MODULE SYSTEM, THE SIGNIFICANCE OF DIDACTICS IN
THE FORMATION OF THE ABILITY TO THINK INDEPENDENTLY**

*Bakhriddinov Nurali Bekmurodovich,
Teacher of the Department of Humanities and information technologies of the
Samarkand State Institute of foreign languages*

Anotation: in this article it is written that the credit-module system appeared on the basis of needs. First of all, it is closely related to the fact that higher education brings freedom to educational programs, the introduction of competitive disciplines into educational programs. It also talks about the fact that the credit-module system arose on the basis of the needs of the formation of higher education programs on the basis of the labor market and the needs of students.

Keywords: credit, environment, module, purpose, student, invention, pedagogue, creation, independent, work, conclusion, skill, knowledge, skills, qualifications, specialist.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО
КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ, АКСИОМА ДИДАКТИКИ
В ФОРМИРОВАНИИ СПОСОБНОСТИ К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ
МЫШЛЕНИЮ**

*Бахриддинов Нурали Бекмуродович,
Преподаватель кафедры гуманитарных и информационных технологий
Самаркандского государственного института иностранных языков*

Аннотация: В этой статье показано, как кредитно-модульная система возникла на основе потребностей. Прежде всего, тот факт, что высшее образование приносит свободу в учебные программы, тесно связан с включением факультативных предметов в учебные программы. Далее говорится о том, что кредитно-модульная система возникла на основе потребностей формирования образовательных программ высшего образования на основе рынка труда и потребностей студентов.

Ключевые слова: кредит, среда, модуль, цель, студент, изобретение,

педагог, создание, независимый, работа, заключение, умение, знания, умение, квалификация, Специалист.

Bugungi, zamonaviy, globallashtirilgan jamiyatning rivojlanib, taraqqiy etishida ilmiy insonlarning o'zini beqiyosdir. Dunyoda inson hayotining barcha jabhasida misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ammo shu narsa bizga ma'lumki: dunyo bir butunlikda harakat qilmas ekan, inson o'ta tahlikali vaziyat qurboniga aylanishi hech gap emas. Yagona najot yo'li esa to'plangan bilim, shakllangan ko'nikma va o'rnatilgan xulosalarni yagona maqsad sari yo'naltirish, ilm hamda tajribalarni samarali uyg'unlashtira olishdir. Masalan, butun dunyo quyidagi o'lchov birliklari bilan xarakterlanmoqda jumladan vaqt o'lchov birligi – sekund, uzunlik o'lchovi – metr, og'irlik– kilo, suyuqlik litr, elektr kuchlanish o'lchovi – amper. Shunda bir savol tug'iladi: ta'limning, xususan oliy ta'limning ham o'lchov birligi bormi? Aytishingiz mumkin, oliy ta'limning o'lchov birliklari bu bakalavr, magistratura va doktorantura deb. Lekin bular ta'limning o'lchov birliklari emas balki uning bosqichlari hisoblanadi. Bilim va ilmning shakllanishi esa bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchilarning saviyasi, talabaning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Shundan, bizga ma'lumki ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligi xech birimizga sir emas.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim-muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi. Ayni vaqtda bundan ko'zlangan maqsad nima? Degan savol tug'ilishi xar bitta yurtdoshimizda tabiiy xoldir. Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos? Quyida ana shu savollarga batafsil javob izlashga harakat qilamiz. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholashdir.

Kredit-modul tizimi avvalambor, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal, zamonaviy lekin hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra OTM o'quv dasturlari muayyan o'qish natijalarini ko'zlovchi turli fan va modullarga bo'linadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7.5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to'plagandan so'ng unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi. Qaysidir ma'noda insonning umr bo'yi ta'lim olish konsepsiyasi xam buning zamirida yotganini ko'rishimiz mumkin. Zero xar bir talaba jamg'argan kredit-modul soati kelajakda 2- mutaxassislikka o'qish istagi paydo bo'lsa u jamg'argan krediti uning bank tushunchasida qo'llanilaydigan so'z ya'ni uning "aktiviga" aylanadi. Talaba 2-mutaxassislikda jamg'argan kreditlarini yana qaytadan o'zlashtirmaydi. Bu esa vaqtni tejab yanada o'z ustida ishlash imkonini

beradi.

Shunda talabalar muayyan o'quv dasturi yoki undagi muayyan fanni o'rganish unga mutaxassis sifatida nimalar bera olishi haqida oldindan tushunchaga ega bo'lgan holda o'qishni boshlaydi. Shunda o'qish natijalari haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lgan talaba ham, o'qituvchi ham dastur yoki semestr davomida barcha imkoniyatlarini shu natijalarga erishishga qaratadi. Dastur yoki fan o'qish natijalari quyidagi asosiy savolga javob bera olishi kerak: talaba dasturni yoki undagi muayyan fanni tamomlagandan so'ng unda o'rgangan bilimlari asosida nimalar qila oladi yoki qila olishi kerak? Ushbu savoldan kuzatganingizdek o'qish natijalari bu talaba dastur yoki undagi muayyan fan davomida qo'lga kiritgan bilimlar ro'yxatidan iborat emas, aksincha unda talaba o'sha bilimlar asosida nimalar qila olishi ko'rsatilishi zarur. ECTS kredit - modul tizimidagi bu talab oliy ta'limga amaliy, pragmatik yondashuvni shakllantiradi. O'qish natijalarini oldindan belgilab olishning yana bir muhim jihati shundaki u o'quv dasturini mutaxassislik uchun taaluqli bo'lmagan, ahamiyatsiz fanlar va modullardan tozalab boruvchi filtr vazifasini ham o'taydi. Agar fan va modulda erishilishi kutilayotgan o'qish natijalari talabaning mutaxassis bo'lib etishi uchun ahamiyati bo'lmasa va shunga xizmat qilmasa ushbu fan o'quv dasturini tark etishiga to'g'ri keladi.

Talaba va o'qituvchilarda ushbu umumiy o'qish yuklamasining aynan qancha qismi dars, auditoriya soatlariga to'g'ri keladi, degan savol tug'ilishi mumkin. ECTS kredit-modul qoidalari bu masala bo'yicha aniq talab yoki chegara belgilamagan. Bunga ko'p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, ta'lim jarayonlari yoki modul har doim ham o'z tarkibiga auditoriya soatlarini qamrab olavermaydi. Bunga misol qilib o'quv dasturidagi bitiruv amaliyoti, diplom ishi va shu kabi o'qish elementlari va modullarni keltirishimiz mumkin. Ko'rib turganingizdek, bunday o'qish elementlarida auditoriya soatlari bo'lmaydi. Lekin ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan universitetlar amaliyotini tahlil qilganimizda, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo'lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Bu nisbat boshqacha qilib aytganda 1:1.5 to'g'ri keladi. Ya'ni, talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi. Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilagan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \times 40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \times 60\% = 18$) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30 \times 6) \times 40\% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30 \times 6) \times 60\% = 108$) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. ECTS kredit-modul tizimida bir auditoriya akademik soat 45-60 minutga teng. Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunishimiz mumkinki.

ECTS kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda yana bilimning manbai faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqti tushunchasiga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi. Talaba o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z elkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini bildiradi. Eslatib o'tamiz, 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1.5 soat uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq. Chunki talabalarni o'z vaqtlaridan samarali foydalanish uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun qiziqarli materiallar va muammolar berib borish o'qituvchining vazifasidir. O'qituvchi xam "case" tarzida berilgan topshiriqlarini mustaqil ta'limda

o'qishi zarur bo'lgan adabiyotlarni xammasi bilan tanishgan bo'lishi albatta zarurdir.

Talabani o'qish yuklamasining bu tarzda auditoriya va mustaqil o'qish soatlariga ajratilishi yana OTMLar kutubxonalari sharoitlarni yaxshilash, katta o'qish zallarini tashkil etish, xorijiy tillarda chop etilgan nufuzli sohaviy adabiyotlarni ommaviy tarzda tarjima qilish, ya'ni sifatli o'quv qo'llanmalari ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Kredit-modul tushunchasi ikki so'zdan iborat: "kredit" va "modul". Kredit. Oliy ta'lim sohasida kredit ko'pchilikka bank va moliya sohasi orqali tanish bo'lgan qarzdorlik yoki moliyaviy majburiyat tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun oliy ta'lim sohasida kredit so'zi ko'pincha "akademik" so'zi bilan birga ishlatiladi. Akademik kredit - oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi. Bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi. Modul. ECTS tizimida o'quv dasturi bir necha modullardan tashkil topadi. Talaba kreditlarni faqat modullar orqali qo'lga kiritishi mumkin. Talabaga ma'suliyat yuklayotgan o'qituvchi xam yaxshi mutaxassis bo'lishi uchun nima zarur nima zarur emasligini zamonaviy dunyo yangiliklaridan albatta xabardor

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. Azizho'jaev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2018. B-61.

3. Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident qarori (PQ-4795, 30.07.2020 y.).

4. "Bolonya deklaratsiyasi bo'yicha kreditli ta'lim" mavzusidagi ma'ruza Oliy maktab O'quv va tarbiyaviy ishlari bo'yicha prorektori Jahongir G'anievning 2020 yil 26 dekabr.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 dagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risi" da PQ -3775-son qarori;

6. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 08.10.2019.y dagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 20- dekabrda oliy Majlisga Murojatnomasi.

8. Usmonov B.Sh,Xabibullayev R.A.Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.O'quv qo'llanma Toshkent, 2020 yil [4 34-37] betlar.

9. Ishmuxammedov R. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

10. Xalq so'zi 2020-yil 05 avgust soni Sherzod Mustafaqulov, Tdiu "Universitet 3.0" xalqaro o'quv, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi direktori, i.f.d., dotsent,

11. Mansur Sultonov,tdiu ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i,PhD.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
JIHATLARI**

*Bobonazarov Orif Abraykulovich,
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
dotsenti, p.f.n.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, o'qituvchilik kasbida iste'dod katta rol o'ynayshi, ya'ni o'qituvchilikda o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intilish bo'lishi lozim. Bu sifatlar ko'pchilik hollarda bolalarni sevganda, bolalarning shovqin-suronidan, joydiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi. O'qituvchining yana bir muhim sifati bu yoshlarga namuna, ibrat bo'lish shogirdlariga qattiq qo'l va o'z o'rnida mehribon bo'lishda ifodalanadi.

**ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ**

*Бобоназаров Ариф Абрайкулович,
к.т.н, доцент кафедры «Изобразительное искусство и инженерная
графика» Термезский государственный университет.*

Аннотация: В данной статье большую роль в профессии учителя играет талант, то есть в обучении должны быть любовь, интерес к своей профессии, стремление овладеть ею. В большинстве случаев эти качества проявляются только тогда, когда они любят детей, когда наслаждаются их шумом и их яркими глазами. Еще одно важное качество учителя – быть образцом для подражания для молодежи, твердой рукой для своих учеников, быть добрым на своем месте.

**PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL
ASPECTS OF CREATIVE ACTIVITY DEVELOPMENT IN FUTURE
TEACHERS**

*Bobonazarov Arif Abraykulovich,
Termiz State University Associate Professor of the Department of «Fine Art and
Engineering Graphics», (PhD).*

Abstract: In this article, talent plays a major role in the teaching profession, that is, in teaching, there should be love, interest in one's profession, and the desire to master it. In most cases, these qualities are manifested only when they love children, when they enjoy their noise and their bright eyes. Another important quality of a teacher is to be a role model for young people, a firm hand to his students, and being kind in his place.

O'qituvchi pedagogika xususida ta'lim-tarbiya nazariyasini yaxshi bilguvchi, pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rgangan, tasviriy san'at metodikasi bilan yaxshi qurollangan, tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasi, o'qitish didaktikasi va metodikasini yaxshi egallagan pedagog-rassom yoki tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lishi shart.

Ma'lumki, bolalarning ta'lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini

malakalarini qanday o'zlashtirganlik darajasi ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo'yicha ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi. U tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari bo'yicha atama va iboralar, tushuncha va ma'lumotlar, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan malakalarni o'z ichiga oladi. Bu materillarni bolalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish esa ularning bilimlarini tekshirishga doir test materillarini, bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlarni baholash mezonlari va boshqa materillar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'rnida o'quvchilarning bilim va malakalarini tez va oson baholash imkonini beradi.

Davlat ta'lim standartida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O'qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o'qituvchi shu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq, ta'lim mazmunini yuqori darajaga olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo'yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, maktablarimiz nomi umumiy o'rta ta'lim maktabi deb ataladi. Demak, maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni yangi darsga, yangi o'quv materialiga olib kirishi, tayyorlashi uchun yangi pedagogik texnologiyaning motivatsiya deb ataladigan didaktik jarayonidan foydalanishi lozim.

Motivatsiya - maktabda tasviriy san'atni o'qitishda eng asosiy didaktik jarayon bo'lib, bu o'qituvchidan o'z sohasi bo'yicha va boshqa o'quv fanlari materiallari bilan bog'langan holda har bir dars mavzusi materialiga o'quvchilar qiziqishini oshirish imkoniyatlarini yaratuvchi holatlardagi suhbat o'tkazishni ifoda etadi.

Bu esa o'quvchilarning dars materialiga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, mashg'ulotlardan maqsad bolalarni borliqni bilish, undagi narsa va hodisalarni o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasllariga qarab O'rganish zarur bo'lgan ob'ektlarni naturadan kuzatishning imkon bo'lmagan taqdirda o'qituvchi darsda bolalarni san'at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, foto nushalarini namoyish etish orqali o'z maqsadiga erishadi. Boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli xom-ashyolar bilan kengroq tanishtirish maqsadida badiiy qurish-yasash ishlari ham olib boriladi.

Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo'lib, ular mashg'ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan foydalanish nazarda tutiladi:

1. Badiiy materiallar (rangli qog'ozlar, folga, gulgog'ozlar, plastilin, loy v.b.).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po'stlog'lari, meva va sabzavotlarning urug'lari, rangli toshchalar, bug'doy va arpa poyalari v.b.)

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori-darmondan bo'shagan sintetik idishlar, gugurt qutichalar, po'kak, penoplast, idish qopqoqlari) v.b.

O'qituvchilik kasbida iste'dod katta rol o'ynaydi. Ya'ni o'qituvchilikda o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intilish bo'lishi lozim. Bu sifatlar ko'pchilik

hollarda bolalarni sevganda, bolalarning shovqin-suronidan, jovdiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi. O'qituvchining yana bir muhim sifati bu yoshlarga namuna, ibrat bo'lish shogirdlariga qattiq qo'l va o'z o'rnida mehribon bo'lishda ifodalanadi.

Masalan, kiyimlari tozalanmay, yoqasining yag'iri chiqib ketgan o'qituvchi so'zsiz bolalarga ibrat bo'la olmaydi. O'qituvchi bolalarga faqat tozalik borasida emas, har sohada ibrat bo'ladigan bo'lishi lozim. Xususan, u odobi, bir so'zligi,

halolligi, sof vijdonliligi, adolatparvarligi, mehribonligi bilan ajralib turadi. Shuni ham qayd qilish lozimki, o'qituvchi ishining murakkabligi shundaki, u ham ta'lim ham tarbiya beradi.

Bu esa o'qituvchidan ko'p vaqt, mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi. O'qituvchining birovlarini o'qishga majbur etib o'rgatishi ham, o'zini-o'zi majbur etishi ham oddiy ish emas. Hamma gap shundaki, hamma yoshlar bir xil emas.

Birovlari o'qishga o'zlari harakat qilsalar, boshqalarni majburlash kerak bo'ladi.

Ko'pchilik hollarda bir emas, butun bir jamoani majburlash kerak bo'ladi. Bunday hollarda yoshlarni ishga jalb etish, intizomli bo'lishga erishish ayniqsa og'ir kechadi. Maqsadga erishish uchun eng avvalo shu jamoa orasida obro' qozonmoq zarur.

O'qituvchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundaki, u o'z tengqurlari bilan emas, boshqa yoshdagilar bilan ishlaydi. O'qituvchi bilan bolalarning hayotiy tajribalari, bilimlari, dunyoqarashlarida ancha farq bor. Bu esa ularni bir-birlarini tez tushunib yetishlariga imkon bermaydi. Shunday ekan, o'qituvchi bolalarni yoshlik xususiyatlari, dunyoqarashlari, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi kerak boladi. Shundagina uning ishi samarali kechishi mumkin.

O'qituvchi kasbining yana bir muhim jihatlari shundaki, bu kasb kishiga mamnunlik va xursandchilik keltiradi. Bu mamnunlik, unga o'z faoliyati natijalarini ko'rganida, o'z shogirdlarini turmushda, ilmu-fan va yuksak mansablarni egallaganlarida, hayotda o'z o'rinlarini topganliklarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Shunda, o'qituvchilar o'z mehnatlarini zoye ketmaganligini his etadilar. O'qituvchilik kasbida iste'dod katta rol o'ynaydi. Ya'ni o'qituvchilikda o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intilish bo'lishi lozim. Bu sifatlar kopchilik hollarda bolalarni sevganda, bolalarning shovqin-suronidan, jovdiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, o'qituvchi ishining murakkabligi shundaki, u ham ta'lim ham tarbiya beradi.

Bu esa o'qituvchidan ko'p vaqt, mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi. Ma'lumki, tasviriy san'atning har bir mashg'ulotida har bir o'quvchi ijodiy ishlashga intiladi. Lekin ularning qaysi biri bu ijodiy faoliyatni samarali amalga oshiradi, yana kimdir o'rtacha amalga oshiradi, lekin ayrim o'quvchilar ijodiy ishlasa-da, u muvaffaqiyatli chiqmaydi. Buni shundan ko'ramizki, sinfdagi 25 o'quvchining hammasi rasm chizadi. Demak, 25 o'quvchi ijodga kirishadi. Ularning har biri o'z bilganicha yangilik yaratadi. Lekin bu yangilik qaysidir o'quvchi ijodida chiroyli, mazmunli, hammaga yoqadigan chiqadi. Boshqa o'quvchida esa xunuk, o'xshamagan, mazmunsiz chiqadi. Ijodkorlarning hammasi ham doimo muvaffaqiyatli ishlay olmaydi. Shunga ko'ra, tasviriy san'at o'quv predmetining asosiy vazifasi faqat iqtidorli o'quvchilarni ijodiy ishlashga o'rgatishgina emas, sinfdagi barcha o'quvchilarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ishlashidan qat'i nazar, hamma o'quvchini rasm chizdirishga o'rgatish deb belgilanadi.

O'qituvchi bolalarning tasviriy san'atdan bilim va malakalari haqida tasavvurga ega bo'lish bilan birga, ularning sog'ligi, psixik xususiyatlari, qiziqishlari, odobi, uydagi shart-sharoitlari, ularning ota-onalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Shu bilan birga bolalarning uylariga tez-tez borib turishi, bolalar haqida ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lib turishi pedagogik faoliyatning samaradorligini yanada oshiradi.

Yuqorida qayd qilinganidek, tasviriy san'at o'qituvchisi bolalarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgandagina u kutilgan natijalarga erisha oladi. Bu narsa ko'proq o'qituvchining kuzatuvchanligiga bog'liq. U faqat tevarak-atrofdagi voqea

va hodisalarnigina emas, bolalarda va ularning harakatlarida sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatib borishi, ulardan tegishli xulosalar chiqarib olishlari, shunga yarasha tegishli choralar ko'rishi kerak boladi. Kuzatuvchan o'qituvchi bir vaqtning o'zida juda ko'p jarayonlarni hayolidan o'tkazadi. Xususan, dars berayotganda, qaysi bola nima haqida o'ylayapti, nega shunday harakatlar qilayapti, rost gapirayaptimi yoki yolg'onmi, qaysi bolalarga yordam berish kerag-u, qaysinisiga shart emas, qaysi bolalar mashg'ulotga qiziqayaptilar, qaysilari yoq v.b. O'qituvchining xotirasi yaxshi bo'lmasa, u o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Aks holda, bolalar o'rtasida ziddiyatlarni kelib chiqishi tabiiydir. O'qituvchi mashg'ulot jarayonida ko'p qirrali fikr yuritadi. Birinchidan, bolalarga berish kerak bo'lgan bilimlarni xotirlaydi, ikkinchidan beriladigan bilimlarni yengil va tez yetkazish yo'llari haqida o'ylaydi, uchinchidan bolalar berilayotgan bilimlarni o'zlashtirayaptilarmi yoki yoqmi? O'qituvchining bunday aqliy faoliyati tafakkur deb yuritiladi. Bu narsa o'qituvchining tafakkuri har jihatdan rivojlangan bo'lishini ko'rsatadi. Agarda bola o'quv materialini yaxshi o'zlashtirmasa, uning sabablarini izlashi, shu maqsadda, u bilan suhbatlashishi, uni kuzatishi, ota-onalari bilan muloqotda bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa o'qituvchining to'xtovsiz o'ylashi, ta'lim jarayonlarini takomillashtirib borishini talab etadi.

O'qituvchining psixik jarayonlaridan hisoblangan tasavvur, uning faoliyatida muhim rol oynaydi. Agarda uning bu xususiyati yaxshi rivojlangan bo'lsa, u mashg'ulotlarda narsalar va hodisalarning o'lchovi, shakli, rangi, tuzilishi, holati, harakati kabilarni tezda va jonli tasavvur etib, ularni bolalar ongiga osongina yetkaza oladi. Natijada, uning bolalarga beradigan ma'lumot va tushunchalari ishonarli chiqadi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan o'qituvchilar o'zlarining gaplari bolalarga qanday ta'sir ko'rsatishi, qanday fikr tug'ilishini oldindan bila oladilar va shunga yarasha o'zlarini tayyorlaydilar.

Tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari. Shaxs, shaxsni individual xususiyatlari, bilish jarayonlari, tasavvur, tafakkur, nutq, xotira, hayajon va iroda kabi psixologik jarayonlarni bilmasdan turib tasviriy san'at darslarini talablar darajasida amalga oshirib bo'lmaydi. Bunda uning quyidagi jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaxs psixologiyasi: a) shaxs, shaxsning dunyoqarashlari, e'tiqodi, ehtiyoji va g'oyalari. Shaxsni shakllantirishda o'qituvchining roli; b) faoliyat, shaxs faoliyatida bilim, malaka, ko'nikma va odatlar; v) diqqat.

Diqqatning turlari va xususiyatlari. Tasviriy faoliyatlarda diqqatning roli. Bilish jarayonlari: a) Sezish. his etish. Uning turi va asosiy qonuniyatlari. Ranglarni his etish qonuniyatlari. Bolalarda his etishni o'stirish;

b) Idrok etish. Fazoni idrok etish va tasviriy faoliyat. Idrok etish jarayonining umumiy qonuniyatlari va tasviriy faoliyat. Bolalarda idrok etish va kuzatuvchanlikni o'stirish.

v) xotira, xotira turi va jarayoni. Ko'z xotirasini o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarda xotirani o'stirish;

g) Tafakkur, uning tur va shakllari. Kishilarda fikrlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy tafakkurni o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarda fikrlashni o'stirish;

d) Nutq, uning turlari. Rassom tasviriy tilining o'ziga xos xususiyatlari;

e) Tasavvur, uning turlari. Badiiy ijodda tasavvur. Bolalarda tasavvurni o'stirish.

Hayajon va iroda jarayonlari: a) Hayajon va hissiyot. Hissiyot turlari. Hissiyot va tasviriy faoliyat. Bolalarda hissiyotni o'stirish va shakllantirish; b) Iroda. Shaxsni irodaviy xususiyatlari. Bolalarda irodani o'stirish va tarbiyalash.

Shaxsni asosiy individual-psixologik xususiyatlari: a) xarakter, uning tuzilishi va

xususiyatlari. Xarakterdagi individuallik va tipiklik; b) Qobiliyat, badiiy qobiliyat va iste'dod. Badiiy qobiliyatlarning psixologik tavsifi. Bolalarda badiiy qobiliyatlarni o'stirish va shakllantirish.

Tasviriy san'at darslari-ta'lim va tarbiyaning asosiy shakli. Dars maktabda ta'lim-tarbiyaning asosiy shakli bo'lganligi uchun o'qituvchi bu borada ko'p va jiddiy ish olib borishi kerak bo'ladi. O'qituvchi o'zining bu boradagi ishlarini quyidagi yo'nalishlarda olib borishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tasviriy san'atni o'qitishga bo'lgan zamonaviy talablarni his etish.
2. Tasviriy san'at darslarini maxsus xonada o'tkazishni takomillashtirish.
3. O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.
4. Darslarni sinfdan tashqari ishlar bilan bog'lab olib borish.
5. Ko'rgazmali qurollardan foydalanishning yangi samarali shakllarini qo'llash.
6. Tasviriy san'atni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'tkazish.
7. Tasviriy san'at darslarida talim va tarbiya birligi.
8. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Tasviriy san'atda o'quvchilarga nafaqat nazariy jihatidan balki, amaliy jihatidan ko'roq tabiat qo'ynida o'tkazishlari, muzeylarga sayohat uyushtirib turish va albatta ko'proq rasm chizib, yangicha kompozitsiya yaratish (1.4- chizma) bu o'quvchilarga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Iloji boricha har bir yangi mavzuni, ko'rgazmali qurollar, yangi mavzuni hayotiy misollar orqali tushuntishi ham, bu past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yaxshiroq tushunish imkoniyati va fanga nisbatan qiziqishini yana ko'proq oshiradi.



1.4- chizma. Grattaj usuli

Har bir o'qituvchi yangi dars materialiga kirish, ya'ni o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash-motivatsiya jarayoni bilan ham boshlanadi. Bu o'quvchilarning yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkonini ham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

ZARGARLIK SAN'ATINING DUNYO XALQLARI HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Bozorov Asror Botirovich,

Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Zargarlik san'ati o'zbek milliy, badiiy madaniyati tarixining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Uning ko'p asrlik an'analarini tiklash va takomillashtirish, mahalliy zargarlik buyumlari ishlab chiqarilishi va tizimdagi ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash

Kalit so'zlar: zargarlik san'ati, mis, oltin, kumush, taqinchoq, zeb-ziynat, estetik go'zallik, eklektik.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ЮВЕЛИРНОГО ИСКУССТВА В ЖИЗНИ НАРОДОВ МИРА

Бозоров Асрор Ботирович,

преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и инженерная графика» Термезский государственный университет

Аннотация: Ювелирное искусство является неотъемлемой частью истории узбекской национальной художественной культуры. Восстановить и усовершенствовать свои многовековые традиции, создать благоприятные условия для производства местных ювелирных изделий и повысить эффективность работы производственных предприятий в системе, обеспечить конкурентоспособность продукции на внутреннем и внешнем рынках.

Ключевые слова: ювелирное искусство, медь, золото, серебро, украшения, драгоценности, эстетическая красота, эклектика.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE ART OF JEWELRY IN THE LIFE OF THE PEOPLE OF THE WORLD

Bozorov Asror Botirovich,

Termiz State University is a teacher of the «Fine Art and Engineering Graphics» department.

Abstract: Jewelry art has been an integral part of the history of Uzbek national artistic culture. To restore and improve its centuries-old traditions, to create favorable conditions for the production of local jewelry and to increase the efficiency of the production enterprises in the system, to ensure the competitiveness of products in domestic and foreign markets.

Key words: jewelry art, copper, gold, silver, jewelry, jewelry, aesthetic beauty, eclectic.

Amaliy san'at, amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohaslarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy

muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta’sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo‘lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go‘zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko‘pligi Amaliy san’atda estetik ta’sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san’atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

- 1) shakli oddiy, jo‘n buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmati oshiriladi;
- 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi.

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o‘ynaydi. Xom ashyoning go‘zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta’sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta’sirchan mazmunli shakllar ko‘pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo‘layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta’sir etadi. Bezagi tufayli buyum Amaliy san’at asariga aylanadi. Ana shunday amaliy san’at asarlariga zargarlik buyumlarini kiritish mumkin.

Zargarlik — badiiy hunarmandlik soxasi; oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi. Arxeologik topilmalar zargarlik qadimdan mavjudligini ko‘rsatadi. Qadimgi Misr, Yunoniston, Eron, Xitoy zargarlari zargarlik buyumlari tayyorlashda marjon, nefrit, kahrabo va boshqalardan keng foydalangan. Yevropada, ayniqsa, roman va gotika davrida (XII-XV asrlar) zargarlik san’ati yuksak pog‘onaga ko‘tarilgan, Zargarlikning yangi usul va uslublari vujudga kelgan. O‘zbekiston Respublikaning ko‘pgina muzeylarida saqlanayotgan topilmalar respublika hududida (YunonBaqtriya podsholigi, mil. av. III-II asr; Qadimgi Xorazm, asosan, mil. av. I ming yillik o‘rtalaridan mil. VIII asrgacha) zargarlik rivoj topganini ko‘rsatadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Shahrisabz va b. shaharlarda zargarlik rivojlangan. XIX asr oxiri XX asr boshida o‘ziga xos ishlanishi, shakli, bezaklari, xususiyatlari bilan birbiridan farq qilgan xilmaxil zargarlik buyumlari keng tarqalgan, ziynat buyumlari to‘plamlari vujudga kelgan. Asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan zargarlik san’ati XX asr boshlarida inqirozga yuz tutdi, xalq ustalarining soni qisqara boshladi. Ustalariga qimmatbaho xomashyolardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmadi. Zargarlik fabrikalarida ijod qilgan usta zargarlar ish jarayonida asta-sekinlik bilan mavjud an‘analardan yiroqlasha bordilar. Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakli-shamoyili o‘zgarib «eklektik» manzarani yuzaga keltirdi va ba’zi an‘analarni butkul yo‘qolishiga olib keldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng zargarlik san’ati jonlandi. Qimmatbaho metall materiallardan foydalanishga imkon yaratildi.



Ma'lumki, zargarlik san'ati o'zbek milliy, badiiy madaniyati tarixining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Uning ko'p asrlik an'alarini tiklash va takomillashtirish, mahalliy zargarlik buyumlari ishlab chiqarilishi va tizimdagi ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, aholining yuqori sifatli mahalliy zargarlik buyumlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon tufayli mamlakatda mahalliy zargarlik tarmog'ini tiklash va rivojlantirish, shuningdek ishlab chiqaruvchilarga qimmatbaho metallardan foydalanish huquqi berilib, mahalliy zargarlik mahsulotlari hajmini kengaytirilishiga zamin yaratdi.

Har bir amaliy san'at turi o'z ustasidan sabr, qunt, mahorat talab qiladi. Chunonchi, zargarlik ham. Hozirgi kunda zargarlarimiz tarixiy shakldagi zargarlik buyumlariga zamonaviy yondashgan holda zeb berib san'at asari yaratayotgani butun dunyo zargarlari e'tiboriga tushgan, desak, xato bo'lmaydi. Barcha ustalardan hozirgi kun talabi –tarixni saqlagan holda yangilik yaratishdir. Bu ishda , albatta, mahorat egalari, hunarmand xalqiga sabr va sabot tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi»
3. Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
4. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
5. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994 yil.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil

**К ВОПРОСУ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОТКЛОНЕНИЯ В
ПОВЕДЕНИИ УЧАЩИХСЯ: СУЩНОСТЬ, ФАКТОРЫ И ПРИЧИНЫ
ВОЗНИКНОВЕНИЯ**

*Гулямов Джахангир Рахматуллаевич
Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан, к.п.н,
доцент.*

*Акрамова Гулбахор Ренатовна
Бухарский государственный университет dosenti*

*Азимжонов Рушана Рашидовна
Навоийский филиал частного университета "Profi"*

**O'QUVCHILAR XULQ-ATVORIDAGI PEDAGOGIK OG'ISH
MASALASI: MOHIYATI, OMILLARI VA SODIR BO'LISH SABABLARI**

*Gulyamov Djaxangi Raxmatullaevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi, p.f.n., dotsent.*

*Akramova Gulbahor Renatovna
Buxoro davlat universiteti*

*Azimjonova Rushana Rashid qizi
"Profi" xususiy universiti Navoiy filiali.*

**TO THE QUESTION OF PEDAGOGICAL DEVIATION IN STUDENTS'
BEHAVIOR: ESSENCE, FACTORS AND CAUSES**

*Gulyamov Jahangir Rahmatullaevich
Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
candidate of pedagogical sciences, assistant professor.*

*Akramova Gulbahor Renatovna
Bukhara State University*

*Azimjonova Rushana Rashidovna
Navoi branch of the private university «Profi», Navoi*

АННОТАЦИЯ. Вводная информация / актуальность. Статья посвящена исследованию особенностей проявления девиаций в поведении учащихся средних общеобразовательных школ, раскрыта природа педагогического отклонения и выявлены факторы, влияющие на данный феномен, а также освещены социально-педагогические аспекты организации диагностической деятельности в школах с учащимися, имеющими педагогические отклонения в поведении.

Методы: анализ научной литературы по теме исследования, изучение школьной учебной документации, целенаправленное педагогическое наблюдение.

Результаты. Педагогические отклонения в поведении учащихся могут быть обусловлены не только дефектами мотивационно-волевого поля, правового и нравственного сознания, плохой наследственностью, негативным влиянием неблагополучной семьи и низким уровнем интеллектуального развития, но и особенностями характера учащихся, незавершенностью процесса их

формирования в качестве личности, неправильным семейным воспитанием и социальной пассивностью.

Выводы. На возникновение девиаций влияют биологические, психологические и социальные факторы. К педагогическим девиациям можно отнести физиологические и психологические особенности детей, а также неблагоприятное влияние ближайшего социального окружения.

Ключевые слова: девиация, учащиеся, поведение, педагогические отклонения, положительные и отрицательные отклонения, причины и факторы педагогических отклонений, особенности характера, социальная среда.

Kirishma'lumotlari/dolzarbligi. Maqola umumta'lim maktablari o'quvchilarining xulq-atvorlarida og'ishlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan, pedagogik og'ishning tabiati ochib berilgan va ushbu hodisaga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan. Shuningdek, maqolada pedagogik og'ishlarning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, xulq-atvorida pedagogik og'ishlar bo'lgan o'quvchilar bilan maktablarda diagnostika tadbirlarini tashkil etish masalalari yoritilgan.

Metodlar: tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, maktab o'quv hujjatlarini o'rganish, maqsadli pedagogik kuzatish.

Natijalar. O'quvchilarning xulq-atvorlaridagi pedagogik og'ishlar nafaqat motivatsion-irodaviy sohadagi nuqsonlar, huquqiy va axloqiy ong, zaif irsiyat, notinch oilaning salbiy ta'siri va intellektual rivojlanishning past darajasi tufayli, balki o'quvchilar xarakterining o'ziga xosliklari, ularning shaxs sifatida yetarlicha shakllanmaganligi hamda noto'g'ri oilaviy tarbiya va ijtimoiy passivlik ta'sirida ham yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa. Og'ishlarning paydo bo'lishiga biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Pedagogik og'ishlar bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlari, shuningdek, bevosita ijtimoiy muhitning noqulay ta'sirida sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: og'ish, o'quvchilar, xulq-atvor, pedagogik og'ishlar, ijobiy va salbiy og'ishlar, pedagogik og'ishlarning sabablari va omillari, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy muhit.

Introductory information / relevance. The article is devoted to the study of the features of the manifestation of deviations in the behavior of students of secondary schools, the nature of the pedagogical deviation is revealed and the factors influencing this phenomenon are identified, as well as the socio-pedagogical aspects of the organization of diagnostic activities in schools with students with pedagogical deviations in behavior.

Methods: analysis of scientific literature on the research topic, study of school educational documentation, purposeful pedagogical observation.

Results. Pedagogical deviations in the behavior of students can be caused not only by defects in the motivational-volitional field, legal and moral consciousness, poor heredity, the negative influence of a dysfunctional family and a low level of intellectual development, but also with the peculiarities of the nature of students, the incompleteness of the process of their formation as a person, improper family upbringing and social passivity.

Conclusions. The occurrence of deviations is influenced by biological, psychological and social factors. Pedagogical deviations include the physiological and psychological characteristics of children, as well as the unfavorable influence of the immediate social environment.

Keywords: deviation, students, behavior, pedagogical deviations, positive and negative deviations, causes and factors of pedagogical deviations, character traits, social environment.

ВВЕДЕНИЕ: В Республике Узбекистан государственная политика в области образования признана одним из приоритетных направлений развития социального общества. Среди важных мероприятий, проводимых в этом направлении, определены задачи воспитания нравственно зрелого, самостоятельного мировоззрения, творческого мыслителя, богатого национального наследия, а также всесторонне развитой личности, верной общечеловеческим и национальным ценностям.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев придает особое значение качественной и эффективной реализации задач, поставленных перед образовательными учреждениями, подчеркивая необходимость внедрения в учебно-воспитательный процесс современных образовательных программ и методов, создания условий для всестороннего развития учащихся, а также повышения профессиональной компетентности педагогов и специалистов [Ш.М.Мирзиёев, 2017: 163].

Эффективность образовательного процесса в школе зависит от того, насколько глубоко педагоги знают учащихся, их индивидуальные особенности и учитывают эти сведения при планировании и проведении учебно-воспитательных мероприятий. Иначе, принятые решения на основе неправильно сформулированных мыслей и событий могут быть далеки от истины, а учебно-воспитательные мероприятия могут стать бесцельными и малоэффективными. Это, в свою очередь, негативно отражаясь в поведении большинства учащейся молодежи, способствует проявлению в их поведении различных девиаций, что значительно усложняет как школьную адаптацию в период обучения, так и социальную адаптацию после окончания ими школы. Поэтому исследование особенностей проявления девиаций в поведении учащихся, освещение инновационных и социально-педагогических аспектов организации целенаправленной воспитательной работы и более точное определение особенностей педагогического отклонения в поведении данного контингента имеет большое практическое значение в совершенствовании учебно-воспитательной работы образовательных учреждений.

МЕТОДЫ. Различным аспектам детских поведенческих отклонений посвящены научные исследования Я.И.Гилинского, С.И.Голод, А.А.Габян (отклонения в поведении аморальных подростков), В.Битенского, А.В.Гоголевой, А.Е.Личко, Б.Г.Херсонского (причины возникновения и развития алкоголизма у молодежи), Н.В.Кудрявцева, В.М.Когана, А.Яковлева (отклонения в поведении с точки зрения криминологии и правового воздействия).

В том числе, узбекскими учеными Г.М.Аликуловой, Н.Г.Камиловой, А.А.Тожалиевой, Б.М.Умаровым, Ф.П.Раджабовой, Р.М.Махмудовым, Р.Х.Розиевой, Н.Х.Хакимовым и Н.И.Тайлаковым и др. исследованы антисоциальное поведение и интересы в поведении подростков и социально-психологические факторы, влияющие на возникновение такого поведения, особенности возникновения негативного поведения у детей и психологические аспекты индивидуального взаимодействия с детьми данной категории.

В целом, девиация считается одним из аспектов явления изменчивости, свойственного как человеку, так и окружающему миру. В словаре терминов социальной педагогики феномен девиантности определяется как то, что

обучение затруднено, а принятые нормы и правила не соблюдаются учащимся. Феномен девиации возникает в результате игнорирования в течение длительного времени тех или иных особенностей ребенка (подростка) [Ижтимоий, 2017: 15]. Понятие «девиация» означает поведение и действие, которое оценивается как «отклоняющееся от групповых, социальных норм».

Существует ряд определений понятия «девиантное поведение», близких друг-другу по содержанию и сущности. Так, в научно-исследовательских работах и на практике в качестве синонимов понятия «отклоняющееся поведение» используются такие понятия, как девиантное, делинквентное, асоциальное, антисоциальное, дезадаптивное, аддиктивное, неадекватное, деструктивное, акцентуированное, психопатическое. Подростков, относящихся к этой категории называют малолетними правонарушителями, педагогически отклоняющимися детьми, социально девиантными детьми, «трудными» детьми и детьми с трудным воспитанием [М.Э.Паатова и др., 2012].

Понятие «девиантное поведение» (лат. *deviation* — отклонение), как и понятия «социальная девиация» и «отклоняющееся поведение», означает отклонение человека от относительно распространенных и общепринятых социальных норм. Девиантное поведение как социальное явление изучается в областях социологической и педагогической науки, а индивидуальные отклонения - в области психологии.

Р.К.Мертон создал социальную классификацию поведенческих реакций человека в рамках теории структурного функционализма, в котором представлены пять способов приспособления личности к условиям общества. Он подчеркивал, что все эти способы связаны с тем, поддерживает ли индивид цели и задачи общества или нет [Р.К.Merton, 1938] [Р.К.Мерсон, 1966].

Альберт Бандура делит девиантное поведение на группы несоциализированных (одинокое агрессивные подростки), социализированных (несовершеннолетние правонарушители, объединяющиеся в группу) и ситуативных правонарушителей (подростки, совершающие преступления в силу ситуации) [А.Бандура, 2000].

И.А.Громов считает, что против человека, который проявляет негативные (отрицательные) отклонения в поведении, принимаются определенные формальные и неформальные меры. Эти меры могут быть в виде отделения от общества, то есть изоляции, лечения, исправления девиации или наказания правонарушителя [И.А.Громов и др., 2003].

Вместе с тем, феноменологический подход в психологии, использующий принцип понимания, а не объяснения, позволяет объективно подойти к оценке девиации поведения. Так, по мнению Я.И.Гилинского [Я.И.Гилинский, 1997: 163-184] и Л.В.Николаевой [Л.В.Николаева, 2016], девиантное поведение также может быть и положительным, т.е. позитивным. Позитивное отклонение относится к поведению, которое отклоняется от общепринятых норм, хотя может приносить пользу обществу. Это новые идеи, инновации, креативность и креативные подходы, положительно влияющие на развитие современного общества и социальной среды. Существуют определенные факторы, воздействующие на личность, влияние которых на деятельность и поведение человека можно оценить двояко: первое – направлено на полную реализацию творческого потенциала личности, а второе – проявляется в том, что внешняя окружающая среда препятствует, замедляет или мешает формированию положительного потенциала, находит обратное. Позитивное девиантное поведение, приобретая значение в развитии личности и реализации ее возможностей, может стать

одним из важных факторов развития общества. Например, несмотря на то, что Альберт Эйнштейн был великим физиком и теоретиком, ему на протяжении всей жизни было очень трудно адаптироваться к социальной среде.

Ряд ученых, исследовавшие сферы нравственной мотивации несовершеннолетних (Г.А.Аванесов, В.Н.Кудрявцев, Г.М.Миньковский, А.Р.Ратинов) считают, что не все правонарушители имеют неправильные представления о нравственно-правовых нормах в обществе [М.Э.Паатова и др., 2012].

С.А.Беличева предлагает разделить поведенческие девиации на три типа, где 1- и 2- типы отражают негативное отклонение (совершенные умышленно – кража, незаконное присвоение и т.п.; агрессивная направленность – оскорбление, запугивание и др.), а 3-тип - социальную пассивность (невыполнение гражданских обязанностей, уход от активной общественной деятельности и др.) [С.А.Беличева, 1993: 25].

Хулоса қилиб, Амир Темур ҳарбий салоҳиятда жаҳонга машҳур саркарда

ва ўз замонасининг энг қудратли ҳукмдори бўлганлигини эътироф этиш лозим. Амир Темурнинг ҳарбий назарияси ва у қўллаган амалий ҳарбий санъати ўз даврининг нодир мўъжизаси эди. У ишлаб чиққан ўзининг ҳарбий тактикасидан ҳарбий юришларида фойдаланиб ғалабаларни қўлга киритди. Амир Темурнинг юритган ташқи ва ички сиёсатида тутган одилона йўли у барпо этган давлат қудратининг ошишига ва жаҳон миқёсига кўтарилишида ҳал қилувчи омил бўлди. Шу билан бир қаторда ҳамма масалаларда, хусусан хорижий мамлакатлар билан алоқалар ўрнатиш ва муносабатларни ривожлантириш тадбирларини тинмай давом эттириб бу мавқени мустаҳкамлаб борди. Россия учун оғир қулфатлар келтира бошлаган Олтин Ўрда хони Тўхтамишни мавҳ этиб, Шарқий Европадаги бир неча мамлакатларни босиб олиб, бутун Европага катта хавф-хатар солиб турган турк султони Боязиднинг жиловини тортиши Европа халқлари тараққиётида янги бир даврни бошлаб берди. Европаликлар Соҳибқиронни халоскор сифатида тан олиб, унинг қудратли, марказлашган империяси билан ҳамма соҳада ҳамкорлик ўрнатишга интилдилар. Кўп ўтмай ўзаро муносабатлар янги изга кўча бошлади. Мағрибдан Машрикқача бўлган улкан ҳудудда тинчлик ва тартиб ўрнатилиши натижасида савдо йўллари, дипломатик алоқалар яна жонланди. Жумладан, Самарқандга “Хитой, Олтой, Чекка Мағриб, Миср, Рум, Фаранг ва Ҳинд мамлакатларидан элчилар келган. Амир Темур уларни ҳар бирини ўз ҳузурига чорлаб, тортиқ ва инъомлар улашган[3,13]. Кастилия кироли Генрих III нинг элчилари Пайпо де Сато Майор ва Эркан Санчес де Паласуллослар Соҳибқирон қабулида бўлишган. Темур эса ўз навбатида қирол Генрих III ҳузурига Муҳаммад ал-Кешийни ёрлиқ билан юборган. Дипломатик муносабатлар Султония архиепископи Иоан ва Испания элчиси Рюи Гонзалес де Клавихо[13] томонидан амалга оширилган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Каримов Ш.Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Т.: “Ўқитувчи”, 1997.- 368 б.
2. Файзиев Т. Темурийлар шажараси.Т.:”Ёзувчи”, “Хазина”1995. -376. -104-105 б.
3. Низомиддин Шомий.Зафарнома. Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 319 б.
4. Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Т.: “Ёзувчи”,1996.
5. Ибн Арабшоҳ.Ажойиб ал-мақдур фи тарихи таймур. (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). II китоб Т.: “Меҳнат”,1992.
6. Темур Тузуклари. Т.: “Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат”,1996.
7. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: “Фан”, 1993. -40 б.
- 8.Темур тузуклари.Тошкент.О zbekiston .2018.
9. Иванин М.Икки буюк саркарда:Чингизхон ва Амир Темур.Т.:»Янги аср авлоди».2017. -183б.
10. Исмоилова. Ж. Ҳ., Левтеева Л.Г. Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи. Ўзбекистон НМИУ.2013.116-117 б.
11. Череванский В. Амир Темур.Т.: “Ёзувчи”,1993.-86-87б.
12. Содиқов Ҳ. Амир Темур салтанатида хавсизлик хизмати.Т.:”Art Flex”. -8б.
13. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: “ШАРҚ”, 1997.- 394 б.

CHIZMACHILIK DARSIDA TALABALARDA KOGNITIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mamatov Dilshod Kodirovich,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Annotatsiya. Maqolada chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi borasida fikr yuritiladi. bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Tasviriy san'at bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar malaka oshirish bo'yicha seminarlarda qatnashish, boshqalar bilan hamkorlik qilish, tajribali o'qituvchilarni kuzatish, texnologiyani o'zlashtirish, tajribaviy o'rganish bilan shug'ullanish hamda o'z-o'zini aks ettirish va o'z-o'zini baholashni mashq qilish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarining bilim qobiliyatlarini oshirishlari va talabalarini qo'llab-quvvatlashda samaraliroq bo'lishlari mumkin. o'rganish.

Kalit so'zlar: chizmachilik darsi, kognitiv kompetensiya, texnologiya, tasviriy san'at o'qituvchisi, rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchi.

Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga turli strategiyalar va vositalarni o'z ichiga olgan texnologiyaga asoslangan yondashuv yordamida yordam berish mumkin. Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Raqamli chizma asboblari: Grafik planshetlar yoki raqamli ruchkalar kabi raqamli chizma vositalaridan foydalanish turli xil vositalar va texnikalar bilan tajriba o'tkazish imkonini berib, talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu vositalar talabalarning nozik motorli ko'nikmalarini va qo'l-ko'zlarini muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Interfaol o'quv qo'llanmalar: Interfaol o'quv qo'llanmalar turli xil chizmalarni yaratish bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rsatmalar berib, talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'quv qo'llanmalar alohida talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan bo'lishi mumkin, ularda video ko'rgazmalar, interfaol mashqlar va qayta aloqa mexanizmlari bo'lishi mumkin.

Virtual haqiqat: Virtual haqiqat texnologiyasidan foydalanish talabalarga turli muhit va nuqtai nazarlarni o'rganish imkonini berib, kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiya talabalarga o'z chizmalarining 3D ko'rinishini taqdim etishi mumkin, bu esa ularda fazoviy tushuncha va vizualizatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'yin strategiyalari: Ballar, nishonlar va peshqadamlar jadvali kabi o'yin strategiyalaridan foydalanish talabalarni rag'batlantirish va qayta aloqa mexanizmlari bilan ta'minlash orqali kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu strategiyalar talabalarni rasm chizish ko'nikmalarini mashq qilishga undash va vaqt o'tishi bilan ularning yutuqlarini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

Hamkorlikda o'rganish: hamkorlikda o'rganish talabalarni muammolarni hal qilish va chizmalar yaratishda birgalikda ishlashga undash orqali kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv talabalarga muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Kognitiv kompetensiya deganda shaxsga axborotni qayta ishlash, tushunish va

undan unumli foydalanish imkonini beruvchi aqliy qobiliyat va malakalar majmui tushuniladi. U diqqat, idrok, xotira, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va ijodkorlik kabi turli kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kognitiv kompetentsiya shaxslar uchun o'rganish, yangi vaziyatlarga moslashish va shaxsiy va kasbiy hayotlarida ongli qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

Ta'lim muassasalarida kognitiv kompetentsiya ko'pincha akademik muvaffaqiyat bilan bog'liq. Kuchli kognitiv kompetensiyalarga ega bo'lgan talabalar ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash, tanqidiy fikrlash bilan shug'ullanish va o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga ega. Shuningdek, ular turli akademik va kasbiy sohalarida murakkab ko'nikmalarni o'rganish va ulardan foydalanish uchun yaxshi jihozlangan.

Kognitiv kompetentsiya doimiy yoki tug'ma xususiyat emas, balki turli xil ta'lim tajribalari va aralashuvlar orqali rivojlanishi va kuchaytirilishi mumkin. Talabalarga qiyin va rag'batlantiruvchi ta'lim tajribasi bilan shug'ullanish imkoniyatini berish orqali o'qituvchilar kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yordam berishlari va akademik natijalarni yaxshilashlari mumkin.

Chizmachilik darsida talabaning kognitiv kompetensiyasini bir necha yo'llar bilan rivojlantirish mumkin. O'qituvchilar o'z talabalarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ba'zi strategiyalar:

Diqqat: Chizish tafsilotlar, shakllar, ranglar va to'qimalarga diqqatni jamlashni talab qiladi. O'qituvchilar talabalarni o'z mavzulariga diqqat bilan qarashga undashlari va diqqatni jamlash, diqqat va kuzatish qobiliyatlari muhimligini ta'kidlashlari mumkin.

Idrok: Chizma, shuningdek, sezgi ma'lumotlarini izohlash va tushunish qobiliyatini anglatuvchi idrokni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar talabalarni his-tuyg'ularini ishlatishga va turli nuqtai nazar va qarashlarni o'rganishga undash orqali ularning idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Xotira: Chizish vizual ma'lumotni eslab qolish va keyinroq eslab qolish qobiliyatini talab qiladi. O'qituvchilar xotiradan rasm chizish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish va vaqt o'tishi bilan chizgan rasmlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratib berish orqali talabalarning xotira qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Mulohaza yuritish va muammolarni hal qilish: Rasm chizish ko'pincha fikrlash va muammoni hal qilishni o'z ichiga oladi, chunki talabalar o'z mavzularini qanday ifodalash va badiiy qarorlar qabul qilishni aniqlashlari kerak. O'qituvchilar talabalarni mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni bartaraf etish va chizmalarini takomillashtirish uchun ijodiy muammolarni hal qilishga undashlari mumkin.

Qaror qabul qilish: Chizish, shuningdek, qaror qabul qilish ko'nikmalarini talab qiladi, masalan, foydalanish uchun mos materiallar, texnika va ranglarni tanlash. O'qituvchilar talabalarga tanlov va turli yondashuvlarni sinab ko'rish imkoniyatini berish orqali qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Ijodkorlik: Rasm chizish - bu talabalarga o'z g'oyalari va his-tuyg'ularini vizual shaklda ifodalash imkonini beruvchi ijodiy jarayon. O'qituvchilar talabalarni turli uslublar, texnikalar va materiallarni o'rganishga undash hamda ularga tajriba va tavakkal qilish imkoniyatini berish orqali ijodkorlikni rivojlantirishi mumkin.

Umuman olganda, chizmachilik darsi talabalar uchun ijodiy va qiziqarli tarzda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qimmatli imkoniyat bo'lishi mumkin. O'qituvchilar diqqatni, idrokni, xotirani, mulohaza yuritishni, muammolarni hal qilishni, qaror qabul qilishni va ijodkorlikni rivojlantiruvchi strategiyalarni qo'llash

orqali talabalarni yanada malakali, ishonchli va mustaqil o'rganishga yordam beradi.

Kognitiv kompetentsiya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun juda muhim, chunki bu ularga o'quvchilarning bilimini samarali o'qitish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari uchun kognitiv kompetentsiya muhimligining ba'zi sabablari:

O'quvchilar qanday o'rganishini tushunish: Kognitiv kompetentsiya bilan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'z o'quvchilari qanday o'rganishlari, ma'lumotlarni qayta ishlashlari va muammolarni hal qilishlarini yaxshiroq tushunishadi. Bu ularga har bir o'quvchi uchun samarali bo'lgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa ta'limning samarali natijalariga olib keladi.

O'quvchilarning bilimni baholash qobiliyati: Kognitiv kompetentsiyaga ega bo'lgan holda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'z o'quvchilarining o'qishini yaxshiroq baholashlari va ular ko'proq yordam yoki qiyinchilikka muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlashlari mumkin. Bu ularga o'z o'qitish strategiyalarini mos ravishda o'zgartirishga imkon beradi, barcha talabalar muvaffaqiyatga erishishlarini va o'zlarining to'liq salohiyatiga erishishlarini ta'minlaydi.

Moslashuvchanlik: Kognitiv kompetentsiya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga o'z o'quvchilarining ehtiyojlariga qarab o'qitish usullarida moslashuvchan bo'lish imkonini beradi. Ular o'z darslarini turli ta'lim metodikalarini o'quvchining qobiliyati va qiziqishlariga moslashtirish uchun o'zgartirishlari mumkin, bu esa yanada qiziqarli va samarali o'qitish tajribasiga olib keladi.

Ijodiy muammolarni hal qilish: Kognitiv kompetentsiyaga ega bo'lgan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari muammolarni ijodiy hal qilish, sinfda paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish uchun yaxshi jihozlangan. Bu ularga to'siqlarni engib o'tishga va talabalarni o'quv maqsadlariga erishishda qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

Innovatsiya: Kognitiv kompetentsiya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga o'qitish usullarida innovatsion va ijodiy bo'lishga imkon beradi. Ular yangi g'oyalar, texnologiyalar va yondashuvlarni o'qitishga kiritib, talabalarini ilhomlantiradigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlar kognitiv kompetentsiya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun zarurligini tasdiqlaydi. Kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'z talabalarining bilim olishini qo'llab-quvvatlash va o'qitish maqsadlariga erishishda yanada samarali va muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Mana bir nechta misollar:

Kasbiy rivojlanish seminarlari va kurslari: Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari kognitiv rivojlanish va o'rganish strategiyalariga qaratilgan seminarlar va kurslarda qatnashishlari mumkin. Bu imkoniyatlar ularga kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'qitishga yangi tushunchalar va yondashuvlarni taqdim etishi mumkin.

Hamkorlikda o'rganish: Boshqa o'qituvchilar yoki soha mutaxassisleri bilan hamkorlikda o'rganish, shuningdek, kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilarining kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Boshqalar bilan hamkorlik qilish ularni turli nuqtai nazar va strategiyalarga ochib berishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yordam berishi mumkin.

Sinfda kuzatish va mulohaza yuritish: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari tajribali o'qituvchilarning harakatlarini kuzatishlari va ularning o'qitish amaliyotlari haqida fikr yuritishlari mumkin. Bu ularning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun samarali o'qitish strategiyalari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

Inkorporatsiya texnologiyalari: sinfda texnologiyadan foydalanish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Masalan, ular talabalarning o'rganishi va faolligini oshirish uchun interfaol doskalar, raqamli chizmachilik dasturlari yoki virtual haqiqat vositalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Tajribalarni o'rganish: Eksperimental o'rganish, masalan, ekskursiyalar yoki amaliy loyihalar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi o'rganish ularga o'z bilim va ko'nikmalarini real dunyo kontekstlarida qo'llashga yordam beradi, bu esa chuqurroq tushunish va o'sishga olib keladi.

O'z-o'zini aks ettirish va o'z-o'zini baholash: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarining kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun o'z-o'zini aks ettirish va o'z-o'zini baholash bilan shug'ullanishlari mumkin. Ular o'zlarining o'qitish amaliyotlari va strategiyalarini muntazam ravishda baholashlari va nima yaxshi ishlayotgani va nimani yaxshilash mumkinligi haqida fikr yuritishlari mumkin.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisida kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning ba'zi usullari:

Kognitiv psixologiya bo'yicha bilimlarni rivojlantirish: Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun kognitiv psixologiya, jumladan miya ma'lumotni qanday qayta ishlash va odamlar qanday o'rganish haqida asosiy tushunchaga ega bo'lishlari muhimdir. Bu bilimlar ularga talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

Differentsiallashtirilgan ta'limdan foydalaning: Differentsial ta'lim o'qitish usullari va materiallarini har bir talabaning individual ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari talabalarni qiyinlashtiradigan va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan turli xil o'quv faoliyatini yaratish orqali o'zlarining kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun ushbu yondashuvdan foydalanishlari mumkin.

So'rovga asoslangan ta'limni rag'batlantirish: so'rovga asoslangan ta'lim talabalarga savol va muammolarni qo'yish va ularni mustaqil ravishda yechim topishga undashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga talabalarning faolligini oshirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Metakognitiv strategiyalarni birlashtirish: Metakognitiv strategiyalar talabalarga o'z ta'lim jarayonlari haqida qanday fikr yuritish va o'z taraqqiyotini kuzatishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarning o'zini o'zi anglashi va o'zlarining kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam berish uchun ushbu strategiyalarni o'qitishga kiritishlari mumkin.

Ta'limni yaxshilash uchun texnologiyadan foydalaning: Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantiruvchi raqamli vositalarni o'z ichiga olgan holda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, raqamli chizmachilik dasturlari yoki virtual haqiqat vositalaridan foydalanish talabalarga fazoviy fikrlash va vizualizatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Reflektiv amaliyot bilan shug'ullaning: Reflektiv amaliyot o'z ta'lim amaliyoti haqida muntazam ravishda fikr yuritishni va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritishni o'z ichiga oladi. Kelajakdagi tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarining ta'lim strategiyalarining samaradorligini baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash orqali o'zlarining kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun refleksi

amaliyot bilan shug'ullanishlari mumkin.

Chizmachilik darsida talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish ularning umumiy o'sishi va rivojlanishining muhim qismidir. Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning muhim jihatlaridan ba'zilari:

Ijodkorlik: Ijodkorlik chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. O'qituvchilar talabalarni ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli xil chizish texnikasi, materiallar va mavzular bilan tajriba o'tkazishga undashlari kerak.

Muammoni hal qilish qobiliyatlari: Chizma murakkab mavzuni qanday chizish yoki kerakli effektga erishish kabi muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar chizmachilik darsida muammolarni hal qilish imkoniyatini berish orqali talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishlari mumkin.

Vizual-fazoviy ko'nikmalar: Chizish vizual-fazoviy ko'nikmalarni talab qiladi, masalan, shakllar va shakllarni aniq ko'rish va takrorlash qobiliyati. O'qituvchilar kuzatish, mutanosiblik va istiqbolga qaratilgan mashqlar orqali talabalarga ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Xotira ko'nikmalari: Rasm chizish xotira qobiliyatlarini o'z ichiga oladi, masalan, tafsilotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda ularni eslab qolish qobiliyati. O'qituvchilar talabalarni diqqat bilan kuzatishga va xotiradan rasm chizishni mashq qilishga undash orqali ularning xotira qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Tafsilotga e'tibor: Tafsilotga e'tibor chizishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mavzuning nozik nuanslariga jiddiy e'tibor berishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar talabalarni tafsilotlarga e'tibor berishga va o'z ishlari bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirishga undash orqali kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari: Tanqidiy fikrlash rasm chizish darsida kognitiv kompetentsiyaning muhim jihati hisoblanadi. O'qituvchilar talabalarni o'zlarining va boshqalarning ishlarini tahlil qilish va sharhlashga undash orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Mulohaza va o'z-o'zini baholash: Mulohaza yuritish va o'z-o'zini baholash rasm chizish darsida kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning muhim jihatlaridir. O'qituvchilar talabalarni o'z ishlari haqida mulohaza yuritishga va ularning yutuqlarini baholashga undashlari mumkin, bu esa metabolish va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limni rivojlantirishi mumkin.

Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishning bir qancha zamonaviy usullari mavjud. Ushbu usullardan ba'zilari:

Loyihaga asoslangan ta'lim: Loyihaga asoslangan ta'lim talabalarni real dunyo muammosi yoki muammosi bilan bog'liq loyiha ustida ishlashni o'z ichiga oladi. Ta'limga bunday yondashuv talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda ayniqsa samaralidir, chunki u tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda o'rganish: Hamkorlikda o'rganish talabalarning guruhlariga bo'linib topshiriqni bajarish uchun birgalikda ishlashini o'z ichiga oladi. Ta'limga bunday yondashuv talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda samarali bo'ladi, chunki u muloqot, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Teskari aloqa: bunda talabalarga darsdan oldin onlayn materiallardan foydalanish imkoniyati beriladi, ular darsga tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. Ta'limga bunday yondashuv talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda samarali bo'ladi, chunki bu ularga o'z bilimlarini nazorat qilish va o'z tezligida ishlash imkonini beradi.

So'rovga asoslangan ta'lim: So'rovga asoslangan ta'lim talabalarning savollar

berishini va mavzuni mustaqil o'rganishni o'z ichiga oladi. Ta'limga bunday yondashuv talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda samarali bo'ladi, chunki u tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Texnologiyaga asoslangan ta'lim: Texnologiyaga asoslangan ta'lim o'rganishni yaxshilash uchun planshetlar, kompyuterlar va dasturiy ta'minot kabi raqamli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'limga bunday yondashuv talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda samarali bo'ladi, chunki bu ularga material bilan yanada interaktiv va qiziqarli tarzda shug'ullanish imkonini beradi.

Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin. Kognitiv kompetentsiyani oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyaning ba'zi misollari:

Raqamli chizmachilik dasturi: Raqamli chizmachilik dasturidan foydalanish talabalarga interaktiv va qiziqarli tajribani taqdim etish orqali ularning kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dastur talabalarga turli xil ranglar, teksturalar va cho'tka zarbalari bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi, bu esa ijodkorlik va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Virtual haqiqat: Virtual haqiqatdan chizma sinfidagi talabalar uchun chuqur o'rganish tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin. Virtual haqiqatdan foydalangan holda, talabalar turli muhitlarni o'rganishlari va raqamli ob'ektlar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin, bu ularning fazoviy xabardorligini, tafsilotlarga e'tiborni va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kengaytirilgan haqiqat: kengaytirilgan haqiqatdan raqamli ma'lumotni jismoniy dunyo ustiga joylashtirish orqali an'anaviy chizma materiallarini yaxshilash uchun foydalanish mumkin. Bu kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradigan interaktiv va qiziqarli o'rganish tajribasini yaratishga yordam beradi.

Onlayn darsliklar: Onlayn darsliklar talabalarga kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradigan keng ko'lamli o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini berish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu o'quv qo'llanmalar talabalarga o'z tezligida o'rganishga yordam beradigan videolar, interaktiv viktorinalar va boshqa raqamli resurslarni o'z ichiga olishi mumkin.

Mobil ilovalar: Mobil ilovalar talabalarga chizmachilik vositalari va resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin, ular yo'lda o'zlarining kognitiv vakolatlarini rivojlantirish uchun foydalanishlari mumkin. Bu ilovalar o'quv qo'llanmalari, raqamli eskiz kitoblari va ijtimoiy media almashish kabi funksiyalarni o'z ichiga olishi mumkin, ular hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin. Raqamli chizmachilik dasturlari, virtual haqiqat, kengaytirilgan reallik, onlayn darsliklar va mobil ilovalardan foydalangan holda o'qituvchilar yanada qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratishi mumkin, bu esa tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va e'tibor kabi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. tafsilotga.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.W. Janson. History of Art (Hardcover) by H.W. Janson. Princeton University press. 236 P.
2. E.H. Gombrich. The Story of Art. Englewood Cliffs. New York, 2012, P. 346
3. Betty Edwards. The New Drawing on the Right Side of the Brain. Redhouse Publishing house. Auckland, P. 248.

4. Austin Kleon. *Steal Like an Artist: 10 Things Nobody Told You About Being Creative*

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 noyabrdagi Qarori № PQ-2435 "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida.

6. Mamatov, Dilshod. «PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION.» *Theoretical & Applied Science* 9 (2019): 281-285.

7. Mamatov, Dilshod. «The Role of Computer Graphics in Developing Students Space Imagination.» *JournalNX* 6.10: 304-309

ILG'OR XORIY TAJRIBASI ASOSIDA MAKTABLARDA TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Mamatqulov Shuxrat Nazarovich,

*Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorij tajribasi asosida maktablarda ta'limni tashkil etish va respublikamiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Germaniya ta'lim tizimi, Kembrij universiteti, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli», «Found Karnegi» pedagogik markazi, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, hamkorlik o'rnatish va muloqot qilish.

MODERN METHODS OF ORGANIZING EDUCATION IN SCHOOLS BASED ON ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

Mamatkulov Shukhrat Nazarovich,

Termiz State University Associate Professor of «Fine Art and Engineering Graphics» Department.

Annotation: this article provides information on the organization of education in schools on the basis of foreign experience and changes in the educational system of the Republic.

Keywords: German education system, Cambridge University, «the embodiment of school success and prosperity», «Found Karnegi» pedagogical Center, critical thinking, creative approach, establishing cooperation and communication.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Маматкулов Шухрат Назарович,

*доцент кафедры «Изобразительное искусство и инженерная графика»
Термезский государственный университет.*

Аннотация: В данной статье представлена информация об организации обучения в школах и изменениях в системе образования нашей республики на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: немецкая система образования, Кембриджский университет, «символ школьного успеха и благополучия», Педагогический центр Фонда Карнеги, критическое мышление, творческий подход, сотрудничество и общение.

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nau eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Ma'lumki, O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga, xususan, nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlar 2016-yilda O'zbekistonda 24 ta nodavlat ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 84 tadan oshganidan darak bermoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol

ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga - oshib bormoqda. Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat – e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchilikning faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi. Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'lchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib o'qishdan iborat. Ammo, buning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir. Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmagan haftalik o'qishida o'qiydilar. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam. Boshlang'ish maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ish maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvshilar yo'nalish bosqishidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo'nalish maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdagi o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining —Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi. Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko'pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar. Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir.

Jumladan mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o'qituvchilik kasbining mavqeini va ta'lim sifatini oshirish, farzandlarimizni har jihatdan etuk, intellektual salohiyatli, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo'la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor

ahamiyat qaratilmoqda. Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo'llanayotgani, ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mul'timedia vositalaridan oqilona foydalanilayotgani, xalqaro miqyosda ham ta'lim va tajriba almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbolli odimlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Yurt iqtisodiyotining barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Bunday kadrlar esa, eng avvalo, maktabda shakllanadi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan jamiyatni barpo etadi.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan ayni paytda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari e'lon qilindi.

Respublikamizning barcha hududida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularga eng malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, barcha hududda zamonaviy o'quv maskanlari barpo etilmoqda.

Yangi maktablar qurilishi uchun tarixda kuzatilmagan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Birgina 2021 yilning o'zida qariyb 876 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 520 ta maktabda Investitsiya dasturi, 340 ta maktabda "Obod qishloq" dasturi asosida, 9 ta maktab homiylar, 17 tasi mahalliy byudjet mablag'i hisobidan ta'mirlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda 6177 ta maktabda ta'mirlash ishlari bajarildi. eng quvonarlisi, 42 ta maktab mutlaqo yangidan qurilib, zamonaviy qiyofaga keltirildi. O'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Fanlar darsliklari mazmun-mohiyatida, shuningdek, ularning tayyorlanishidagi o'zgarishlar:

Darsliklar o'qituvchilar uchun ma'lum bir mavzuni o'qitish, o'quvchilar uchun bilim olish manbai hisoblanadi. O'tgan yillar mobaynida xalq ta'limi tizimida yo'l qo'yilgan kamchiliklardan biri — maktab ta'limini qamrab oluvchi va mazmunini yaqqol ifodalaydigan yaxlit dastur ishlab chiqilmagan. Vaholanki, o'quvchi maktabni bitirguniga qadar egallaydigan ko'nikmasi, bilimi bilan birga, o'qituvchilarga o'quvchilarning o'zlashtirishini kuzatishi va yordamlashishi uchun me'yorlar jamlangan yagona ta'lim dasturining samaradorligi qator mamlakatlar tajribasida o'zini oqlagan.

Shuni hisobga olib, darsliklardan oldin milliy o'quv dasturi yaratildi. Nimani o'qitamiz, degan masala qayta ko'rib chiqildi. Mazkur hujjat zamonaviy o'quvchi egallashi kerak bo'lgan to'rt muhim jihatning rivojlanishini ta'minlaydi. Bular — tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, hamkorlik o'rnatish va muloqot qilish ko'nikmalari. Milliy o'quv dasturida maktab bitiruvchisiga talablar, o'quv yuklamalari, o'qitish metodikasi va baholash tizimi belgilab beriladi.

Oddiy bir misol: yaponiyalik mutaxassislar bilan matematika fanini tahlil qilib ko'rilganda mavzular juda og'ir, o'rganish qiyin qilib tayyorlangani ma'lum bo'ldi. 10-11-sinfga borib 5 foiz bola matematikani yaxshi bilishi, qolgan 95 foiz o'quvchi esa bu fandan bezishi mumkin edi. Shu bois, oson tushuniladigan, qiziqarliroq, ertaga o'quvchi qaysi sohada faoliyat olib bormasin, matematikani yaxshi bilishiga zamin

yaratadigan yangi dastur ishlab chiqildi. Albatta, matematikani kuchli o'qiydigan 5 foiz o'quvchi uchun ixtisoslashtirilgan, qo'shimcha o'qitiladigan maktablarda tahsil olish imkoniyati yaratildi. Shu tariqa umumiy maktab bitiruvchilari ham matematikani qiziqib o'qiy boshlashiga erishilganini ko'rishimiz mumkin.

Bu yil 1-2-sinfning kitoblari yangi dastur asosida chiqyapti. Avvalgi darslikdan nimasi bilan farq qiladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Masalan, 1-sinf matematika darsligi bolani tahliliy-tanqidiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. Matematika faqat raqamlar, hisob-kitob, formuladan iborat emas, bolani mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, ajratish, o'xshashlarini belgilab olish, dunyoqarashini o'stirishga mo'ljallangan darslik bo'lishiga e'tibor berildi.

Keyingi farqi — oldin o'qituvchining kitobi bo'lmagan. Faqat bitta darslik bo'lgan. Hozir darslikdan tashqari o'qituvchining kitobi va mashq daftari, mul'timedia ilovasi, umuman, har bir fan bo'yicha to'rtta material ishlab chiqildi. Bu majmua Kembrij sistemasi bo'yicha yaratildi. O'qituvchiga tayyor o'quv qo'llanma berilayotir. Avvallari o'qituvchiga konspekt yozasan, deyilgan. U konspekt yozishi uchun qo'lida na bir qo'shimcha adabiyot, na internet bo'lgan.

O'zini hurmat qilgan har qanday o'qituvchi darsga kirishdan oldin tayyorgarlik ko'radi. Bugun uning qo'liga tayyor o'qituvchi kitobi, internet, metodik qo'llanma beryapmiz. Sifatli, yorqin ranglardagi darsliklar o'quvchilar uchun ham xuddi shu tartibda tayyorlanyapti. Bu katta ahamiyatga ega. 2026 yilgacha milliy o'quv dasturi joriy qilinishi ko'zda tutilgan. Bunday darsliklar yana yuqori sinflar uchun ham yaratiladi. 10 million AQSH dollaridan iborat xorijiy grant hisobiga Kembrij universiteti nashriyotida hamma sinflarga mo'ljallangan ikkita fan bo'yicha alohida darslik tayyorladik. Ingliz tili va axborot texnologiyalari kelgusi yildan boshlab to'liq xalqaro darajadagi kitoblar asosida o'tiladi.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 30–50 foizni tashkil etadi. Shu bois, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg'ulotlar ko'lamini oshirish yuzasidan ish olib borilmoqda.

Adabiyotlar:

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ПЕДАГОГИК ҚОБИЛИЯТЛАРИ ТАСНИФИ

М.К.Маҳмудов

*Бухоро давлат университети факультетларaro жисмоний тарбия
кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: мазкур мақолада бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини ривожлантириш тизимида фаолиятни самарали амалга оширишнинг асосий шарти сифатида қобилиятлар таснифи мазмун келтирилган. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик маҳоратини ривожлантириш тузилмасини тавсифлашнинг илмий методи сифатида классификация методидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: фаолият, педагогик маҳорат, тасниф, қобилият, ривожланиш, жараён, тузилма, натижа.

КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Максуд Камалович Махмудов

*Преподаватель межфакультетской кафедры физического воспитания
Бухарского государственного университета*

Аннотация: В данной статье представлено содержание классификации способностей как предпосылки эффективной реализации деятельности в системе развития педагогического мастерства будущих учителей физического воспитания. В качестве научного метода описания структуры развития педагогических умений будущего учителя физической культуры, использован метод классификации.

Ключевые слова: деятельность, педагогическое мастерство, классификация, способность, развитие, процесс, структура, результат.

CLASSIFICATION OF PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL EDUCATION

Maksud Kamalovich Makhmudov

*Lecturer at the Interfaculty Department of Physical Education, Bukhara State
University*

Abstract: This article presents the content of the classification of abilities as a prerequisite for the effective implementation of activities in the system of development of pedagogical skills of future teachers of physical education. As a scientific method for describing the structure of the development of pedagogical skills of a future teacher of physical culture, the classification method was used.

Key words: activity, pedagogical skills, classification, ability, development, process, structure, result.

Бугунги кунда таълим соҳасини тубдан такомиллаштириш давр талабига айланган. Ушбу талабдан келиб чиққан ҳолда, таълим соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш кунун, фармон ва қарорлар қабул қилинмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни 2020 йил 23 сентябрь куни қабул қилинган бўлиб, унинг мақсади таълим

соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Ушбу қонундаги асосий вазифалардан бири сифатида Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш белгиланган.

Шунингдек, 2019 йилнинг октябрида қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”да интеллектуал тараққиётни жадаллаштириш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш сингари вазифалар асос қилиб олинди. Бу борада, яъни бўлажак мутахассисларни тайёрлашда рақобатбардошликни таъминлаш, ривожланган таълим тизимига уйғунлашиш, таълимда ҳамкорликни ривожлантириш, бўлажак мутахассисларни инновацион ривожланган қилиб шакллантириш масалалари долзарб вазифалар бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” вазифаси ҳам мазкур йўналишга тегишли ижодий фаолиятимизнинг барча бўғинларини тубдан ислоҳ қилишни талаб этади. Бундай вазифаларни бажариш, албатта, бўлажак ўқитувчиларни касбий ҳамда шахсий компетентлигини шакллантириш, педагогик маҳоратини такомиллаштириш билан бевосита боғлиқ бўлиб, у олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини оширишни талаб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.11.2020 йил ПҚ-4877-сонли “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарорида ҳам олий таълим сифатига қўйиладиган халқаро талабларга мувофиқ, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш соҳасидаги вазифаларни юқори даражада бажаришга қодир малакали кадрлар тайёрлаш вазифаси белгиланди.

Шу нуқтаи назардан жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касбий ҳамда шахсий фаолияти, шунингдек интеллектуал хусусиятларини ривожлантириш орқали педагогик маҳоратини такомиллаштириш бугунги кундаги долзарб масалалардан ҳисобланади.

Педагогик маҳорат ўқитувчилар ва тарбиячиларга педагогик ижодкорлик, педагогик техника, таълим-тарбия жараёнида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорлиги, мулоқот олиб бориш тактикаси, нутқ маданияти, тафаккури, тарбиячининг маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларини ташкил этиш ва амалга ошириш, бу жараёнда хулқ-атвор ва ҳиссиётни жиловлай олиш хусусиятларини ўргатади ва ўз касбини ривожлантириб боровчи педагогик фаолиятлар тизими тўғрисида маълумотлар беради.

Тузилма ёки таркиб – бирон-бир нарсанинг ички тузилиши, бирон-бир нарсанинг табиати, қонуниятлари, қисмларининг ўзаро ҳаракатлари билан боғлиқ бўлган фундаментал, моддий ёки номмодий тушунча маъносини англатади.

Тадқиқотларимиз натижасида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик маҳоратини ривожлантириш тузилмасини тавсифлашнинг илмий


методи сифатида классификация методидан фойдаландик.

I. Ўқитувчи педагогик маҳоратини ривожлантириш тузилмасининг кластерли тавсифи

1. «Шахс хусусиятлари» кластери

Ушбу кластерда педагогик маҳорат унинг юқори даражада намоён бўлишини таъминловчи педагог шахси хусусиятларининг комплекси тарзида кўриб чиқилади. Бўлажак ўқитувчи педагогик маҳоратини белгиловчи хусусиятлар орасидаги асосий ўринни қадриятли-мотивацион(касбий-педагогик йўналганлик) ташкил этувчилар ҳамда индивидуал-рухий(умумий ҳамда касбий педагогик қобилиятлар) ўзига хослик ҳолатларининг ўзаро бирлиги эгаллайди. Педагогик маҳоратнинг юқори даражасини таъминловчи шахсий хусусиятларнинг бир қанча шакллари таснифланади.

Бўлажак ўқитувчи педагогик маҳорат тузилмасида касбий-педагогик йўналганлик асосий ташкил этувчи сифатида намоён бўлиб, шахс ривожланиши хусусиятларини барчасини қамраб олиб, ўзаро боғлиқлик асосида умумий тузилмани ташкил этади.



Бўлажак ўқитувчи шахси хусусиятлари кластери

1-расм. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиси педагогик маҳорати

тузилмаси.

Бўлажак ўқитувчи шахсида касбий-кадриятли ориентация, яъни йўналганликнинг мавжудлиги, уни ўз касби ва фаолиятига виждонан ёндашиш билан бир қаторда изланиш ва ижодга ундайди. Аксинча, ижобий ориентациянинг мавжуд эмаслиги, педагогик инқирозга олиб келиб, эгалланган педагогик маҳоратнинг бартараф бўлиш имкониятини яратади.

Башоратловчи ҳамда лойиҳалувчи функцияларни бажарувчи касбий-кадриятли йўналганлик ўқитувчига ўз фаолият моделини тузиш.

Педагогик ўзини-ўзи англаш - онг, диққатнинг ўз-ўзига йўналтирилгандаги ҳолати. Бу ҳолат педагогнинг шахсий установкалари ва диспозицияларига сезгирлигини оширади.

Ҳар бир киши ўз-ўзига яхши, объектив баҳо беришни истайди, лекин ўз шахсий фазилатларини қандай англаб тан олишни кўпчилик тушунмайди. Бизнинг ўз-ўзимизга баҳо беришимиз яшаб ўтган йилларимизда тўплаган барча тушунчаларни ҳаёлан тасаввур этиш орқали шаклланади.

Мутахассис сифатида ўзига ишонч туйғусини кучайтириб, педагогик бурчи ва масъулиятини сезиш орқали ўзини баҳолашга имкон беради. Ўзини-ўзи баҳолаш шахс хусусиятларини намоён қилувчи филтер сифатида ўқитувчи педагогик маҳоратини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди.

Ўқитувчи педагогик маҳоратини ривожлантиришга таъсир кўрсатадиган шахс хусусиятлари орасида педагогик ҳамкорлик асосидаги фаолиятни ташкил қилиш ва амалга ошириш имкониятини ҳосил қилувчи ижтимоий хусусиятлар, когнитив жараёнларни самарали кечишини таъминлайдиган интеллектуал хусусиятлар ҳамда педагогик фаолиятнинг йўналишларини белгилайдиган ахлоқий хусусиятлар ва фазилатлар ҳам муҳим аҳамият касб этади.

1. “Педагогик қобилиятлар” кластери.

Педагогик қобилият-педагог томонидан педагогик фаолиятни оқилонга ташкил этилиши ва олиб борилишини, амалий вазифаларнинг самарали бажарилишини таъминлашда аҳамиятли бўлган хусусиятларни ифодалайди.

Педагогик қобилиятлар-педагогик фаолиятни самарали амалга оширишнинг асосий шарт ҳисобланади.

Замонавий педагог қуйидаги қобилиятларни ўзида акс эттириши лозим:

1. Ташкилотчилик қобилияти - талабаларни бирлаштириш, вазифалар билан банд қилиш, жавобгарликни тақсимлаш, умумий топшириқлар бажаришда кўринади.

2. Дидактик қобилияти - ўқув материални, кўргазмаларни танлаш ва тайёрлаш, талабаларнинг билишга нисбатан қизиқиш ва эҳтиёжларини рағбатлантириш, ўқув фаоллигини оширишда намоён бўлади.

3. Перцептив қобилияти - талабанинг маънавий дунёсига кира олиш, руҳий-эмоционал ҳолатини аниқлаш ва объектив баҳолай олиш, педагогик интуиция ва эмпатияда кўринади.

4. Коммуникатив қобилияти - талабалар, ҳамкасблар ва раҳбарият билан педагогик мақсадга мувофиқ муносабат ўрнатиш, мулоқотга тез киришиш, экстровеертиликда намоён бўлади.

5. Суггестив қобилияти - талабаларга эмоционал иродавий таъсир кўрсатиш, уларни ўз имкониятларига ишонтира олишда кўринади.

6. Илмий-тадқиқотчилик қобилияти - педагогик вазият ва жараёнларни ўрганиш ва баҳолаш малакалари тушунилади.

7. Нутқ қобилияти - аниқ ва ишончли, эмоцияли, маданиятли, луғатий

жиҳатдан бой нутқ техникасига эга бўлиш.

7. Академик қобилият- (илмий-тадқиқотларни амалга ошириш ва ўз шахсий ҳамда касбий тажрибасини умумлаштириш) бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогика-психология соҳасида доимий ўз билимларини такомиллаштириб бориши ҳамда фаолиятида илмий-тадқиқот методларини қўллашида намоён бўлади.

Кўриниб турибдики жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик қобилиятлари ривожланиши борасида унинг педагогик маҳорат ҳам такомиллашиб боради.

Адабиётлар

1. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: НПО МОДЭК, 2004. -752 с.
2. Костикина Н.М. Акмеология физической культуры и спорта : учеб. пособие. – Омск: Изд-во СибГУФК, 2005. – 180 с.
3. Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш тизими. Монография-Т.:”Фан ва технология”, 2017, 128
4. Немов, Р.С. Психология: учеб. для студ. высших пед. уч. заведений: в 3 ч. / Кн. 2. Психология образования [Текст] / Р.С. Немов. – М.: Просвещение, 1994. – 496 с
5. Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. Б. 45-46
6. М. Mahmudov. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish. “XALQ TA’LIMI” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 6. 84-bet

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna,
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: Tasviriy san'atga qiziqadigan yoshlarni boshqa yo'nalishlarga, nafi ko'proq bo'lgan, moddiy tomonlama foydasi ko'proq sohalarga va ishlarga chalg'itish o'rniga, boladagi qiziqish va ishtiyoqni to'g'ri yo'naltirib, qiziqishini yanada orttirib rivojlantirishimiz kerak. Axir rassomchilik bilan dunyoga tanilgan va havaskorlariga ega bo'lgan rassomlar oz emasku. Bunday yutuqlar uchun to'g'ri yo'naltirish, qulay sharoit va qiziqish bo'lsa bas. Bugungi kunda o'quvchi kelajakda shifokor, ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, o'qituvchi yoki boshqa biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladi va ularning har biri uchun rasm chizish, undan foydalanishi lozim bo'ladi.

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ НА УРКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

*Мухаммадиева Зарина Баходировна,
доцент кафедры изобразительного искусства и инженерной графики
Термезский государственный университет*

Аннотация: Вместо того, чтобы отвлекать молодежь, интересующуюся изобразительным искусством, на другие направления, на более полезные и материально выгодные области и занятия, правильно направляя интерес и увлеченность ребенка, нужно дальше развивать их интерес. Ведь есть много художников, которые известны миру своей живописью и имеют поклонников. Для таких достижений достаточно иметь правильное руководство, благоприятные условия и интерес. Сегодня студент будет врачом, рабочим, клерком, дизайнером, инженером, учителем или создателем любой другой области в будущем, и для каждого из них необходимо будет рисовать и использовать его. искусств вместо того, чтобы отвлекать молодежь на другие направления, в более доходные и материально выгодные области и профессии, следует правильно направлять интерес и увлеченность ребенка и далее развивать его интерес. Ведь есть много художников, которые известны миру своей живописью и имеют поклонников. Для таких достижений достаточно иметь правильное руководство, благоприятные условия и интерес. Сегодня ученик станет врачом, рабочим, слугой, конструктором, инженером, учителем или творцом любой другой области в будущем, и для каждого из них будет необходимо рисовать и пользоваться им.

**METHODOLOGY FOR FORMING STUDENTS' CREATIVE
COMPETENCE IN FINE ARTS LESSONS**

*Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna,
Termiz State University is an associate professor of the Department of Fine Arts
and Engineering Graphics*

Abstract: Instead of diverting young people who are interested in visual arts to other directions, to more useful and materially beneficial areas and jobs, by properly directing the interest and enthusiasm of the child, we need to further develop their

interest. After all, there are many artists who are known to the world for their painting and have fans. It is enough to have the right guidance, favorable conditions and interest for such achievements. Today, the student will be a doctor, worker, clerk, designer, engineer, teacher or creator of any other field in the future, and for each of them, it will be necessary to draw and use it. Abstract: Those interested in visual arts instead of diverting young people to other directions, to more profitable and materially beneficial areas and jobs, we should properly direct the child's interest and enthusiasm and further develop his interest. After all, there are many artists who are known to the world for their painting and have fans. It is enough to have the right guidance, favorable conditions and interest for such achievements. Today, the student will become a doctor, worker, servant, designer, engineer, teacher or creator of any other field in the future, and for each of them, drawing and using it will be necessary.

San'at olami keng qamrovli, juda turli sohalar va tarixga boy hisoblanadi. Masalan, rassomchilik, qo'shiqchilik, kino, me'morchilik va hokazo. Insonlarni ilhomlantirib, ish qilishiga undaydigan narsa san'at turlari hisoblanadi. Yer yuzidagi har bir kishi san'at atamasini yaxshi biladi va hozirgi kunda kundalik hayotimizda ham faol ishlatib kelamiz. Ammo barchani ham san'atning aslida nima ekanligi unchalik qiziqitirmaydi. San'at hayotimizda juda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u bizni muhim muammolar va atrofimizda sodir bo'layotgan narsalar haqida o'ylashga majbur qiladi, san'at esa inson ongini hayajonlantiradi va bizni befarq qoldirmaydi. San'at voqelikning obrazli aksidir, uning asosiy maqsadi insonni go'zal, hissiy, qiziqarli va go'zal, ba'zida esa, hatto tushunarsiz va ziddiyatli narsalar bilan tanishtiradi. Bu fikrga qo'shilish yoki qo'shilmasligimiz mumkin, chunki har bir insonning bu dunyoga o'z qarashi bor, to'g'ri yoki noto'g'ri fikr yo'q. Qancha odam, shuncha fikr.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri-tasviriy san'atdir. Birinchi rasm asarlari qadimgi davrlarga tegishli bo'lgan, ular qadimgi odamlar g'orlarining devorlarida topilgan va juda ham qadimiy hisoblangan. Qadimda gaplashish nutqi yaxshi rivojlanmagan vaqtlarda, qadimgi odamlar fikrini bayon etish uchun toshlarga, yerlarga rasmlar chizib, fikrlarini tushuntirishgan. Bundan ma'lumki, tasviriy san'at juda qadimdan mavjud bo'lgan.

Hozirgi kunga kelib, zamonaviy o'qituvchi yoshlarni bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib, amalga oshirishi lozim. Bolalar o'rta maktabga kirganlarida, ko'p o'qituvchilar ijodkorlikka yetarlicha e'tibor bermaydilar. Bunday holatda ko'plab ota-onalar bolalarini maxsus san'at maktablariga yuborishadi. U yerda esa bolalarga yangi narsalarni o'rganish qobiliyati, san'atga qiziqish, ijod qilish va mehribon inson bo'lish qobiliyati o'rgatiladi. Mening fikrimcha, agar har bir maktab o'qituvchisi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirishi past o'quvchini bo'lishi ancha qiyin bo'lardi. Shularga ko'ra, bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor berish lozim.

Tasviriy san'at darslari asosan, san'atni va borliqni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, ko'rish xotirasi, estetik hissiyotlari hamda asosiy ijodiy tafakkuri rivojlanib boradi. Dars jarayonida yangicha zamonaviy interfaol usullar va texnologiyalardan foydalangan holda, ularning faolligini oshirish lozim. Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullarini tanlashda avvalambor, fanning xususiyatini hisobga olish kerak. Dars davomidagi oddiy qoida shuki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida o'quvchilarga yangi

bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan, ma'ruza 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Tasviriy san'at darslarini samarali va qiziqarli olib borish uchun o'qituvchi avvalambor kreativ bo'lishi, interfaol usullar va texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanib bilishi kerak. Masalan, tasviriy san'at fanidan "Dizayn san'ati" mavzusini tushuntirishda, o'qituvchi nafaqat o'zbek, balki chet ellik rassomlarning ijodiy ishlaridan, hamda o'qituvchi o'zining kompozitsiya (lot.compositio-tuzish, ijob qilish,g'oya) ishlaridan ham namuna sifatida ko'rsatishi, bu o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib, hamda ularni yaxshiroq taassurotga ega bo'lishlari va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi



1.1-rasm. Dizayn san'ati

Tasviriy san'atda o'quvchilarga nafaqat nazariy jihatidan balki, amaliy jihatidan ko'roq tabiat qo'ynida o'tkazishlari, muzeylarga sayohat uyushtirib turish va albatta ko'proq rasm chizib, yangicha kompozitsiya yaratish, bu o'quvchilarga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Iloji boricha, har bir yangi mavzuni ko'rgazmali qurollar, hayotiy misollar, fanlararo integratsiyalash orqali tushuntirish ham bu past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yaxshiroq tushunish imkoniyati va shu fanga nisbatan qiziqishini yana ko'proq oshiradi.

Tasviriy san'atga qiziqadigan yoshlarni boshqa yo'nalishlarga, nafi ko'proq bo'lgan, moddiy tomonlama foydasi ko'proq sohalarga va ishlarga chalg'itish o'rniga, boladagi qiziqish va ishtiyoqni to'g'ri yo'naltirib, qiziqishini yanada orttirib rivojlantirishimiz kerak. Axir rassomchilik bilan dunyoga tanilgan va havaskorlariga ega bo'lgan rassomlar oz emasku. Bunday yutuqlar uchun to'g'ri yo'naltirish, qulay sharoit va qiziqish bo'lsa bas. Bir mashhur faylasuf, ancha yillar oldin, - "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi" degan edi. Bugungi kunda o'quvchi kelajakda shifokor, ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, o'qituvchi yoki boshqa biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladi va ularning har biri uchun rasm chizish, undan foydalanishi lozim bo'ladi. Chunki har qanday oddiy, asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo'ladi. Shu boisdan, har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko'rib hayratga tushamiz. "Bu ranglarda qanchalik ma'no yotadi?"- deb o'yga tolasan kishi. Ajdodlarimiz ham tabiatning shu sirli olamiga hayratga tushib, asrlar davomida uni o'rganib kelishgan. Har bir rang bir olam ma'noni anglatadi. "Nima uchun tabiat aynan yashil rangda yaratilgan? Sababi nimada? Agar tabiat sariq yoki qizil rangda bo'lsa qanday ma'noni anglatgan bo'lar edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko'taradi?"

Qay biri ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo'ladimi?". Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma'noda "so'zlashish" ranglar vositasida insonlarni tarbiyalash, davolash, ranglar jilg'asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini anglash va boshqa masalalarni ijobiy hal etishdagi mavqeyi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Asrlar davomida ajdodlarimiz, fan arboblari muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlarini, tajribalarni ham o'tkazib kelishmoqda.

Shuning uchun ham san'at olami keng qamrovli, juda turli sohalar va tarixga boy hisoblanadi. Insonlarni ilhomlantirib, ish qilishiga undaydigan narsa san'at va uning turlari hisoblanadi.

Tasviriy san'atni o'qitishda g'oyat murakkab jarayonlar sodir bo'ladiki, bu davrda o'qituvchi bir necha metod va uslublardan foydalanadi. Zamonaviy o'qituvchi yoshlarni bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib amalga oshirishimiz lozim. Dars jarayonida yangicha zamonaviy interfaol usullar va texnologiyalardan foydalangan holda ularning faolligini oshirish lozim. Tasviy san'at darslarida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik printsipidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Tasviriy san'at darslarini samarali va qiziqarli olib borish uchun o'qituvchi avvalambor kreativ bo'lishi, interfaol usullar va texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanib bilishi kerak. Avvalo, o'qituvchi o'quvchilarni yangi darsga, yangi o'quv materialiga olib kirishi, tayyorlashi uchun yangi pedagogik texnologiyaning motivatsiya deb ataladigan didaktik jarayonidan foydalanishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ijodiy faolligini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik usullaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir nechta fanlar bilan, masalan: musiqa, texnologiya, tarix, adabiyot, informatika, (masalan musiqa asarlarini eshitib rasm ishlash, tasviriy san'at va musiqa o'rtasida aloqa o'rnatish), adabiyot (she'riy satrlar o'qish, topishmoq, ertak, illyustratsiyalar chizish), tarix (san'at asarlari yaratilishini o'rganish, tarixiy voqealar, mavzuli voqeaband mavzularni o'rganishda jangler tasviri va hokazo), texnologiya (o'yinchoqlar, kelgusida naqsh ishlash uchun idishlar uchun idishlar, qutichalar yasash), informatika fanlari bilan bog'liq grafik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi egallaydi. Chunki metodika va didaktika maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim-malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik usuli sanaladi.

O'quvchilarga bilim-malaka berishni eng osonlashtiradigan vosita-bu ko'rgazmalar vositasida o'qitishdir. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi boshqa barcha o'quv fanlaridan ko'ra ahamiyatli va samarali bo'lib xizmat qiladi. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi boshqa barcha o'quv fanlaridan ko'ra ahamiyatli va samarali bo'lib xizmat qiladi.


Tasviriy san'at darslarining hamma turdagi dars mashg'ulotlarining mavzulari birgina emas, bir necha ko'rgazma bo'lishini talab qiladi. Masalan, "Qush rasmini

chizish” mavzusi bo’yicha o’tkaziladigan dars mashg’uloti uchun, eng avval, biron-bir qushning tulumini bo’lishi, uning 3-4 bosqichda ishlangan tayyor rasmini, so’ngra o’qituvchining o’zi sinf doskasida qushning to’la va bosqich asosida ishlangan tasvirini ko’rsatishi talab qilinadi. (1.2-rasm) Yoki boshqa mavzularda (natyurmort, manzara va h.k) ham shu usulni ko’rsatish mumkin. (1.3-rasm)

O’qituvchining o’z qo’li bilan tayyorlagan ko’rgazma materiali va sinf doskasida dars materialini bayon etish davrida yaratiladigan, chizib ko’rsatiladigan rasmlari, ko’rgazma materialining eng faol va eng samaralisi bo’lib hisoblanadi.

Shu boisdan tasviriy san’at fani o’qituvchisi sinf doskasida juda chiroyli ishlay olishi, uning chizgan rasm-tasvirlari, yozuvlari qoyil qoladigan darajada bo’lishi bilan birga, o’qituvchi har qanday mazmundagi kompozitsiyani juda osonlik bilan, juda chiroyli ishlashi va dars jarayonida sinf doskasida chizayotgan rasmi og’zaki bayoni bilan bevosita bog’lanib borishi lozim. Bunday holat o’quvchilarning diqqatini o’ziga tortib, uning barqarorligini ham ta’minlaydi. Shuningdek, o’quvchilarning o’qituvchiga bo’lgan hurmat-e’tibori va hatto rassomchilik kasbiga bo’lgan mehr-muhabbati ham orta boradi.

1.2-rasm. Qush rasmini chizish bosqichlari



1.3-rasm. Natyurmort va manzara rasmini chizish bosqichlari



Shuni aytish joizki, tasviriy san’at fanini ko’rgazmasiz o’qitish mumkin emas. Tasviriy san’atning qaysi bir turidan qat’i nazar, o’quvchilar ham nazariy, ham amaliy bilim-malakalar oladilar va hatto ularni kelajak faoliyatlarida qo’llash, ulardan foydalanish bo’yicha ham amaliy tushunchalar va yo’l-yo’riqlar oladilar. Lekin buning uchun ham tasviriy san’at nazariyasini, amaliyotini va uni o’qitish metodikasini juda yaxshi biladigan ijodkor va yuqori malakali tasviriy san’at o’qituvchisi ish yuritishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM PLATFORMALARI BILAN ISHLASHNING SAMARADORLIGI

*Musayev Ashurali Shamsiddinovich,
Yangi asr universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalari bilan ishlashning samaradorligi yuzasida fikr-mulohaza yuritilgan. Ta'lim platformalari bilan ishlash mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun keng imkoniyatlarni taklif qilishi mumkin. Biroq, o'quvchilarning ushbu platformalarga aniq reja va ta'lim maqsadlari bilan yondashishlari va o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotning yo'qligi kabi onlayn ta'limning cheklovlarini yodda tutishlari muhimdir.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ta'lim platformalari, o'quvchi, aniq reja, ta'lim maqsadlari.

Mustaqil ta'lim bu shaxsning rasmiy sinfdan yoki darsdan tashqarida ta'lim olish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan mustaqil o'rganish tajribasini anglatadi. U maqsadlarni belgilash, resurslarni aniqlash va ushbu maqsadlarga erishish uchun o'rganish rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida shaxs mavzuni tanlash, tadqiqot olib borish va o'z o'quv jarayonini tashkil qilish uchun javobgardir. Bu o'rganish tajribasida yuqori darajadagi avtonomiya, moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish imkonini beradi. Mustaqil ta'limni o'rta maktabdan aspiranturagacha bo'lgan har qanday ta'lim darajasida olib borish mumkin.

Mustaqil ta'lim turli vositalar, jumladan, kitob o'qish, tadqiqot o'tkazish, maqola yozish, loyihalar ustida ishlash va boshqalar bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ta'limning maqsadi - o'z-o'zini rag'batlantirish, o'zini o'zi boshqarish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu, shuningdek, shaxsiy qiziqish sohalarini o'rganish yoki rasmiy ta'limni to'ldirishning samarali usuli bo'lishi mumkin.

Mustaqil ta'lim shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari va resurslariga qarab turli yo'llar bilan tashkil etilishi mumkin. Mustaqil ta'limni tashkil etishning ba'zi keng tarqalgan usullari:

O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim: Bu maqsadlarni belgilash, resurslarni aniqlash va o'quv rejasini ishlab chiqish orqali o'z ta'limi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun darsliklar, onlayn kurslar va o'quv materiallari kabi turli manbalardan foydalanishlari mumkin.

Mentorli ta'lim: Bu shaxsning o'rganish taraqqiyoti bo'yicha yo'l-yo'riq va fikr-mulohazalarni taqdim eta oladigan ustoz yoki maslahatchi bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Mentor shaxsga resurslarni aniqlashda, o'quv maqsadlarini ishlab chiqishda yordam berishi va o'quv jarayoni davomida yordam va fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'lim: Bu tadqiqot, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni o'z ichiga olgan loyihani individual ishlab chiqish va yakunlashni o'z ichiga oladi. Loyiha ma'lum bir mavzu yoki ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin va mustaqil ravishda yoki boshqalar bilan hamkorlikda bajarilishi mumkin.

Onlayn ta'lim: Bu mustaqil o'rganish uchun MOOCs (ommaviy ochiq onlayn kurslar), onlayn darsliklar va ta'lim videolari kabi onlayn resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Onlayn ta'lim odamlarga o'z tezligi va o'z jadvali bo'yicha o'qish

imkonini beradi.

Hamkorlikda o'rganish: Bu o'xshash qiziqishlari yoki maqsadlariga ega bo'lgan boshqa o'quvchilar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Birgalikda o'rganish o'quv guruhlari, onlayn hamjamiyatlar yoki norasmiy uchrashuvlar shaklida bo'lishi mumkin, bu erda o'quvchilar resurslarni almashishlari, fikr almashishlari va birlariga fikr bildirishlari mumkin.

Bu barcha holatlarda mustaqil ta'lim o'rganish, maqsadlarni aniqlash va ushbu maqsadlarga erishish uchun resurslardan foydalanish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z ichiga oladi. Bu o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va tavakkal qilish va yangi g'oyalarni o'rganishga tayyorlikni talab qiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun ko'plab ta'lim platformalari mavjud. Mana bir nechta misollar:

Onlayn kurslar: Coursera, Udemy, Khan Academy kabi turli sohalarda onlayn kurslarni taklif qiluvchi turli onlayn platformalar mavjud. Ushbu kurslar o'z-o'zidan va moslashuvchan tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarga o'z tezligida o'qish imkonini beradi.

Ochiq ta'lim resurslari: mustaqil ta'lim uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bepul va ochiq litsenziyaga ega ta'lim resurslari. Bunga misol qilib darsliklar, ma'ruza matnlari va o'quv videolari kiradi.

Ta'limni boshqarish tizimlari: Moodle va Canvas kabi ta'lim muassasalari tomonidan onlayn kurslarni o'tkazish va o'quv resurslarini boshqarish uchun keng qo'llaniladi. Ushbu platformalar kurslar, baholashlar va topshiriqlarni yaratish va boshqarish uchun vositalarni taqdim etadi.

Virtual o'quv muhitlari: Second Life va Minecraft kabilar mustaqil ta'lim olish va hamkorlik qilish uchun muhitni ta'minlaydi. Ushbu platformalar o'quvchi-yoshlarga kontent yaratish va almashish, virtual olamlarni o'rganish va real vaqtda boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

MOOCs: Massive Open Onlayn Kurslari (MOOCs) turli fanlar bo'yicha bepul onlayn kurslarni taklif qiladi. Coursera, Udacity kabi MOOC platformalari eng yaxshi universitetlar va soha mutaxassislarining kurslariga kirish imkonini beradi.

Ijtimoiy ta'lim platformalari: Reddit, Quora va Stack Overflow kabi ijtimoiy ta'lim platformalari o'quvchi-yoshlarga savollar berish, bilim almashish va boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Ushbu platformalar o'rganishga jamiyatga asoslangan yondashuvni ta'minlaydi va ayniqsa o'zini o'zi boshqaradigan o'quvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Boshqa ko'plab ta'lim platformalari mavjud va platformani tanlash shaxsning maqsadlari, afzalliklari va resurslariga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim platformalari bilan ishlash mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali usuli bo'lishi mumkin, chunki ular ta'lim resurslarining keng doirasiga kirishni ta'minlaydi, mustaqil o'rganishni osonlashtiradi va o'quvchilarga o'z ta'lim tajribasini moslashtirishga imkon beradi. Ta'lim platformalari samarali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi usullar:

Keng manbalardan foydalanish: Ta'lim platformalari darsliklar, maqolalar, videolar va boshqa multimediyalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Bu o'quvchilarga turli mavzularni o'rganish va o'z ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan manbalarni tanlash imkonini beradi.

Mustaqil o'rganish: Ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z tezligida va o'z jadvallarida o'qish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, mustaqil va o'z tezligida ishlashni afzal ko'radigan mustaqil o'quvchilar uchun foydalidir.

Moslashtirish: Ta'lim platformalari o'quvchilarga o'zlarining qiziqishlari va maqsadlariga mos keladigan kurslar, manbalar va topshiriqlarni tanlash orqali o'z ta'lim tajribasini moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu yuqori darajada shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasiga imkon beradi.

Moslashuvchanlik: Ta'lim platformalari rejalashtirish va kurs tanlashda yuqori darajadagi moslashuvchanlikni taklif qiladi. Talabalar turli kurslardan tanlashlari va o'z jadvallari bo'yicha o'qishlari mumkin, bu esa o'rganishni boshqa mas'uliyat bilan muvozanatlashni osonlashtiradi.

Interaktivlik: Ko'pgina ta'lim platformalari muhokama forumlari, viktorinalar va interfaol mashqlar kabi interaktiv xususiyatlarni taklif qiladi. Bu xususiyatlar ishtirok etish, fikr-mulohaza va hamkorlik uchun imkoniyatlar taqdim etish orqali o'rganish tajribasini oshirishi mumkin.

Umuman olganda, ta'lim platformalari bilan ishlash mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Biroq, o'quvchilar uchun ushbu platformalarga aniq reja va o'rganish maqsadlari bilan yondashish muhim, chunki mavjud resurslarning keng doirasi juda ko'p bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yuqori sifatli resurslarni izlash va o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotning yo'qligi kabi onlayn ta'limning cheklovlarini yodda tutish muhimdir.

Ta'lim platformalari bilan ishlash mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun keng imkoniyatlarni taklif qilishi mumkin. Ta'lim platformalari taqdim etadigan ba'zi imkoniyatlar:

Yuqori sifatli ta'lim resurslariga kirish: Ta'lim platformalari yuqori sifatli ta'lim resurslarining keng doirasi, jumladan, darsliklar, ma'ruzalar, o'quv qo'llanmalari va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'zlarining o'rganish tajribasini o'zlarining maxsus ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirish uchun turli manbalardan tanlashlari mumkin.

Moslashuvchanlik: Ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z jadvali va o'z tezligida o'qish imkonini beruvchi yuqori darajadagi moslashuvchanlikni taklif etadi. Bu, ayniqsa, boshqa mas'uliyatga ega bo'lgan yoki mustaqil ishlashni afzal ko'radigan o'quvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Moslashtirish: Ko'pgina ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z qiziqishlari va maqsadlariga eng mos keladigan kurslar, manbalar va topshiriqlarni tanlash imkonini beruvchi sozlash variantlarini taklif qiladi. Bu yuqori darajada shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin.

Interfaollik: Ta'lim platformalari ko'pincha muhokama forumlari, viktorinalar va topshiriqlar kabi interfaol xususiyatlarni taklif qiladi, ular ishtirok etish, fikr-mulohazalar va hamkorlik qilish imkoniyatlarini taqdim etish orqali o'rganish tajribasini yaxshilaydi.

Tarmoq: Ta'lim platformalari o'quvchilarga boshqa o'quvchilar va o'z sohasidagi mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatini berishi mumkin. Bu qimmatli aloqalar va hamkorlik uchun imkoniyatlarga olib kelishi mumkin.

Kamroq xarajat: Ta'lim platformalari an'anaviy sinfga asoslangan ta'limga nisbatan o'rganishning tejankor usuli bo'lishi mumkin. Ko'pgina ta'lim platformalari bepul yoki arzon kurslarni taklif qiladi, bu esa an'anaviy ta'lim olish uchun moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan o'quvchilar uchun ta'limni yanada qulayroq qiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalari bilan ishlash o'rganishni osonlashtirish uchun turli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Quyida qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalarga misollar keltirilgan:

Shaxsiy kompyuterlar va noutbuklar: Shaxsiy kompyuterlar va noutbuklar onlayn kurslar va resurslarga kirish uchun muhim vositadir. Ular o'quvchilarga o'quv

materiallaridan foydalanish, onlayn munozaralarda qatnashish va topshiriqlarni bajarish imkonini beradi.

Mobil qurilmalar: Smartfonlar va planshetlar kabi mobil qurilmalar o'quvchilarga moslashuvchanlik va qulaylikni ta'minlaydi. Ular o'quvchilarga yo'l-yo'lakay ta'lim materiallari va resurslaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa o'rganishni yanada qulay va moslashuvchan qiladi.

Ta'limni boshqarish tizimlari (LMS): LMS o'quvchilarga kurs materiallariga kirish, topshiriqlarni topshirish va o'qituvchilar va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish uchun markaziy joyni taqdim etadi. LMSning ba'zi misollari Moodle, Blackboard va Canvasni o'z ichiga oladi.

Video konferentsiya va hamkorlik vositalari: Zoom, Skype va Google Meet kabi video konferentsiya va hamkorlik vositalari o'quvchilarga o'qituvchilar va boshqa o'quvchilar bilan real vaqtda bog'lanish imkonini beradi. Ushbu vositalardan virtual ma'ruzalar, muhokamalar va guruh loyihalari uchun foydalanish mumkin.

Onlayn ta'lim platformalari: Coursera, Udemy va Khan Academy kabi onlayn o'quv platformalari o'quvchilarga keng doiradagi kurslar va resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu platformalar odatda video ma'ruzalar, viktorinalar va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy media va onlayn hamjamiyatlar: Reddit va LinkedIn kabi ijtimoiy media va onlayn hamjamiyatlar o'quvchilarga tengdoshlari va o'z sohasidagi mutaxassislar bilan bog'lanish imkoniyatini beradi. Ushbu platformalardan tarmoqqa ulanish, savollar berish, bilim va resurslarni almashish uchun foydalanish mumkin.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalari qanchalik samarali?

Ta'lim platformalari mustaqil ta'limni tashkil etishda yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin, ammo ularning samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq, masalan, mazmun sifati, kurslar formati, o'quvchining motivatsiyasi va faolligi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan ba'zi omillar:

Yuqori sifatli tarkibga kirish: Yuqori sifatli kontentni taklif qiluvchi ta'lim platformalari o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni egallashda yordam berishda yuqori samarali bo'lishi mumkin. Talabalar yetakchi universitetlar va o'z sohasi mutaxassislarining resurslaridan foydalanishlari mumkin, bu ularga so'nggi tendensiyalar va ishlanmalardan xabardor bo'lishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik va qulaylik: Ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z tezligida va o'z jadvallarida o'qish uchun moslashuvchanlikni taklif qiladi. Bu qulaylik o'quvchilarga o'z ta'limini ish va oila kabi boshqa majburiyatlar bilan muvozanatlashni osonlashtiradi.

Interfaol va qiziqarli kurslar: Interfaol va qiziqarli kurslarni taklif qiluvchi ta'lim platformalari o'quvchilarga g'ayratli va faol bo'lishga yordam beradi. Viktorinalar, interaktiv mashqlar va real vaqtda fikr-mulohazalar kabi xususiyatlar o'quvchilarga yo'ldan borishga va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik: Ko'pgina ta'lim platformalari o'quvchilarga tengdoshlari bilan muloqot qilish va loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini taklif qiladi. Ta'limning ushbu ijtimoiy jihati yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi mumkin va o'quvchilarga yangi tushuncha va istiqbollarni olishga yordam beradi.

Tan olish va sertifikatlash: Ba'zi ta'lim platformalari kurslar yoki dasturlarni tugatish uchun tan olish va sertifikatlashni taklif qiladi. Ushbu hisob ma'lumotlari o'z ko'nikmalari va bilimlarini ish beruvchilar yoki ilmiy muassasalarga namoyish

etishga intilayotgan talabalar uchun qimmatli bo'lishi mumkin.

Ta'lim platformalari bir necha sabablarga ko'ra mustaqil ta'limni tashkil etishda qimmatli vosita bo'lishi mumkin:

Yuqori sifatli tarkibga kirish: Ta'lim platformalari o'quvchilarga etakchi ekspertlar va muassasalarning yuqori sifatli kontentidan foydalanish imkoniyatini beradi. Talabalar turli mavzulardagi resurslarga kirishlari mumkin va ular uchun eng mos formatni tanlashlari mumkin, bu video ma'ruzalar, interaktiv mashqlar yoki o'qishlar bo'ladimi.

Moslashuvchanlik va qulaylik: Ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z tezligida va o'z jadvallarida o'qish uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bu qulaylik o'quvchilarga o'z ta'limini ish va oila kabi boshqa majburiyatlar bilan muvozanatlashni osonlashtiradi.

O'zaro hamkorlik va hamkorlik imkoniyatlari: Ko'pgina ta'lim platformalari o'quvchilarga tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish va loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini taklif qiladi. Ta'limning ushbu ijtimoiy jihati yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi mumkin va o'quvchilarga yangi tushuncha va istiqbollarni olishga yordam beradi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Ta'lim platformalari o'quvchining qiziqishlari va oldingi faoliyatiga asoslangan kurslar va resurslarni taklif qilish uchun algoritmardan foydalangan holda shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etishi mumkin. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv o'quvchilarga qiziqish va motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradi.

Kamroq xarajatlar: Ta'lim platformalari an'anaviy ta'lim shakllariga qaraganda ancha arzon bo'lishi mumkin, ayniqsa an'anaviy universitet yoki kollejdagi o'qishga qodir bo'lmagan o'quvchilar uchun.

Demak, ta'lim platformalari o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish uchun boy resurslar va imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Ular o'quvchilarga o'z tezligi va o'z jadvali bo'yicha o'rganish uchun moslashuvchanlik va qulaylikni taklif qiladi va etakchi mutaxassislar va muassasalarning yuqori sifatli kontentiga kirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафарова Р. Г. Педагогическое сотрудничество как фактор развития и стимулирования творческого мышления учащихся // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2013. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskoe-sotrudnichestvo-kak-faktor-razvitiya-i-stimulirovaniya-tvorcheskogo-myshleniya-uchaschihsya> (дата обращения: 08.05.2022).

2. Сафарова Рохат Гайбиллаевна Пути и факторы оптимизации содержания общего среднего образования на современном этапе // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-factory-optimizatsii-soderzhaniya-obshchego-srednego-obrazovaniya-na-sovremennom-etape> (дата обращения: 08.05.2022).

3. Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).

4. Safarova Rokhat G. Ways of simulating situations that ensure the success of teaching // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах

устойчивого развития. 2014. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-of-simulating-situations-that-ensure-the-success-of-teaching> (дата обращения: 09.05.2022).

5. Safarova Roxat Gaybullayevna The basics of the competence-oriented approach to the content of primary education <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=24432718>

6. Safarova Roxat Gaybullayevna The basics of the competence-oriented approach to the content of primary education // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2015. №13 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-basics-of-the-competence-oriented-approach-to-the-content-of-primary-education> (дата обращения: 09.05.2022).

7. Сафарова, Р. Г. Учащиеся как активные творческие субъекты образовательного процесса в условиях модульного обучения / Р. Г. Сафарова, Н. С. Сабирова // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития : материалы 14-й международной конференции, Санкт-Петербург, 03–05 июня 2016 года. – Санкт-Петербург: Ленинградский государственный университет им. А.С. Пушкина, 2016. – С. 219-222. – EDN XQTQHD.

8. Safarova Rohat Gaybullayevna. Pedagogical tools that serve the development of cultural views in the subjects of the educational process. JCR. 2020; 7(12): 3104-3108.doi:10.31838/jcr.07.12.46915.

9. Safarova, R. G. (2016). b. Classification of pedagogical technologies used in the process of modular teaching in general secondary schools./Methodical manual. T.: State Scientific Publishing House» National Encyclopedia of Uzbekistan.

10. Сафарова, Р. Г. Педагогическое сотрудничество как средство повышения качества учебного процесса/Р.Г.Сафарова// Актуальные проблемы современной науки. – 2013. – № 3(71). – С. 109-111. – EDN QCQWZD.

11. Safarova, R. G., & Yusupova, F. (2012). The functioning of the bilateral friendly relations and cooperation based on the skills of the students theoretical and practical approaches. Tashkent, 116.

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA
YOSHIDAGI BOLALARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH UCHUN TARBIIYACHILARGA QO'YILADIGAN
TALABLAR**

**ТРЕБОВАНИЯ К ВОСПИТАТЕЛЯМ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ
ОСНОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ
ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**REQUIREMENTS FOR EDUCATORS TO IMPROVE THE BASIC
COMPETENCIES OF PRESCHOOLERS BASED ON AN INTEGRATIVE
APPROACH**

Nasimova Nasiba Qurbon qizi

*Buxoro davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha | ta'lim) 1- bosqich tayanch doktoranti n.q.nasimova@buxdu.uz*

Насимова Насиба Курбан кизи

*Бухарский государственный университет Теория и методика образования
и обучения (дошкольное | образование) 1 ступень базовая докторант*

Nasimova Nasiba Kurban kizi

*Bukhara State University Theory and methods of education and training
(preschool | education) 1st stage basic doctoral student*

Annotatsiya: Maqolada integrativ yondashuv orqali maktabgacha yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar haqida yoritib berilgan. Har bir pedagog o'z kasbini yaxshi mutaxassisi bo'lsagina yosh avlodga so'ngi texnologiyalardan foydalangan holda va bir qancha bolalarga tushuntirish oson bo'lgan, bola ongiga tezroq singadigan, shu bilan bir qatorda bolalarni qiziqtiradigan metodlardan foydalanib tarbiyalanuvchilarga ta'lim va tarbiya bera oladi va mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadga to'laqonli erisha oladi. Agar tarbiyachi lavozim yo'riqnomasiga asosan barcha vazifalarini kasbini suygan holda bajarsa albatta yosh avlodni kelagi uchun asosiy tamal toshini qo'ygan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlaydigan har bir pedagog xodim ham albatta bolajon bo'lishi shart va zarur. Chunki bu sohada bolalarni sevgan va bolalarga nisbatan mehribon bo'lgan pedagog xodimgina ishlay oladi va jamiyatga kerakli shaxslarni yetishtirish uchun harakat qiladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishning yangicha usullarini zamon bilan hamnafas holda faoliyat olib borishi bu zamon talabidir. Kompetensiya-bolaning bolim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Integratsiyalashuv printsipi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda yetakchi tamoyil hisoblanmoqda. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi xisoblanadi. Natijada ularda o'zlikni anglash xissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga yechim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglarida faol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi.

Аннотация: В статье освещаются требования к воспитателям по совершенствованию базовых компетенций дошкольников на основе

интегративного подхода. Только в том случае, если каждый педагог является хорошим специалистом в своей профессии, он может воспитывать и воспитывать подрастающее поколение с использованием новейших технологий и с помощью методов, которые легко объяснить большому количеству детей, которые быстрее усваиваются в сознании ребенка, а в то же время интересны детям и могут в полной мере достичь цели обучения. Если воспитатель выполняет все свои обязанности согласно должностной инструкции, он обязательно заложит фундамент будущего молодого поколения. Каждый педагог, работающий в дошкольной образовательной организации, должен быть ребенком. Потому что только педагог, любящий детей и доброжелательный к детям, может работать в этой сфере и работать над воспитанием нужных обществу людей. Для этого в дошкольной образовательной организации является требованием времени внедрять новые методы совершенствования основных компетенций своих воспитанников на основе интегративного подхода. Компетентность – это совокупность знаний, умений, навыков и ценностей ребенка. Грамотный ребенок может мобилизовать и применять свои знания, умения и навыки в конкретной ситуации, добиваться поставленной цели и решать соответствующие возрасту задачи на каждом этапе развития. Принцип интеграции считается ведущим принципом в развитии современной системы образования. Суть принципа интеграции заключается в том, что рассматривается стремление к созданию синтетической, целостной системы знаний, дающей дошкольникам представление о целостном взгляде на мир. В результате они развивают чувство идентичности, социализируются и находят решения проблемных ситуаций. В результате у педагогов дошкольного образования формируется активная гражданская компетентность, основанная на следовании законам общества.

Annotatsiya: The article highlights the requirements for educators to improve the basic competencies of preschoolers based on an integrative approach. Only if each teacher is a good specialist in his profession, he can educate and educate the younger generation using the latest technologies and with the help of methods that are easy to explain to a large number of children, which are quickly assimilated in the mind of the child, and at the same time time are interesting for children and can fully achieve the purpose of learning. If the educator fulfills all his duties in accordance with the job description, he will certainly lay the foundation for the future young generation. Every teacher working in a preschool educational organization must be a child. Because only a teacher who loves children and is friendly to children can work in this area and work on educating people who are needed by society. To do this, in a preschool educational organization it is a requirement of the time to introduce new methods for improving the basic competencies of their pupils based on an integrative approach. Competence is a set of knowledge, skills, abilities and values of a child. A literate child can mobilize and apply his knowledge, skills and abilities in a particular situation, achieve the goal and solve age-appropriate tasks at each stage of development. The principle of integration is considered to be the leading principle in the development of the modern education system. The essence of the principle of integration lies in the fact that it considers the desire to create a synthetic, holistic system of knowledge that gives preschoolers an idea of a holistic view of the world. As a result, they develop a sense of identity, socialize and find solutions to problem situations. As a result, preschool teachers develop active civic competence based on following the laws of society.

Kalit so'zlar: integrativ, tayanch kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, tarbiyachi, konsepsiya, texnologiya.

Ключевые слова: интегративная, базовая компетентность, знание, умение, компетенция, ценность, воспитатель, концепция, технология.

Key words: integrative, basic competence, knowledge, skill, competence, value, educator, concept, technology.

Kirish. Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi hisoblanadi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o'zlikni anglash hissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga yechim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagoglarida faol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan texnika va axborot kamunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik psixologik bilimlarni, o'z ishini chuqur bilishini va yuksak tafakkurini, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar tarbiya shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, tarbiyachilar, hamkasblar, hamda ota – onalar bilan munosabatda muvofaqqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan har bir pedagog o'z kasbini va ma'suliyatini to'g'ri anglagan holda tarbiyalanuvchilarga to'g'ri ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi va tarbiyalanuvchilarga tayanch kompetensiyalari rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Qachonki tarbiyachi kasbining mutaxassisi bo'lsagina ya'ni kasbiy savodxonlikga ega bo'lsagina tarbiyalanuvchilarga yetarli bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantira oladi.

Metod. Ta'lim metodi- o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida usullar tizimini tavsiflaydi. Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-boschiq amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardansamaralari, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning birlariga qo'shilishi hamda bir butunga aylanishi demakdir. M.G. Chepikov o'zining «Integratsiya nauci» kitobida integratsiya so'zi asosida integral yotishini asoslab bergan. Shu sababli biz integratsiya ta'riflariga to'xtalishni lozim topdik. «Integratsiya» atamasi nisbatan yangi bo'lib, mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. Integratsiya– juda keng ma'noli tushuncha. Bugungi kunga kelib, kishilar o'qitishda integratsiya jarayonining mohiyatini, uning rivojlantiruvchi funksiyalarining amalda qo'llanilishi, sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarni hal qilish va yerda hayotni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda, unga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ayniqsa, osh avlodning ilmiy dunyoqarashini, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda, ta'limda integratsiya jarayonining muhimligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda. Ta'limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona barqaror umumlashgan-yaxlit bilimni hosil qilish degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar

turlicha bo'lib, bu ta'riflarning umumiylik tomoni: integratsiya-bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun ob'ekt sifatida qarashga erishishdan iborat.»Integratsiya» tushunchasi, bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o'z qo'lyozmalarida qo'llanilgan

Kompetensiya-bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi.

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O'qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Mulohaza. Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi XX-asrda ko'rib chiqilgan, ammo ushbu innovatsion kontseptsiya amalda faqat XXI-asrda paydo bo'lgan.

Jamiyatning jadal rivojlanish sur'atlari tufayli bolalar bog'chalari va maktablari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar.

Federal davlat ta'lim standarti joriy qilinganidan keyin maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi.Jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun to'laqonli ijtimoiylashishga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanib, maktabning barcha darajalarida davom etishi kerak. Bunday jarayon bolalar tomonidan kerakli miqdordagi siyosiy va iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy voqelikdagi ko'nikmalardan, harakatchanlikdan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.Yaqinda maktablarga ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlar qatorida axborot texnologiyalarini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Ta'lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish axborotdan to'siqsiz foydalanish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyali yondashuvning asosiy maqsadi bolalarda boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bunday rivojlanish faoliyatining yakuniy natijasi nafaqat standart muammolarni yechish, ma'lum bir algoritim asosida harakat qilish qobiliyati, balki asosiy kompetensiyalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi jiddiy va o'z vaqtida qaror qabul qilishga qodir bo'lgan ijodiy, faol shaxsni rivojlantirishdir. Albatta bunday tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu yondashuvning dolzarbligi nafaqat ma'lum mahorat, ko'nikma, bilimlarni o'zlashtirishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham.

Tarbiyalanuvchilarga bilim berish tarbiyachilarning vaholanki barcha pedagoglarning mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino pedagogning shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish

zarur.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchining, ichki dunyosiga kira olishi, bola shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan

psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday pedagog bolaning ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

Tarbiyachida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu tarbiyachining kasbi uchun juda muhimdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, barcha pedagoglar va maktabgacha ta'lim rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'ururini bolalarga bab-baravar bo'lib berishi, xonada do'stona muhitni yaratish va bolalarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuchrag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- Tarbiylanuvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi lozim;

Tarbiyalanuvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini yengishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilishi lozim.

Barchamizga ma'lumki, shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog'liqligi yaqqol ko'rinib turipti. Tarbiyachi jamiyatda o'z o'rni va ahamiyatini rivojlantirishda uning o'z faoliyati davomida egallagan bilim ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Slástelin tarflashicha, pedagogik qobiliyat shaxsning kasbiy yo'nalishidagi yuqori ko'rinishi bilan har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Tarbiyachilik kasbiy bilimlarining xususan pedagogik psixologik bilimlarining yetishmasligi yoki uning rad etilishi va hatti – harakati unga yetarlicha e'tibor bermaslik ko'pgina hollarda tarbiyachi tayyor materiallardan foydalanib o'z ustida izlanishlarni to'xtatib qo'yadi. Bu esa tarbiyachi shaxsiga nisbatan bilimsizlik darajasini olib keladi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining jamiyatda o'z o'rnini egallash uchun doimiy ravishda fanlarni mutoala qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmogi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi." Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi o'zi yashab turgan tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi darkor. Shuningdek, pedagog tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tamonlama rivojlantirish muvaffaqiyatni amalga oshirishga imkon beradi. L.Y.Kolnmskiy o'z tadqiqotida tarbiyachining bolalarga munosabati so'ssiz tarbiyachi mehnati muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o'ynashi hamda pedagogik mahoratning muhim tamoni bo'lib hisoblanishini ta'kidlagan edi. Uning fikricha tarbiyachi bilan bolalarning o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayon xarakteriga bog'liqdir. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: «Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari

bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga bazan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak va uni amalda qanday qo'llashni ham anglashi darkor.

Xulosa va tavsiyalar. Maktabgacha tarbiya tashkilotida vakolatga asoslangan yondashuv doirasida tarbiyachilar bolalar uchun syujetli va rolli o'yinlarni ishlab chiqadilar, ularga asosiy vakolatlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan turli xil tadbirlarni taklif qiladilar

Mamlakatimizda olib borilayotgana'lim tizimining o'z il va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi. Zamonaviy ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoitlar va yurtboshimiz yaratgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish barcha pedagoglarning zimmasiga yuklatilgan. Har bir inson qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iyy nazar o'z kasbini sevishi va astoidil bajarishi lozim. Shundagina rivojlanayotgan mamlakatimizning ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Ta'limdagi kompetensiyali yondashuv - bu fuqaro va vatanparvarni shakllantirishning bir variantidir. Kompetentlik - bu bilimlarni namoyon etishning o'ziga xos turi bo'lib, shaxsning umumiy intellektual rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak atrofni ob'ektiv baholay bilish imkonini beruvchi aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmi, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilish ko'nikmasining shakllanganligida o'z ifodasini topadi. Xorijiy adabiyotlar tahlilida, kompetentlik "chuqur bilimlar egasi", "murakkab masalalarni yechish qobiliyati", "o'z paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati" kabi ma'nolarni anglatadi. Kompetentlik o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . A. Rajabova, M.B. Abduzaxidova, Q. SH. Begaliyev "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim tizimi samaradorligi va kreativligini takomillashtirish". Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings. Volume 1, 1st October 2022

2. Толипов Ф.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. –Т.: Фан, 2006

3. Nasimova Nasiba Kurban kizi, Kasimova Manzura Abdullayevna. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1733>

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING
ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI**

*Omonova Rayxon Raxmatillayevna,
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda zamonaviy darsga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan o'z o'rnida va oqilona foydalanishdir. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktab Tasviriy san'at fanida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan foydalanishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to'liq o'rnatilmagan. Elektron darslik yoki o'quv qo'llanmasi deganda keng ma'noda axborotning yangi avlodi, an'anaviy darsliklarning afzalliklarini kompyuter texnologiyasi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, o'quv axborotlarning ko'p variantli (musiq, suxandon ovozi, matn, tasvir, multimedia) didaktik tizimini tushunamiz.

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

*Омонова Райхон Рахматиллаевна,
преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и инженерная
графика» Термезского государственного университета*

Аннотация: В настоящее время к современному уроку предъявляются большие требования. Одним из таких требований является уместное и разумное использование информационных технологий и электронных пособий в ходе урока. Однако практические и теоретические основы использования информационных технологий и электронных учебных пособий в предмете изобразительного искусства общеобразовательной школы до конца еще не созданы. Электронный учебник или учебное пособие в самом широком смысле представляет собой информацию нового поколения, которая позволяет сочетать преимущества традиционных учебников с компьютерными технологиями, многовариантной (музыка, аудио, текст, изображение, мультимедиа) понятной дидактической системой.

**PROBLEMS OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF
STUDENTS USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN FINE ARTS
LESSONS**

*Omonova Raykhon Rakhmatillayevna,
is a teacher of the Department of «Fine Art and Engineering Graphics» of
Termiz State University*

Abstract: Nowadays, there are great demands on the modern lesson. One of these requirements is appropriate and reasonable use of information technology and electronic manuals in the course of the lesson. However, the practical and theoretical foundations of the use of information technology and electronic manuals in the subject of visual arts of the general secondary education school have not yet been fully established. Electronic textbook or study guide in the broadest sense is a new

generation of information, which helps to combine the advantages of traditional textbooks with computer technology, multivariate (music, audio, text, image, multimedia) we understand the didactic system.

O'quvchilarning grafikaviy tayyorgarligi takomillashuvi so'nggi yillardagi ilg'or g'oyalar asosida ta'limni qayta qurishning qanchalik tez va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Umumta'lim maktablarida hozir yangi dasturlar bo'yicha ish izchil tashkil etilgan, yangi avlod darsliklari yaratish ustida mutaxassis olimlar ish olib bormoqdalar. Endi esa o'qitish metodlarini yanada takomillash asosiy masalalardan biridir. Bu yo'nalishdagi izlanishlarning zarurligi, birinchidan hozirgi zamon darsiga, o'qituvchilarning ilmiy metodik tayyorgarligiga bo'lgan talablarning ortayotganligidan bo'lsa, ikkinchidan so'nggi yillarda metodik yangiliklarni didaktik nuqtai nazardan o'qituvchilarning baholay olishiga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlash mumkin.

Taniqli amerikalik olim A.Beytening yozishicha, ta'lim tizimida axborot uzatishning beshta asosiy usuli mavjud: 1) kishilarning o'zaro jonli muloqoti (verbal); 2) matn (grafik tasvir bilan birgalikda); 3) radio; 4) televideniya 5) kompyuter. Bular orasida keng imkoniyatga ega bo'lgan usul kompyuter texnologiyasi bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim egallashga yetaklaydi. Shu munosabat bilan respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktabida Tasviriy san'at ta'limi jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish haqida to'xtalamiz.

Kompyuter texnikasi tasvirlarini almashtirish jarayonida bajariladigan grafik amallarni animatsiyali tasvirlar yordamida ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarning abstrakt tushunchalarni oson o'zlashtirishlariga ko'maklashadi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san'at va chizma geometriya fanida proyeksiyalash bilan bog'liq jarayonlarni kompyuterda harakat (animatsiya)li vositalardan foydalanish orqali o'qitishning samaradorligi oshishiga erishildi. Bu fanlardan amaliy mashg'ulotlar «Yamaha» kompyuteri yordamida «Beysil» tilida yozilgan dasturlar asosida olib borildi va bo'lajak o'qituvchilar maktabda Tasviriy san'atni o'qitishda kompyuterdan foydalana olishga tayyorlana boshlandi. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktabida Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik jihatlari haligacha tadqiq qilinmagan.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda respublikamizda ilm-fanning jadal taraqqiy qilishi va bilimlarning tez yangilanishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining barcha soha, jumladan, ta'lim jarayonida tadbiq etilishi, kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari fikrimizning dalilidir. Hozirgi kunda zamonaviy darsga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan o'z o'rnida va oqilona foydalanishdir. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktab Tasviriy san'at fanida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan foydalanishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to'liq o'rnatilmagan. Elektron darslik yoki o'quv qo'llanmasi deganda keng ma'noda axborotning yangi avlodi, an'anaviy darsliklarning afzalliklarini kompyuter texnologiyasi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, o'quv axborotlarning ko'p variantli (musiq,

suxandon ovozi, matn, tasvir, multimedia) didaktik tizimini tushunamiz. Elektron qo'llanma maxsus senariy asosida tayyorlanadi. Didaktik tizimli elektron darslik bir nechta tarkibiy qismlardan iborat.

Musiqqa- elektron darslikning alohida qismi bo'lib, elektron darslikning mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, unga uyg'unlashgan musiqa tanlanadi.

Matn- har bir elektron darslik, albatta, tegishli mant bilan berilishi, unda o'quvchi bilib oladigan ilmiy tushunchalarning ta'rifi ixcham va lo'nda ifodalanishi, har bir paragrafqa aloqador sarlavhalar ostida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tayanch tushunchalarning tarifi berilishi kerak.

Suxandor so'zi- har qanday o'quv fanidan ishlab chiqariladigan elektron darsliklarda suxandon ovozidan foydalaniladi, ammo uning so'zi matnni aynan takrorlanmasligi kerak. Agar o'quvchi suxandonning so'zini bir eshishda tushunmasa, uni takror tinglash imkoni bo'lishi lozim.

Video tasvir - har qanday elektron darslikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tasvirlar ikki yoki har xil rangli qilib tayyorlanishi, u matndagi ilmiy va boshqa tushunchalarning mohiyatini ochib berishi, matn bilan ko'rgazmaning uyg'unligini ta'minlashi va darslikka kiritiladigan mohiyatini ochib berishi, matn bilan ko'rgazmaning uyg'unligini ta'minlashi va darslikka kiritiladigan ko'rgazmali (illustrativ) materiallarga qo'yilgan barcha texnik va didaktik talablar darajasida bo'lishi lozim. Har bir tasvir matn ifodalangan betda joylashishi kerak, aks holda o'quvchining fikri chalg'ishi mumkin.

Multimedia bu elektron darsliklarning xarakterli xususiyatlaridan eng muhimi, u harakatning mavjudligini ifoda etadi, aks holda o'quvchining fikri chalg'ishi mumkin.

Harakat (animatsiya) esa multimedia, multiplikatsiya usullaridan foydalanib amalga oshiriladi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni, masalan, fizikadan ichki yonuv dvigateli silindridagi porshenning harakati, astronomiyadan kunning tunga aylanishi yoki Tasviriy san'atdan proyeksiyalash usullari, kesim va qirquqlar, tasvirlarni almashtirishga oid mavzular ko'rsatmalilikka, ayniqsa, multiplikatsiyaga muhtoj.

Multiplikatsiya - bu harakatni sekin-asta ayrim qismlarga ajratib, kerak bo'lsa kadrni to'xtatib hodisa va jarayonlar namoyish qilinadigan uslub bo'lib, uni multfilmga qiyoslash mumkin.

Mazkur usulning afzallik tomoni shundaki, biror jarayonning mohiyatini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan hollarda, ya'ni abstrakt tushunchalarni o'quvchilar tomonidan osonroq tushunib olishlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, elektron darslik musiqa, matn, suxandon so'zi, rangli tasvirlar, multimediani o'z tarkibiga mujassamlashtirgan zamonaviy didaktik tizimdir. Ammo bunday darslikda hamma komponentlar ishtirok etishi kerak, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Chunki u foydalanish usuliga ko'ra matnli ma'lumotnoma xarakteridagi yoxud maktab darsligining jonlantirilgan elektron variantlari kabi bir qancha turlarga bo'linishi mumkin. Ammo an'anaviy darslikning elektron versiyasini elektron darslik deb tushunmaslik kerak. Elektron o'quv qo'llanmalarining barcha turlari uchta asosiy belgi bilan xarakterlanadi.

O'quv materiallari kichik qismlarga (ma'lum miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan hamda mantiqiy jihatdan tartib bilan joylashtirilgan paragraflarga) bo'linishi, bundan oldingi bo'limni bilmay turib keyingisiga o'tmaslik.

Har bir paragraf oxirida o'quvchining materialni qanday o'zlashtirganligini aniqlash uchun sinov savollarning qo'yilishi, o'quvchi bu savolga tezlik bilan javob bera olishi, aks holda u keyingi paragraflardagi ma'lumotlarni o'zlashtira olmasligi.

O'quvchi sinov savoliga javob berganidan keyin uning to'g'ri yoki noto'g'riligini darhol sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi, savollar axborotning tub ma'nosini ochib berishi uchun o'quvchini o'ylashga va mustaqil xulosalar chiqarishga majbur qilishi, boshqacha aytganda, o'quvchi bilim va malakalarini ongli ravishda egallashi uchun o'z bilimi haqida kompyuterdan signallar olib turishi va shu yo'l bilan o'z xarakterini boshqarishi kerak.

O'quv axborotlarni izlab topish erkinligi bilan (matnni o'qish, uning ustida ishlash, axborotlarning boshqa manbalariga chiqishi va hokazo) elektron darslik an'anaviy darsliklardan farq qiladi. Shu boisdan elektron darslikning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlariga qarab unga ta'limning interfaol vositasi sifatida qaraladi. Ayrim fanlardan maktab darsligi chiziqli usulda yoziladi. Buning ma'nosi shuki, masalan, birinchi betdagi matn ikkinchi betda qaytarilmaganidek, axborotlar ketma-ket joylashtiriladi, ular takrorlanmaydi. Elektron darslikda esa, o'quv materiallari muayyan boshqariladigan bloklarga bo'lib konsektrik usulda beriladi.

Konsentrik tizimda yozilgan darslikda o'quv materialining alohida qismlariga bir necha marta murojaat qilinishi mumkin. Bu, albatta, o'tilganlarni takrorlash degan gap emas, balki mavzuga kompleks yondashgan holda uni chuqurlashtirish, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarni faollashtirish demakdir. Elektron darslik o'zining interfaol xususiyati bilan an'anaviy darslikdan farq qiladi.

Har bir o'qituvchida elektron darsliklarni qaysi fanlardan, qaysi hajmda foydalanish mumkin, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Elektron darslik maktabda o'qitiladigan ko'pchilik o'quv predmetlaridan, ayniqsa, Tasviriy san'atdan yaratilishi zarur. Chunki o'quv predmetining xususiyatiga ko'ra Tasviriy san'at ko'rgazmalilikka, ya'ni abstrakt tafakkurning rivojlantirilishiga juda muhtoj. Elektron darslik biror o'quv predmetining to'la kursini qamrab olishi yoki abstrakt tafakkurni oydinlashtirish zarur bo'lgan ayrim materiallarni, multimedia (animatsiyali kadrlar) versiyasini o'z ichiga olishi mumkin.

Har qanday elektron darslikka xos xususiyat quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida teskari aloqaning ta'minlanishi

(kompyuterdan o'quvchiga yuboriladigan axborot oqimi to'g'ri aloqa, o'quv materialini o'zlashtirishdagi kompyuterga kiritiladigan axborot teskari aloqa deyiladi);

- o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini oshirishi;
- axborotlarni turli manbalardan qidirish mumkinligi;
- o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarni modellash mumkinligi;
- jamoa va yakkama- yakkaga o'qitishda undan foydalanish mumkinligi;
- ta'limda o'quvchilarni testdan o'tkazish imkoniyatlarining kengligi
- ta'limning interfaol usul va metodlarning mavjudligi.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyasi shu darajada rivojlanib ketdiki, hali amaldagi kompyuterlardan foydalanishga ulgurmay "Pentium-4" rusumli zamonaviy kompyuterlar paydo bo'la boshladi. Natijada respublika maktablarida foydalanilayotgan "Agat", "Praves", "Yamaxa" va boshqa xildagi kompyuterlarni zamonaviy kuchli kompyuterlar siqib chiqarmoqda. Keyingi yillarda multimedia va elektron proyektorlarning paydo bo'lishi kompyuter grafikasiga yangicha yondashishga va Tasviriy san'at darslarida bu texnikadan foydalanishni taqazo etmoqda. Ayniqsa, 8-sinfda proyeksiyalash usullari, ko'rinishlarni chizish, yaqqol tasvirlash yasashda kompyuterdan foydalanish mavzu mohiyatini ochib berish bilan birga darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi. 9-sinfdagi qator o'quv materiallari, jumladan, kesimlar, ularning tasnifi, kesimlarni hosil qilish, qir-qimlar

bo'yicha hamma mavzularni multimedidan foydalanib o'tishga har doim ham ehtiyoj sezilgan va shu sababli kesim va qirqimlar mavzularini multimedia vositasida o'qitishga e'tibor qaratildi.

8-9- sinfda darslarni kompyuterdan foydalanib rejalashtirishda manba sifatida 2016-yilda "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan A. Umronxo'jayevning "Tasviriy san'at-8" va "Tasviriy san'at-9" darsligidan foydalanishga harakat qilindi. 8-sinf Tasviriy san'at darsligi olti bobdan iborat bo'lib, so'z boshi, Tasviriy san'atka kirish, geometrik yasashlar multimediani talab qilmaydi. Chunki bu mavzular birinchidan, tavsifiy xarakterga ega, ikkinchidan, ularning ko'pchilik qismi texnologiya sohasiga kiruvchi texnik mehnat va matematika darslarida ko'rib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
9. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
10. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
11. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
12. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
13. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
14. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

QISHLOQ MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

*Qodirov Jo'rabek Mamatismonovich,
Namangan davlat universiteti doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish muammo va yechimlari borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarni rivojlantirish ularning umumiy salomatligi va farovonligi, shuningdek, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun muhimdir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qishloq maktab o'quvchilariga jismoniy faollik bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratishga, jismoniy faollik va sport bilan muntazam shug'ullanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: qishloq maktab o'quvchilari, jismoniy sifat, rivojlantirish, yangicha yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida umumiy o'quv soatlari doirasida jismoniy tarbiya fani barcha sinflarda haftada 2 soatdan o'qitish yo'lga qo'yilishi belgilangan.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlardan to'g'ri foydalanish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligiga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori bo'lishi jismoniy tarbiya dasturi materiallarining o'zlashtirilishiga va sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi.

Umumta'lim maktablaridagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tayyorgarlikni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning yoshiga, rivojlanishiga va jinsiga qarab me'yorlangan mashqlardan, harakatli o'yinlardan foydalanish samarali ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni shakllantirish zarur.

Jismoniy faollik va jismoniy mashqlar bolalarning umumiy salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir, chunki ular kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik va muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, muntazam jismoniy faollik qishloq joylarda keng tarqalgan semizlik, qandli diabet va yurak xastaliklari kabi surunkali kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qishloq maktab o'quvchilariga jismoniy faollik bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi va ularda butun umr davomida jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanish odatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarni rivojlantirish jamoaviy ish, muloqot va etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijtimoiy manfaatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Qolaversa, qishloq joylarida ko'pincha sport inshootlari va dasturlari mavjud emas, bu esa bolalarning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini qiyinlashtirishi mumkin. Binobarin, qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarni rivojlantirish bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga, qishloq jamoalarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ulardan ba'zilari:

Cheklangan joy va imkoniyatlar: Qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darslari uchun joy va imkoniyatlar cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa bir qator mashg'ulotlar

va mashqlar bilan ta'minlashni qiyinlashtiradi.

Ob-havo sharoiti: Qishloq joylarda ob-havo sharoiti oldindan aytib bo'lmaydigan va ekstremal bo'lishi mumkin, bu esa ochiq havoda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazishni qiyinlashtiradi.

Masofa va transport: Qishloq maktablari sport inshootlari yoki boshqa manbalardan uzoqda joylashgan bo'lishi mumkin, bu esa jismoniy tarbiya darslari uchun ushbu manbalardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Tayyorlangan murabbiylarning cheklanganligi: Qishloq maktablarida malakali murabbiylar va jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sifatini va o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Xavfsizlik masalalari: Qishloq joylarda yovvoyi tabiat yoki qo'pol erlar kabi noyob xavfsizlik muammolari bo'lishi mumkin, bu esa jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishni qiyinlashtirishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar va siyosatchilar texnologiyani jismoniy tarbiya darslariga kiritish yoki qo'shimcha resurslar va yordam berish uchun jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish kabi innovatsion echimlarni ko'rib chiqishlari kerak. Bundan tashqari, qishloq maktablarida murabbiylar va jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish madaniyatini oshirish uchun mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik qilish uchun harakat qilish kerak bo'lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish orqali qishloq maktablari o'quvchilari o'zlarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish va umumiy salomatligi va farovonligini yaxshilash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bir qancha yangi yondashuvlar mavjud:

Ochiq havoda ta'lim: Ochiq havoda ta'lim dasturlari o'quvchilarga tabiiy muhitni o'rganish paytida jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini berishi mumkin. Faoliyatlar yurish, lager va ochiq o'yinlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ko'p sport dasturlari: Ko'p sport dasturlari o'quvchilarga turli jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradigan turli jismoniy mashg'ulotlarni taqdim etishi mumkin.

Texnologiyaga asoslangan jismoniy tarbiya: Texnologiyaga asoslangan jismoniy tarbiya dasturlari o'quvchilarni jismoniy faollikka jalb qilish va taraqqiyotni kuzatish uchun taqiladigan qurilmalar, virtual haqiqat va mobil ilovalar kabi vositalardan foydalanishi mumkin.

Jamoa hamkorligi: Mahalliy sport jamoalari yoki dam olish markazlari kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qishloq maktab o'quvchilariga jismoniy faollik uchun qo'shimcha resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Darslararo jismoniy tarbiya: Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar, masalan, tabiatshunoslik yoki matematika bilan integratsiyalash talabalarga jismoniy tarbiyaga yanada yaxlit va fanlararo yondashuvni ta'minlaydi.

Ushbu yangi yondashuvlar qishloq maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar, masalan, imkoniyatlarning cheklanganligi va sport inshootlaridan uzoqligi kabi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuvlar qishloq jamoalarida jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanish madaniyatini oshirishga yordam beradi, bu esa qishloq maktab o'quvchilarining salomatligi va farovonligi uchun uzoq muddatli foyda keltirishi mumkin.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga yangi yondashuvning samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bir necha shakllari mavjud:

Maktabdan tashqari sport to'garaklari: Maktabdan tashqari sport to'garaklari o'quvchilarga oddiy darsdan tashqarida sport bilan shug'ullanish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish imkoniyatini berishi mumkin.

Jamiyat sporti dasturlari: Jamoaviy sport dasturlari qishloq maktab o'quvchilariga sport inshootlari va murabbiylardan foydalanish, shuningdek, sport ligalari va turnirlarida qatnashish imkoniyatini beradi.

Faol ta'lim: Faol o'rganish yondashuvlari jismoniy faoliyatni an'anaviy sinfdagi ta'limga kiritishi mumkin, masalan, akademik tushunchalarni mustahkamlash uchun harakat yoki jismoniy o'yinlardan foydalanish.

Tabiatga asoslangan jismoniy tarbiya: Tabiatga asoslangan jismoniy tarbiya dasturlari jismoniy faollik va atrof-muhit haqida xabardorlikni oshirish uchun piyoda yurish yoki bog'dorchilik kabi ochiq havoda mashg'ulotlarni jismoniy tarbiya darslariga kiritishi mumkin.

Virtual jismoniy tarbiya: Virtual jismoniy tarbiya dasturlari o'quvchilarga interaktiv va qiziqarli jismoniy tarbiya tajribasini taqdim etish uchun virtual haqiqat yoki mobil ilovalar kabi texnologiyalardan foydalanishi mumkin.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yondashuvning ushbu yangi shakllari cheklangan joy va inshootlar, ob-havo sharoiti, sport inshootlaridan uzoqlik muammolarini hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, ular qishloq jamoalarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashishi va o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun bir qator jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlarini ta'minlashi mumkin. Ushbu yangi yondashuv shakllarini jismoniy tarbiya dasturlariga kiritish orqali qishloq maktab o'quvchilari o'zlarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, umumiy salomatlik va farovonlikni yaxshilash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bir qancha yangi yondashuvlar mavjud:

O'yinga asoslangan ta'lim: o'yinga asoslangan ta'lim jismoniy faoliyatni o'rganishga kiritish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu yondashuv bolalarni o'yin va harakat orqali o'rganishga undaydi, bu ularning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi.

Aql-tana amaliyotlari: Yoga, tay chi va meditatsiya kabi aqliy tana amaliyotlari bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga, shuningdek, aqliy va hissiy farovonligini yaxshilashga yordam beradi. Bu amaliyotlar, ayniqsa, an'anaviy sport inshootlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan qishloq joylarida foydali bo'lishi mumkin.

Birgalikda o'rganish: Hamkorlikdagi ta'lim yondashuvlari jismoniy faoliyatni o'z ichiga olgan holda jamoaviy ish, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu yondashuv guruh o'yinlari yoki hamkorlik va jamoaviy ishlashni talab qiladigan jismoniy qiyinchiliklarni o'z ichiga olishi mumkin.

Fitnes va salomatlik bo'yicha ta'lim: o'quv dasturiga fitnes va salomatlik bo'yicha ta'limni kiritish bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, sog'lom odatlar va turmush tarzini targ'ib qiladi. Ushbu yondashuv ovqatlanish, jismoniy mashqlar va stressni boshqarish bo'yicha darslarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Shaxsiylashtirilgan ta'lim usullaridan jismoniy tarbiya dasturlarini har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirish uchun foydalanish mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarga tanlash uchun bir qator jismoniy mashqlar bilan ta'minlash yoki ularning qobiliyatlari va maqsadlariga qarab individual fitnes rejalarini yaratishni o'z ichiga olishi mumkin.

Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ushbu yangicha yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda, pedagoglar cheklangan joy va inshootlar, ob-havo sharoiti, sport inshootlaridan uzoqlik kabi muammolarni hal qilishda yordam berishi mumkin. Ular, shuningdek, qishloq jamoalarida jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanish madaniyatini oshirishga yordam berishi va o'quvchilarga jismoniy fazilatlarini rivojlantirish va umumiy salomatligi va farovonligini oshirish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маъмуров Б. Б. Нравственно-эстетическое воспитание учащихся средствами литературных произведений / Б. Б. Маъмуров // Освіта та розвиток обдарованої особистості. - 2018. - № 4. - С. 32-34.

2. Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш. Монография. Т."Фан". 2017. 144 б.

VIRTUAL LABORATORIYALAR VA O'QUV SIMULYATORLARI: AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR

Rahmonov Ikromjon Usmonovich

*Toshkent davlat texnika universiteti "Elektr ta'minoti" kafedrası mudiri, texnika
fanlari doktori, dotsent*

Niyozov Numon Nizomiddinovich

Toshkent davlat texnika universiteti "Elektr ta'minoti" kafedrası dotsenti, PhD

Nematov Laziz Alisherovich

*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti "Energetika" kafedrası katta
o'qituvchisi*

Anotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlaridan foydalanish imkoniyatlari, afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlari hamda o'quv multimedia majmualaridan foydalanish talabalarda mutaxassislik fanlaridan bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishi asoslanadi.

Анотация. В данной статье рассматриваются возможности, преимущества и недостатки использования виртуальных лабораторий и учебных тренажеров в высших учебных заведениях. Он основан на том, что использование виртуальных лабораторий и учебных тренажеров, а также учебных мультимедийных комплексов повышает уровень знаний, навыков и квалификации обучающихся по профильным предметам.

Abstract. This article examines the possibilities, advantages and disadvantages of using virtual laboratories and educational simulators in higher education institutions. It is based on the fact that the use of virtual laboratories and educational simulators, as well as educational multimedia complexes, improves the knowledge, skills and qualifications of students in specialized subjects.

Ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri xodisalar va jarayonlarni kompyuterda modellashtirishdir. Kompyuter modellari an'anaviy darsning tarkibiga hamohang bo'lishi va o'qituvchiga kompyuter ekranida, ko'pgina effektlarni namoyish etishga, o'quvchilarning yangi, noan'anaviy o'quv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. Rivojlangan iqtisodiy bilimlar va axborot jamiyatiga o'tish umr bo'yi izchil (uzluksiz) ta'lim olish konsepsiyasiga asoslanadi. Bu jarayonda muhim rol, so'zsiz, elektron ta'limga ajratilgan. Tarmoqda turli xil axborot va ta'lim resurslaridan bepul foydalanish, web 2.0 texnologiyalari yordamida taqdim etilgan, ijtimoiy o'zaro aloqalarning yangi tipidan foydalanish mumkin. Aniqki, tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari ta'lim boshqaruvida innovatsion yondoshuvlarni talab qiladi [1-4].

Bugungi kundav ta'lim sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek murakkab modernizatsiya, shuningdek, nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda alohida e'tibor beradigan asosiy masalalardan biridir. Shuni yodda tutish kerakki, agar ular mavjud o'quv texnologiyalarini samarali to'ldirsa yoki an'anaviy ta'lim shakllari bilan taqqoslaganda, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish oqilona bo'ladi. Masalan, energetika sohasida virtual laboratoriya ishlaridan

foydalanish laboratoriya ishlarini yanada qiziqarli qilib, ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi [3, 4, 2, 6].

Virtual — (Virtualis - mumkin bo'lgan) - xayoliy ob'ekt yoki haqiqatdan mavjud bo'lmagan, lekin ma'lum sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat. Axborot texnologiyalari ta'sirida «virtuallik» atamasi virtual reallik bilan bog'liq yangi mazmun kasb etdi. «Virtuallik» bu holatda haqiqiy va xayoliy qurilgan (virtual) dunyo o'rtasidagi farqni yo'qotadigan ma'lum bir holat sifatida tushuniladi.

A. V. Truxin ma'lumotlariga ko'ra, virtual laboratoriya – tajribalarni laboratoriyada qo'llaniladigan haqiqiy (real) asbob-anjomsiz o'tkazish imkonini beruvchi dasturiy-apparat majmuasidir. Bunda, birinchidan tarkibida real laboratoriya, apparat va dasturiy ta'minot shuningdek, aloqa vositalarini o'z ichiga olgan masofaviy laboratoriya, ikkinchidan barcha jarayonlar kompyuter yordamida simulyatsiya qilinishi tushuniladi.

Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlari o'quv jarayoning qariyb barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qo'llanilishi mumkin. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon alternativa ekanligidadir. Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror bir fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'lar tejashiga, balki ularga umuman ehtiyoj ham tug'dirmaydi. Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkon beradi.

Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlaridan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan bilimlarini virtual bo'lsada hayotga tadbqiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadbqiqotlarning rivojlanishiga bevosita xissa qo'shadilar. Bundan tashqari o'sha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o'z xissalarini qo'shishlari mumkin. Bu o'z o'rnida talabalarni faqatgina “tinglovchi” vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida talabalarda o'qish va tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga olib keladi.

Virtual laboratoriyalarning asosiy afzalliklari:

1) Virtual laboratoriya uchun qimmatbaho uskunalar va reagentlarni sotib olishning hojati qolmaydi. Ko'plab laboratoriyalarda mablag' yetarli emasligi tufayli tajriba natijalarini buzib ko'rsatadigan va talabalar uchun potensial xavf manbai bo'lib xizmat qiladigan eski uskunalar mavjud. Bundan tashqari, kimyo kabi sohalarida, masalan, asbob-uskunalaridan tashqari sarf materiallari (reagentlar) ham talab qilinadi, ularning narxi ancha yuqori.

2) Virtual laboratoriyada real laboratoriya sharoitida o'tkazib bo'lmaydigan jarayonlarni modellashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda, kompyuter ekranida visual tasvirlash imkoniyati to'g'iladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari qo'shimcha texnologiyadan foydalanmasdan real sharoitda ajratish qiyin bo'lgan jarayonlarni, masalan kuzatilayotgan zarrachalarning kichikligi sababli, kuzatish imkonini beradi.

3) Virtual laboratoriyada o'tkaziladigan laboratoriya jarayonlarning nozik joyiga kirib borish (kuzatish) va turli vaqt o'lchami (masshtabi)da sodir bo'layotgan

voqealarni kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi (bu soniyaning bir necha qismida yoki aksincha, bir necha yil davom etadigan jarayonlar uchun dolzarb).

4) Xavfsizlik. Xavfsizlik virtual laboratoriyalardan foydalanishning muhim afzalligi hisoblanadi, masalan yuqori tok kuchi yoki kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan ishlar bajarilganda.

5) Virtual jarayon kompyuter tomonidan boshqarilishi sababli kirish parametrlarining turli qiymatlariga ega bo'lgan qator tajribalarni tezda o'tkazish mumkin, bu esa ko'pincha kirish parametrlariga chiqish parametrlarining bog'liqliklarini aniqlash uchun zarurdir.

6) Natijalarni elektron formatga kiritish uchun vaqt va resurslarni tejash. Ba'zi ishlar bir qator tajribalardan so'ng kompyuterda bajariladigan qabul qilingan raqamli ma'lumotlarning yetarlicha katta massivlarini keyinchalik qayta ishlashni talab qiladi. Haqiqiy (real) laboratoriya zaif tomoni shundan iboratki, olingan natijalarni kompyuterga kiritish alohida vaqt talab qiladigan bosqich bor. Virtual laboratoriyada ushbu bosqich yo'q, chunki eksperimentator tajribalarni 18 bajarish jarayonida yoki avtomatik ravishda tadqiqot natijalari elektron jadvaliga kiritilishi mumkin. Bu vaqtni tejaydi va mumkin bo'lgan xatolar foizini sezilarli darajada kamaytiradi.

7) Asosiy va eng muhim afzallik - universitet laboratoriyalarida ishlash imkoniyati bo'lmagan holatlarda, masofaviy ta'limda virtual laboratoriyadan foydalanish imkoniyati. Ushbu afzallik bugungi kunda koronavirus pandemiyasi davrida barcha o'rta maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalarida ta'sil olayotgan talabalarning onlayn tarzda ta'lim olishida dolzarbdir.

Yuqoridagilardan inobatga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida maxsus o'quv laboratoriya xonalari yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Ammo ularni yaratishda uzoq vaqt, laboratoriya jihozlari bilan jihozlash esa – katta moddiy resurslarni talab qiladi. Ta'lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o'quv xonalaridan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg'ulotlarning elektron ko'rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarning o'quv ishlarida faolligi va mustaqilliklarini oshiradi;
- o'quv materialining multimedia ko'rinishidali bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning laboratoriya mashg'ulotini o'zlashtirishi bo'yicha to'liq nazoratni ta'minlaydi;
- imtihon va reyting nazoratlarida tayyorlanishda takrorlash va trening jarayonini osonlashtiradi;

Virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlari o'quv multimedia majmualaridan foydalanish yaxshi samara beradi [3-7]. Bilish faoliyatining asosiy bosqichlariga quyidagilar [3, 6, 10]:


1. tanishuv, qabul qilish: metodik tavsiyalar, bosma qo'llanmalar.
2. anglash, mustahkamlash va bilimlarni tekshirish: elektron o'quv qo'llanmalar, test tizimlari, virtual o'quv xonalari.
3. kasbiy yo'nalgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, intuisiyani rivojlantirish: matematik yoki imitasion modellash, trenajerlar va boshqa o'quv tizimlari.
4. loyiha-tadqiqotchilik o'quv faoliyati: o'quv yoki ishlab chiqarish qo'shimcha dasturlar kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo'yicha laboratoriya qurilmalari bilan shaxsan tanishmasdan va ularda ishlash ko'nikmalarini shakllantirmasdan turib, yetuk mutaxassislarni tayyorlash mushkul vazifa hisoblanadi [4, 9, 5].

Virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlarda ikkita turdagi dasturiy ta'minot va apparat komplekslari tushuniladi:

- 1) olis laboratoriyalar - masofaviy kirish bilan laboratoriya o'rnatish;
- 2) virtual laboratoriyalar - laboratoriya eksperimentlarini taqlid qilishga imkon beradigan dasturiy ta'minot.

Quyidagi rasmda virtual laboratoriyadan foydalanishning imkoniyatlari keltirilgan.



1-rasm. Virtual laboratoriyadan foydalanish imkoniyatlari

Bunday komplekslar real qurilmalar modelini laboratoriya mashg'uloti uchun moslashtirishda, shu bilan birga, aniqlik bilan ta'minlashda xizmat qiladi. Bu ishni sezilarli darajada soddalashtirishga hamda laboratoriya mashg'ulotini bajarish uchun sarflanadigan vaqtni tejashga olib keladi [7, 3, 2, 8]. Quyidagi jadvalda virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlarining taqqoslash jadvali keltirilgan.

1-jadval

Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlarini taqqoslash

№	Virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlaridan foydalanishning afzalliklari	Virtual laboratoriya va o'quv simulyatorlaridan foydalanishning kamchiliklari
1	Haqiqiy qurilmalarga nisbatan simulyatsiyalarning arzonligi.	Zamonaviy asbob-uskunalar bozoriga e'tibor qaratish zaruridan ma'lum darajada ozod qilish.
2	Haqiqiy qurilmaga nisbatan virtual qurilmani yangilashda ko'proq moslashuvchanlik ta'minlanadi.	Kompyuter texnologiyalarining tez o'zgarishi, dasturiy ta'minotning eskirishi.
3	Simulyatsion virtual laboratoriyaning mavjudligi infratuzilma qo'shimchasidan ozod etadi.	Haqiqiy qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va tegishli infratuzilmaga qo'yiladigan talablar haqidagi tasavvurlarning zaiflashishi.
4	Zararli jismoniy omillarga nisbatan xavfsiz. Ularning ta'siridan himoya qilishni ta'minlash kerak emas.	Kompyuter bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan salbiy fiziologik va psixologik omillarning umumiy ta'siri mavjudligi.
5	Eksperiment o'tkazish vaqtini tartibga solish, eksperimentatorning qarori bilan uni sezilarli darajada qisqartirish.	Haqiqiy vaqt rejimini tark etish, bu haqida g'oyalarni zaiflashtirish.
6	O'lov natijalarini qayta ishlashning odatiy protseduralari murakkabligini sezilarli darajada kamaytirish, hisob-kitoblarni tezligini oshirish.	Zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanmasdan raqamli natijani baholash qobiliyatining, shuningdek olingan raqamli qiymatlarni yetarli darajada idrok etish qobiliyati zaiflashishi.
7	Istalgan rejimda masofadan ishlashning cheksiz imkoniyatlari mavjudligi.	Haqiqiy laboratoriya tadqiqot muhitini idrok etishning zaiflashishi.
8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish - mustaqil o'rganganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan

narsalarimizning 90%.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, o'quvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Quyida ta'lim jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan metodlarni tanlash vaqtida hisobga olish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu trener va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi trener va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsalar, trener esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Haqiqatda ham pedagogik amaliyotlar va pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbat va savol-javoblarga tayangan holda va yuqorida bayon etilgan ta'riflarga ko'ra, pedagogik texnologiya-ma'lum belgilangan sharoitda o'quvchilarga bilim va malaka berishning qonun-qoidalari va vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishning kafolatlay oladigan pedagogik jarayon ekanligini anglab olamiz. Shuning uchun aytish mumkinki, bizningcha, pedagogik texnologiya- o'qituvchining mahoratidan istisno bo'lib, u darsning tashkil etish didaktikasidan ham, uni o'qitish metodlaridan ham, hatto usullaridan ham farqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanadi.

Interfaol – so'zi inglizcha so'z bo'lib, “inter” - o'zaro va “act” - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “tinglovchi - o'qituvchi” va “tinglovchi-tinglovchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. chiqiladi.

Interfaol o'qitish tinglovchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

- o'qituvchining jadal faoliyati- o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – tinglovchi hisoblanadi;

- muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan tinglovchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni tinglovchidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Bugungi globallashtirish jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammoni hal qilishda barcha fanlarni ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarga uqtirib o'qitish o'z samarasini berishi shubxasiz. Shunday fanlar qatorida tasviriy san'at fanining ham ahamiyati kattadir.

Tasviriy ijodiy ishlar o'qituvchining shaxsiy tasviriy mahoratini oshirib borishga xizmat qiladi. U o'qituvchini o'zi ma'qul ko'rgan tasviriy yoki amaliy san'atning tur va janrlaridan birontasi bo'yicha ijodiy ishlar olib borishini taqozo etadi. Ijodiy ishni bu shakli bo'yicha o'qituvchi olib borgan ishlarining natijalari yuzasidan ko'rgazma va tanlovlarda qatnashadi.

Ma'lumki, hozirda ta'lim jarayonlarini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. So'nggi yillarda texnika vositalarining yangidan-yangi turlari paydo bo'lmoqdaki, ular ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at ta'limining hozirgi ahvoli shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi ta'limni tashkil etuvchi davlat va jamoatchilik tashkilotlaridan shart - sharoitlar kutmasdan o'z faoliyatini o'zi qayta qurishi zarur. Hozir va bundan buyon ham ta'lim jarayonlarida texnika vositalari muhim o'rinni egallaydi hamda dars samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan o'qituvchi bu borada bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. O'quvchilarga bilim-malaka berishni eng osonlashtiradigan vosita-bu ko'rgazmalar vositasida o'qitishdir. Tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi boshqa barcha o'quv fanlaridan ko'ra ahamiyatli va samarali bo'lib xizmat qiladi. Chunki tasviriy san'at o'quv predmetining biron-bir dars mavzusi yo'qki, uni ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lsa. Ko'rgazmali o'qitish ta'lim berishning ilmiy asosi hisoblanadi. Chunki mumkin bo'lgan narsalarning hammasini sezgilar orqali idrok qildirmoq kerak. Ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'z vositasi bilan, ushlab ko'rib sezilishi mumkin bo'lgan narsalarni ushlab ko'rish vositasi bilan idrok qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF COMPETENCES DETERMINING THE QUALITY OF MODERN EDUCATION

*Ubaydullaeva Vazira Patchakhanovna
Assistant of Biomedical Engineering, Informatics and Biophysics,
Tashkent medical academy*

Abstract. In the world education system, effective mechanisms for the development of teachers' competencies are being introduced into the educational process. In particular, special attention is paid to the introduction of modern approaches aimed at improving the quality of teaching physics, introducing the latest achievements of science, technology, technology and education into the content of educational materials.

Key words: improvisation, professional training, competence, competence, methods and technologies, component, evaluation criteria.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНЦИЙ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИХ КАЧЕСТВО СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Убайдуллаева Вазира Патчахановна
Ассистент кафедры биомедицинской инженерии, информатики и
биофизики Ташкентской медицинской академии*

Аннотация/ В мировой системе образования в образовательный процесс внедряются эффективные механизмы развития компетенций педагогов. В частности, особое внимание уделяется внедрению современных подходов, направленных на повышение качества преподавания физики, внедрение в содержание учебных материалов последних достижений науки, техники, технологий и образования.

Ключевые слова: импровизация, профессиональная подготовка, компетентность, компетенция, методы и технологии, компонент, критерии оценки.

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ АНИҚЛОВЧИ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*Убайдуллаева Вазира Патчахановна
Тошкент тиббиёт академияси Биомухандислик, информатика ва
биофизика кафедраси ассистенти*

Аннотация. Жаҳон таълим тизимида ўқитувчиларнинг компетенцияларини ривожлантиришнинг самарали механизмлари таълим жараёнига татбиқ этилган. Жумладан, таълим сифатини ошириш, эришилган натижаларни амалиётга жорий этиш, фан, техника, технология ва таълимнинг энг сўнги ютуқларини ўқув материаллари мазмунига сингдириб бориш, физика фанини ўқитиш сифатини оширишга йўналтирилган замонавий ёндашувларни амалиётга жорий қилишга алоҳида эътибор берилган.

Калит сўзлар: импровизация, касбий тайёргарлик, компетенция, компетентлик, усул ва технологиялар, компонент, баҳолаш мезонлари.

Кириш. Жаҳон интеграллашуви жараёнида таълим соҳасининг ривожланишида компетенциявий ёндашув, ҳар бир соҳада, жумладан тиббиёт йўналишлари соҳасида компетентли мутахассислар зарур бўлиб, хорижда бу борада кўплаб тажрибалар тўпланган. Дунёнинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасалари (ОТМ)да компетенциявий ёндашувни касбий таълим, фан стандартлари мазмунига киритиш тамойиллари, уларнинг педагогик тизим

бўғинларидаги ўзгаришларга таъсири, психологик ва методологик асослари, мустақил равишда таълим натижаларига эришиш концепцияси, компетенциявий ёндашув талқини, фан жумладан, физика ўқитувчиларини ривожлантиришга йўналтирилган турли даражадаги компетенцияларга оид илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Республикаимизнинг ривожланган давлатлар қаторидан ўрин олиши учун замонавий иқтисодиёт, фан, техника, технология асосида мутахассислар тайёрлашнинг такомиллашган тизимига босқичма-босқич ўтилмоқда. Олий таълим тизимини ривожлантириш, замонавий илмий тафаккур ютуқларига, илғор тажрибаларга таянган ҳолда, барча таълим муассасаларида жумладан, тиббиёт йўналишидаги ОТМларида таълим-тарбия жараёни сифати ва самарадорлигини ошириш таъминланмоқда. Бугунги кунда таълим тизимини ислоҳ қилиш, унга хориж давлатларининг илғор технологияларини татбиқ этиш, улар асосида замонавий ўқитувчини тайёрлаш долзарб ҳисобланади. Бундай ўқитувчи келажакда талабаларнинг мустақиллиги, ижодкорлиги, ташаббускорлиги ва тadbirkorлигини ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўшади. Тайёрланаётган кадрларнинг бу сифатларини ривожлантириш таълим тизимининг муҳим вазифаларидан биридир. Чунки, фақат мустақил фикрлаш қобилиятига эга бўлган шахсгина ўз муаммоларига ечим топа олади, жамиятда ўз мавқеига эга бўлади.

Ҳар томонлама етук тиббиёт ходимларини тайёрлаш ўқитувчининг савиясига, касбий тайёргарлигига ва фидойилигига, унинг ёш авлодни ўқитиш-тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқ. Шундай экан, ўқитувчи ҳар томонлама ривожланган илмий тафаккурга эга, ўз фанининг чуқур билимдони, педагогик-психологик ва методий билим ҳамда малакаларни эгаллаган бўлиши ҳамда турли тиббий вазифаларни тезда ечиши, вазиятларни тўғри баҳолай олиши лозим. Ҳар бир ўқитувчи меҳнатининг самарадорлиги бугунги кунда талабаларни мустақил ижодий фаолиятга тайёрлаганлиги билан баҳоланиши керак.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review)

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзлуксиз таълим тизимида чет тиллар бўйича Давлат дастурларини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори асосида мамлакатимизда янги типдаги давлат таълим стандартларига «компетенция» сўзи киритила бошланди [1]. Компетенция кенг қамровли тушунча бўлиб, у инглизча «competence», яъни «маҳорат», «қобилият» муайян бир соҳада билимли, тажрибали деган маъноларни ҳам англатади [2]. Д.С. Ермаков [3] фикрича, компетенция – шахсни муайян бир маҳорат ва қобилият даражасига ёки тажрибасига эгаллиги. Уни шахс ҳаёт фаолиятининг турли жабҳалари, жумладан таълим учун ҳам ишлатиш мумкин. Мазкур тушунча таълимга илк бор, ЮНЕСКО ташкилоти қошида тузилган Э.Фор бошчилигидаги комиссиянинг «ўқимоқ» деган маърузаси орқали кириб келган. С.Т.Тургунов [4] фикрича, халқаро педагогик амалиётда ўқитувчиларда компетенцияларни ривожлантириш жараёнини такомиллаштириш стратегияларини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш механизмларини лойиҳалаштириш ҳам назарий ҳам амалий жиҳатдан илмий асослаш муҳим ҳисобланади. М.Майбуrows [5] таъкидлашича, компетенцияли ёндашувга асосланган таълимнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у кишини ҳаётга, жумладан меҳнатга (касбга) тайёрлашни асосий мақсад қилиб олган тизимлашган, тегишли билим, кўникма ва малакаларни бериш орқали уни муайян маҳорат, қобилият даражасига етказиш воситасидир. В.И.Коломин [6], компетенция - маълумот, вақт, ресурслар етишмаслиги, сабаб-натижа муносабатларини билиш, бўлмаган ишларда импровизация зарурати билан боғлиқ бўлган турли мураккабликдаги муаммоли шароитларда касбий вазифаларни самарали ҳал қилишни таъминлайдиган

касбий тайёргарликнинг шундай даражаси ва тури - стандарт вазиятлар деб тушунтиради. Академик А.В.Хуторский [7] фикрича, «компетенция» – аниқ бир соҳада ўқитувчининг самарали продуктив фаолияти учун зарур бўлган таълимий тайёргарлигига олдиндан қўйиладиган ижтимоий талабдир. Турли компетенцияларни таҳлил қилиш уларнинг креатив (ижодий) йўналганлигини кўрсатади. Аслида креатив компетенцияларга қўйидагиларни келтириш мумкин: «тажрибадан фойдани келтириб чиқа олиш», «муаммоларни еча олиш», «ўтмиш ва ҳозирги ҳодисаларнинг ўзаро боғлиқлигини очиб бериш», «янги ечимларни топа олиш». Таълим тизимини бошқариш, уни ташкил этиш тамойиллари, самарадорлигини ошириш йўллари, фаол усул ва технологиялари, педагогик лойиҳалашнинг назарий-методологик асослари, ўқув дарсини лойиҳалаш, педагогик технология тамойиллари асосида дарсларини ташкил этиш масалалари Б.Хайдаров, А.К.Жалолов, В.П.Беспалько Н.Н.Азизхўжаева, Н.С.Саидахмедов, Л.В.Голиш, М.Тожиев А.Мавлянов [8]лар томонидан ҳам ўрганилган. Компетенциявий ёндашув, унинг таълим жараёнидаги ўрни ва роли, уни амалга оширишдаги муаммолар, компетенциявий ёндашув назарияси ва технологиялари, физика ўқитувчисини касбий тайёрлашда компетенциявий ёндашув масалалари О.В.Лебедев, А.Г.Бермус, А.Л.Андреев, Р.Р.Хадиуллин, В.И.Коломин, И.А.Зимняя, Д.А.Иванов, Ю.Асадов илмий тадқиқот ишларида ўрганилган. Физика ўқитувчилари фаолиятини ташкил этиш; физика фанини ўқитишда ахборот технологиялари ва интернет тизимидан, илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш; физикадан лаборатория ишлари ва масалалар ечишни ташкил этиш, физика фани ўқитувчисини тайёрлашда инновацион таълим технологияларининг роли каби масалалар Б.Н.Нуриллаев [9], А.Абдуллаевлар томонидан ўрганилган.

Таҳлиллардан кўринадики, республика миқёсида тиббиёт йўналишидаги ОТМларида физика ўқитувчиларининг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантиришга оид тадқиқотлар жуда кам. Мавзу доирасида адабиётларни таҳлил қилишга йўналтирилган ишлар натижасида бу борадаги самарадорликни ошириш ҳамда юқоридаги муаммоларни бартараф этиш йўлида муайян ҳаракатларни амалга ошириш натижасида, унинг самарадорлиги маълум даражада таъминлаш мумкин. Бунинг учун мазкур жараёни ривожлантириш Метод ва технологияларини илғор хориж тажрибаларига таянган ҳолда амалга ошириш ҳамда унинг имкониятларини аниқлаш ва бу борадаги муаммоларни бартараф этилиши бугунги кунда долзарбдир. Компетенциявий ёндашув асосидаги ўқитиш мазмуни, тиббиёт йўналишидаги ОТМларидаги педагогик-психологик, ташкилий шарт-шароитлар ва физика ўқитувчиси компетентлигини ривожлантиришга мантикий фикрлашнинг асос бўлиши, шу билан бирга ўқув жараёнида уларнинг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантириш масалалари алоҳида тадқиқот объекти сифатида қаралмаганлиги аниқланди. Шу билан бир қаторда, бизнинг фикримизча, илмий педагогик адабиётларда тиббиёт йўналишидаги ОТМлари физика ўқитувчиларининг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантиришдаги имкониятлари етарли даражада акс эттирилмаган. Шундан келиб чиққан ҳолда, физика ўқитувчиларининг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантиришнинг аҳамиятини ошириш, талабаларни ўқитишнинг янги технологияларини излаш, физика ўқитувчиларининг сифат жиҳатидан ўсишига бўлган эҳтиёж, уларнинг мазкур компетенцияларини ривожлантиришга кўпроқ эътибор бериш мазкур тадқиқот ишининг долзарблигини билдиради.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Компетентли ўқитувчи қандай бўлиши кераклигини физика фани ўқитувчилари мисолида кўриб чиқайлик. Бунда уларнинг педагогик маҳоратини тўртта даражага ажратиб кўрсатиш мумкин:

- Биринчи ва иккинчи даража - физика ўқитувчиси томонидан дарс (маъруза, семинар, лаборатория ва мустақил иш)лари элементларини режалаштириш ва таҳлил қилиш кўникмасини қайд этади. М.Н. Карпов [10] фикрича, ўз навбатида, амалий масалаларни ҳал қилишда: тажриба ёки лаборатория ишларини ташкил қилишда амалий муаммолар очилади. Бинобарин, ўқитувчининг касбий компетенцияси назарий ва амалий характердаги ишларни бажариш билан узвий боғлиқдир.

- Учинчи даража – физика ўқитувчисининг ўз режасини қанчалик маҳорат билан амалга оширишини билдиради.

-Тўртинчи даражада - назария ва амалиётни тўла эгаллаган, физика фанидан дарс жараёнида гуруҳда рўй берган ўзгаришга эътибор қаратилади, дарснинг турли компонентларини вазиятга қараб ўзгартирадиган физика ўқитувчисиدير. Физика фани дарслари таҳлилида ишлатиладиган стандарт параметрларига эътиборни қаратиш муҳим ҳисобланади: дарс мақсади, ўқув материали, шакли, методи, структураси, босқичлар орасидаги боғланиш.

Физика фани ўқув мазмунидан келиб чиққан ҳолда талабаларнинг ўқув-билиш компетенцияларини шакллантиришда физика ўқитувчиси ўқув мақсадларини аниқлаштириши лозим, унга эришиш учун талабалар фаолияти қатъий белгиланган кетма-кетлик бўйича, мавзунини ўзлаштиришига қаратилади. Дарсларни бундай ташкил этиш, ўқитиш тизимининг асосий томонларини (мақсадни аниқлаш, ўқитиш самарадорлигини текшириш, синовдан ўтказиш ва оммалаштиришгача бўлган жараён) ўз ичига олади [11]. Ўқув мақсадларини белгилашда Б.Блум таксономияси ёрдамида ўқитувчи ўқув мақсадларини аниқлаштиришга эришади. Мақсадни аниқлаш, физика ўқитувчисини методик тайёргарлигини ривожлантиришни лойиҳалашдан тортиб, самарадорлигини текшириш ишларини ўз ичига олади [12]. Б.Блумнинг когнитив таксономик тоифаларига билиш, тушуниш, қўллаш, таҳлил, синтез, баҳолаш киради Улар асосида ўқитувчи ўқув мақсадларини қуйидагича аниқлаштириш мумкин (1.4-жадвал).

1.4-жадвал. Ўқув мақсадлари

Ўқитувчи билиши керак.	Физика фани мавзусига оид асосий тушунча, қонун-қоидаларни.
Тушуниши керак.	Физика фани мавзуларидаги график, формула ва тенгламаларни.
Татбиқ эта олиши керак.	Олинган маълумотларнинг қасрда қўлланилишини.
Таҳлил қила олиши керак.	Физика фани мавзуларининг ўзаро фарқ ва боғланишни аниқлашни.
Синтез қила олиши керак.	Физика фани мавзуларининг муҳим жиҳатларини белгилашни.
Баҳолай олиши керак.	Олинган натижаларнинг нима учун кераклиги ва қасрда ишлатилишини.

Ўқитувчи ўқув масқадлари – бу, муайян ўқув жараёни якунида ўқитувчи томонидан эришилиши, янги ҳосил қилиниши мумкин бўлган билим, ҳатти-ҳаракат билан боғлиқ бўлган амалий топшириқни уддалай олиш маҳорати, шахсий фазилатларни белгилайди. Уни тўғри танлаш ўқув жараёни учун муҳимдир. Қуйидаги 1.5-жадвалда физика ўқитувчисининг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи ўқув мақсадлари берилган:

1.5-жадвал. Физика ўқитувчисининг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи ўқув мақсадлари

	Физика ўқитувчиси ўқув мақсадлари	Физика ўқитувчиси вазифалари
1.	Таълимий	Талабаларни физика фанининг асосий тушунчалари, қонун-қоидалари билан таништириш; уларда ўқув-билиш компетенцияларини шакллантириш; уларнинг жамиятдаги ўрнини кўрсатиш ҳамда тушунтириб бера олиш; қўлланилиш соҳаларини тушунтириш.
2.	Тарбиявий	Физика фани асосида бажариладиган ишлар, уларнинг аҳамиятини тушунтириш орқали талабаларда қизиқиш, келажакка ишонч ҳиссини уйғотиш.
3.	Ривожлантирувчи	Талабаларнинг олган билимларидан, ўзлаштирган касбий сифатларидан, эгаллаган фикрлаш операцияларидан амалиётда фойдалана олишларини ривожлантириш.

Физика ўқитувчиси дарсини баҳолаш мезонлари 2-иловада келтирилган.
2-илова. Физика ўқитувчиси дарсини баҳолаш мезонлари

	Физика ўқитувчисининг дарс таҳлиллари	Физика ўқитувчиси амалга ошириши лозим бўлган вазифалар
1.	Дарсга тайёргарлиги.	Дарс ишланмаси, тақвим-мавзу режа, ўқув дастури, дарслик, дарс тақдими, кўргазмалар куруллар, тарқатма материалларни олдиндан тайёрлаб қўйиш.
2.	Дарс мазмуни.	Дарс мақсадини аниқ ва тўғри белгилаш, мавзунини бошқа фанлар билан боғлаш, дарс мавзусини мустаҳкамлаш учун муаммоларни топшириқлар танлаш, ўқитувчининг ўз фанини мукамал билиши.
3.	Дарснинг услубий таҳлили.	Ўқитишнинг турли шакл, метод, усул ва технологияларидан тўғри фойдаланиш, дарснинг интерфаоллик даражаси, дарс вақтининг тўғри тақсимланиши, талаба учун мустақил ишнинг тўғри ташкил этилиши, ўқув материалларининг табақалаштирилганлик даражаси.
4.	Педагогик маҳорати.	Дарс мавзусини равоқ тилда тушунтира олиши, дарсда ўзини дадил тутати олиши, мотивация ва уни рағбатлантириб бориши, дарс давомида ижодий, таълимий муҳитни яратати олиши, дарсга оид кўргазмалар курул, жиҳоз ва асбоблардан ўрнида фойдаланиши, талабаларнинг фаоллиги.
5.	Дарслик ва ўқув материалларидан фойдаланиш.	Дарсда дарсликдан ва қўшимча ўқув материалларидан самарали фойдаланиш даражаси.
6.	Дарсда ўқитиш воситаларидан фойдаланиш.	АКТ воситаларидан фойдалана олиш даражаси, тайёрлаган тақдирот сифати ёки ўқув доскасидан самарали фойдалана олиши.
7.	Дарсда яратилган муҳит ва муносабатлар.	Талабаларга нисбатан ҳушмуомалалиги, тил топа олиши, ўзаро ёрдам, ҳамжиҳатлик, талабаларнинг ўқитувчига нисбатан ҳурмати, интизом, эшитиш.
8.	Баҳолаш ва дарсга яқун яшаш.	Талабаларнинг дарс давомида билим ва қўникмаларининг ҳолисона баҳоланиши, баҳолаш топшириқларининг дарс мақсадидан келиб-чикиб тузилганлиги, дарс охирида дарсга яқун қилиниши.

Дарс жараёни ва унинг асоси – физика ўқитувчиси томонидан бошқариладиган талабаларнинг билиш фаолияти ўқув жараёни мантигининг асосий бўғинларини ўз ичига олади: ўқитувчи томонидан маълум қилинган ўқув материални талабалар томонидан идрок этиш ва англаш; ёдлаш; умумлаштириш ва тизимлаштириш; талабаларнинг ўқув ва амалий фаолиятининг турли шаклларида қўллаш; ўқитувчи томонидан талабаларнинг таълим муваффақиятини назорат қилиш ва баҳолаш.

- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Тиббиёт йўналишидаги ОТМларида замонавий ўқитиш технологиялари асосида физика ўқитувчисининг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантиришда, уларни физика фани бўйича ўқитиш, масалалар ечиш методикаси, лаборатория ишларини бажариш, мазкур фанни ўқитишда инновацион усуллар, педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш, мазкур фан мавзулари ва мазмунига қараб ўқитиш усулларини танлаш ҳақида тегишли билим ва кўрсатмалар бериш, илғор методик тажрибалар билан таништириш, лойиҳалаш вазифалари муҳим ҳисобланади. Физика ўқитувчисининг турли даражадаги компетенцияларини ривожлантириш жараёнини ташкил этишда, юқоридаги технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги, уларнинг физика фани бўйича олган билимлари, замонавий технологияларни ўрганиши, интеллектуал қобилиятларининг ривожланиши, билими, кўникма ва малакалари, педагогик маҳорати ва касбий қобилиятларининг ривожланиш даражаларининг ўсишини белгилайди

- Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)

Бугунги кунда таълим тизимини ислоҳ қилиш, унга хориж давлатларининг илғор технологияларини татбиқ этиш, улар асосида замонавий ўқитувчини тайёрлаш долзарб ҳисобланади. Бундай ўқитувчи келажакда талабаларнинг мустақиллиги, ижодкорлиги, ташаббускорлиги ва тадбиркорлигини ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўшади. Тайёрланаётган кадрларнинг бу сифатларини ривожлантириш таълим тизимининг муҳим вазифаларидан биридир. Чунки, фақат мустақил фикрлаш қобилиятига эга бўлган шахсгина ўз муаммоларига ечим топа олади, жамиятда ўз мавқеига эга бўлади.

Ҳар томонлама етук тиббиёт ходимларини тайёрлаш ўқитувчининг савиясига, касбий тайёргарлигига ва фидоийлигига, унинг ёш авлодни ўқитиш-тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқ. Шундай экан, ўқитувчи ҳар томонлама ривожланган илмий тафаккурга эга, ўз фанининг чуқур билимдони, педагогик-психологик ва методий билим ҳамда малакаларни эгаллаган бўлиши ҳамда турли тиббий вазифаларни тезда ечиши, вазиятларни тўғри баҳолай олиши лозим. Бу борада педагогик ва ахборот технологиялари, интерфаол усуллардан ўқув жараёнида мақсадли фойдаланиш, физика фани бўйича бу соҳада аниқ режаларни тузиш ва амалга ошириш, дарслик, ўқув қўлланмаларининг янги авлодини яратиш, уларни талабаларга етказиш вазифалари бугунги кунда муҳимдир. Тиббиёт йўналишидаги ОТМларида фаолият кўрсатаётган физика ўқитувчилари инновацион педагогик ва ахборот технологиялар, ўқув жараёнини фаоллаштириш усуллари ва фан бўйича сифатли компетенцияларини ривожлантирувчи педагогик усулларни қўллай билиши лозим. Ўқитувчи мазкур технологияларнинг моҳияти, мақсади ва вазифаларини ўрганиб чиқиб, улар ҳақида илмий асосланган маълумотлар, амалий йўлланмалар ишлаб чиқиши, уни ўқув жараёнига жорий эта олиши керак.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами, 2013. 20-сон, 251 б.
2. Компетенция. Инглизча-ўзбекча, ўзбекча-инглизча лугат. -Т.: «Педагог», 2007.; Словарь иностранных слов.-М.: «Академия», 2014.- С.191.
3. Ермаков Д.С. Компетентный подход в образовании // Ж. Педагогика. № 4.-М., 2011.- С. 8-15.
4. Турғунов С.Т. Педагогик жараёнларда ўқитувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. – Тошкент:.. – 2018. – Б.12.
5. Майбуrow М. Высшее образование в развитых странах // Ж. Образование за рубежом. № 2, 2003.- С. 132-144.
6. Коломин В.И. Фундаментальная подготовка по физике как основа формирования профессиональной компетентности будущих учителей физики: [Электронный ресурс] УРЛ: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. - 2010. - 65 с.
7. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты Электронный ресурс/А.В. Хуторской//Интернет-журнал «Эйдос». Москва. -Режим доступа: [хттп://www.eidos.ru/jurnal/2002/0423](http://www.eidos.ru/jurnal/2002/0423).
8. Мавлянов А., ва б.к. Ўқув дарсларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони наشريёти. Тошкент. - 2013. -142 б.
9. Нуриллаев Б.Н. Умумий физика практикумларида бўлажак ўқитувчиларнинг экспериментал кўникмаларини шакллантиришнинг дидактик асослари: Автореф. дисс... пед.наук.–Тошкент:ТДПУ, - 2007. - 25 б.
10. Карпова М.Н. Формирование профессиональной компетентности учителя физики при переходе к профильному обучению в рамках системы повышения квалификации // Вестник Казанского технологического университета. - 2009. -№ 2. - С. 108.
11. Жавлонов Ш.С., ва б.қ.лар. Ўқув мақсадларини топшириқларга айлантириш - ўқув дарсларини лойиҳалашнинг асоси сифатида // ОЎМКХТ ривожлантириш тажрибаси ва ил.-наз. асоси: Респ. ил.-амалий конф. материаллари.-Тошкент: ОЎМКХТРМ, 2010. –Б. 69-71.
12. Ишматов Қ.Р. Педагогик технология.-Наманган: НамМПИ, 2004.-95 б.

O'QUVCHI-YOSHLARNING KURASH SPORT TURIGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Umarov Abdusayit Tog'aymurodovich,
Qarshi DU sport fakulteti katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada o'quvchi-yoshlarning kurash sport turiga qiziqishlarini rivojlantirish metodlari xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning kurashga bo'lgan qiziqishini g'oyalar bilan tanishtirish ularning nafaqat kurash mahoratini rivojlantirish, balki shaxs va yetakchi bo'lib yetishishlariga ham yordam beradi. Pedagog va murabbiylar odob-axloq, qadriyatlar va xarakterni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlab, o'quvchilarning kurash sporti bilan chuqurroq va mazmunli aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, kurash, qiziqish, kurash mahoratini rivojlantirish, murabbiy, odob-axloq, qadriyat.

Kurash - bu jangovar sport turi bo'lib, raqibni ushlash, ushlab turish, uloqtirish va yerga mixlash kabi kurash usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu sport turini qadimgi davrlarga vujudga kelgani borasida fikrlar mavjud. Kurash dunyodagi eng qadimgiy sport turlaridan biridir. Uning kelib chiqishi Yunoniston, Rim va Misr kabi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Darhaqiqat, kurash birinchi marta miloddan avvalgi 776 yilda Gretsiyada o'tkazilgan qadimgi Olimpiya o'yinlarining asl sport turlaridan biri edi.

Tarix davomida kurash ko'plab madaniyatlarda mashhur sport turi bo'lib, turli shakllarni olgan. Misol uchun, qadimgi Yunonistonda kurash yalang'och holda o'tkazilgan va kuchni rivojlantirish va xudolarni hurmat qilish usuli sifatida qaralgan. Qadimgi Rimda kurash gladiatorlar musobaqalarining bir qismi bo'lib, omma uchun o'yin-kulgi turi edi.

Kurash ko'plab an'anaviy madaniyatlarning muhim qismi bo'lgan, masalan, sumo kurashi milliy sport turi bo'lgan Yaponiyada va kushti kurash uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Hindistonda.

Bugungi kunda kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng tarqalgan sport turi bo'lib, u yangi texnika va qoidalar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Qadimgi ildizlarga qaramay, kurash mahorat, kuch va aqliy qattqlikni talab qiladigan dinamik va qiziqarli sport turi bo'lib qolmoqda.

Kurashning bir necha turlari mavjud, jumladan, milliy, erkin, yunon-rum va bo'ysunish kurashlari. Kollegial kurash sifatida ham tanilgan xalq kurashi Qo'shma Shtatlarda eng keng tarqalgan uslub bo'lib, o'rta maktab va kollej darajasida qo'llaniladi. Erkin va yunon-rum kurashi Olimpiya sport turlari bo'lib, ular xalqaro miqyosda qo'llaniladi. Taslim bo'lish kurashi, shuningdek, bo'ysunish kurashi, raqibni bo'ysunishga majburlash uchun bo'g'ilish va qo'shma qulflar kabi topshirishlarga urg'u beradigan uslubdir.

Kurash kuch-quvvat, chaqqonlik va chidamlilikni talab qiladi va bu sportning jismoniy mashaaqqatli turi bo'lishi mumkin. Kurashchilar vazn toifalarida raqobatlashadilar va o'yinlar odatda bir daqiqadan uch daqiqagacha bo'lgan davrlarga bo'linadi. Sportning maqsadi raqib ustidan nazoratni qo'lga kiritadigan harakatlarni bajarish yoki ularni gilamchaga mahkamlash orqali ochko to'plashdir. Ballar o'chirish, o'zgartirish va qochish uchun beriladi va o'yinlarda ochkolar bo'yicha yoki raqibni belgilangan vaqt oralig'ida ushlash orqali yutish mumkin.

O'quvchilarni kurashga qiziqitirishning muhim sabablari ko'p. Mana bir nechta:

Jismoniy tayyorgarlik: Kurash – kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik va chaqqonlikni talab qiladigan jismoniy talabchan sport turi. Kurash bilan shug'ullanish o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga yordam beradi, bu ularning salomatligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ruhiy mustahkamlik: Kurash ham aqliy qattqlik va tartib-intizomni talab qiladi. Ushbu sport o'quvchilarda kuchli mehnat axloqini, qat'iyatlikni va o'z chegaralaridan tashqariga chiqishga tayyorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

O'z-o'zini himoya qilish: Kurash - o'zini himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan jang san'ati. Kurash texnikasi va strategiyalarini o'rganish orqali o'quvchilar kerak bo'lganda o'zlarini himoya qilish qobiliyatiga ishonchlari ortishi mumkin.

Jamoaviy ish: Kurash individual va jamoaviy sport turi bo'lishi mumkin. Kurash jamoasiga qo'shilish orqali O'quvchilar jamoaviy ish, muloqot va hamkorlikning qadrini bilib olishlari mumkin.

Xarakterni rivojlantirish: Kurash o'quvchilarda kamtarlik, hurmat va sport mahorati kabi muhim xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mashg'ulotlar va musobaqalarning ko'tarilishlari va pasayishlari orqali kurashchilar muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka inoyat va kamtarlik bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

O'quvchilarni kurashga qiziqtirish uchun sportning afzalliklarini ko'rsatish va uni qulay va qiziqarli qilish muhimdir. Buni sifatli murabbiylikni ta'minlash, raqobat uchun imkoniyatlar taklif qilish va do'stlik va qo'llab-quvvatlashni rivojlantiruvchi ijobiy jamoa madaniyatini yaratish orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, o'quv jihozlari va jihozlari kabi resurslar bilan ta'minlash, maktab va jamoat tadbirlari orqali sportni targ'ib qilish o'quvchilarda kurashga qiziqish va ishtiyoqni oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarda kurashga qiziqishni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Sportning afzalliklarini ko'rsating: Yuqorida aytib o'tilganidek, kurash o'quvchilarga ko'p foyda keltiradi. Bu imtiyozlarni O'quvchilarga ular uchun mos keladigan tarzda etkazish muhimdir. Masalan, kurash qanday qilib jismoniy tayyorgarlik va aqliy mustahkamlikni yaxshilashi yoki undan o'zini himoya qilish uchun qanday foydalanish mumkinligini ta'kidlash.

Sifatli murabbiylik bilan ta'minlang: kurashga ishtiyoqi bor mahoratli va tajribali murabbiylarga ega bo'lish o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda katta o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Murabbiylar samarali mashg'ulotlarni o'tkazishi, to'g'ri texnikani o'rgatishi va O'quvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashni taklif qilishi mumkin.

Ijobiy jamoa madaniyatini yarating: Ijobiy jamoaviy madaniyatni rivojlantirish O'quvchilarga sportga va ularning jamoadoshlariga ko'proq bog'langanligini his qilishlariga yordam beradi. Jamoaviy ish, muloqot va o'zaro hurmatni rag'batlantirish kurashga qiziqish va ishtiyoqni uyg'otadigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi mumkin.

Musobaqa uchun imkoniyatlar taklif qiling: Musobaqa va turnirlarni tashkil qilish kurashga qiziqish va hayajonni uyg'otishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. O'quvchilarga yoshi va malaka darajasi bo'yicha boshqalar bilan raqobatlashish imkoniyatini berish ularga erishayotgan yutuqlarni ko'rishga yordam beradi va ularni mashg'ulotlarni davom ettirishga undaydi.

Sportni targ'ib qiling: Kurashni maktab va jamoat tadbirlari, masalan, namoyishlar yoki o'yinlar orqali targ'ib qilish sportga qiziqish va xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar ham sportni targ'ib qilish va kurash jamoasining yutuqlarini

namoyish qilish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin.

Resurslar bilan ta'minlash: O'quvchilarga o'quv jihozlari, jihozlari va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatini berish ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga va o'z qobiliyatlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Muvaffaqiyatlarni nishonlash: Kurash bo'yicha jamoaning muvaffaqiyatlarini nishonlash, xoh u individual, xoh jamoaviy yutuqlar bo'lsin, o'quvchilarda ularning sa'y-harakatlari bilan faxrlanishlariga yordam beradi va ularni qattiq mehnat qilishga ilhomlantiradi. O'quvchilarni erishgan yutuqlari uchun e'tirof etish va taqdirlash ham ularning sportga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarning kurashga qiziqishini rivojlantirishga turli usullar yordamida erishish mumkin. Buni amalga oshirishning ba'zi usullari:

Kurash klinikasiga mezbonlik qilish: Kurash klinikasiga mezbonlik qilish O'quvchilarni sport bilan tanishtirish va ularga tajribali kurashchilar va murabbiylardan saboq olish imkoniyatini berishning ajoyib usuli hisoblanadi. Klinikalar asosiy texnika, strategiya va konditsionerlikni qamrab olishi mumkin. Bu esa o'quvchilarda kurashga qiziqish uyg'otadi va mashg'ulotlarni davom ettirishga undaydi.

Kurash jamoasini tashkil qilish: Kurash jamoasini shakllantirish o'quvchilarga jamiyat va tegishlilik tuyg'usini berishi mumkin. Shuningdek, u O'quvchilarga bir-biridan o'rganish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va birgalikda raqobatlashish imkoniyatini beradi. O'quvchilarni turnir va musobaqalarda qatnashishga rag'batlantirish ularning sportga bo'lgan ishonchi va ishtiyoqini oshirishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli kurashchilarni ko'rsatish: Muvaffaqiyatli kurashchilar va ularning yutuqlarini ta'kidlash O'quvchilarni ilhomlantirishi va sportning salohiyatini namoyish qilishi mumkin. Mahalliy kurashchilar yoki murabbiylarni O'quvchilar bilan suhbatlashish va sportdagi tajribalari bilan o'rtoqlashish uchun taklif qiling. Bu, shuningdek, o'quvchilarga qarash va taqlid qilish uchun namunalar berishi mumkin.

Uskunalar va jihozlardan foydalanishni ta'minlash: Sifatli asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishni ta'minlash sportni o'quvchilar uchun yanada jozibador va qulayroq qilishi mumkin. Shuningdek, u O'quvchilarni samarali va xavfsiz o'qitish uchun zarur resurslarga ega bo'lishini ta'minlashi mumkin. Mahalliy sport zallari yoki kurash klublari bilan hamkorlik qilish jihoz va jihozlardan foydalanishni ta'minlashning ajoyib usuli bo'lishi mumkin.

Kurashni jismoniy tarbiya darslariga kiritish: Kurashni jismoniy tarbiya darslariga kiritish o'quvchilarni sportga jalb qilishi va ularni sinab ko'rish imkoniyatini berishi mumkin. Buni o'quv darslari yoki norasmiy kurash musobaqalari yoki mashqlarni o'rnatish orqali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, u o'quvchilarda kurash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va uslublarni shakllantirishga yordam beradi.

Kurash tadbirlariga mezbonlik qilish: Kurash tadbirlari, masalan, o'yinlar yoki turnirlar o'tkazish, sportga qiziqish va hayajon uyg'otishi mumkin. Shuningdek, u O'quvchilarga tajribaliroq kurashchilarni tomosha qilish va ulardan o'rganish imkoniyatini berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kanallar orqali tadbirlarni targ'ib qilish qiziqish uyg'otishga va ishtirok etishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Rag'batlarni taklif qilish: Mukofot yoki e'tirof kabi rag'batlarni taqdim etish o'quvchilarni kurashda ishtirok etishga va o'z mahoratini oshirishga intilishga undashi mumkin. Bu, shuningdek, O'quvchilar o'rtasida do'stona raqobat hissini yaratishi va ularni o'z maqsadlariga erishishga undashi mumkin.

O'quvchilarning kurash sportiga bo'lgan qiziqishini oshirishga bir qancha omillar yordam beradi. Mana bir nechtasi:

Ta'sir qilish: O'quvchilar turli kanallar orqali sport bilan shug'ullansalar, kurashga qiziqishlari ko'proq bo'lishi mumkin. Bunga kurash musobaqalarini tomosha qilish, kurash klinikalariga yoki lagerlariga borish yoki kurashchilarni o'z jamoalarida raqobatlashishni ko'rish mumkin.

Namunalar: Muvaffaqiyatli va ilhomlantiruvchi namunalarga ega bo'lish ham o'quvchilarning kurashga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Bular televizorda ko'rgan kurashchilar, mahalliy kurashchilar yoki hatto sportga ishtiyoqi bor murabbiylar bo'lishi mumkin.

Ijobiy jamoa madaniyati: Ijobiy jamoa madaniyati o'quvchilarning mahoratini rivojlantirish va kurashga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Jamoaviy ish, muloqot va o'zaro hurmatni rag'batlantirish kurashga qiziqish va ishtiyoqni uyg'otadigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi mumkin.

Sifatli murabbiylik: Kurashga ishtiyoqi bor mahoratli va tajribali murabbiylar o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirishda katta o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Murabbiylar samarali mashg'ulotlarni o'tkazishi, to'g'ri texnikani o'rgatishi va O'quvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashni taklif qilishi mumkin.

Resurslardan foydalanish: O'quvchilarga o'quv jihozlari, jihozlari va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatini berish ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga va o'z qobiliyatlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, bu sportni O'quvchilar uchun yanada jozibador va qulayroq qilishi mumkin.

Raqobat: O'quvchilarga yoshi va mahorat darajasi bo'yicha boshqalar bilan raqobatlashish imkoniyatini berish ularga erishayotgan yutuqlarni ko'rishga yordam beradi va ularni mashg'ulotlarni davom ettirishga undaydi. Bu, shuningdek, O'quvchilarga muvaffaqiyat hissi va ularning sa'y-harakatlari uchun tan olinishi mumkin.

Rag'batlantirish: Mukofot yoki e'tirof kabi rag'batlarni taqdim etish o'quvchilarni kurashda qatnashishga va o'z mahoratini oshirishga intilishga undashi mumkin. Bu O'quvchilar o'rtasida do'stona raqobat tuyg'usini yaratishi va ularni o'z maqsadlariga erishishga undashi mumkin.

Ushbu omillarni bartaraf etish va qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni ta'minlash orqali o'quvchilar kurashga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni rivojlantirishlari va potentsial ravishda sportning umrbod ishtirokchisi bo'lishlari mumkin.

O'quvchilarning kurashga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish bir qancha asosiy jihatlarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu erda bir nechta muhim jihatlarni hisobga olish kerak:

Ta'lim: O'quvchilarga kurash sporti haqida ma'lumot berish ularga sportning asoslari, usullari va strategiyalarini tushunishga yordam beradi. Buni o'quv mashg'ulotlari, videolar yoki seminarlar orqali amalga oshirish mumkin.

Targ'ibot: Kurashni qiziqarli va qiziqarli sport turi sifatida targ'ib qilish o'quvchilarda sportning imkoniyatlarini ko'rishga va unga qiziqish uyg'otishga yordam beradi. Buni ijtimoiy tarmoqlar, flayerlar, plakatlar yoki og'zaki so'zlar orqali amalga oshirish mumkin.

Inklyuzivlik: Barcha o'quvchilar kurashga qo'shilishlari va ularni mamnuniyat bilan qabul qilishlariga ishonch hosil qilish, o'quvchilar o'zlarini qulay his qiladigan va qatnashish uchun rag'batlantiruvchi muhitni yaratishga yordam beradi. Bunga stereotiplar yoki noto'g'ri qarashlardan qochish, barcha O'quvchilar uchun ishtirok etish uchun imkoniyatlar yaratish va turli qobiliyatlari yoki ehtiyojlari bo'lgan O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va turar joy bilan ta'minlash orqali erishish mumkin.

Hamjamiyat: Kurash atrofida hamjamiyat hissini rivojlantirish o'quvchilarning

sport bilan bog'liqligini his qilishlariga yordam beradi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. Buni tadbirlarni tashkil etish, jamoa yoki klub yaratish, oilalar yoki jamoa a'zolarini kurash mashg'ulotlariga jalb qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Qiziqarli: Kurashni qiziqarli va qiziqarli qilish o'quvchilarda sport bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi va ularni davom ettirishga undaydi. Bunga qiziqarli o'yinlar yoki mashg'ulotlarni kurash mashg'ulotlariga kiritish, do'stona musobaqalar tashkil etish yoki o'quvchilarga kurash bo'yicha o'z sheriklarini tanlash imkonini berish orqali erishish mumkin.

Taraqqiyot: O'quvchilarga o'z yutuqlarini ko'rish va yutuqlarini nishonlash imkoniyatini berish ularga sportga qiziqish va qiziqishni saqlashga yordam beradi. Bu fikr bildirish, yutuqlarni tan olish va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Pedagog va murabbiylar ana shu muhim jihatlariga e'tibor qaratish orqali o'quvchilarning kurashga bo'lgan qiziqishini oshirishga, sportga bo'lgan ishtiyoq va ishtiyoqni uyg'otadigan qulay muhit yaratishga yordam beradi.

O'quvchilarning kurash sport turiga bo'lgan qiziqishini g'oyalar bilan tanishtirish bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Ideallarni joriy qilish muhim bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi sabablar:

Xarakterni rivojlantirish: Kurash nafaqat jismoniy kuch va mahorat; shuningdek, aqliy qattqlik, intizom va chidamlilikni talab qiladi. Sport mahorati, hurmat va qat'iyat kabi ideallarni joriy qilish o'quvchilarda ushbu muhim xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Etika va qadriyatlar: Kurash, boshqa sport turlari singari, o'quvchilar o'rganishi va qo'llashi kerak bo'lgan axloqiy tamoyillar va qadriyatlarga ega. Adolat, halollik va mas'uliyat kabi g'oyalarni joriy qilish o'quvchilarga ushbu qadriyatlarining ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ular kurash va ularning kundalik hayotida qanday qo'llaniladi.

Ijobiy fikrlash: Kurash qiyin va talabchan sport turi bo'lishi mumkin va O'quvchilar yo'lda muvaffaqiyatsizliklar yoki muvaffaqiyatsizliklarga duch kelishlari mumkin. Ijobiylik, nekbinlik va o'sish tafakkuri kabi ideallarni joriy qilish o'quvchilarga ijobiy nuqtai nazarni va kurash safariga yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Jamoadi ishlash va yetakchilik: Kurash jamoaviy ish va yetakchilik qobiliyatini talab qiladi. Hamkorlik, muloqot va etakchilik kabi ideallarni joriy qilish o'quvchilarga ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni kurash jamoasida va undan tashqarida qo'llashga yordam beradi.

Sport madaniyati: Ideallarni joriy qilish sportchilarni adolatli raqobatlashishga, raqiblariga hurmat ko'rsatishga va jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlashga undaydigan ijobiy sport madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu barcha o'quvchilarni kutib olish va kurashda ishtirok etishga undaydigan qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratishi mumkin.

O'quvchilarning kurashga bo'lgan qiziqishini g'oyalar bilan tanishtirish ularning nafaqat kurash mahoratini rivojlantirish, balki shaxs va yetakchi bo'lib yetishishlariga ham yordam beradi. Pedagog va murabbiylar odob-axloq, qadriyatlar va xarakterni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlab, o'quvchilarning kurash sporti bilan chuqurroq va mazmunli aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajko Petrov. Freestyle and greco-Roman wrestling. Lausanne, 1985. 267
2. Чердевич г.л. Организация учебно-тренировочных сборов. -М.

EDUCATIONAL TECHNOLOGY AND METHODOLOGY IN TEACHING SPECIAL SUBJECTS TO STUDENTS

Urinov Uygun

*Bukhara Engineering-Technological Institute, 200100, Bukhara region,
Bukhara city, 15, K. Murtazoev str., Republic of Uzbekistan*

Annotation. This article describes the use of new pedagogical technologies and the use of educational methods in the course of teaching students in special subjects. The methodology of the teaching process is explained on the example of the subject of automated production technology, which is taught in technical higher education institutions.

Keywords

Teacher, student, educational material, case study, educational method, pedagogical technology, types of cases, automated production technology.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И МЕТОДИКА В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ СТУДЕНТОВ

Уринов Уйгун

*Бухарский инженерно-технологический институт, 200100, Бухарская область,
г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15, Республика Узбекистан*

Аннотация. В данной статье описывается использование новых педагогических технологий и использование методов обучения в процессе обучения студентов специальным предметам. Объясняется методика учебного процесса на примере предмета «Технология автоматизированного производства», который преподается в технических вузах.

Ключевые слова. Учитель, ученик, учебный материал, кейс, учебный метод, педагогическая технология, виды кейсов, технология автоматизированного производства.

TALABALARGA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYASI VA METODIKASINI QO'LLASH

O'rinov Uyg'un

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, 200100, Buxoro viloyati,
O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri, K. Murtazoyev ko'chasi, 15-uy*

Annotasiya. Ushbu maqolada maxsus fanlar bo'yicha talabalarga o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ta'lim usullaridan foydalanish yo'nalishlari yoritilgan. Texnik oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasi fani misolida o'qitish jarayonining metodikasi keltirilgan.

Kalit so'zlar. O'qituvchi, talaba, o'quv material, keys, o'quv metodi, pedagogik texnologiya, ish turlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasi.

Introduction. Currently, the development of the production sector and rapid changes in the development of science and technology require the development of the education system. That is, it is important to train specialist personnel who will serve the form, methods, tools and methods of traditional education for today's development stage of education. As a result, the creation of a system of non-traditional forms of education based on the individuality, uniqueness and needs of the student, i.e. methods encouraging the student to think independently and creatively, is rising to the level of an actual issue. This requires the use of modern pedagogical technologies in the field of education, which is constantly developing. Therefore, the use of modern pedagogical technologies at all stages of the educational system is a requirement of the present time.

Today, the lack of educational methodical literature on the use of pedagogical technologies

leads to their limited use in the course of the lesson. Also, among teachers, there are many cases of viewing pedagogical technology and educational methodology as one concept. As a result, when some teachers conduct classes by changing the teaching methods, it gives the impression that they have applied pedagogical technologies to the classes. In fact, there is a huge difference between them, and they have different goals in the educational process. Therefore, below, we found it permissible to touch on them in order to enrich the concepts and ideas about pedagogical technology and educational methodology.

The main part. As a result of the analysis of the educational literature, it can be seen that research scientists approach the concept of pedagogical technology in different ways and give different definitions.

Pedagogical technology is a project of the process of formation of a person that can guarantee pedagogical success regardless of the teacher's skills.

Pedagogical technology is a technological approach to the educational process, based on predetermined goal indicators, designing the educational process.

tarqalishini tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin.



1-rasm: Metrik yulduz grafi. L_j -tarmoqning uzunligi, $j=1,2,3$

2. TARMOQLARDA CHIZIQLI ISSIQLIK DIFFUZIYASI

Bizning maqsadimiz metrik grafiklarda issiqlik tenglamasidan foydalangan holda tarmoqlangan tuzilmalarda issiqlik tarqalishini modellashtirishdir. Ikkinchisining yechimini chekli oraliqda issiqlik tenglamasi yordamida qurish mumkin. Shu sababli metrik grafik uchun masalani shakllantirishdan oldin chekli oraliqdagi $(0,1)$ issiqlik tenglamasining yechimini ifodalanishi ($c_p=1$, $\rho=1$ bilan) tomonidan berilgan.


$$\frac{\partial u}{\partial t} = k^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, x \in (0, \ell) \quad (2.1)$$

Bu erda $u(x, t)$ harorat holat funksiyasi, κ^2 issiqlik o'tkazuvchanligi.

(2.1) tenglamaning umumiy yechimini olish mumkin.

$$u(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} C_n e^{-\frac{\pi^2 k^2 n^2}{\ell^2} t} \sin\left(\frac{\pi n}{\ell} x\right), \quad (2.2)$$

Quyida bu yechimdan issiqlik tenglamasining yechimini chekli bog'langan metrik grafiklarda qurish uchun foydalaniladi. Grafiklardagi issiqlik tenglamasining matematik jihatlari ilgari ko'rib chiqilganligini ta'kidlaymiz. Bu erda biz metrik grafikdagi issiqlik tenglamasining aniq yechimini olamiz va uni tarmoqlarda issiqlik tarqalishini modellashtirish uchun qo'llaymiz.



2-rasm:

Tenglamada tasvirlangan yulduz grafigining har bir bog'lanishidan hisoblangan erteksdagi issiqlik oqimining vaqtga bog'liqligi.

Issiqlik tarqalishining muhim xarakteristikasi issiqlik oqimi sifatida aniqlanadi:

$$Q_j(x, t) = -k_j^2 \frac{\partial u_j}{\partial x}.$$

2-rasmdan ko'rish mumkin, bu erda issiqlik oqimining cho'qqidagi vaqtga bog'liqligi $Q_j(0, t)$ shakldagi kabi k_j va L_j qiymatlari uchun chizilgan.

3. NOCHIZIQLI REJIMDA ISSIQLIK DIFFUZIYASI

Tarmoqlarda chiziqli issiqlik tarqalishining yuqoridagi modeli metrik grafikda nochiziqli issiqlik tenglamasidan foydalangan holda nochiziqli rejim holatiga kengaytirilishi mumkin. Bu erda biz buni uchta yarim cheksiz bog'langan yulduz grafigi uchun ko'rsatamiz. Yulduzli grafikda quyidagi nochiziqli issiqlik tenglamasini holda ko'rib chiqamiz


$$b_1 \sim (-\infty; 0), b_{2,3} \sim (0; +\infty):$$

$$\frac{\partial u_j}{\partial t} - k_j^2 \frac{\partial^2 u_j}{\partial x^2} = -2\beta_j^2 u_j^3, x \in b_j, t > 0 \quad (3.1)$$

cho'qqi uchun chegara shartlari quyidagicha ifodalanadi

$$\beta_1 u_1(0, t) = \beta_2 u_2(0, t) = \beta_3 u_3(0, t),$$

$$k_1^2 \frac{\partial u_1}{\partial x} \Big|_{x=0} = k_2^2 \frac{\partial u_2}{\partial x} \Big|_{x=0} + k_3^2 \frac{\partial u_3}{\partial x} \Big|_{x=0}. \quad (3.2)$$



3-rasm: (3.1)-(3.2) tenglamalarda tasvirlangan yulduz grafigining har bir bog'lamida hisoblangan cho'qqidagi issiqlik oqimining vaqtga bog'liqligi, berilgan qiymatlar uchun $\beta_1 = \beta_2 = \beta_3 = 3$, $k_1^2 = 9, k_2^2 = 1, k_3^2 = 4$ va $L_1 = L_2 = L_3 = 2$.

Birinchi chegaraviy shart eritma og'irligining uzluksizligini ta'minlaydi, ikkinchisi esa issiqlik oqimining grafik tepasida Kirxgof qoidasini bajarishi kerakligini bildiradi. (3.1) tenglamaning yechimini (chegaraviy shartlarsiz) quyidagicha yozish mumkin.

$$u_j(x, t) = \frac{x/k_j - x_0}{\beta_j} \operatorname{erfc} \left(\frac{(x/k_j - x_0)^2 + 6t}{\sqrt{2}} \right) \quad (3.3)$$

Agar $\beta_j, k_j, j = 1, 2, 3$ koeffitsientlari quyidagi (cheklovlar) yig'indisi qoidasiga bo'ysinsa, chegara shartlarini (3.2) bu yechim bilan bajarish mumkin bo'ladi:

$$\frac{k_1}{\beta_1} = \frac{k_2}{\beta_2} + \frac{k_3}{\beta_3} \quad (3.4)$$

(3.4) tenglamada metrik yulduz grafigida chiziqli bo'lmagan issiqlik tenglamasining integrallanishi sharti keltirilgan. Harorat holati ham, oqim ham chiziqli holatdagidan butunlay farq qiladi. Nochiziqli rejimda cho'qqi orqali oqim vaqt o'tishi bilan juda zaif bo'ladi, harorat holati butun birinchi bog'lanishda deyarli bir xilda, ikkinchi va uchinchi bog'lanishlarda esa u bog'ning o'rtasida joylashgan. Issiqlik oqimi bilan Kirxgof qoidasining bajarilishini 3-rasmdan ko'rish mumkin, bu erda issiqlik oqimining cho'qqidagi vaqtga bog'liqligi $Q_j(0, t)$ chizilgan.

5. XULOSALAR. Tarmoq tipidagi tarmoqlangan tizimlarda issiqlik tarqalishini

chiziqli va nochiziqli bo'lmagan difüzyon rejimlarini hisobga olgan holda o'rgandik. Metrik grafiklardagi issiqlik tenglamasiga asoslangan model ikkala rejim uchun ham tarmoqlardagi issiqlik tarqalishini xarakterlash uchun ishlatiladi. Oddiy metrik grafiklarda chiziqli issiqlik(o'tkazuvchanlik) tenglamasining aniq analitik yechimlari olinadi. Bunday tizimlar uchun harorat holatlari va issiqlik oqimi hisoblab chiqiladi. Chegara shartlaridan kelib chiqib uchlarida Kirxhgof qoidalarini bajarilishi ko'rsatilgan. Nochiziqli rejim metrik yulduz grafigida chiziqli bo'lmagan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi asosida o'rganiladi. Nochiziqlilik koeffitsienti yig'indisi qoidasi ko'rinishida yozilishi mumkin bo'lgan ba'zi cheklovlarni bajargan holda aniq echimlar olinadi. Yuqoridagi modellarni polimerlar, uglerodli nanotrubka tarmoqlari, DNK va turli xil past o'lchamli tarmoqlar kabi turli tarmoqlangan materiallarda chiziqli va nochiziqli issiqlik tarqalishini o'rganish uchun qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- [1] T.Kottos va U.Smilanski, Ann. Phys., 1999.
- [2] Oleg Xul va b., Phys. Red. E 69, 2004y.
- [3] P.Kuchment, Волны в случайных средах, 14 с107 (2004).
- [4] S.Gnutzmann и U.Smilansky, Adv.Phys. 55 527 (2006).
- [5] N. Gol'dman va P. Gaspar, Phys. Red. V 77, 024302 (2008y.).
- [6] P.Eksner va X.Kovarik, Квантовые волноводы. (Springer, 2015).
- [7] L. Pauling, J. Chem. Phys. 4 673 (1936).
- [8] K. Ruedenberg и C.W.Scherr, J. Chem. phys. 21 1565 (1953).
- [9] С. Александер, Phys. Ред. В 27 1541 (1985).
- [10] P.Exner, P.Seba, P.Stovicek, J. Phys. A: Matematika. Gen. 1988.
- [11] V.Kostrikin va R.Shrader. J. Phys. A: Математика. Ген. 1999.
- [12] J.Bolte и J.Harrison, J. Phys. A: Математика. Ген. 2003.
- [13] S.Gnutzmann, J.P.Keating, F.Piotet, Ann.Phys., 2010.
- [14] J.Harrison, T.Weyand и K.Kirsten, J. Math. физ. 2016.
- [15] Z.Sobirov, D.Matrasulov, K.Sabirov, S.Savada, K.Nakamura, Phys. (2010).

**ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЭКОЛОГИК ТАРҒИБОТЧИЛИК
ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ИШЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ ЗАРУРИЯТИ**

*Хожанов Баҳадыр Кеунимжаевич,
Нукус давлат педагогика институти,
Бошлангич таълим кафедраси ўқитувчиси*

**НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ РАБОТ ПО ПОДГОТОВКЕ
СТАРШЕКЛАСНИКОВ К ЭКОЛОГО-ПРОПАГАНДИСТСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Хожанов Баҳадыр Кеунимжаевич,
Преподаватель кафедры начального образования,
Нукусский государственный педагогический институт*

**THE NECESSITY FOR WORK TO PREPARE HIGH SCHOOL STUDENTS
FOR ENVIRONMENTAL ADVOCACY ACTIVITIES**

*Xojanov Baxadir Keunimjaevich,
Lecturer at the Department of Primary Education,
Nukus State Pedagogical Institute*

Аннотация. Мазкур мақолада экологик маданият, экологик билимдонлик, шунингдек, юқори синф ўқувчиларини экологик тарғиботчилик фаолиятга тайёрлаш ишларини олиб бориш зарурияти ёритиб берилди.

Таянч сўзлар: Экологик маданият, экологик онг, экологик, ҳуқуқий, ахлоқий ва эстетик қарашлар, ижтимоий - экологик муносабат, экологик-тарғиботчилик онг, экологик тарғиботчилик тушунча.

Аннотация. В данной статье освещается экологическая культура, экологические знания, а также необходимость проведения работ по подготовке старшеклассников к эколого-пропагандистской деятельности.

Ключевые слова: Экологическая культура, экологическое сознание, экологические, правовые, нравственные и эстетические взгляды, социально-экологическое отношение, эколого-пропагандистское сознание, понятие экологической пропаганды

Annotation. This article deals with ecological culture, ecological awareness, as well as the need for work to prepare high school students for environmental advocacy.

Key word: Ecological culture, ecological consciousness, ecological, legal, moral and aesthetic views, social and ecological relationships, ecological advocacy consciousness, the concept of ecological propaganda

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мувофиқ Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг IV. Миллий манфатлардан келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш боби “Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш, шаҳар туманларда экологик аҳволни яхшилаш “Яшил макон” умуминсоний лойиҳасини амалга ошириш” деб белгиланганлар. Чунки, экологик хавфсизлик муаммоси аллақачонлар миллий ва минтақавий доирадан чиқиб, бутун инсониятнинг умумий муаммосига айланган. Табиат ва инсон ўзаро муайян қонуниятлар асосида муносабатда бўлади. Бу қонуниятларни бузуш ўнглаб бўлмас экологик фалокатларга олиб келади. Бу муаммоларни ҳал этиш ёшларнинг билими, онги, ақл заковатига боғлиқ.

Республикамизнинг умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синф ўқувчиларини экологик тарғиботчилик фаолиятига тайёрлашнинг педагогик механизмини такомиллаштириш, дарсдан ташқари машғулотларда экологик билимлар мустаҳкамлаш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш бўйича тарғибот ишларини олиб боришга тайёрлаш зарурияти туғилмоқда. Экологик вазиятнинг

ниҳоятда кескинлашуви, ишлаб чиқариш муносабатларининг мураккаблашуви инсоннинг табиатга нисбатан илмийамалий фаолиятини қатъий равишда тартибга солишни талаб этмоқда. Мазкур талаблар Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлари мазмунида ўз аксини топган. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (XI боб, 50-модда) да: «Фуқаролар атроф, табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар» деб кўрсатилган. Бу ҳар бир фуқаронинг ҳаёт тарзига айланиши лозим

Табиат ва жамият борасида ғамхўрлик кўрсатиладиган жамиятдагина инсон ва табиат ўзаро муносабатларининг ҳақиқий қулай-шакллари мавжуд бўла олади. Бундай жамиятда ижтимоий ишлаб чиқариш ва табиатни муҳофаза этишга, ернинг шўрланиши, сувнинг ифлосланиши, ўлканинг флора, фауна системасининг бузилиши, атроф-муҳитни асрашга даъват қилиш мақсадлари ўртасида ҳеч қандай зарурат бўлмайди. Атроф-муҳитни муҳофаза этиш учун курашишга даъват этиш, тарғибот- ташвиқот ишларини олиб бориш сўзсиз, Республикамиздаги ҳар бир ўқувчининг фуқаролик бурчига айланмоғи лозим. Шунини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, ёшларнинг экологик онгини шакллантиришнинг муҳим йўналишларидан бири – уларда табиатга бўлган ахлоқий муносабатларни тарбиялашдир.

Ҳар бир мактаб ўқувчиси она табиатни ўзи яшайдиган уй деб билиши, унинг компонент(ҳаво, сув, тупроқ)ларини эса, яшашим, ўқишим ва билим олишим учун зарур бўлган муқаддас манба деб ҳисоблаши зарур.

Ана шундагина, ўсимликларни пайҳон қилмаслик, гулларни юлмаслик, ўрмонлар, кўчаларда юрганда шовқин чиқармаслик; атрофга ахлат тўкмаслик, ёнгин чиқармаслик, дарахтларни кесмаслик; тўпроқ, ҳаво, сувни ифлос қилмаслик, йирткич ҳайвонларни ўлдириш мумкин эмаслиги, энергия, Ер ва сувдан унумли фойдаланиш зарурлиги англаб етади. Бу эса, ўқувчида ўз Ватани шарафини онгли равишда ҳимоя қилишга, унинг қонун, қарорларини сидқидилдан бажарадиган инсон сифатида табиат ва унинг компонентларини кўриқлашга, унинг энг яқин ишончли дўсти ва ҳимоячиси бўлишга даъват этади.

Ўқувчи табиат ва унинг қонуниятларини, сирларини билиб олишга интилади, ҳар қандай шароитда ҳам табиат, атроф муҳитни кўриқлаш ва унинг бойликларидан унумли фойдаланиш ғояларини қўллаб-қувватлашга, шунга амал қилиб онгли равишда, фаол тарғиб этишга ҳаракат қилади.

Бундай ишларни амалга ошириш мактабларда ташкил этиладиган дарсдан, синфдан ва мактабдан ташқари тарбиявий ишлар жараёнида амалга оширилади. Бу ҳақида Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясининг “Умумий ўрта таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириш бобининг 24- Умумий ўрта таълим муассасаларида ташкил этиладиган экологик тўғарақлари ўқув дастурларида янги, самарали ва таъсирчан машғулот ва тадбирларни киритиш масаласига алоҳида эътибор қаратиш зарурлиги келтириб ўтилган. Илғор ўқитувчилар мактаблардаги мавжуд имкониятларни ҳисобга олиб, мактаб ва дарсдан ташқари вақтларда ўтказилган машғулотлар мазмунига экологияга оид билимларнинг хилма-хил жиҳатларини сингдиришга ҳаракат қилмоқдалар. Айниқса, биология, кимё, физика, меҳнат таълими ўқитувчилари ўқувчиларни асосий экологик ғоялар ва тушунчалар билан таништиришда экологияга доир материаллар мазмунига таяниб, иш олиб борадилар.

Атроф муҳитга таъсир этаётган инсон фаолияти экологик онглилик, экологик онгсизлик, экологик идрок, экологик тафаккур, экологик маъсуллик, экологик фаоллик ва экологик фаолиятсизлик, экологик маданият ва экологик маданиятсизлик экологик маънавият, каби тушунчалар асосида баҳоланмоқда. Ўз - ўзидан равшанки, мазкур тушунчалар мазмунида ахлоқий асослар ҳам алоҳида аҳамият касб этади.

Экологик маданият тушунчаси бугунги кунга қадар эколог, файлосуф, социолог,

психолог, физиолог ҳамда педагог олимларининг асарларида ўз талқинита эга бўлди.

Олим Б. Маҳкамов ўзининг илмий тадқиқот ишида экологик муаммоларни ечишда инсонда экологик маданият юқори даражада ривожланган бўлиши кераклигини таъкидлаб, экологик маданият тушунчасини қуйидагича изоҳлашга ҳаракат қилади[3]:

Экологик маданият - бу ижтимоий тараққиёт ҳамда биоценоз ўртасидаги мутаносибликни максимал даражада таъминлашга йўналтирилган ижтимоий фаолиятнинг сифат даражаси.

Экологик маданият тарихий - объектив шароитда субъект томонидан ташкил этиладиган фаолият даражаси сифатида табиат, атроф-муҳит ҳамда ижтимоий муносабатлар ўртасидаги узвийлик, алоқадорлик ва яхлитликни таъминлашда экологик хавфнинг олдини олиш, уни бартараф этишга йўналтирилганликда кўринади.

Шунингдек, олим шахс экологик маданиятининг методологик асосларини қуйидагилар билан тавсифлайди:

шахс экологик маданияти уйғун равишда ташкил этилган экологик таълим-тарбиянинг самараси сифатида намоён бўлади;

шахс экологик маданияти ижтимоий - объектив, тарихий шароитда қарор топган ижтимоий - экологик муносабатлар мазмуни асосида шаклланади;

шахс экологик маданияти – у мансуб бўлган ижтимоий - тарихий жамият тараққиёти даражаси ва мазмунига бевосиба боғлиқ бўлади;

шахс экологик маданияти ижтимоий - экологик муносабатларни ташкил этиш жараёнида атроф – муҳитга фаол ва онгли равишда ёндашувда намоён бўлади;

шахс экологик маданиятининг шаклланиши табиий муҳит софлиги ва яшовчанлигини, шунингдек, ижтимоий цивилизация ривожини кафолатлайди.

Бундан келиб чиқиб, экологик маданият субъект фаолиятини ташкил этишда ижтимоий – ахлоқий қадриятлар ҳамда табиат, атроф-муҳитга нисбатан оқилона, чуқур мулоҳазали, ўлчовли хатти - ҳаракатларни йўлга қўйиш демакдир.

Бизнинг эътиборимизни тортган, жамият ижтимоий ҳаёти ҳамда экологик тизим доирасида ўзига хос ўрин тутувчи ва шахс хулқ - атвори, хатти - ҳаракати ва фаолиятининг етакчи сифат кўрсаткичи бўлган экологик онгнинг мазмуни нимадан иборат, у қачон ва қандай ҳолатда намоён бўлади, уни шакллантириш йўллари қандай, бунинг учун қандай экологик ташвиқот-тарғибот ишларини олиб боришимиз керак ва уни қандай амалга ошириш мумкин каби саволлар мажмуи тадқиқот ишимизни олиб бориш жараёнида ўз ечимига эга бўлиши учун ҳаракат қилдик. Ишнинг мазмунини очиб бериш борасидаги дастлабки сайи ҳаракат – “экологик маданият» тушунчасини шарҳлаш, унинг илмий - педагогик асосларига ургу бериш, сўнг эса онг, онгсизлик, экологик онг ҳақида фикр юритишдан иборат.

Табиатни севиш уни асраш борасида зардуштийлик динининг муқаддас китаби «Авеста» да илгари сурилган фикрларга, ислом динининг муқаддас китоби «Қуръони Карим» ва «Ҳадиси Шариф» асарларида янада кенг ва батафсил тўхталиб ўтган.

Атроф-муҳит тозалиги мусоффолиги борасидаги ғоялар мазкур манбаларда марказий ўринни эгаллар экан, унда жумладан шундай дейилади: «Бирортангиз экиш учун қўлингизда бирор бир кўчатни ўшлаб турган бўлиб қолса-ю, қойим бўлишидан у илгарироқ уни экиб олишга кўзингиз етса, албатта экиб қўйинг». Хулоса шуки, дарахтлар атроф- муҳит софлигини таъминловчи муҳим манба ҳисобланади. Уларнинг қай даражада қупайиши табиий муҳит мувозанатининг барқарорлашувига олиб келади.

Экологик таълим муаммосини ҳал этиш борасида бир мунча ишлар амалга оширилди. Айниқса: XX аср охири, XXI аср бошларида ўқувчиларга экологик таълим бериш муаммосини тадқиқ қилиш сезиларли даражада ривожланди.

Жумладан, экологик таълимнинг мақсад, вазифа, тамойиллари, мазмуни, шунингдек, ўқувчиларда экологик онгни шакллантириш, тафаккурни ривожлантириш, билимни чуқурлаштиришга оид назарий масалалар рус академиги И.Д.Зверев ҳамда Проф. А.Н.Захлебнийлар томонидан ҳал этилди.

Педагогика фанлари доктори, профессор Э.О.Турдикулов ўзининг «Табиатни севинг, ардоқланг» номли ўқувчилар ва тўғарак аъзолари учун ўқув қўлланмасида табиат ва инсон, инсоният ва унинг яшаш муҳити; табиатга инсоннинг антропоген таъсири; атроф-муҳитни ифлословчи манбалар ҳақида маълумотлар, шунингдек, қўлланмада табиатни муҳофаза қилиш ўйини, ўсимликларни ўрганиш ва кўриқлаш, Атмосферани ўрганиш ва муҳофаза қилиш, оромгоҳда бўлганда, чиқинди ва ташландиқларга қарши курашиш, табиатнинг сўлим гўшаларини асраш, сувни қадрлаш, эъзозлаш, олов билан муаммола қилиш маданияти ҳақида батафсил маълумотлар беришга ҳаракат қилган.

Олима Н. Ашурова Ўзбекистон миллий мактабларидаги III-IV синф ўқувчиларини экологик тарбиялашнинг илмий асосланган йўллари, шакллари ва методлари, шунингдек, бошланғич синф ўқувчиларининг экологик маданиятини шакллантиришга имкон берувчи табиатшунослик дарслари ва синфдан, мактабдан ташқари табдирларнинг имкониятларидан фойдаланишга асосланган самарали тизимини яратишга ҳаракат қилган.

В. Саттаров қишлоқ хўжалик меҳнати таълими жараёнининг экологик мазмун ва имкониятларини аниқлаш, таълим ва тарбиянинг ноанъанавий ташкилий шакллари ва методлари қишлоқ хўжалик меҳнати дарслари, синфдан ва мактабдан ташқари машғулотлар жараёнида ўқувчилар экологик маданиятини шакллантириш аңдозасини яратишга ҳаракат қилган.

Юқорида келтириб ўтган олимларимиз тадқиқотларида экологик тарбия бериш масалалари, экологик маданиятни шакллантиришнинг аҳамиятини очиб беришга ҳаракат қилишган. Биз эса ўз ишимизда ўқувчиларни экологик тарғиботчилик фаолиятига тайёрлаш долзарб педагогик муаммо эканлиги илмий –амалий жиҳатдан асослаб, ўқувчилардан экологик тарғиботчилар тайёрлаш методларини, илмий методик тавсияларни ишлаб чиқишга ҳаракат қилганмиз.

Экологик таълим-тарбияга эътибор бермаслик - келажак авлодларимиз ҳаётига бефарқликдан бошқа нарса эмас.

Камол топган ахлоқийлик, эзгулик, ўз эҳтиёжларини чеклай билиш, бошқаларнинг меҳнатига ҳурмат билан муносабатда бўлиш ва ниҳоят, экологик саводхонлик биз учун бугунги кунда зарур бўлган нарсалар ана шулардир.

Яна бир нарсани ҳеч ёддан чиқармаслик лозим, ҳар бир инсон табиат гўзаллигини кўра билсин, унинг саҳийлигини унутмасин, табиатдан ҳайратланиб, ажабланиб, завқланиб яшасин ва бошқаларга ҳам уғит-насихат қила билсин. Илло, гўзаллик ярата билган инсонгина табиатнинг улўғлиги ва чиройини қалбан ҳис қила билади. Демак, у мана шу табиатни муҳофаза қилишга бошқаларни ҳам даъват эта олади, тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бора олишга қодир инсонлардир.

Ҳар бир шахс табиат, атроф муҳитни ўзининг меҳр-муҳаббат ва шавқати билан муҳофаза қилишдек олий маданиятга эга бўлсагина, экологик муаммоларнинг олди олинади, цивилизация хавф-хатардан омон қолади.

Ҳар бир ота-она фарзандларини, шунингдек, устоз ўз шогирдларини табиатни севиш, ардоқлаш, ерга, тўпроққа меҳр кўйишга, ўсимлигу жониворларни ардоқлаш руҳида тарбия қилишлари зарур. Ҳар бир ота-она болалари гўдақлик чоғиданок табиатга нисбатан бемехрлик билан енгил-елпи қарасалар, сувни ифлос ва исроф қилсалар ҳавони ҳар хил заҳарли газлар билан ифлосласалар, бу оғир оқибатларга олиб келишлигини билмоқлари керак.

Ўқувчи- ёшларда экологик онг ва маданиятни тарбиялашда оила, болалар боғчаси, мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари, олий ўқув юртлари, маҳаллаларда олиб борилаётган таълим ва тарбиявий ишлар муҳим аҳамиятга эга.

Мактабларда машғулотлар ўтказиш жараёнида экологик тарғибот ишларини мақсадга йўналтирилган ҳолда ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бунда, энг аввало, ўқувчиларда табиатга, атроф-муҳитнинг турли объектларига нисбатан, заводлар, фабрикалар, бригадалар, гуруҳлар томонидан қабул қилинган қарорларга, катта ёшдаги кишилар, ва ўртоқлари феъл-атворини, ўзларининг ҳулқини таҳлил этишга экологик ёндашувни шакллантириш борасида аниқ тадбирлар белгилаш лозим. Экологик тарбиянинг муҳим шакли ўқувчиларнинг ишлаб чиқариш таълими устаси (синф раҳбари, ўқитувчи, ётоқхона тарбиячиси) раҳбарлигидаги табиатни муҳофаза этиш, мактаб ҳудудларини ободонлаштириш, кўчат-дарахтлар экиш ва уларни назорат қилиш; қушлар ва ҳайвонлар учун уя ва ин қуриш; булок, кўл ва ариқларни ахлат ва чиқиндилардан тозалаш; туман ҳудудига яқин жойлашган қишлоқ ёки шаҳар атрофидаги оромгоҳларга оталиқ қилиш ва бошқалар бўйича ташкил этилган амалий ишларидир.

Бундай ишлар натижасида ўқувчиларда табиат билан боғлиқ зарурий экологик, ҳуқуқий, ахлоқий ва эстетик қарашлар шаклланади. Ўқувчиларининг табиатдаги ўрнини, она шаҳри ёки қишлоғи учун табиат муҳофазаси борасидаги фаолиятнинг аҳамиятини, ер ва ҳаво, кўл, дарёларни тоза сақлаш масалаларини ҳал этишда фаол ҳаётий нуқтаи назарнинг долзарб эканини тушуниб етадилар ва бошқаларга ҳам тарғиб қилиш фикрига келадилар. Айнан ўқувчиларнинг табиатни муҳофаза этиш борасида мақсадга йўналтирилган амалий фаолияти индивидуал экологик онгнинг шаклланишида зарурий шарт ҳисобланади. Ўзбекистонда экологик таълим ва тарбия масалалари «Боғча болалари тарбияси дастури»га ҳам киритилган. Бу долзарб масаланинг кейинги босқичлари экологик таълим мактаблари, касб-ҳунар таълими муассасалари ва олий ўқув юртларида ҳамда бевосита корхоналарда давом этирилади. Ўқувчиларнинг мактабда табиатшунослик, биология, география, физика, кимё ва бошқа фанлардан олган билимларидан мактабда дарсдан, синфдан ва мактабдан ташқари ишлардаги экологик таълим ва тарбия жараёнида кенг фойдаланиш лозим.

Фойдаланган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” ПФ-60 сонли Фармони. <https://lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 8-декабрь 1992 йил <https://lex.uz>
3. Б. Маҳкамов «Меҳнат таълими жараёнида интерфаол усуллар воситасида ўқувчиларда экологик онгни шакллантириш» Дисс...канд.пед.наук. –Т., 2009. -174 с.
4. Турдикулов Э.О., Турдикулов У.Э. Марказий Осиёда экологик таълим тараққиёти. –Т.: Фан, 2005. -504 б.

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИ
МОНИТОРИНГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК
МЕХАНИЗМЛАРИ**

Хўжаев Алижон Атабекович,

*Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги бўлим бошлиғи, п.ф.ф.д. (PhD),
доцент*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ МОНИТОРИНГА
КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШЕХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Худжаев Алижон Атабекович,

*Начальник отдела Министерства высшего образования, науки и инноваций,
д.ф.п.н. (PhD), доцент*

**PEDAGOGICAL MECHANISMS OF IMPROVING EDUCATION
QUALITY MONITORING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Khudjayev Alijon Atabekovich,

*Head of department in the Ministry of higher education, science and innovations,
PhD in pedagogical sciences, asso.prof.*

Аннотация. Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида ўқитиш самарадорлиги ва таълим сифатини ошириш, таълим жараёнини бошқариш механизмлари хусусида фикр юритилади. Таълим сифатининг мониторинги ва унинг самарали бошқарилиши, ўқув-тарбия жараёнига инновацияларни жалб қилиш масалалари кўриб чиқилган. Таълим тизимидаги ислохотларда замонавий ахборот технологияларининг аҳамияти таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: олий таълим тизими, таълим сифати, давлат таълим стандартлари, ўқув дастурлари, таълим сифати мониторинги, таълим сифати регистри.

Резюме. В данной статье обсуждаются механизмы повышения эффективности и качества образования в высших учебных заведениях, управления образовательным процессом. Рассмотрены вопросы мониторинга качества образования и эффективного управления им, привлечения инноваций в образовательный процесс. Анализируется значение современных информационных технологий в реформировании системы образования.

Ключевые слова: система высшего образования, качество образования, государственные образовательные стандарты, образовательные программы, мониторинг качества образования, регистр качества образования.

Abstract. In the following article the mechanisms for improving the effectiveness and quality of education in higher education institutions, as well as mechanisms for managing the educational process are discussed. The issues of monitoring the quality of education and its effective management, involving innovations in the educational process were considered. The importance of modern information technologies in educational system reforms is analyzed.

Key words: system of higher education, education quality, state education standards, education programs, education quality monitoring, education quality register.

Кириш. Таълим сифати мониторингини бошқаришдаги мавжуд тизимни жорий, қисман, хусусий, умумий ва изчил такомиллаштириш асосида амалга ошириш мумкин. Таълим сифати мониторинги ва уни самарали бошқариш учун ривожланишнинг объектив тенденциялари, аниқроғи, таълимни

ривожлантиришнинг мунтазамлигини билиш керак. Бугунги кунда таълим сифати мониторингини бошқаришнинг асосий омили – таълим бошқарувини такомиллаштириш, замонавий таълимнинг барча ижобий фазилатлари билан изчил ислохот қилишдир. Таълимни ислох қилишнинг асосий мақсади унинг сифатини оширишдан иборат. Ислохотга ёндашувлар турлича бўлиши мумкин. Таълим сифатини яхшилашга олиб келадиган ўзгаришларни амалга ошириш ёки, ҳеч бўлмаганда, унинг жадал ривожланиши учун қулай шарт-шароити яратиш лозим. Таълимга бўлган эҳтиёжларнинг ўзгариши ва уларни татбиқ этиш учун шароит яратиш таълим сифатига кўпроқ эътибор қаратишни талаб қилади. Мантикий тузилишни белгилайдиган таълим сифатини тушуниш, бу ёндашув замонавий ижтимоий ривожланишдаги таълимнинг ролини баҳолаш ва таҳлил қилиш ҳамда асослашнинг бошланғич нуқтасидир.

Асосий қисм. Ўқитиш ва тарбиялаш жараёни турли тарихий даврларда вақт ҳамда ижтимоий муносабатлар даражасига мос тарзда турли шакл ўзгаришларига учраган, бироқ таълимни такомиллаштириш йўллари ҳақидаги масала ҳамма вақт долзарб бўлиб қолаверган.

Бугунги кунда кадрлар тайёрлаш масаласига давлат сиёсати даражасида алоҳида эътибор берилаётгани олий таълим соҳасидаги ислохотларнинг янги сифат босқичига кўтарилишидан далолат бермоқда.

Шу билан бирга ҳозирги замон олий таълим тизими олдида турган долзарб масалалардан бири ўқув жараёнини бошқариш орқали таълим сифатини ошириш эканлиги эътироф этилди. Таълим сифати илмий тадқиқот объекти сифатида дунёнинг ривожланган давлатларида кенг ўрганилган ва жорий этилган. Таълим муассасаларида ўқув жараёнида таълим сифатига эътибор сусаймаган бўлса-да, тизим сифатида энди шаклланимоқда.

Юксак замонавий ривожланиш йўлига ўтиш миқёсида муҳим аҳамиятга эга энг муҳим омил фақат техник ғояларни ишлаб чиқариш эмас, балки ички ва ташқи бозорларга харидорғир маҳсулотлар ишлаб чиқариш, шунингдек, уни амалга ошириш учун илмий - техник соҳа ва юксак технологияларни ишлаб чиқарувчи малакали мутахассисларини илғор таълим муассасаларида ўқитишнинг лозимлигидир.

Ўқув режаларига янги фанларнинг киритилиши ўқитиш технологиясини ташкил қилишнинг янги шакллари қўллашни тақозо қилади. Бу ҳолатда педагогик билимнинг аҳамияти ортади. Шу боисдан ҳам, ўқитувчиларнинг замонавий технологияларни ўрганиш ва қўллашга бўлган муносабатини ўзгартириш зарурдир.

Бугунги кун ўқитувчилари таълим жараёнида қўллашлари мумкин бўлган замонавий инновацион услублар, ахборотлар базасига етарлича эгадирлар. Бунинг учун замонавий компьютер ва бошқа ахборот коммуникацион технологияларини, электрон дарсликлар, видеоматериаллар, фотоматериалларни, интернетдан етарлича фойдалана олишга ўзини ўргатиши зарурдир. Буларнинг ҳаммаси педагогик изланувчилик фаолиятини таъминлайди [1].

Профессор-ўқитувчилар турли хил замонавий педагогик технологияларни қўллаши мумкин. Масалан, фаол ўқитишнинг имитацион усуллари, лойиҳалар усули, ўқитишда ҳамкорлик, креатив ўқитиш, маъруза-пресс-конференция, муаммоли ва ўйинли технология, жамоавий ва гуруҳли фаолият технологияси, турли ҳолатларни таҳлил қилиш усули, маъруза-суҳбат, визуал маъруза ва бошқалар шулар жумласидандир.

Ўқув-услубий жараёнда замонавий фаолият – педагогнинг ўз касбини такомиллаштиришдаги мавжуд шакл ва воситаларни эгаллашга ижодий ёндашувини назарда тутди. Таълим менежментидаги инновациялар ва замонавий педагогик фаолият ҳақида барқарор ҳамда ҳаммага маъқул бўлган илмий тасаввурлар ва таснифларни янада такомиллаштириш зарурлигини эътироф этиш лозим. Бундай ҳолатнинг асосий сабабларидан бири таълимга йўналтирилган илмий билимлар

тизимлари ўртасидаги қийинчилик билан енгиб ўтиладиган узилишлардир. Ўқитувчи замонавий фаолиятнинг субъекти ва ташкилотчиси сифатида янгиликни яратиш, қўллаш ҳамда оммалаштиришда иштирок этади. У фандаги билим, анъаналардаги ўзгаришлар мазмунини ва моҳиятини таҳлил эта билиши керак.

Таълим жараёнининг «замонавий» технологиялари талабани нафақат ижтимоий, касбий билимлар билан таъминлайди, балки унда касбига хос сифатлар шаклланишига ҳам ёрдам беради. Таълим жараёнининг технологияси қуйидаги асосий мақсадларга эришишга хизмат қилади:

- давлат манфаатларига мос ҳолда, талабани бўлажак мутахассис сифатида тайёрлайди;
- талабани жамият аъзоси сифатида шакллантириб, ижтимоий тажриба, кадриятларни, меъёрларни англаган жамият манфаатлари билан ҳамоҳанг фаолият кўрсатувчи кадрни тайёрлайди;
- талабани фаол, ташаббускор, креатив фикрлашга қодир шахс сифатида ривожлантиради.

Шуни таъкидлаб ўтиш лозимки, профессор-ўқитувчиларнинг замонавий фаолиятга тайёрлигининг муҳим ижтимоий ва касбий сифатлари, нафақат таълим муассасасидаги иқтисодий ва молиявий вазиятга, балки бевосита бу сифатларнинг талаб этилганлиги билан ҳам боғлиқдир. Замонавий олий таълимнинг асосий реал талабларидан бири ўқитувчиларнинг касбий сифатлари ва етарлича малакага эга бўлишидир. Шу жиҳатдан кадрлар масаласи ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Чунки «Кадрлар масаласини ҳал этмас эканмиз, саъй-ҳаракатларимиз кутилган натижаларни бермайди, ҳаётимиз, маънавиятимиз эса ўзгариши қийин бўлади» [2].

Олий таълим муассасалари факультетларида профессор-ўқитувчилар ёш ўқитувчиларга таълим бериш сирларини ўргатиши, ўқитиш услубларини қўллаш бўйича маслаҳатлар бериши, интерактив ўқитиш усулларини намоён қилиши зарур.

Натижада ўқитувчилар қуйидагиларга эришадилар:

- ўз фаолиятларини баҳолашнинг янги усулларини топиш, касбга бўлган қарашни ўзгартириш;
- педагогик ва ижодий қобилиятларини намоён этиш;
- ўқитувчиларда касбий масъулият ва фидойиликни ривожлантиради.

Шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кун нафақат юқори интеллектуал салоҳиятга эга бўлган ёшларни, балки миллий уйғониш ва умумбашарий кадриятларни идрок этиш мафкураси асосида, ватанга меҳр-муҳаббат, мустақиллик идеалларига садоқат руҳида таълим олган ва тарбияланган мутахассисларни тайёрлашни тақозо этади.

Ҳозирги вақтда деярли кўпчилик олий таълим муассасаларида уларнинг ўзлари томонидан кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини бошқариш, уни такомиллаштиришга бўлган интилиш объектив заруратга айланиб қолмоқда. Бундай интилиш ОТМларида сифат менежменти тизимини жорий қилиш масаласига олиб келди.

Сифатни умумий бошқариш тамойилларини ҳар бир ОТМ ўзининг шарт-шароитлари ва хусусиятларига мослаштирган ҳолда жорий этиши зарурдир. Бу ўта муҳим саналадиган масаладир, чунки хорижда оммалашган сифат менежменти анъаналарини ўзига хослигини, кўп йиллар давомида яратилган ижтимоий-маданий муҳитнинг йўқолишига олиб келмаслиги керак.

Олий таълим тизимида сифат менежменти тизимини жорий қилиш борасида таълим хизматлари сифатини назорат қилишнинг самарали тизимини яратиш учун замин ҳозирланди.

Олий таълим муассасалари фаолиятида сифат менежментини жорий этиш борасида мазкур йўналишда ҳозирги кунларгача шаклланган хорижий тажрибаларни ўрганиб, уларнинг илғор ғояларини татбиқ этган ҳолда мамлакат

олий таълим тизимининг сифат менежментини шакллантириш муҳим масаладир [3].

Таълим муассасалари сифат менежменти тизимларининг таҳлили уларни иккита гуруҳга ажратиш имкон беради:

1. Тегишли ташкилотларнинг фаол таъсирида фаолият олиб боровчи ва улар томонидан баҳолашга аҳамият берувчи таълим муассасаси сифат менежменти тизими ҳолати устидан давлат назорати механизмини лицензиялаш, аккредитациялаш, рейтингларни тузиш, молия ресурсларини тақсимлаш орқали жорий қилинади. Бунга ўхшаш сифат менежменти тизими кўпгина Европа (Франция, Германия) ва Скандинавия (Швеция) давлатлари учун хосдир.

2. Анъанавий давлат бошқаруви идоралари мавжуд бўлмаган шароитларда фаолият юритувчи таълим муассасалари сифат менежменти тизими, бу уларнинг шаклланишида ўзини-ўзи баҳолашнинг ўрни ва аҳамиятини кучайтиришни кўзда тутди (АҚШ, Жанубий-Шарқий Осиё давлатлари). Сифат менежменти тизимининг ушбу гуруҳи учун хос ёндашишларнинг ўрни ва аҳамияти дунё таълим ҳамжамиятида тобора кучайиб бормоқда.

Таълим фаолияти сифатини бошқаришнинг амалдаги ёндашувлар ва амалиётининг таҳлили шунини кўрсатадики, таълим муассасаларини, ўз мутахассислари томонидан ишлаб чиқилган давлат таълим стандартларини бажаришга, ўқитиш жараёнини ташкиллаштиришга қўйилган расмий талабларнинг назорати ва ўқувчиларнинг шаҳодатланиши асосида таълим бериш сифатини баҳолашга кўпроқ йўналган.

Олий таълим муассасаларининг сифат менежменти тизимини жорий қилиш объектлари сифатидаги асосий ўзига хос хусусиятлари қаторига бошқаришнинг учта даражасини – университет, факультет, кафедранинг тармоқланган ташкилий тузилмаси мавжудлигини; таъминотчилар ва ички истеъмолчиларнинг кўп сонли миқдори, олий таълим муассасалари ички ҳужжатларининг кўп миқдордалигини киритишимиз мумкин. Таълим жараёнининг субъектлари сифатида истеъмолчилар (абитуриентлар, талабалар, ота-оналар, корхоналар ва ташкилотлар раҳбарлари); олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, бандлик хизматлари, оммавий ахборот воситалари, ўрта махсус ўқув муассасалари; олий таълим муассасаси ходимлари қаралади [4, 70].

Олий таълим муассасаси сифат менежменти тизимини истеъмолчиларининг талабларига жавоб берувчи таълим хизматларини тақдим қилиш жараёнига йўналтирилиши керак. Таълим хизматларини кўрсатиш билан шуғулланувчи ташкилотлар бир-биридан фарқ қилувчи бир қатор хусусиятларга эга бўлиб, улар моддий маҳсулот ишлаб чиқармайди аксинча, таълим муассасаси ходимларининг кўп қисми ташқи истеъмолчи билан бевосита алоқада бўлади, хизмат кўрсатиш жараёнида истеъмолчи академик даража, касбий билим, ходимларнинг кўникмаларини қабул қилади ва баҳолайди, хизматларни кўрсатиш чегаралари эса турлича бўлиб, стандарт таълим дастури ёки ўқув режаси асосида кўрсатилиши, алоҳида ҳолларда таълим муассасаси ва истеъмолчи (корпоратив ёки хусусий) ўртасидаги келишув асосида кўрсатилади [5, 12].

Бу шароитларда орилик ва якуний натижаларни олиш ҳамда баҳолаш босқичлари аниқланиши керак. Бу умумий тавсифлар хизмат кўрсатиш жараёнининг ишлаб чиқариш жараёнидан принципиал фарқини билдиради ва таълим хизматлари соҳаси учун сифатни бошқариш тизимини махсус талқин қилишга олиб келади. Хорижий мутахассисларнинг фикрича, чет эл таълим муассасаларининг ўз сифат менежменти тизимини ишлаб чиқиш, жорий этиш ва сертификатлаш учун муайян вақт ҳамда катта маблағ сарфлаши бежиз эмас [6, 22]. Чунки бу билан обрўли хорижий иқтисодиёт секторлари учун юқори рақобатбардош малакали ходимларни етказиб бериш ҳажмини ошириш билан улар ҳам яхшигина маблағларга эга бўладилар, ҳам ўз фаолияти самарадорлигини таъминлайдилар. Сифат менежменти чора-

тадбирлари учун харажатларни тақсимлаш ҳисобидан камчиликларни аниқлаш ва тузатиш учун сарфланадиган харажат улуши, камчиликлар ҳамда номувофиклик сабабли олий таълим муассасалари фаолиятида юзага келадиган ташқи ва ички хатарлар камайиши исботланган. Бунинг натижасида умумий сарфланадиган маблағ камаяди ва кўшимча даромад олиш имконияти пайдо бўлади.

Халқаро стандартлар бўйича сифат менежменти тизimini ташкил этиш, жорий этиш ва сертификатлаш олий таълим муассасалари учун ҳам халқаро илмий-тадқиқотчилик фаолиятини амалга ошириш борасидаги халқаро шартномалар тузишда муҳим аҳамиятга эга. У олий таълим муассасасининг тендерлар, танловлар ҳамда бошқа шу каби тадбирларда иштирок этиши учун йўл очиб беради.

Натижада бу таълим муассасаси учун шартнома тузиш имконини бериши ва реклама сифатида хизмат қилиши мумкин. Сифат менежменти тизими илмий-тадқиқотчилик, нашриёт-матбаа ва ўқув-тарбия фаолиятини амалга ошириш бўйича йирик давлат буюртмалари, имтиёзли кредитлар ва суғурта турларига эга бўлиш имкониятини оширади.

Махсулот сифатининг умумқабул қилинган талқинига мувофик, «хизмат» тушунчаси «махсулот» тушунчаси таркибига тўлиқ ҳуқуқда киритилади. Бирок бу соҳадаги сифатни баҳолашда амалдаги ёндашишлар ва таълим муассасалари фаолияти сифатига тизимли ёндашишни кўзда тутмайди. Бу вазиятда ишда таълим муассасаси, алоҳида истеъмолчиларнинг эҳтиёжларигача аниқлаштирилган жамоат талабларини қаноатлантириш занжиридаги муҳим бўғин ҳисобланадиган тизимли ёндашиш тамойилларини қўллаш асосида ушбу вазифанинг ечими таклиф қилинади.

Тадқиқот доирасида қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

Олий таълим муассасаларида таълим сифати мониторингини ташкил этиш ўқув жараёнлари сифатининг кўрсаткичлари мониторингини юритиш, яъни педагог кадрларнинг касбий фаолияти ҳолатини аниқлаштириш ва таълим жараёнларни самарали ташкил этиш ҳамда бошқаришга хизмат қилади.

Таълим сифати мониторингини ташхис қилиш, амалдаги давлат таълим стандартлари, малака талабалари, ўқув режа ва ўқув фан дастурларини хорижий давлатларнинг етакчи олий таълим муассасалари тажрибалари асосида фанлар сонини оптималлаштириш ҳамда барча жабҳаларда битирувчиларнинг ютуқларини доимий баҳолаш, олий таълим муассасаларида таълим сифатига берилаётган эътибор, таълим беришда сифат ва мазмун жиҳатдан юқори савияда шароит яратиш имконини яратди.

Хулоса. Педагогик ташхис, билим, кўникма ва малакаларининг шаклланиш даражасини аниқлаш, назорат қилиш, баҳолаш, йиғиш ва статистик маълумотлар таҳлилини ҳамда келгусида бу жараён ривожини башорат қилишни ўз ичига олади. Талабаларнинг билими, профессор-ўқитувчиларнинг фаолияти, улар томонидан яратилган ўқув адабиётлари, касбий фаолияти таҳлили, улар томонидан эришилган кўрсаткичларнинг даражаси сифатида қайд этилишини эътиборга олсак, унда педагогик ташхиснинг мақсади, таълим жараёни боришини таҳлили ва уни баҳолашни ўз вақтида аниқланишидан иборат бўлади.

Шу нуқтаи назардан олий таълим муассасасида таълим сифати мониторинги талабаларнинг билими, профессор-ўқитувчиларнинг малака ва кўникмаларини баҳолаш, айниқса, таълим сифати индикаторларини назорат қилишнинг электрон тизими самарадорлигини ошириш мақсадида тинимсиз изланишлар ва такомиллаштириш ишларини олиб боришни тақозо қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 20 майдаги “Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари

тўғрисида”ги ПҚ-1533-сонли Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 18 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 515-сон қарори.

4. Маслова Л.Д. О системах оценки качества высшего образования / Л.Д.Маслова // Международный научно-исследовательский журнал. -2012. - №3 (3). - С. 64-69.

5. Звонников В.И. Контроль качества обучения при аттестации: Компетентностный подход. / В.И. Звонников, М.Б. Чельшкова. – М.: Университетская книга; Логос, 2009. – 272 с.

6. Финляндия, Швеция и США [Электронный ресурс] – Электрон. дан. – М.: 2009. http://www.pssw.vspu.ru/other/science/publications/klicheva_merkulova/chaper1_quality.htm.

7. Болонская декларация. Зона европейского высшего образования. Совместное заявление европейских министров образования. г.Болонья, 19 июня 1999 года.

8. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004, -Б. 19-62.

9. Горленко О. А. Менеджмент качества: анализ основных определений // Методы менеджмента качества. 2004. № 12. С. 34-36.

10. Р.А.Файзиев. Ш.Р.Файзиев. Олий таълим сифати ва самарадорлигини оширишда автоматлаштирилган таълим ва мониторинг тизимининг имкониятлари ва афзалликлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. №4. 2015. www.iqtisodiyot.uz

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

РОЛЬ КЛАССНОГО РУКОВОДИТЕЛЯ В РАЗВИТИИ МОТИВАЦИОННО-ВОЛЕВОЙ СФЕРЫ УЧАЩЕГОСЯ

Байбаева Мухайё Худайбергановна

доктор педагогических наук, профессор кафедры “Педагогика”

Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Мажидова Мадина Бахтиёровна

Магистрант 1 курса по специальности «Педагогика и психология»

Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация: В данной статье рассматривается о формирование мотивации учения в школьном возрасте одной из центральных проблем современной школы, делом общественной важности. Ее актуальность обусловлена обновлением содержания обучения, постановкой задач формирования у школьников приемов самостоятельного приобретения знаний и познавательных интересов, осуществления в единстве идейно-политического, трудового, нравственного воспитания школьников, формирования у них активной жизненной позиции, введением всеобщего обязательного среднего образования.

Ключевые слова: мотивация, формирование, проблема, школа, обучения, развитие, классный руководитель, сфера

THE ROLE OF THE CLASS TEACHER IN THE DEVELOPMENT OF THE MOTIVATIONAL AND VOLITIONAL SPHERE OF THE STUDENT

Baybaeva Muhayyo Khudaybergenovna

Doctor of Pedagogy, Professor of the Department

of “Pedagogy” of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Majidova Madina Baxtiyorovna

1st year master's student in the specialty «Pedagogy and psychology» of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: This article discusses the formation of learning motivation at school age, one of the central problems of the modern school, a matter of public importance. Its relevance is due to the renewal of the content of education, the setting of tasks for the formation of methods for independent acquisition of knowledge and cognitive interests among schoolchildren, the implementation of the ideological and political, labor, moral education of schoolchildren in unity, the formation of an active life position in them, the introduction of universal compulsory secondary education.

Key words: motivation, formation, problem, school, learning, development, class teacher, sphere

Социальный заказ нашего общества школе состоит сегодня в том, чтобы повысить качество обучения и воспитания, изжить формализм в оценке результатов труда учителей и учащихся. Проблема формирования мотивации учения лежит на стыке обучения и воспитания, является важнейшим аспектом современного обучения. Это означает, что здесь в поле внимания учителя оказывается не только осуществляемое школьником учение, но и происходящее в ходе учения развитие личности учащегося. Формирование мотивации — это воспитание у школьников идеалов, мировоззренческих ценностей, принятых в нашем обществе, в сочетании с активным поведением ученика, что означает взаимосвязь осознаваемых и

реально действующих мотивов, единство слова и дела активную жизненную позицию школьника. Для того чтобы учащийся по настоящему включился в работу, ему требуется мотивация. Осознание мотива деятельности (зачем мне это нужно) необходимо, чтобы задачи, которые ставятся перед школьником, были ему не только понятны, но и внутренне приняты им.

Мотив — это направленность школьника на отдельные стороны работы, связанная с внутренним отношением ученика к ней. Мотивы можно разделить на внутренние и внешние.

К внутренним мотивам относятся собственное развитие, действие вместе с другими и для других, познание нового, неизвестного.

К внешним мотивам относятся стремление к лидерству, престижу, стремление оказаться в центре внимания, получить денежное вознаграждение от родителей.

Без потребности не побуждается активность ребенка, у него не возникают мотивы, он не готов к постановке целей.

В обучении мотивом является направленность активности на овладение знаниями, на получение хорошей отметки, на похвалу родителей, на установление желаемых отношений со сверстниками.

Для того чтобы реализовать мотив, овладеть приемами самовоспитания, надо научиться ставить (и достигать) промежуточные цели: видеть отдаленные результаты своей деятельности.

Мотивы, даже самые положительные и разнообразные, создают лишь потенциальную возможность развития ученика, поскольку реализация мотивов зависит от процессов целеполагания, т. е. умения ставить цели и достигать их.

Программа по формированию целеполагания и мотивации к самовоспитанию и обучению школьников предполагает несколько этапов:

1-й этап. Определение необходимости формирования целеполагания и мотивации к самовоспитанию — процесс сбора информации, необходимой, чтобы выявить:

1. Объем и содержание необходимой помощи педагога для осуществления самовоспитания подростка;

2. Наличие педагогов, которые смогут осуществить данную помощь;

3. Определение необходимых условий для начала работы;

4. Готовность родителей к сотрудничеству с классным руководителем.

2-й этап. Разработка программы индивидуальной работы с каждым подростком по формированию целеполагания и мотивации:

1. Определение необходимой педагогу группы поддержки;

2. Составление программы с определением целей и задач;

3. Составление декларации о целях и задачах;

4. Определение времени и места встречи с подростками, нуждающимися в педагогической помощи, для ее осуществления;

5. Приведение программы в соответствие с законами школьной организации.

3-й этап. Осуществление программы индивидуальной работы с каждым подростком по формированию целеполагания и мотивации:

1. Выработка критериев определения целей и мотивов;

2. Определение готовности к выполнению поставленных целей;

3. Постоянное обновление целей после их достижения.

4-й этап. Подведение итогов работы по формированию целеполагания и мотивации.

Важно развивать и поддерживать максимально высокий уровень мотивации подростка, который окажет большое влияние на успешность его дальнейшего развития.

Среди многих вопросов, которые решает классный руководитель, одним из важнейших является развитие у детей, подростков, старшеклассников нравственных привычек и духовных потребностей, стремления к самообразованию

и самовоспитанию, воспитание деловитости и целеустремленности [2]

Классный руководитель систематически проводит работу по расширению кругозора детей, регулярно проводит познавательные беседы, организуются конкурсы лучших сочинений, докладов, рефератов. Осуществление этих мероприятий должно обязательно учитывать сферу особых интересов каждого и продолжать направление работы, какое ведется преподавателем-предметником, воспитывающим у детей привычку к серьезному умственному труду, помогающим им заниматься самообразованием.

Мы нередко упускаем из виду важнейшую сторону педагогического воздействия на формирующуюся личность, связанную с побуждением к самовоспитанию, развитием чувства долга, совести, чести. Конечно, без системы дисциплинирования детей, научно обоснованной и практически проверенной, ни одна школа не может обойтись, но система дисциплинирования не может строиться только на контроле извне, со стороны учителя, родителей или кого бы то, ни было. Нам нужно постоянно искать формы, методы, приемы воздействия, которые бы, обеспечивали потребность детей, во внутреннем самоконтроле, упражнении себя в нравственном поведении, в полезной деятельности.

Не случайно, что отсутствие у многих учеников, даже IX—XI классов, глубоких и устойчивых познавательных интересов связано, прежде всего, с отсутствием потребности в самовоспитании, самоусовершенствовании.

Осуществляя методику внеучебного воздействия на познавательные и нравственные интересы учащихся, классный руководитель, очевидно, должен, прежде всего, продумать соответствующие приемы развития потребности в самообразовании и самовоспитании, в проведении повседневной работы с учащимися.

Внеучебная воспитательная работа по привитию любви к знаниям имеет особое значение: здесь, каждый ученик изучается более глубоко, чем на уроке. В процессе этой работы создается общественное мнение класса. Классный руководитель объединяет усилия всех учащихся и учителей. Целью классного руководителя является пробуждение у учащихся любознательности, воспитание привычки к систематическому умственному труду [1].

Подростковый возраст наиболее благоприятный для углубленного развития познавательных интересов. У многих учащихся к этому периоду более отчетливо начинают проявляться склонности к тому или иному виду деятельности. Возникает постоянное влечение к чему-то. Но есть и особые искатели приключений, которых увлекает больше сам поиск, чем результат. Обычно это подростки с неумейной энергией и фантазией, которые без тактичного руководства могут не развить в себе упорства и целеустремленности. А есть и такие, которые словно все время ждут «толчка», чтобы решиться, как-то про явить себя.

Всегда ли мы умеем вовремя поддержать и помочь выявить интерес ученика? Всегда ли мы помним, что причины отсутствия интереса к учению, плохого поведения могут быть очень разными? Для одних нужен постоянный контроль и даже жесткие меры (когда все другие, разумеется, исчерпаны), другим нужно предоставить как можно раньше большую самостоятельность, систематически давать особые задания, а вот третьих надо понять, поддержать, помочь им вернуть веру в свои силы. И эти третьи наверняка больше всего нуждаются в вашем особом внимании — они смогут с вашей помощью преодолеть все трудности в учебе, смогут быть любознательными и активными, только не повышайте на них голоса, не торопите их и не теряйте веры в их силы. Со временем увидите, на что они способны [4].

Большинство ученых, изучавших одиночество как категорию, основывается на представлениях о том, что, во-первых, одиночество имеет тесную взаимосвязь с системой социальных связей личности, их качеством, количеством и сформированностью; во-вторых, одиночество воспринимается личностью как, преимущественно, негативное состояние; в-третьих, одиночество коррелирует по определенным параметрам с отчужденностью, изоляцией и уединением. Исследователи, занимавшиеся изучением феномена одиночества, подчеркивают его непосредственную связь с ориентацией субъекта на свой внутренний мир; с его самопознанием и способностью к рефлексии. В рамках исследования одиночества как индивидуально-личностного феномена в качестве «ядра» выделяется переживание одиночества, которое рассматривается как сущностная личная характеристика, являясь обязательным условием личностной зрелости.

Слободчиков предлагает следующую типологию одиночества: одиночество как личностно значимое состояние может быть разделено на экзистенциальное, социальное и психологическое. Экзистенциальное одиночество можно и должно рассматривать, прежде всего, как социально-философскую категорию. В нем может быть выделен «космический» пласт - связь со всеобщим космосом и одновременно - боязнь затеряться в его бесконечности (ощущение «песчинки» в мировом океане) и «витальный» (жизненный) пласт, в который входит одиночество жизни (осознание абсолютности одиночества конкретного человека). «Каждый из нас по-своему в глубине души одинок абсолютно, и страх одиночества - следствие страха прекращения жизни (основанное на страхе смерти)». [2, с.144]

Социальное одиночество, являющееся результатом состояния недостаточной социальной организованности, а также следствием разрыва значимых социальных связей, отношений.

В данном типе одиночества выделено две категории процессов и состояний:

1. Ситуации дезадаптации или конфликта. Одиночество, «непонимание» в этой группе будет результатом неумения налаживать общение, социальные контакты, конфликтных ситуаций (например, семейных, интимно-личностных).

2. Ситуации «потери». В эту группу входят все состояния, связанные с неизбежными утратами, разрывом отношений (разлад, развод, смерть близкого), а

также длительная (хроническая) разлука (переезд на новое место жительства). [2, с. 118]

Психологическое одиночество. К этому типу относятся, прежде всего, внутриличностные переживания. Так, сюда может быть отнесено одиночество «непризнания», «непохожести», одиночество как следствие раскола образа «Я».

Таким образом, на наш взгляд, среди психологических проблем, с которыми сталкиваются будущие профессионалы на этапе вузовского обучения, является чувство одиночества. Проведенное нами исследование на факультете педагогики Бухарского госуниверситета свидетельствует о том, что от младших к старшим курсам количество студентов, испытывающих чувство одиночества, остается достаточно высоким и примерно постоянным (20%).

Анализ результатов, полученных с помощью опросника «Одиночество» показал, что среди студентов первого курса есть лица, переживающие одиночество всегда – 30,8%; часто – 49%; иногда – 20,2%, что можно представить в графическом виде следующим образом (Рис.№1).

Высокие показатели переживания одиночества студентами (ответы «всегда» – 30,8%; «часто» – 49%) позволяют говорить о том, что одиночество является характерным для студентов-первокурсников в адаптационный период к обучению в вузе.




Рис.№1. Особенности переживания одиночества студентами-первокурсниками

Результаты опросника «Одиночество» у студентов-девушек и студентов-юношей представлены на рис.№2.: низкие результаты получены у 32,6 % девушек и 28,6 % юношей; средние результаты показали 50 % девушек и 55,1 % юношей; высокий уровень одиночества выявлен у 17,4 % девушек и 16,3 % юношей. Таким образом можно сказать, что девушки и юноши примерно в равной степени переживают чувство одиночества.




Рис.№2. Результаты опросника «одиночество» у студентов-девушек и студентов-юношей

Для изучения представлений об одиночестве студентов нами проведен ряд бесед-интервью, где им было предложено в свободной форме описать собственное содержательное и ассоциативное значение термина «одиночества», описать спектр ощущений, то есть провести самоанализ состояния — переживания. По результатам анализа полученной информации - одиночество в большинстве случаев (60% респондентов) воспринимается как «... тяжелое психическое состояние, обычно сопровождающееся плохим настроением и тягостными переживаниями», 37% респондентов связывают переживание одиночества с категорией «уединение», возможностью рефлексии, необходимостью для творчества, 3% респондентов затруднились ответить на поставленные вопросы.

Согласно полученным данным, одиночество признают, как в достаточной степени стабильное переживание 37% опрошенных, из них - 17% респондентов испытывают чувство одиночества почти всегда и постоянно, 50% - часто; 20% опрошенных отмечают, что никогда не испытывают ощущение одиночества, но вместе с тем многие добавляют, что по крайней мере стараются это не запоминать или не определяют негативное (дискомфортное) ощущение как одиночество.

Около 40% опрошенных отмечают, что одиночество для них - нормальное состояние, 28% одиночество нормой не считают, 32% с ответом на данный вопрос затрудняются, 52% респондентов находят состояние одиночества нужным, а 13% - необходимым, около 35% - нужным данное состояние не считают, из них 11% рассматривают его как повод для беспокойства.

Следовательно, как показало исследование, переживание одиночества является характерным для студентов-первокурсников, при этом половина опрошенных считают состояние одиночества нужным. Можно предположить, что параметры успеваемости не дают полной картины готовности студентов к выполнению своих профессиональных задач и нуждаются в дополнительном уточнении со стороны личностных параметров.

Студенты по-разному реагируют на свое одиночество в зависимости от того, как они сами к нему относятся. Очевидно, что тех, кто стремится его активно избегать, оно

тревожит и пугает гораздо сильнее, чем тех, кто к этому не стремится. Бесспорно также и то, что первые при этом испытывают негативные переживания, отсюда жалость, обращенная к себе, ощущение незащищенности и покинутости. Для вторых же характерно преобладание спокойствия, безразличия.

Для большинства студентов одиночество представляется как ситуация, вызывающая негативные переживания, что вызывает у них стремление его избежать. Наличие такого стремления характерно для студентов, не считающих себя одиночками, что может являться косвенным доказательством того, что часть из них не адекватно оценивает свое положение и на самом деле находится в ситуации одиночества. Меньшинство связывает с одиночеством положительные переживания и не выражает стремления изменить свою жизненную ситуацию, хотя и среди них имеются те, кто не адекватно считает себя одиночками. [5, с. 376]

Учитывая то, что лица, испытывающие чувство одиночества нередко характеризуются, как люди с чертами нарциссизма, мании величия, враждебности, социальной тревожности (Дж. Зилбург, Х. Салливан); раздражение, неспособность удерживать гнев и устанавливать межличностные отношения (К. Мустакас, К. Роджерс, Дж. Мур); низкая самооценка, высокий уровень застенчивости, низкий уровень — самоуважения, доброжелательности, альтруизма (Э. Пепло, Р. Вейс), они несомненно нуждаются в психологической помощи. В то же время их гностические характеристики и параметры успеваемости никак не коррелируют с их личностными проявлениями.

Таким образом, можно сделать следующие выводы. Проблема одиночества — это совокупность философского, социального, психологического и педагогического

аспектов. Одиночество является сложным и противоречивым феноменом развития личности. Оно представляет собой специфическую ситуацию, сложившуюся в системе социальных, культурных, межличностных связей и отношений человека.

Данная ситуация может рассматриваться как положительная или отрицательная. Позитивный смысл одиночества заключается в том, что оно является неотъемлемой частью становления индивидуальности человека и, в целом, процесса социализации.

Негативный характер одиночества проявляется следующим образом: одиночество нарушает внутреннюю целостность личности; оно также может быть механизмом психологической защиты, вызывая негативные переживания. На переживание одиночества влияют не столько реальные отношения, сколько идеальное представление о том, какими они должны быть. Одиночество сопровождается некоторыми типичными симптомами. Его переживание можно связать с такими свойствами личности, как: потребность в общении, тревога, депрессия.

Литература.

1. Гулина М.А. Психология социальной работы. – СПб.: Питер, 2002. – 352 с.
2. Слободчиков И.М. Одиночество личности: психологическая природа, феноменология, онтогенез: монография. М.: Скрин-Лайн, 2006.
3. Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. — 2-е изд., перераб. и доп. — Ростов н/Д: «Феникс», 2003. — 544 с.
4. Усманова М.Н. Особенности самооценки и проблемы одиночества в подростковом и старшем школьном возрасте / Психология XXI столетия //Сб. по материалам ежегодного Конгресса «Психология XXI столетия» (Ярославль, 17 – 19 мая 2019)/ Под ред. Козлова В.В. –Ярославль, ЯрГУ, ЯГПУ, МАПН, 2019.– с.342-348.
5. Усманова М.Н. Переживание одиночества в разных возрастах /Журнал «Вестник интегративной психологии», Выпуск 20, 2020.- с. 156 – 160, Ярославль, Россия
6. Усманова М.Н. Изучение особенностей переживания одиночества студентами. - Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 24. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н. Усмановой. – Бухара-Ярославль: МАПН, 2022. - с. 375-378.
7. Фельдштейн Д. И. Психология взросления. — М.: МПСИ, Флинта. - 1999.- 672с.

O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH XUSUSIYATINING TALABALIK DAVRIDA NAMOYON BO'LISHI

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Psixologiya"
kafedrasida o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsning o'zini o'zi faollashtirish xususiyatining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari hamda shaxs hayotida o'zini o'zi faollashtirishning ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talabalarda o'zini o'zi faollashtirishning namoyon bo'lishiga doir tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, shaxs faolligi, vaqtni mo'ljalga olish, qadriyatlar, inson tabiatiga nazar, bilish ehtiyojlari, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, spontanlik, o'z-o'zini tushunish.

ПОЯВЛЕНИЕ САМОАКТИВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В СТУДЕНЧЕСКИЙ ПЕРИОД

Курбанбоев Азимбек Назирбой угли

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
Преподаватель кафедры «Психология», доктор философии (PhD) по
психологии*

Аннотация. В данной статье широко освещено значение самоактивации человека, психологические теории зарубежных психологов, важные аспекты самоактивации в жизни человека. Также представлен количественный и качественный анализ исследований проявления самоактивности у студентов.

Ключевые понятия: личная самоактивация, личная активность, тайм-менеджмент, ценности, человеческая природа, познавательные потребности, творчество, автономия, спонтанность, самопонимание.

APPEARANCE OF SELF-ACTUALIZATION CHARACTERISTICS IN THE STUDENT PERIOD

Kurbanbaev Azimbek Nazirboy ugli

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,
Teacher of «Psychology» department, doctor of philosophy (PhD) in psychology*

Annotation. In this article, the meaning of self-actualization of a person, the psychological theories of foreign psychologists, and the important aspects of self-actualization in a person's life are widely covered. Quantitative and qualitative analysis of research on the manifestation of self-actualization in students is also presented.

Key words: personal self-actualization, personal activity, time management, values, human nature, cognitive needs, creativity, autonomy, spontaneity, self-understanding.

Shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, uning faollik xususiyatlari psixologiya sohasida ko'plab psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan va uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shu nuqtai nazardan olganda, shaxsning o'zini o'zi faollashtirish masalasining mazmun-mohiyati hamda bu borada psixolog olimlarning nuqtai nazarlariga e'tiborimizni qaratmoqchimiz.

Shaxsni va uning faolligini tushunish borasida G'arb psixologiyasining boshqa bir nazariy yo'nalishi "insonparvarlik psixologiyasi" birinchi qarashda psixoanalitik yo'nalishga nimasi bilandir zid bo'lib ko'rinadi. Lekin keyinchalik ular o'zlarining asosiy ta'riflariga ko'ra, bir-birlariga yaqin bo'lib ketgani aniq-ravshan bo'lib qoladi. Faollikning manbayini kashf etishga urinar ekan, o'tmishga bolaning "anglanilmagan holatga surib

chiqarilgan” taassurotlari va kechinmalariga murojaat qiladigan psixoanalitiklardan farqli ravishda rivojlanishi K.Rodgers, A.Maslou, G.Ollport va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog’liq bo’lgan “insonparvarlik psixologiyasi” kelajakka, o’zligini eng ko’p darajada namoyon qilishga (o’zini o’zi faollashtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili deb hisoblaydi.

A.Maslou, K.Rodgers va “insonparvarlik psixologiyasi”ning boshqa vakillari o’zini o’zi faollashtirishni o’z mohiyati e’tibori bilan egosyentrik (o’zini hammadan ustun qo’yish) jarayonga aylantirib yuborishadi. O’zligini faollashtirish, A.Maslou fikricha, o’zini va faqat o’zini ro’yobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va “xususiy Men”ini to’laqonli namoyon qilish uchun intilish kabi fazilatlariga ega bo’lgan “o’zini faollashtiruvchi shaxslar”ning (A.Maslouning fikricha, ularning soni unchalik ko’p emas – 1 foiz atrofida bo’ladi) o’ta individualligi haqida dalolat beradi. Haqiqatda esa agar o’zligini faollashtiruvchi shaxsni o’z xatti-harakatlari va ishlari bilan o’zini ijtimoiy jihatdan shart qilib qo’yilgan aloqalar orqali bog’langan boshqa odamlarning hissiy va aqliy jihatlaridagi o’zgarishlarni ta’minlovchi sifatida personajlashuvini amalga oshiradigan faoliyat va munosabat sub’yekti tarzida tushuniladigan bo’lsa, u holda A.Maslou va boshqalar tomonidan e’lon qilingan o’zini faollashtirish uydirmaligidan boshqa narsa bo’lmay qoladi. Haykalni yasayotgan haykaltarosh marmarda o’z rejasini mujassamlashtirishdek ijodiy intilishni ro’yobga chiqaradi va avvalambor, o’sha intilishning o’zini anglab yetgan bo’ladi. Shaxsning A.Maslou konsyepsiyasiga o’xshash tarzda “o’zligini namoyon etishi” va “o’zini faollashtirishi” kabi har xil nazariyalar aynan mana shu vaziyatni ushlab oladi va shu bilan o’ralashib qoladi. Bu holda san’atkor nima uchun o’z ijodining mahsulini iloji boricha ko’proq odamlarga va, ayniqsa, o’zicha “qadriga yetmaganlar” deb hisoblaydiganlarga, ya’ni o’zining referent guruhiga namoyish qilishga intiladi. Shunchaki o’zligini namoyon qilish, buyumda ro’yobga chiqarish, nihoyat buning uchun pul olish bilan o’zini faollashtirish ham tugallanganday bo’lib tuyuladi. Shubhasiz, ijodiy faoliyat sub’yekt-obyekt (rassom-kartina) ishi bilan tugallanmaydi va maqsad rassomning o’zi “boshqalar” hisoblaydiganlar uchun ahamiyatli bo’lgan muqarrar personajlashuvini amalga oshirish imkonini beradigan sub’yekt-ob’yekt-sub’yektga oid bog’lanish (rassom-kartina-tomoshabin)ning navbatdagi bog’ini hosil qilinmaguniga qadar ro’yobga chiqmagan bo’lib qoladi. Lekin, umuman olganda, “insonparvarlik psixologiyasi”, shuningdek, psixoanaliz nazariyasi inson shaxsining mohiyatini, uning faolligini va harakatlantiruvchi kuchlarini izohlab bera olmaydi, chunki aksariyat psixologiyadagi bu yo’nalishlar noto’g’ri falsafiy nuqtai nazarlarga tayanadi, bunday nuqtai nazarlarga tayangan holda psixologiya fanining eng muhim nazariy va metodologik muammolarini hal etib bo’lmaydi. Yolg’iz individning o’zini unga dushman bo’lgan jamiyatga qarama-qarshi qo’yish shaxsning psixoanalitik konsyepsiyalariga ham, ekzisyensialistik konsyepsiyalariga ham xos xususiyatdir. Haqiqatdan ham agar shunday bo’lsa, u holda shaxs uchun abadiy mojarodan qutilish juda ham amri maholdir: yoxud barcha shakllarda moslashuvchanlik, yoxud muhitni xush ko’rmaslik (undan o’zligini chetga olish yoki nonkonformizm yuz berishi kerak), yoxud bamisoli biron-bir tashqi narsaga mut’yelik qilmagan holda o’zligini namoyon qilishdan iborat hayotiy rejani amalga oshirish maqsadida o’zligida saqlanib qolish lozim bo’ladi.

O’zini o’zi faollashtirish nazariyasi inson mavjudligining doimiy mavzusi, ya’ni amalga oshirishning moddiy, emotsional va ruhiy tomonlarini izlash hamda inson imkoniyatini ro’yobga chiqarishga bo’lgan kuchli xohish masalasiga to’xtalib o’tadi.

Ushbu nazariya inson psixologiyasida keng qo’llaniladi, lekin o’zini o’zi faollashtirish qo’llanmalar muqovalarida chegaralanadigan tushuncha emas. U shaxsiy rivojlanish va o’zining potensialini ro’yobga chiqaradigan insonga aylanishingizga yordam beradigan loyihadir.

Kashfiyotchi Tomas Edison shunday ta’kidlagan edi: “Agar biz qo’limizdan keladigan hamma narsalarni qilganimizda, o’zimizni tom ma’noda hayratda qoldirgan bo’lardik”. Bu o’zini o’zi faollashtirish nazariyasining mohiyati hisoblanadi.

K.Yungga ko'ra, o'zini o'zi faollashtirish – bu ongli va ongsiz holatlarni birlashtirish orqali ro'y beradigan shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

O'zini o'zi faollashtirish ayrim so'z va tushunchalar, xususan, o'zini o'zi kashf qilish, o'z-o'zini refleksiyalash, o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini tadqiq etish kabilar bilan o'xshash deya qaralishi mumkin.

Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish darajasini aniqlashdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad talaba shaxsida o'zini o'zi faollashtirishning qaysi tarkibiy tuzilmasini shakllanganligi o'rganiladi.

Talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun A.V.Lazukinning "Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish" (N.F.Kalina tomonidan moslashtirilgan varianti) metodikasi tanlab olindi. Mazkur metodika talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishning 11 ta tarkibiy qismlari shakllanganlik darajasini o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

1-jadval

Talabalarda o'zini o'zi faollashtirishning namoyon bo'lishi

Shkala-lar nomi	Vaqtini mo'ljalga olish	Qadriyatlar	Inson tabiatiga nazar	Bilish ehtiyojlari	Ijodkorlikka intilish	Avtonomlik	Spontanlik	O'z-o'zini tushunish	Autosimpatiya	Aloqa o'rnatish	Muloqotdagi egiluvchanlik
1-bosqich	12,9 %	19,4 %	3,2%	29%	12,9%	3,2%	3,2%	6,5%	3,2%	-	6,5%
3-bosqich	6,25 %	18,75 %	18,75 %	31,25 %	-	-	-	12,5%	-	6,25 %	6,25%

Metodika natijalariga ko'ra, 1-bosqich talabalarining 12,9%i va 3-bosqich talabalarining 6,25%i birinchi shkala ("Vaqtini mo'ljalga olish") bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishdi. Bunday toifaga kiruvchi talabalar hozirgi vaqti bilan yashashadi hamda o'tmish xotiralari ularning bugungi kuniga xalaqit qilmaydi. Shuningdek, bunday talabalar hayotning ekzisensial qiymatini yaxshi tushunishadi, ya'ni "shu yerda va hozir" yashashadi, o'tgan vaqt bilan zavqlanmay, o'tmish bilan taqqoslamasdan va kelajakdagi muvaffaqiyatni oldindan taxmin qilmay, haqiqiy lahzadan bahramand bo'lishadi.

Shunga monand ravishda "Qadriyatlar" 1-bosqich talabalarida 19,4%, 3-bosqich talabalarida esa 18,75% ko'rsatkichi tashkil qiladi. Bunday shaxslar o'z qadriyatlarini to'la anglay olishadi, o'z-o'zini anglashni qadriyatlar bilan bog'laydi hamda bu qadriyatlar ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqat, yaxshilik, go'zallik, halollik, ikkiyuzlamachilikning yo'qligi, hayotiylik, betakrorlik, kamolot, adolat, tartib, o'yin, o'z-o'zini ta'minlash kabi qadriyat turlarining ustunligi inson manfaatlarida manipulyasiya qilish istagidan uzoqroq bo'lishni, odamlar bilan uyg'un bo'lish va sog'lom munosabatlarga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

"Inson tabiatiga nazar" shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarida 3,2% va 3-bosqich talabalarida esa 18,75% ko'rsatkichi aniqlandi. Bunday insonlar o'z qobiliyati imkoniyatlarining kuchiga ishonishadi, shaxslararo munosabatlarda samimiy, faol va kirishuvchan hisoblanishadi. Shuningdek, ular boshqalar bilan samimiy munosabatda hamda odamlarga nisbatan xayrixohlik, ishonch, halollik, betaraflik, yaxshilik xislatlariga ega bo'lishadi hamda o'zgalarga ishonishadi.

“Bilish ehtiyojlari” shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarining 29% va 3-bosqich talabalarining 31,25% yuqori natijalar qayd qilindi. Mazkur toifadagi talabalar yangilikka intiluvchi hamda o'z talab va qiziqishlarining mohiyatini yetarli darajada anglay oladigan shaxslar hisoblanishadi. Bunday shaxslar o'z-o'zini anglaydigan, har doim yangi taassurotlarga tayyor bo'lgan, yangi narsalarga qiziqadigan, yangilikka tashna, ko'rganlarini qadrlaydigan insonlardir.

Metodikaning “Ijodkorlikka intilish” shkalasida 1-bosqich talabalarida 12,9% ko'rsatkich, 3-bosqich talabalarida esa ushbu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmadi. Bu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o'z ustida ishlovchi, doimiy ravishda o'zgacha narsalarni yaratishga moyil bo'lishadi. Ular o'z sohasida muttasil yangilikka intilishadi. Shu bilan bir qatorda, bu toifadagi insonlar yangi g'oyalar bilan yashovchi, o'z faoliyatida ijodiy munosabatga ega bo'lishadi.

“Avtonomlik” shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarining 3,2% yuqori natijalarni ko'rsatgan bo'lsa, 3-bosqich talabalarida esa bu shkalada yuqori natijalar aniqlanmadi. Bunday shaxslar mustaqilikka intiluvchi hamda mustaqil fikr yurituvchi bo'lishadi. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu toifadagi insonlar mustaqil, erkin va avtonom bo'lishiga qaramay, ular yolg'izlikka intilishmaydi. Shu boisdan ham ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilarni hayotda yolg'iz bo'lgan insonlar deb aytib bo'lmaydi. Bundan tashqari ular o'zini o'zi qo'llab-quvvatlash xususiyatlariga ham ega bo'lishadi.

Yettinchi shkala “Spontanlik”da 3,2% ko'rsatkichi 1-bosqich talabalarida namoyon bo'ldi, 3-bosqich talabalarida esa mazkur shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar aniqlanmadi. Ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o'ziga nisbatan ishonchi yuqori bo'lib, o'z maqsadlariga yetishda faqatgina xayolga tayanib qolmasdan, real holatda intilishadi. Shu bilan bir qatorda, bunday shaxslar erkinlik, tabiiylik, o'yin o'ynash, kuch sarf qilmaslik kabi qadriyatlarga ega bo'lishlari bilan tavsiflanadi.

“O'z-o'zini tushunish” shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarida 6,5% va 3-bosqich talabalarida esa 12,5% ko'rsatkichi aniqlandi. Bunday shaxslar o'z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, istaklarini boshqalarga nisbatan yaxshiroq tushunishadi. Bundan tashqari, mazkur shkala bo'yicha yuqori natijalarni qayd etgan insonlar hissiyotlilik, o'z istak va ehtiyojlariga nisbatan sezgirlik kabi xususiyatlarga ega bo'lishadi.

To'qqizinchi shkala – “Autosimpatiya” natijalari bo'yicha 3-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etilmagan bo'lsa, 1-bosqich talabalarining 3,2% ushbu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganligi ma'lum bo'ldi. Bunday shaxslarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati ijobiy tusda bo'lib, ular o'zlariga adekvat baho berishadi. Shuningdek, ularda o'z imkoniyatlaridan xavotirlanish hissi tug'ilmaydi va o'ziga nisbatan hurmat hissi mavjud bo'ladi.

Shu o'rinda metodikaning “Aloqa o'rnatish” shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarida yuqori natijalarni ko'rsatishmadi, 3-bosqich talabalarida esa mazkur shkala bo'yicha 6,25% ko'rsatkichi aniqlandi. Mazkur shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o'zgalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmaydi, chunki ularda muloqot ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, bunday insonlar boshqalar bilan uyg'un, kuchli va xayrli munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishadi.

Metodikaning so'nggi shkalasi, ya'ni “Muloqotdagi egiluvchanlik” natijalari bo'yicha 1-bosqich talabalarida 6,5%, 3-bosqich talabalarida 6,25% ko'rsatkichi aniqlandi. Bunday shaxslar o'zgalar bilan munosabatda egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lib, yangi sharoitlarga moslashib keta olishadi. Shu bilan bir qatorda, ular o'zgalar bilan muloqotda o'z fikrlarini yetarli darajada ifoda qilish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Bundan tashqari bu toifadagi insonlarda boshqalar bilan samimiy muloqot qilish, o'z-o'zini anglash qobiliyatlari mavjud bo'lib, ular o'zgalarini boshqarish xususiyatiga moyil bo'lishmaydi.

Metodika natijalaridan ko'rinadiki, talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish ulardagi qadriyatlar tizimi va bilishga bo'lgan munosabatlarning qaror topganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, vaqtni mo'ljalga ola bilish, o'zaro aloqaga intiluvchanlik kabi sifatlarni taraqqiy etganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, inson shaxsida o'zini o'zi faollashtirish muhim hisoblanadi. Aynan shaxs o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi tarbiyalash va kamolga yetkazishda o'zini o'zi faollashtirish yaqqol namoyon bo'ladi. Insonlarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimining qaror topishi ularda o'zini o'zi faollashtirishning ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. /А.Н Леонтьев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с
3. Маслоу, А. Мотивация и личность / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 2001. - 475 с
4. Давлетшин М.Г. Танланган илмий ишлар тўплами. – Тошкент: ТДПУ, 2008, 81 б.
5. Газиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов: Автореф. дис... докт. психол. наук. – М.: МГУ, 1992. – 38 с.

YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TANQIDIY FIKRLASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Salohiddinova G'azalxon Bekmirzaevna,
Toshkent shahar tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, talaba yoki o'quvchi shaxsini tanqidiy fikrlash jarayoniga tayyorlash, dastlabki jarayonda ota-onaning, o'qituvchi murabbiyning mas'uliyatli vazifalari, tanqidiy fikrlash jarayonidagi amal qilish kerak bo'lgan qoidalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda bir qancha texnologiyalar qatorida tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari xaqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash, ta'lim sifati, o'zaro hamkorlik, tanqidiy taxlil, mustaqil fikrlash, aqliy faoliyat, anglash, chaqiriq, o'ziga ishonch, ongliklik tamoyili, talaba shaxsiga munosabat, o'zaro fikr olishuv.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

*Салохиддинова Газалхон Бекмирзаевна,
Старший преподаватель Ташкентской Медицинской Академии*

Аннотация: В статье идёт речь о преимуществе использование в числе других технологий, технологию критического мышления для повышения социальной активности молодого поколения, а также, воспитание самостоятельных, критически мыслящих людей, подготовка студентов и учащихся к процессу критического мышления, роль и задачи родителей и педагогов в начальной стадии данного процесса, разработана правила и рекомендация для студентов, в котором они должны соблюдать в процессе критического мышления.

Ключевые слова: Социальная активность, критическое мышление, качество образования, взаимодействие, критический анализ, независимое мышление, умственная деятельность, осознание, вызов, самоуверенность, принцип сознания, отношение к личности студента, обмен точки зрения.

THE ADVANTAGES OF USING CRITICAL THINKING TECHNOLOGY IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

*Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna,
Tashkent Medical Academy*

Annotation: This article focuses on educating independent and critical thinking people, preparing students to the process of critical thinking, the responsibilities of parents and teachers in initial process to increase the social activity of youth in society, the rules and recommendations to follow in the process of critical thinking, the advantages of the use of critical thinking technologies to increase the social activity of the youth.

Key words: social activity, critical thinking, quality of education, interaction, critical analysis, independent thinking, mental activity, understanding, call, self-confidence, principal of consciousness, attitude to student personality, mutual feedback.

“Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” Ushbu soxada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargoxlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda xal qilishimiz kerak.

Sh.M.Mirziyoev

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 2022 yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida yosh avlodning ta'lim- tarbiyasi va kamoloti, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar, ta'lim sifatini oshirishga alohida urg'u berib o'tdilar. Darhaqiqat bugungi kunda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ularni jamiyatning faol a'zosi qilib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi biz pedagoglarga katta ma'suliyat yuklaydi.

Ijtimoiy hayot, hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat maxsuli, muloqot madaniyati mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Shaxs mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar xamda mexanizmlarni anglab yetadi. Darhaqiqat, jamiyatda xilma-xil fikrlash muhitini vujudga keltirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarning o'rni beqiyosdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasida mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli, irodali, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlar tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va ma'suliyatli vazifadir. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda bir qancha texnologiyalar qatorida tanqidiy fikrlash texnologiyasining ham o'rni muhim. Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni. Biroq tanqidiy fikrlash – bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida talabalarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallashga, mazkur matn bo'yicha kursdoshlari bilan birgalikda harakatda bo'lishiga qaratilgan pedagogik texnologiya... Tanqidiy fikrlash – o'quv auditoriyasidagi ruhiyatni o'zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya'ni mashg'ulot o'qituvchi va talabalarning ijodxonasiga aylanadi. “

Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: “O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo buladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan savol bu xodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi”. Darhaqiqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini aniqlash zarurati mavjud. Chunki, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismidir. Bizningcha esa tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea va hodisa, borliqni ob'ektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda taxlil, taqqoslash, izoxlash, yangilik kiritish, muammolarni xal qilishga alohida e'tibor beriladi hamda o'quvchilarda bunyodkor g'oyalarning yovuz g'oyalar ustidan g'alaba qozonilishiga ishonch paydo qilinadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi aqliy faoliyat ko'nikmalari mavjud:

Esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi.

-O'quv jarayonini usiz amalga oshirib bo'lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri – murakkab g'oyalarni tushunish bilan bog'liq.

-«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu – ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo'ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

Tanqidiy fikrlashning elementlari:

- tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar. Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to'g'ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlashni tashkillashtirishdan oldin tanqidiy fikrlashning rivojlantirish muhitini yaratish lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Tanqidiy fikrlash jarayoni talabalardan erkin va mustaqil fikrlashni, darsga oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Tortinchoq va o'z fikrini bayon qilishga qiynaladigan yoshlarni tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashishi qiyinroq kechadi. Bunday holatlarda o'qituvchi talabalarni qo'llab quvvatlashi, kulgiga qolishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Tanqidiy fikrlashchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Buning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontrish kerak;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi darsni oldindan loyixalashtirishi lozim.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruhsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashda hurmat doirasida izn so'rash, o'zgalarni fikrini bo'lmaslik lozim.

Talabalarda fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalar fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Tanqidiy fikrlash talabalarining faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarining faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi. Mixail Chikjentmixaliy (1975) o'zining ilmiy asarlarida tanqidiy fikrlashni shunday ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar. Mixail Chikjentmixaliyning fikridan ko'rinadiki, tanqidiy fikrlashdagi faollik talabalarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi.

Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarining fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligini ularda ishonch hosil qilish zarur.

Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarining fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalarni g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarining o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani

muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlash jarayonida talaba yoki o'quvchi faol qatnashishi uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda avvalo talaba yoki o'quvchini tanqidiy fikrlash jarayoniga tayyorlash lozim, bu esa ko'p xollarda yoshlarni dastlabki bolalik davrida muloqot jarayonini qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq;
- go'daklik davrida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi do'stona munosabatning mavjudligi, ota-ona o'z farzandini erkin va mustaqil qilib tarbiyalay olishi, ota-onaning o'zi pedagogik bilimiga ega bo'lishligi;
- o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi do'stona munosabatning mavjudligi, dars jarayonlarida o'qituvchi o'quvchining o'z fikrini erkin bayon qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yarata olishi;
- har bir o'quvchi yoki talaba tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashishdan oldin bu jarayonga oldindan tayoyyorgarlik ko'rishi, bilim va malakalarni egallashi lozim. Zero bilim o'quvchining qurolidir. Bilimi va dunyoqarashi keng shakllangan o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi yanada shakllanadi. Bunday o'quvchilar esa albatta tanqidiy fikrlash jarayonining faol a'zosiga aylanadilar.
- tanqidiy fikrlash jarayonida qatnashuvchi talaba yoki o'quvchi badiiy, ilmiy adabiyotlarni mustaqil taxlil qila olishligi;
- tanqidiy fikrlash jarayonida o'zaro fikr almashish onlarida bir-birini fikrini hurmat qilishi, o'dob-axloq normalariga amal qilishi, shaxsiy fikrga ega bo'lishi, o'z fikrini o'zgalarga uqtira olish lozimligi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш. Мирзиёев 2022 йил 22-декабрь куни Олий Мажлисга қилган мурожаатномаси.
2. Алекс Муур. Таълим бериш ва таълим олиш: педагогика, таълим дастури ва тарбия. -Рутледж. Иккинчи нашр. 2012. 202-бет.
3. О. Мусурманова ва бошқалар. Умумий педагогика - Т: 2020 й. "Фан ва технология" нашриёти. 461 б.
4. Ж. Ҳасанбоев ва бошқалар. Педагогика. -Т.:2011 й. Ношир нашриёти.
5. М. Тохтаходжаева умумий тахрири остида. Педагогика –Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти. 2010 й.
6. Салоҳиддинова Газалхон Бекмирзаевна (2018). Профессиональная социализация будущих педагогов вуза. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 124-126
7. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Social pedagogue's responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. Достижения

науки и образования, (19 (41)), 59-61.

8. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Creativity and artistic thinking as important components of professional competencies of future teachers. Academy, (5 (32)), 69-70.

9. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69

10. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.

11. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423

12. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.

13. Комилова М. О. ПОДХОДЫ «РОТАЦИЯ СТАНЦИЙ» В СМЕШАННОМ ОБУЧЕНИИ //Gospodarka i Innovacje. – 2022. – Т. 23. – С. 347-350.

14. Комилова М. О. Организация Смешанного Обучения У Студентов-Медиков //International Journal of Formal Education. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 27-33.– С. 24-30.

15. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.

16. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Catigories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.

17. Umarova, S. (2022). Таълимни рақамлаштиришда креатив компетенцияларни ривожлантириш (Doctoral dissertation, Ўзбекистан Ташкент).

18. Bekmirzayevna, S. G. (2018). Creativity and artistic thinking as important components of professional competencies of future teachers. Academy, (5 (32)), 69-70.

19. Bekmirzayevna, S. G. (2018). Social pedagogue's responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. Достижения науки и образования, (19 (41)), 59-61.

YANGI TEXNOLOGIYALARNI TAYYORLASH VA RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR

Mustafoyeva Durdona Asilovna

*«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti»
Milliy tadqiqot universiteti «Professional ta'lim» kafedrasi dotsenti, PhD*

Annotatsiya. Fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari ishlab chiqarish bilan birga, ta'lim sohasiga ham sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning zamonaviy vositalarini olib kirish imkonini berdi. Bu yutuqlarning ta'lim sohasiga kirib kelishi uning an'anaviy vazifalariga nisbatan ham sezilarli o'zgartirishlar kiritish zaruratini qo'ydi. Shu asnoda ta'limda Klaster texnologiyalarini qo'llash va uning tub mohiyatini tushunish va anglab etish uchun zaruriy pedagogik shart sharoit va ijodiy muhitni yaratish muammosi yuzaga keldi.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, modernizatsiyalash, innovatsiya, iqtisodiy raqobatbardoshlik, klaster, ta'lim klasterlari

ПРИМЕНЕНИЕ КЛАСТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ

Мустафоева Дурдона Асильевна

*Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт
инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»
Доцент кафедры «Профессиональное образование», (PhD)*

Аннотация. Последние достижения науки и техники привнесли существенные изменения, инновации и современные средства обучения в сферу образования наряду с производством. Проникновение этих достижений в сферу образования потребовало внесения существенных изменений в его традиционные задачи. В связи с этим возникла проблема создания необходимых педагогических условий и творческой среды для понимания и осознания сути образовательных кластеров.

Ключевые слова: компетенция, модернизация, инновации, экономическая конкурентоспособность, кластер, образовательный кластер

APPLICATION OF CLUSTER TECHNOLOGIES IN INNOVATIVE EDUCATIONAL PROCESSES

Mustafoyeva Durdona Asilovna

*National Research University «Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers» Associate Professor of the Department of Professional
Education (PhD)*

Annotation. The latest advances in science and technology have brought significant changes, innovations and modern teaching tools to the field of education along with production. The penetration of these achievements into the field of education made it necessary to make significant changes in its traditional tasks. In this context, the problem of creating the necessary pedagogical conditions and creative environment for understanding and realizing the essence of educational reforms has arisen.

Keywords: competence, modernization, innovation, investment, economic competitiveness, cluster, educational cluster

Kirish. Bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari mavjud an'anaviy ta'lim paradigmalarining ob'ektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarini modernizatsiyalashdan iborat etib belgilandi. Pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat

sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivoshlantirish oliy ta'limning ta'lim sifatini oshirish jarayonidagi ijtimoiy rolini ta'minlash masalalari muhim o'rin tutadi. Bu masalani e'tiborga olgan holda etakchi xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internacionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tadbiiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu o'rinda ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo'lib, u ta'lim mazmuni metodlari, tashkilish shakllari, kadrlar ta'minoti kabi jihatlarni keng ko'lamda aks ettiruchi ta'lim muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldingi o'ringa olib chiqishini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida «o'qituvchi va ta'dim oluvchi» munosabatlarini insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirish orqali o'quv jarayonini mustaqil tashkil etib, boshqaruvchi, har bir ta'lim oluvchi shaxsining ijodiy va intellektual rivojini ta'minlovchi zamonaviy o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talablarni vujudga keltirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik ta'siri asosiy va etakchi omillardan biri hisoblanishi zamonaviy ta'limda yangicha kasbiy qiyofadagi pedagogga bo'lgan ijtimoiy talab ortib bormoqda [1, 21].

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tashkillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Lug'aviy jihatdan «innovatsiya» tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda («innovation») «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi. «Innovatsiya» tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsion ta'lim (ingl. «innovation») – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yori, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yori, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim [2, 79].

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi.

Innovatsion ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishning kasbiy-ijtimoiy zarurati kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyojining mavjudligi, kasbiy tayyorgarligining takomillashuvi, interfaol ta'limning samarali jihatlari hamda o'qitish modellari va tasniflanishi tahlil

qilishga imkon yaratadi.

Fan arbobi, professor g.I.Muxamedovning ta'kidlashicha, pedagogik ta'lim innovasion klasteri - uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy innovasion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir [4, 2].

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik ta'lim innovasion klasterining muallifi, klasterning maqsadini quyidagilarda deb biladi:

- ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlari hamda vositalarini izlab topish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim va tarbiya uzviyligi, aloqadorligi, uzluksizligini ta'minlovchi mexanizmlarini izlab topish va takomillashtirish;

- barcha ta'lim fanlari bo'yicha pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolarining intellektual resurslarini integrasiyalash;

- pedagogik ta'limga o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularda pedagog bo'lishga istak va xohishni uyg'otish, institutga yuqori ko'rsatkichlar bilan tahsil olayotgan o'quvchilarni tanlab olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirokini ta'minlash hamda yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish

Ta'lim sohasida chet el investisiyalarini jalb qilish, shu jumladan franchayzing shartnomalari asosida zamonaviy marketing mexanizmlari bilan jahonda mashhur bo'lgan universitetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qulay sharoit yaratish kabi chora-tadbirlari 2018-2019 yillarda O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi «ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi PF-6097 sonli farmoniga kiritilgan [5].

Pedagogika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadida etakchi xorijiy OTMlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish, ilmiy stajirovkalarni amalga oshirish, shuningdek, pedagogik ta'limni tartibga soluvchi mavjud me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish hamda pedagogik ta'lim innovasion klasteri plptformasini ishlab chiqish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi.

Pedagogik ta'lim innovasion klasteri vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ta'lim va tarbiya sifat va samaradorligini oshirishda innovasion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;

- maqsadli trening va master-klasslar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar tashkil qilish;

- institut kafedralari professor-o'qituvchilari ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tayanch OTMlari, ilmiy marakazlar, ITI lari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

Ta'limda innovasion va investision faolligini oshirish maqsadida mamlaktimizda xalqaro ta'lim forumlar hamda innovasion loyihalarining taqdimotlari keng ko'lamda tashkil etib kelmoqda. Jumladan, mamlaktimizda yangi xorij universitetlarining filiallari, qo'shma fakultetlar va kafedralar, ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini boshlamogda [6, 20].

Xulosa va takliflar. Demak, pedagogik ta'lim innovasion klasteri oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya jarayonlariga kirib borib, tizimlararo aloqadorlikni, fanlararo uzviylik va uzluksizligi hamda ta'lim va tarbiyaning integrasiyasiga keng yo'l ochib berishi yaxshi natijalarga undaydi. Shunday qilib, barqaror innovasion rivojlanish iqtisodiyotni taraqqiy etishning samarali yo'li sifatida, bir tomondan agar ta'limni innovasion rivojlanish darajasini aks ettirsa, boshqa

tomondan, u sohani barqaror rivojlanish jarayonida ijtimoiy faollik, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikka erishilganligini ifodalaydi [7, 67].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: «Sano standart» nashriyoti, 2015. – 121 b.
2. Pedagogikanazariyasi vatarixi. Pedagogikanazariyasi. 1-qism./M.To'xtaxo'jaeva va boshq. – T.: Iqtisod-moliya, 2009 y. - 279 b.
3. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. -Toshkent, fan, 2005 y. -140 b.
4. Sh.Mardonov «Xalq so'zi» gazetasining onlayn sahifasida chop etilgan «pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija» // 2019 yil 15 fevral
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 30 iyundagi 30-sonli buyrug'i, 1-ilovasi.
6. Волчок Т.И. Профессионально-образовательный кластер как форма социального партнерства в подготовке кадров // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 25. – С. 18–20. – URL: <http://ekoncept.ru/2017/770484.ht>
7. Данилов С. В., Лукьянова М.И. Кластерный подход в региональном образовании // Современные проблемы науки и образования. - 2015. - № 1. - С.67

PROFESSOR-O'QITUVCHILARNI KASBIY KAMOLOTI TA'LIM SIFATI*Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy univeriteti "Psixologiya" kafedrası
mustaqil izlanuvchisi.*

Ushbu maqolada professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining kasb, psixologik xususiyatlari yoritilgan. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining yo'nalishlari, sub'yektiv xususiyatlari o'z-o'zini anglashi, shaxslararo munosabatlarda to'g'ri yo'llamalar ko'rsata olishi va mazmunli hayot yo'nalishlari ko'rsatkichlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: professor-o'qituvchilar, kasbiy kamolat, o'z-o'zini anglashi, unvon, o'qituvchi strategiyasi

Mamlakatimizda ta'lim sohasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarga har tomonlama yordam ko'rsatish va oliy ta'limning barcha professor-o'qituvchilarni faoliyatini muvofiqlashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'limning professor-o'qituvchilarni faoliyati mashaqatli va mas'uliyatlidir va undagi quyilgan vazifalar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", – deb ta'kidlaganidek, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalari yangilanib borayotgan hozirgi davrda mutaxassisning zamonaviy kasbiy kamolotini shakllantirishning psixologik asoslarini chuqur ilmiy o'rganish zarurati tobora oydinlashib bormoqda.

Hozirgi sharoitda jamiyatning oliy ta'limning professor-o'qituvchilar oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi yuqori solahiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga bog'liqdir. Professor-o'qituvchilarimiz qator vazifalarni shu kungacha bajarib kelmoqda. Ular joyi kelganda tashkilotchi, o'zining yuklamasidan tashqari hollarda dars yuklamalarni bajaruvchi hamda talabalarga kasbiy bilimlarini berib boradi. Talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga sola olishi, pedagogik jamoa a'zosi sifatida institut hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etadi, talabalarning ota-onalari bilan ishlash olib boradi va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib boradi, bilimlar tag'ribotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi oliy ta'limning professor-o'qituvchilar oldiga quyadigan talablari tushunarlidir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Oliy ta'limning professor-o'qituvchilari boshqa ta'limda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilardan farqlanib turadi. Oliy ta'limning professor-o'qituvchilar eng muhim hislatlari kasbiy bilimlarini oshirib borishi, o'z kasbini hurmat qilishi, kasbiga bo'lgan mexrini namoyon eta olishi, ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishidir.

Demak, jamiyatimizga yuqori darajadagi kadrlarni yetishtirishda oliy ta'lim professor-o'qituvchilarni hissasi juda katta. Ular, talaba yoshlarga har tomonlama o'rnak bo'la olishi lozim. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamoloti deganda nimalarni nazarda tutamiz? Professor-o'qituvchilar o'zlari kim?-degan savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Professor-o'qituvchilar bu oliy ta'limda talabalarga kasbiy bilimlar beruvchi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar. Professor (lot. professor - «ustoz») - tadqiqotchi yoki o'qituvchining lavozimi yoki ilmiy unvoni bo'lib, u 16-asrdan boshlab rasmiy maqomi birinchi marta Oksford universitetida e'lon qilingan.

Professorning standart «portreti» yuqori darajadagi malakaga ega bo'lgan universitet o'qituvchisi va shu bilan birga fan yoki san'atning ma'lum bir sohasidagi mutaxassis

bo'lgan olimdir. Ammo ba'zi mamlakatlarda «professor» so'zi o'zining keng lotin ma'nosini saqlab qoldi va har qanday ta'lim muassasasidagi barcha o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi [2].

Rossiyada va ko'pgina Evropa mamlakatlarida «professor» atamasi faqat universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarining yuqori darajali o'qituvchilariga nisbatan qo'llaniladi. AQSH va Kanadada «assistant professor» atamasi ham kengroq talqin qilinadi: u boshqa narsalar qatorida rus dosentlari bilan taqqoslanadigan quyi darajadagi universitet o'qituvchilariga ham tegishli bo'lishi mumkin; ba'zan bu yondashuv umuman ingliz tilidagi yozishmalarda qabul qilinadi. Maktab o'qituvchilarini professor deb atash odat tusiga kirgan davlatlar mavjud, masalan, Italiya va Ispaniya maktab o'qituvchilarini ham professor deb atashadi[2]. Boshqa davlatlarda esa professor bo'lish uchun, qoida tariqasida, yuqori ilmiy darajaga ega bo'lishingiz kerak. Bunday shaxsning kasbiy vazifalariga pedagogik ish (ma'ruza o'qish, kurslar yaratish, aspirantlarga rahbarlik qilish), ilmiy faoliyat (tadqiqot o'tkazish, yangi natijalarni nashr etish) va ta'lim muassasasini boshqarishda qatnashish kiradi. Ushbu komponentlarning nisbiy «og'irligi» muayyan muassasaga bog'liq. Ilmiy-tadqiqot instituti professorining pedagogik faoliyati ushbu ilmiy-tadqiqot institutida stajyorlar va doktorantlarga faol rahbarlik qilish yoki biron bir universitetda sirtqi dars berishdan iborat bo'lishi mumkin. Rasmiy ravishda «professor» ham lavozim, ham ilmiy unvonning nomidir.

Professor ilmiy unvoni oliy pedagogik mahoratga ega, ilmiy yutuqlarga ega bo'lgan va davlat akkreditatsiyasidan o'tgan oliy ta'lim muassasalarida yoki oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi ilmiy muassasalarda pedagogik ish olib borayotgan ilmiy va pedagogik xodimlarga beriladi. Bu unvonga da'vogarlariga qo'yiladigan o'ziga xos talablar ish staji, nashrlar soni, chop etilgan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar sonidan iborat. Hozirda professor-o'qituvchilar unvonlari ma'lum mutaxassisliklar bo'yicha berilgan. «Professor» so'zi bir vaqtning o'zida «falon mutaxassislik bo'yicha professor» unvonining to'liq nomining umume'tirof etilgan qisqartirilishi bo'lib, egasining faoliyat sohasini ko'rsatadi. Buyuk Britaniya va Millatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida «professor» (ingliz professori) unvonidan foydalanish, qoida tariqasida, kafedra mudiri uchun mo'ljallangan[7]. Buyuk Britaniyada «professor» deb ataladigan boshqa lavozimlar yoki faxriy unvonlar mavjud. Masalan, (Regius Professor) qirollik professori va London Universitet kollejining ong va mantiq falsafasi bo'yicha (Grote Professor) professori, Oksford universitetining (Wykeham Professor) logika professori, London iqtisodiyot maktabi professori, London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi, faxriy professor, nafaqaga chiqqan. Tadqiqotchilar uchun «professor yoki professorlar jamoasi a'zosi» lavozimi (unvoni) ham mavjud.

Amerika Qo'shma Shtatlarda «professor» deganda universitet yoki kollejda dars beradigan har bir kishi tushuniladi, ta'lim jarayoniga jalb qilingan aspirantlar bundan mustasno. Ularda «professor» unvoni lavozimlari ta'lim muassasalari tomonidan tayinlanadi, usha lavozimlar doimiy va vaqtinchalik bo'ladi. Doimiy lavozimlar, o'qituvchilikdan tashqari, tadqiqot mas'uliyatini, shuningdek, universitet yoki kollejni boshqarishda ishtirok etishni o'z ichiga oladi. «Assistant-professor» (assistant professor) bu kichik professor

Dosent (associate professor) - kichik professor sifatida taxminan 5-6 yillik muvaffaqiyatli ishlagandan so'ng beriladigan lavozim. Bu lavozimi odatda ishdan bo'shatish huquqsiz umrbod shartnoma bilan beriladi.

Professor (full professor-inglizcha to'liq professor) keyingi, uchinchi qadamdir. Bu lavozim ham oldingi lavozimda 5-6 yil muvaffaqiyatli ishlagandan keyin beriladi. Professor lavozimiga to'liq ega bo'lish uchun dosent (stajdan tashqari) yuqoridagi uchta mezon bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.

Germaniya universitetlarida unvon va ish haqi jihatidan farq qiluvchi bir nechta professorlar mavjud. Ikkita asosiysi bor - ular doimiy, ammo ular tayinlanganda ba'zida xavfsizlik sinov muddati belgilanadi:

Oddiy professor (nemis Professor ordinarius) - oliy professor unvoni, ma'lum bir sohani ifodalovchi kafedra (laboratoriya, kafedra) mudiri lavozimiga ega bo'lgan professor. Bu lavozim nemis tarif toifasiga C4 (yoki yangi tarifda W3) mos keladi, shuning uchun bunday professorlar «C4-professorlar» deb ataladi;

Vaqtinchalik professor (nem. Außerordentlicher Professor) — stavkasi shtat jadvalida ko'zda tutilgan, lekin oddiy professorga bo'ysunuvchi professor. Tarif C3 (W2) toifasiga to'g'ri keladi. Ko'pincha tadqiqotchilar birinchi navbatda vaqtinchalik professor lavozimiga ega bo'lishadi, keyin esa boshqa universitetda professor bo'lish uchun.

Yaponiyada Rossiya davlatidagi professor lavozimiga o'xshash pozitsiyasidir. Bu universitetlardagi eng yuqori ilmiy va pedagogik lavozim.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatga ega, malakali, yuksak maxorat egasidir. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamoloti deganda mutaxassisning ma'naviy, intellektual va jismoniy qobiliyatlarining eng yuqori rivojlanish davriga to'g'ri keladi. Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining eng muhim yo'nalishlari orasida quyidagilar ajralib turadi: kasbiy soha, oilaviy va insoniy munosabatlar, shaxslararo muloqot, bolalarni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish. Umumiy tarzda professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining mezonlari quyidagicha bo'lib chiqamiz:

- Yuqori mas'uliyatli bo'lish;
- Insonparvarlikni namoyon ettirish;
- ijtimoiy yo'nalishda faol bo'lish;
- boshqalar bilan uyg'un munosabatlarga kirishish;
- o'zini o'zi anglash, tushunish;
- ma'naviy pokligi;
- boshqalarga ta'sir ko'rsata olish;
- qaramlikka qarshi turish qobiliyati;
- matonatli bo'lish;
- Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- turli bilimlardan xabardor bo'lishi
- kasbiy chuqur bilimlarga ega bo'lishi
- talabalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi
- shaxsning yaxlitligi va xakozalar

Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamolotining yo'nalishlar bo'yicha ajratib ko'rib chiqish mumkin. Ammo, kasbiy bilimlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar faoliyatida kasbiy kamoloti o'zi ustida ishlab, malakalarini oshirib borish bilan belgilanadi. Afsuski, bizni oliy ta'lim professor-o'qituvchilarni har tomonlama yuksalishiga xizmat qiladigan, yoki professor-o'qituvchilar kasbiy kamolotini aniqlovchi psixodiagnostik ishlarni tashkil etish va psixokorreksiya qilish xizmat turlari yetarli emas.

Hozirgi kunda fan-texnologiyalarni jadal rivojlanayotgan bir davrda yuqori malakaga ega bo'lgan professor o'qituvchilar kasbiy jihatdan yuksalishiga xizmat qiluvchi aniq ulchovga ega bo'lgan ilmiy jihatdan asoslangan dalillar va ilmiy izlanishlarni taqoza qiladi.

Ta'lim tizimida katta islohotlar borayotgan bir vaqtda yuqori malakali professor-o'qituvchilar nafaqat o'z kasbiy bilimlariga ega bo'lishi, ularda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni rivojlantirish, insonparvarlik xarakterga ega bo'lgan pedagoglarni yetishtirish lozim. Professor-o'qituvchilar o'zining kasbiy bilimlarini integrasiyalashgan holda olib borishni yo'lga quyishimiz zarur.

Kasbiy yetuklik - bu shaxsning kasbiy rivojlanishining odatda uning yoshidagi odamlar erishadigan darajaga muvofiqligi, kasbiy yetuklikning asosiy belgilari:

kasbiy bilimlarni olishga qiziqish; yangi ma'lumotlarni izlap topishga intilishi, kasbiy qadriyatlariga ega bo'lish va qobiliyatlarning faoliyatiga muvofiqligi.

Talaba yoshlarni yuksak his-tuyg'ularga ega, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yo'lida, o'tmishdan bizga nasib etgan ulug' mutafakkirlarimizning ilg'or fikrlarini o'rganish — muhim ahamiyatga egadir. Chunki ularning ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlari, barkamollik sari yo'naltiruv-chi g'oyalari bugungi umumbashar taraqqiyot uchun, yoshlarning hamma narsaga qiziquvchan, izlanuvchan idroklari uchun sayqaldek bebaho xazinadir. Bizning buyuk mutafakkirlarimiz Abu ali Ibn-Sino, Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband Muxammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy – qomusiy olim, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizni o'zi bizga namuna bo'la oladi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida bu boradi quyidagi fikrlar berilgan: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lish uchun shunday insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladiki, bunday jamoaning har bir a'zosi uning ehtiyoji uchun zarur bo'lgan narsalardan birortasini yetishtirib beradi". Forobiyning ijtimoiy masalalarga oid bunday fikr-mulohazalari "Aql ma'nolari haqida risola"da, "Baxt-saodatga erishuv haqida", «Aristotel kategoriyalariga sharhlar» "Ixso al-Ulum" nomli asarlari va turli sharhlarda ham uchraydi. Insonning kamolotga erishuvi yo'lida yordam berish nafaqat jamiyatning, balki davlat miqyosida ham e'tiborga molik ekanligini: "Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi" fikrlari orqali bildirgan.

Professor-o'qituvchilarni kasbiy kamoloti ilm va yaxshi axloqqa ega bo'lish yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda nihoyatda zarur, shuning uchun ham ta'lim-tarbiyaga mas'uliyatli bo'lishni talab qiladi. Professor-o'qituvchining kasbiy kamolotining mohiyati, tuzilishi, muammolari va shakllanish mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganib borish lozim. Zamonaviy hayotning tez oqimi inson uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi, mos ravishda yashash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan yangi muammolar paydo bo'ladi. Bugungi kunda professor-o'qituvchining kasbiy kamoloti jamiyatning barcha ta'lim tizimida bo'lishi zarur. Shu sababli, mutaxassisning malakasini oshirish jarayonida u muqarrar ravishda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda muvaffaqiyatli hal qilishga tayyorgarlik ko'rish uchun oliy ta'limning an'anaviy muammolarini ham, zamonaviy hayot muammolarini ham hal qilishni o'rganishi muhimdir. mutaxassisligidan qat'i nazar, har bir professor-o'qituvchining kasbiy burchidir. Professor-o'qituvchilarining sub'yektiv xususiyatlari o'z-o'zini anglashi, shaxslararo munosabatlarda to'g'ri yo'llamalar ko'rsata olishi va mazmunli hayot yo'nalishlari ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqdir. Ularning o'z-o'zini takomillashtirish istagi inson tabiatiga haddan tashqari ijobiy qarash psixolog shaxsining yetukligini shakllantirish uchun turli xil oqibatlarga olib kelishi mumkin, bu uning axloqiy darajasi bilan ham bog'liqdir. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotimiz maqsadi professor-o'qituvchining kasbiy kamolotining psixologik xususiyatlari uning samarali faoliyatining omili sifatida o'rganishdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «Uzbekiston» NMIU, 2017. 592 b.

2. Professor — Bolshoy Ensiklopedicheskiy slovar. 2000.



3. Termin «professor» v razlichnix slovaryax. Data obrashyeniya: 28 oktyabrya 2016. Arxivirovano 30 oktyabrya 2016 goda.
4. Rayzberg B. A. Uchyoniye stepeni i zvaniya: kto yest kto. Data obrashyeniya: 28 oktyabrya 2016. Arxivirovano 3 noyabrya 2016 goda.
5. M. Sokolov. Akademicheskiye karyeri professorov, Polit.ru, 22 dekabrya 2015.
6. K. Guba, T. Zimenkova, M. Safonova, S. Chuykina, M. Sokolov. Kak stanovyatsya professorami: akademicheskiye karyeri, rinky i vlast v pyati stranax. — M.: 2015. — 832 s. — ISBN 978-5-4448-0280-9.
7. Etika professora. Opit kollektivnoy refleksii: kollektivnaya monografiya / pod red. V. I. Bakshtanovskogo; sost. M. V. Bogdanova. — Tyumen: TIU, 2020. — 232 s. — (Seriya «Biblioteka jurnala “Vedomosti prikladnoy etiki»». Vipusk 2). ISBN 978-5-9961-2380-3
8. Geoffrey J. Barton. The UK Academic System: hierarchy, students, grants, fellowships and all that [Copyright © G. J. Barton, 2014] (angl.). — ««...The most senior academic job title is professor. Professors are said to hold a chair in a subject or subject area...» (page 6)». Data obrashyeniya: 22 oktyabrya 2016. Arxivirovano iz originala 30 oktyabrya 2016 goda.
9. Shmeleva, I. A. (2010) Vvedeniye v professiyu. Psixologiya. M.: 270 s.
10. Muzayyamxon Farmonova “Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosida farzand tarbiyasi” (Ilmiy-uslubiy qo’llanma) «TASVIR NASHRIYOT UYI» Toshkent – 2020. 36 b

PICHOQ / KNIFE

Uralova Shaxlo Shuxrat qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida pichoq/knife so'zlarning etimologiyasi, ma'no nozikliklari, pichoq funksiyasining murakkab nominatsiyalari, pichoq turlari nomlari, pichoq qismlari, tayyorlanadigan materiallar va uning yasalishi bilan bog'liq bo'lgan so'zlar semantikasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ingliz tili, maishiy leksika, oshxona anjomlari, pichoq, semantika, nominatsiya, murakkab nominatsiya, etimologiya, pichoq turlari nomlari, pichoq qismlari va materiallari nominatsiyalari.

PICHOQ / KNIFE

Uralova Shaxlo Shuxrat qizi,
magistrant of Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. The article discusses the etymology of the words «knife» in English and Uzbek, subtleties of meaning, complex designations of the function of a knife, names of types of knives, knife parts, materials used, and semantics of words related to its manufacture.

Keywords: Uzbek language, English language, household lexicon, kitchen utensils, knife, semantics, nomenclature, complex nomenclature, etymology, names of types of knives, nominatives of knife parts and materials.

ПИЧОК / KNIFE

Уралова Шахло Шухрат қизи,
Магистр Термезского государственного педагогического института

Аннотация. В статье обсуждается этимология слова «нож» в английском и узбекском языках, тонкости значения, сложные обозначения функции ножа, названия типов ножей, деталей ножа, используемых материалов и семантика слов, связанных с его изготовлением.

Ключевые слова: Узбекский язык, английский язык, бытовая лексика, кухонная утварь, нож, семантика, номенклатура, комплексная номенклатура, этимология, названия видов ножей, номинативы деталей ножа и материалов.

Qadimgi rim arxitektori va mexanigi, ensiklopedist olim Mark Vitruviy Pollion fikriga ko'ra, har qanday yaxshi narsa uchta ajralmas xususiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni foydalilik, mustahkamlik, chiroylilik [1].

Yuqoridagi har uchala xususiyatni o'zida to'liq mujassam etgan, insoniyat tarixiga eng katta ta'sir ko'rsatgan predmetlar orasida pichoq alohida o'rinni egallaydi. U inson tomonidan yaratilgan ilk qurol va anjomlardan biridir. Pichoqlar uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumi bo'lib qolmay, ayni paytda milliy san'at asari darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek qurol sifatida ham qo'llaniladi.

Arxeologiya fanining dalolat berishicha, insoniyat tarixi tosh, mis, bronza va temir davrlarga bo'linadi. Tosh davri an'anaga ko'ra paleolit yoki qadimiy tosh asri (mil. avv. 2,6 mln. yil – eramizdan oldingi 10 ming yillik), mezolit yoki o'rta tosh asri (mil. avv. X – IX mingyillik – eramizdan avalgi VII mingyillik) va neolit yoki yangi tosh asri (mil. avv. VI – V mingyillik – mil. avv. III mingyillik) davrlarini o'z

ichiga olsa [2], eneolit (mis asri, mis-tosh asri, xalkolit) taxminan mil. avv. IV-III mingyilliklarni, bronza asri mil. avv. XXXV – XXXIII – XIII – XI mingyilliklarni [3] qamrab oladi. Keyingi davr temir davri bo‘lib, “O‘rta Osiyo tarixida mil. avv. X-VIII asrlar temir davriga o‘tish bosqich hisoblanadi <...> Markaziy Qozog‘iston dasht yodgorliklarida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid temir qurollari topilgan, Orolbo‘yi qabilalarining qadimgi temir buyumlari mil. avv. VII-VI asrlar bilan belgilangan” [4].

Tarixning har qanday davrida insonlarning hayoti ularning maishiy turmushida tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Maishiy turmushda qo‘llaniladigan so‘zlar maishiy leksikani tashkil etadi. Maishiy leksikaning ajralmas qismi, uning eng ko‘p uchraydigan so‘zlaridan biri o‘zbek tilida pichoq, ingliz tilida knife leksemasidir.

Eng qadimgi pichoqlar paleolit davrida paydo bo‘lganligi ma‘lum. Bu degani bugungi kundan uch million yil avval. Birinchi pichoqlar tosh (ko‘pincha chaqmoqtosh (kremniy) (miloddan avvalgi 2600 y.) parchalaridan bo‘linib yasalgan. Shuningdek, dastlabki pichoqlar obsidin (vulkanik shisha)dan ham tayyorlangan. Keyinchalik bodom shakliga ega bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan pichoqlarga yog‘och yoki suyak tutqichlar biriktirila boshlangan. Suyak, yog‘och va bambukdan yasalgan pichoqlar ham keng qo‘llanilgan.

Taxminan 5000 yil oldin inson metallni olish va qayta ishlashni o‘rgandi va mis va bronzadan pichoq yasashni boshladi. Janubiy Amerikada pichoqlar oltindan ham yasalgan.

Dunyo amaliyotida pichoqlar belgilangan vazifalariga ko‘ra oshxona pichoqlari, qurol sifatida ishlatiladigan pichoqlar (shtik-pichoq (shtikli (nayzali) pichoq, jangovor pichoq, o‘z-o‘zini himoya qilish uchun pichoq, otish pichog‘i, ballistik pichoq (erkin otilgan jism trayektoriyasi bo‘ylab uchadigan pichoq), tesak (dudama qilich, katta xanjar), fashin pichog‘i (sapyor ishlari uchun va shox-shabba kesadigan pichoq), turizm, ov va baliqchilik pichoqlari (ov pichoqlari: qushlarni tutish uchun pichoq, terini shilish uchun pichoq (skinner), lager pichog‘i, baliqchilik pichoqlari, uzun tor va sirpanmaydigan tutqichli file pichog‘i, turist pichoqlari, o‘simliklar, shox-shabbalar, qamishlarni kesish uchun mo‘ljallangan machete pichoqlari, ko‘p funksiyali ohir holatlarda yashab qolishga yordam beradigan pichoqlar, universal pichoqlar (har kuni taqib yuriladigan pichoqlar, multitull (ko‘p anjomli) pichoqlar, kanselyar pichoqlari, qurulish pichoqlari), maxsus pichoqlar (jarrohlik pichoqlari, go‘shni suyakdan ajratish uchun pichoqlari, etikdo‘z pichoqlari, suv ostiga sho‘ng‘iganlar uchun pichoqlar, qo‘ziqorin yig‘uvchilarning pichoqlari, bog‘bon pichoqlari, alpinizm va toshga chiqish uchun pichoqlar, otish moslamasi bo‘lgan pichoqlar) [5].

Hozirga o‘zbek tilida “pichoq” so‘zi polisemant leksema hisoblanadi. U quyidagi ma‘nolarga ega: “1) dastaga o‘rnatilgan yassi va uzun tig‘li ro‘zg‘or asbobi; 2) (texnikaga oid ma‘no) turli asboblarning kesuvchi qismi” [6].

Bu ot qadimgi turkiy manbalarda bichäq (Devon, I, 366; DS, 98), бычаq (DS, 104) shakllarida keltirilgan. Shularga ko‘ra bu so‘zning tarkibi ikki xil talqin qilinadi: 1) qadimgi turkiy tildagi ‘o‘tkir kesuvchan asbob’ ma‘nosini anglatgan bi otidan (DS, 97) kichraytirish ma‘nosin ifodalovchi –chäq qo‘shimchasi bilan yasalgan (ESTYa, II, 160): bi + chäq = bichäq; 2) Qadimgi turkiy tildagi ‘kes-’ ma‘nosini anglatgan быч- fe‘lidan (DS, 104) –(a)q qo‘shimchasi bilan yasalgan (ESTYa, II, 160): быч- + aq = бычаq; keyinchalik so‘z boshlanishidagi b tovushi undoshi p undoshiga, o‘zbek tilidagi пычаq so‘zi oxiridagi a unlisi ä unlisiga almashgan, y unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: быч- + aq = бычаq > пычаq > pichäq” [7].

Eramizdan oldingi 8-asrda Chustning Bibiona ziyoratgohi hududida pichoq

ishlab chiqarila boshlagan .

Pichoq uch qismdan iborat: 1) tig' – pichoqning kesadigan qismi; 2) dasta – pichoqning qo'l bilan ushlanadigan qismi; sop. 3) qin – pichoq, qilich, xanjar va boshqa keskir asboblarni solib qo'yish uchun maxsus moslama.

Pichoq tig'i tayyorlanadigan materiallarga (xomashyosi tarkibiga) a) "damashqiy" (Damashq po'latidan); b) isfahoniy" (Isfahon po'latidan), v) "farangiy" (Yevropa po'latidan), g) "o'rusiy" (rus po'latidan), d) "turkona" (mahalliy po'latdan), ye) egov; yo) klapan; j) temir kabi turlarga bo'linadi. Tig'iga ko'ra "yakkadam" (bir tomoni tig'), "dudama" (ikki tomoni ham tig') pichoqlar mavjud.

Pichoq dastalari a) suqma, b) yorma, v) naqshinkor bo'ladi. Pichoq dastasi bezatilishiga ko'ra: chalabuzar (tig'i bo'g'zidan qayrilib, dastasi yopiladigan), mardona (kashtachilarga mo'ljallangan), sodda (uy-ro'zg'orda ishlatiladigan), guldor (dastasiga naqsh solingan), chilmixi gulli (dastasiga chilmix qoqib, guldor qilib yasalgan), rufta (tig'ining yuzi sidirg'asiga charxlangan) kabi turlari mavjud.

Pichoq sopi yasalgan materialiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: a) bambuk sopli; b) tekstolit sopli; v) buxi shoxidan yasalgan; g) saygak shoxidan yasalgan; d) jayron shoxidan yasalgan; ye) qoramol shoxidan yasalgan; yo) orgsteklo sopli; j) yog'och sopli; z) temir sopli.

Pichoqni yasashda temir, zok, gulband, piston, qayroq, bozg'ardon, chilmix, parma, sadaf arra kabi asbob-uskunalar ishlatiladi. Ularning har birining o'z ma'nolar bor. Tig'ombir tig'ni qimchib ushlab turadi. Bozg'ardon – bir qarich uzunlikdagi temir. Bozg'on – katta og'ir bolg'a. Sandon – po'latdan yasalgan taglik. Sadaf arra – kichkina arra. Chilmix, parma kabi asboblarda pichoqdagi gul o'rni o'yiladi [8].

Pichoqning shakliga ko'ra a) mol shoxidan yasalgan suqma pichoq – "tol bargi", b) to'g'ri tig'li pichoq, v) qozoqcha qayirma pichoq, g) qayqi pichoq, d) suqma afg'on pichog'i, ye) "qo'shpichoq" (buklama), yo) "o'roqi" (o'roq kabi qayrilib, tig'i ichki tomonda bo'ladi) kabi xillari bor

Pichoqning "ro'zg'ori", "oshpichoq", "chopqipichoq", "sallohi" (qassoblar ishlatadigani), "mardona" (erkaklar beliga osib yuradigani), "shamshirak" (qilichdan kichikroq bo'ladi), "xarbo'zi" (qovun so'yiladigan), "chol pichoq" (suyak tozalashga mo'ljallangan), sovg'alar uchun kabi turlari mavjud.

Pichoq bajaradigan funksiyasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Mevalar po'stini tozalash uchun.
2. Sabzi to'g'rash uchun.
3. Piyoz to'g'rash uchun.
4. Qovun so'yish uchun.
5. Go'sht to'g'rash uchun.
6. Katta shoxli mol so'yish uchun.
7. Qo'y so'yish uchun
8. Molni yoki qo'yni tersini shilish uchun, ya'ni terilash uchun.
9. Tort kesish uchun.
10. Non kesish uchun.
11. Sariyog' uchun.
12. Pishloq (sir) kesish uchun.

Keyingi yillarda o'zbek tilida jahondagi globallashuv jarayoni tufayli "go'sht maydalgich (myasorubka) pichog'i", "pitssa pichog'i", "xot-dog pichog'i", "elektropichoq" kabi yangi nominatsiyalar paydo bo'ldi.

Ingliz tilida knife so'zi orqali ham ot so'z turkumi, ham fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi. A.S.Hornby mualliflik qilgan "Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English" lug'atda keltirilishicha, knife – "a sharp blade with a handle, used

for cutting or as a weapon”(kesish uchun yoki qurol sifatida ishlatiladigan tutqichli o'tkir pichoq) [9]. Knife I ot so'z turkumi sifatida “1) pichoq; 2) xir. skalpel; 3) tex. o'roq randa, qirg'ich, keskich” ma'nolarida keladi. Knife II fe'l so'z turkumi vazifasida “1) pichoq bilan kesmoq; 2) zarba bermoq, pichoqlamoq; 3) am. ko'chm. o'tkazmaslik, imtihonda yiqitmoq” semantikasiga ega [10].

Knife so'zining etimologiyasi haqida har xil fikr-mulohazalar mavjud.

Ingliz etimologik lug'atlari va boshqa manbalar, masalan Collins English Dictionary knife/pichoq so'zining kelib chiqishi ma'lum emasligini, yoki qadimgi ingliz cnif so'zidan, yoki eski norvej knīfr leksemasidan, yoki o'rta-past-nemis knīf leksik birligidan kelib chiqqanligini ko'rsatishadi. Demak, manba sifatida cnif, knīfr va knīf so'zlari keltiriladi. Ular orasida qanday bog'liqlik bor? Balki yo'qdir. Lekin shuni qayd etish kerakki, cnifdan knīfrga o'tish ingliz tiliga xos bo'lgan C → K prinsipi orqali amalga oshgan. Yuqorida keltirganimizdek, knife so'zi “pichoq, skalpel, o'roq randa, qirg'ich, keskich” ma'nolaridan tashqari “kesmoq, parchalamoq, sanchmoq, zarba bermoq (barcha harakatlar pichoq, keskich, skalpel bilan amalga oshiriladi)” semantikasiga ham ega. Bu holatda ingliz tiliga xos bo'lgan xususiyatni kuzatish mumkin. Ya'ni, bir so'z ham harakatni (kesmoq), ham harakatni amalga oshiruvchi predmet (pichoq)ni ifodalaydi. Ingliz tilida “kesmoq” ma'nosida “cut” leksemasi ham qo'llaniladi. Ot so'z turkumi sifatida “cut” “harakat (kesish)ning natijasi – parcha, kesilgan joy, bo'lak, qism, burda, kesik, tilim, qiyqim, rezgi” kabi ma'nolarga ega [11].

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ingliz tilida pichoqning quyidagi 24 ta nominatsiyalari kuzatiladi [12]: Bread knife / non uchun pichoq.

1. Butter spreader / knife / sariyog' uchun pichoq.
2. Cake knife / tort uchun pichoq.
3. Cheese knife with two prongs / Sir (pishloq) uchun ikki tishli pichoq.
4. Chopping-knife / qassobning katta pichog'i, chopqisi.
5. Clasp knife / buklama pichoq.
6. Crab knife / krab va qisqichbaqalar uchun pichoq.
7. Dessert knife / desert pichog'i.
8. Dinner knife / oshxona pichog'i.
9. Fish knife / baliq uchun pichoq.
10. Fish serving knife / baliq servirovkasi uchun pichoq.
11. Fruitcake knife / mevali tort uchun pichoq.
12. Fruit knife / mevalar uchun pichoq.
13. Kitchen knife / kuxnya pichog'i.
14. Meat knife / go'sht uchun pichoq.
15. Paring knife / sabzavotlarni tozalash uchun pichoq.
16. Parmesan knife / parmezan (italyan qattiq pishlog'i) uchun pichoq.
17. Pie knife / pirog uchun pichoq.
18. Pocket knife / cho'ntak pichog'i.
19. Salmon knife / losos (go'shti qizil baliq) uchun pichoq.
20. Scraper-knife / qirg'ich pichoq (kurak pichoq).
21. Steak knife / bifshteks uchun pichoq (ko'p holatda tishchalari bo'ladi).
22. Table knife / stol pichog'i.
23. Tomato knife / pomidorlar uchun pichoq.

Ingliz tilida knife/pichoq so'ziga ma'nodosh sifatida “cucumber slicer” / “bodringlarni kesish uchun pichoq”, “fish slicer” / “baliqlarni bo'laklash uchun pichoq” kabi murakkab so'z birikmali nominatsiyalar tarkibida uchraydigan, “an

instrument specially adapted for slicing" / "ingichka qatlam, bo'laklarga bo'lish uchun maxsus pichoq" ma'nosidagi slicer, "food chopper"/"mahsulotlarni kesish uchun pichoq", "meat chopper"/ "go'shtni chopish uchun chopqi, go'sht pichog'i" murakkab so'z birikmali nominatsiyalar tarkibida uchraydigan "a butcher's cleaver" / qassob pichog'i, chopqi" chopper, "a heavy knife or long-bladed hatchet" / "katta pichoq, chopqi", "a butcher's chopper for cutting up carcasses" / "qassob pichog'i" ma'nosidagi cleaver, "apple corer" / "olma mevasi yadrosini olib tashlash uchun pichoq" nominatsiyasidagi "a knife to take out the core of fruit" / "mevalarning yadrosini olib tashlash uchun pichoq" semantikasiga ega bo'lgan corer so'zlari ham uchraydi.

Inglizlar ikra uchun qoshiq va pichoqni "caviar cutlery" nominatsiyasi bilan ataydilar. Bu nominatsiya tarkibidagi cutlery leksemasi "instruments used for cutting"/ "pichoq buyumlar" sifatida izohlanadi.

Pichoq qadimda Buyuk Britaniya aholisi uchun vilka (sanchqi) vazifasini bajarganligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Doktor Madlen Pelsner Kosmannik fikricha, O'rta asrlarda Angliyada har bir mehmon mehmondorchilikka o'z pichog'i bilan tashrif buyurishi kerak bo'lgan. Ular taomni pichoq bilan kesib, pichoq bilan yeyishgan. Ikkinchi oshxona anjomi qoshiq hisoblangan. Insonlar qoshiqlardan vilka (sanchqi)lardan paydo bo'lishdan ancha oldin foydalanganlar. Spoon/qoshiq so'zi anglo-sakson o'zagiga borib taqaladi. Spoon leksemasi tarkibidagi sport "parcha" yoki "bo'lak" ma'nosini anglatadi, chunki birinchi qoshiqlar yog'ochdan o'yib yasalgan. Qoshiqlar sho'rvalar va pudinglar uchun ishlatilgan. O'tkir pichoq go'sht bo'lagini idishdan ko'tarib olishga xizmat qilgan. Ba'zi holatlarda pichoq go'shtni ovqatlanuvchining og'ziga olib borish uchun ishlatilgan. Ko'p holatlarda go'sht barmoqlar bilan olinib tanovvul qilingan. Shunisi e'tiborga loyiqki, ovqatlanish paytida ba'zi barmoqlar ishlatilmagan. Yog'ga tegizilmagan barmoqlar boshqa idish uchun, shuningdek ba'zi taomlarni sous va ziravorlarga botirish uchun "saqlangan". Idishlar almashtirilgan vaqtda va ovqatlanish tugagandan so'ng qo'llar yuvilgan [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bir leksema misolida, ya'ni pichoq / knife oshxona anjomining paydo bo'lish tarixi, bu leksemalarining etimologiyasi, o'zbek va ingliz tillarida pichoqning turlari, ularning nominatsiyalari, pichoqni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarni ifoda etuvchi so'zlarni har tomonlama tahlil etish tilshunoslikning dolzarb masalalariga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. <https://xn--80aajhqhktebqvcv2c9e6cj.xn--p1ai/chronological-periods>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Yusupov A.Sh O'rta Osiyoda ilk temir davri sak qabilalarining madaniyati // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 483 www.ares.uz – B. 485.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli : 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi « Davlat ilmiy nashriyoti, 3-jild, 2007. – B. 269.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: "Universitet", – 2000. – B. 269.
8. <https://oyina.uz/kiril/teahouse/605>
9. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. Fifth edition. – OXFORD UNIVERSITY PRESS, 1995. – R. 653.



10. Myuller V.K. Bolshoy anglo-russkiy i russko-angliyskiy slovar. 200000 slov i vyrajeniy / V.K.Myuller. – M.:Eksmo, 2007. – S. 335.

11. <https://ukraineclub.net/izbrannoe>

12. Ivanova Ye.V. Strukturno-semanticheskiye i lingvokulturnyye xarakteristiki angloyazychnoy bytovoy leksiki (na materiale leksiko-semanticheskoy grupy «Posuda»): Dis. ... kand. filol. nauk. – Samara, 2011. – S. 183-184.

13. Fabulous Feasts: Medieval Cookery and Ceremony by Madeleine Pelsner Cosman – George Braziller Inc, 1999. – R. 17.

Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва қадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 20.12.2023. Буюртма №4347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)



